



**TIL VA ADABIYOT
TA'LIMI**

"Filologiya va pedagogika"
ilmiy-metodik jurnali
Oliy attestatsiya komissiyasi
Rayosatining 2024-yil 30-noyabrdagi
364/5-qarori bilan
10.00.00 – Filologiya va
13.00.00 – Pedagogika fanlari
bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari
(PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini
chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

**2025-yil
10 (14)-son**

e-ISSN 3060-4885

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI**

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
МИНИСТЕРСТВА ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

**ФИЛОЛОГИЯ И
ПЕДАГОГИКА**

**PHILOLOGY AND
PEDAGOGY**

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL
ELECTRONIC JOURNAL OF THE
MINISTRY OF PRESCHOOL AND
SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN



Ushbu son

"Qo'l", "Og'ri" hikoyalari
va "Ur, to'qmoq"
ertagining qiyosiy
tahlili

**4
bet**

"Xuastuanift" asarida
samoviy kultlar va ularga
oid tushunchalar

**37
bet**

Ona tili darslarida
muammoli
ta'lim metodidan
foydalanish

**78
bet**

Критическое мышление
в профессиональной
подготовке студентов-
филологов

**122
bet**



TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan 2024-yil
19-avgustda 360240-raqami
bilan davlat ro'yxatidan
o'tkazilgan.

2025-yil
10 (14)-son
e-ISSN 3060-4885

MAS'UL MUHARRIR
Shahobiddin Rasulov

MUHARRIRLAR:
Nargiza Sotvoldiyeva
Emma Torosyan
Shaxina Muxamedjanova
Muxlisa Do'stmuhamedova

SAHIFALOVCHI
Gulnoza Valiyeva

Tahririyat manzili:
100011, Toshkent shahri
Navoiy ko'chasi 30-uy.
Telefon: (55) 510-28-44,
(77) 358-57-67
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Materiallar
@FilologiyaPedagogikaBot
orqali qabul qilinadi.

Elektron jurnal 15.10.2025 da
nashr etildi.

MUASSIS
O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi
"Til va adabiyot ta'limi"
davlat korxonasi

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

TAHRIR HAY'ATI:

E'zozxon Karimova

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

Farhod Boqiyev

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o'rinbosari

Azizbek Turdiyev

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o'rinbosari

Farrux Jabborov

*"Til va adabiyot ta'limi" – "Преподавание языка и литературы" –
"Language and literature teaching" jurnali bosh muharriri*

10.00.00 – FILOLOGIYA

Baxtiyor Mengliyev

*Toshkent Amaliy fanlar universiteti
tadqiqotchi-professori,
filologiya fanlari doktori*

Baxtiyor Doniyorov

*Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti Nurafshon filiali
professori, filologiya fanlari doktori*

Anatoliy Lixodzievskiy

*O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti professori,
filologiya fanlari doktori*

Oksana Gibraltarskaya

*O'zbekiston Milliy universiteti
professori, filologiya fanlari doktori*

Sherzod Atamuradov

*filologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori*

Ranusha Atayeva

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat
xavfsizligi universiteti katta
o'qituvchisi, filologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori*

Mohichexra Boltayeva

*O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori*

Muxtarbay Kurbanov

*Nukus davlat pedagogika instituti
dotsenti, filologiya fanlari doktori*

Iroda Nasimova

*O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti
katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Dilmurod Teshaboyev

*Farg'ona davlat universiteti boshlang'ich
ta'lim uslubiyati kafedrası dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Qozoqboy Yo'ldoshev

*Toshkent Amaliy fanlar universiteti
professori, pedagogika fanlari doktori*

Gulnora Mansurova

*Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti dotsenti,
falsafa fanlari doktori*

Xadicha Muxitdinova

*O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori*

G'ofir Hamroyev

*Toshkent Amaliy fanlar universiteti
tadqiqotchi-professori,
pedagogika fanlari doktori*

Sevara Ziyayeva

*O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti dotsenti,
filologiya fanlari doktori*

Indira Narkulova

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat
xavfsizligi universiteti katta o'qituvchisi,
pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori*

Abduvali Daminov

*O'zbekiston Milliy universiteti
ijtimoiy fanlar fakulteti huquqiy fanlar
kafedrası katta o'qituvchisi*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining
2024-yil 30-noyabrda 364/5-qarori bilan 10.00.00 – Filologiya va 13.00.00 – Pedagogika fanlari bo'yicha
doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashr.*

M U N D A R I J A

10.00.00 – FILOLOGIYA

Dilobar Nomozova. “Qo‘l”, “Og‘ri” hikoyalari va “Ur, to‘qmoq” ertagining qiyosiy tahlili	4
Aslam Usmonov. Nutqiy muloqot jarayonida kulgi uyg‘otuvchi birliklarning pragmatistik xususiyatlari	8
Akbar Jumanov. Tilga e‘tibor – elga e‘tibor	10
Asliddin Ismatov. Ertak janrining strukturaviy xususiyatlari	13
Mumtozbeqim Axmadjonova. Boburiylar davrida Hindistondagi turkiy adabiy muhit	14
Guljamal Saparbaeva. “Ersayim” dostonining tili va uslubi	16
Ellora Isaqova. Qadimiy dostonning yangi ohangi	18
Zarina Jalilova. Xurshid Do‘stmuhammad hikoyalarida qahramon psixologiyasi	20
Aziza Mahmatova. Navoiy lirikasida turkiy poeziya tajribasi	22
Dilnoza Dadaboeva. O‘zbek adabiyotshunosligida shaxs erkinligining talqini	24
Madina Turdimatova. Intended Meaning of Irony in the Process of Speech Acts	28
Mukammalxon Kosimova. Ish yuritish uslubida qo‘shma gap turlarining qo‘llanilishi	30
Durdona Ahatova. Omon Muxtor hikoyalaridagi qahramonlar olami	32
Ro‘zixol Panjiyeva. Realialarni ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish usullari tipologiyasi	34
Marxabo Qilichova. Sharof Rashidov asarlarida ma‘naviy-axloqiy masalalarning yoritilishi	35
Ozoda Rajabbayeva. “Xuastuanift” asarida samoviy kultlar va ularga oid tushunchalar	37
Maftuna Omonova. Stylistic Features of Texts in the English Language	40
Sharifa Usmonova. Muhammad Alining “Mangu quyosh” romanida portret va xarakter tasvirining uslubiy xususiyatlari	42
Umida Usmonova. Nutqiy aktlarning pragmatik samaradorligi (ingliz va o‘zbek tillaridagi publitsistik matnlar misolida)	44
Khulkar Khamrayeva. Dilnavoz Khamrayeva. Versatile Pages of Creativity	46
Zarnigor Davronova. Badiiy matnda qo‘llangan antroponimlarning kognitiv-semantik, funksional-uslubiy tahlili	48
Shaxobiddin Musayev. Davlat tiliga doir siyosatni yoritishda badiiy-publitsistik janrlardan foydalanishning afzalliklari	50
Ilyos Nuraliyev. Hunarmandchilikka oid realialarning frazeologik xususiyatlari	52
Diloram Fattakhova. Linguistic features of uzbek figurative language	54
Nilufar Hayitova. Hamid Olimjon ijodida ilm va nafasat uyg‘unligi	57
Maftunabonu Xoljorayeva. Ijtimoiy-siyosiy matnlarni tarjima qilishda lingvopragmatik muammolar	59
Zilola Niyazova. Badiiy adabiyotni assotsiativ tahlil qilish tamoyillari (Nodir Normatov hikoyalarida assotsiativ tafakkur va badiiy motivlar misolida)	61
Nargiza Xurramova. Ingliz, rus va o‘zbek tillarida atoqli otlar asosida yuzaga kelgan frazeologizmlarning kontekstual tahlili va tarjima muammolar	63
Gulmera Qurbonova. Itlarga oid ingliz maqollarining tarixiy evolutsiyasi va madaniy ahamiyati: o‘zbekcha muqobillari bilan qiyosiy tahlil	65
Malikaxon Nurutdinova. Nodira lirikasidagi ayrim hodisalarning ifodasi	67
Манзура Айсина. Основные положения и научная актуальность концепции словообразования Е.А.Земской	69
Лола Бекмирзаева. Лошадь – сила человека, лошадь – крыло человека (на примере анализа произведений «Прощай, Гусьсары», «Плаха» Ч.Айтматова и «Кўрғонланган ой» Ш.Бутаева)	71
Сайёра Бекмурзаева. Художественная деталь как связующее звено между словом и образом	73
Гульрух Бурханова. Лингвокультурологические аспекты комплимента	75
Нигора Вохидова. Музыкальные образы в пьесах А.П.Чехова	76

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Kumush Rajapova. Ona tili darslarida muammoli ta'lim metodidan foydalanish.....	78
Shahlo Zaxiriddinova. Pedagogikaga ixtisoslashgan OTM talabalarining matematika fanida mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda refleksiv tahlil metodlaridan foydalanish.....	81
Gulmira Sattarova. Dunyo tilshunosligida til bilish birinchi darajasining o'rganilishi, unga qo'yilgan talablar.....	83
Sherqo'zi Raxmatov. Pedagogik dasturiy vositalar yordamida talabalarda axborot texnologik bilimlarni shakllantirishning nazariy asoslari.....	86
Shaxnoza Xolmatova. Raqamli pedagogika sharoitida ta'lim jarayonini boshqarish	88
Ruslanjon Mardonov. Talabalarda kreativlik sifatlarining rivojlanganini baholovchi mezonlar	87
Mahmudaxon Sobitova. Vizual yondashuvlar asosida roman janriga oid asarlarni o'qitish usullari	90
Yulduzxon Kulidjanova. Raqamli texnologiyalar orqali talaba kompetensiyasini rivojlantirishda pedagogik nazariy omillarning o'рни.....	93
Nafosat Mirvafoyeva. The Effectiveness of Task-based Language Teaching (TBLT) in Enhancing Critical Thinking and Communicative Competence of Uzbek EFL and ESP Learners	97
Gulbahor Xamidova. Bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarining psixologik nazariyasi	99
Nurkeldi Jarasbayev. Qozoq tilini o'qitish jarayonini modellashtirishda innovatsion yondashuvlar	101
Shahodat Norova. Badiiy matnda sintaktik birliklarning o'рни	103
Joxonmirzo Boboxujayev. Deontologik qarashlarning tarixi va zamonaviy pedagogikadagi ahamiyati	105
Lola Komilova. Badiiy matnni o'qib tushunish va baholashda darajali matnlarning o'рни.....	107
Miyassar Axmedova. Ingliz tilini samarali o'qitishda Abraham Maslovning "ehtiyotlar ierarxiyasi" nazariyasining o'рни.....	110
Mehrinisa Alimjanova. Ingliz tilini o'qitishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish (instagram misolida).....	112
Sitorabegim Muxamedjanova. Tibbiyot ta'limida chet tillaridagi professional muloqotga to'siq bo'layotgan lingvistik va madaniy omillar	114
Gulnoza Rashidova. Tarbiya metodikasining ilmiy-nazariy asoslari va ularni o'rganish	118
Людмила Бабаева. Методические подходы к повышению мотивации студентов на занятиях по русскому языку.....	120
Фируза Урунова. Критическое мышление в профессиональной подготовке студентов-филологов.....	122
Сурайё Хамраходжаева. Роль информационных технологий и искусственного интеллекта в обучении креативному письму на иностранном языке.....	124
Шахида Холматова. Методические подходы к обучению работе с текстами научно-технического содержания.....	127
Максим Чиков. Дияра Зарипова. Спряжение возвратных глаголов несовершенного вида 1-го спряжения в настоящем времени (Практическое занятие на основе разрабатываемой методики для студентов 1-го курса направления образования «Теория и практика перевода (английский язык)»)	129
Yulduzxon Kulidjanova. Akademik litseylarda zamonaviy raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish.....	134
G'iyosjon Shamsiddinov. Ta'lim jarayonida simulyatsion dasturiy vositalardan foydalanishning didaktik imkoniyatlarini oshirish	138
Marxabaxon Mansurova. Adabiyot darslarini tashkil etishda badiiy tahlilning o'рни va asosiy tamoyillari.....	141
Dinara Abduraxmonova. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quvchilarda yozma nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish	143
Сухроб Авезов. Современные модели преобразования речи в текст для русского языка.....	146
Zulfiya Karimova. Rus tilini chet tili sifatida o'qitish jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati.....	147
Dilobar Xoshimova. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining mantiqiy fikrlashini simulyator dasturlari asosida takomillashtirish.....	150
Yo'ldosh Isomiddinov. Fitrat adabiy merosining yoshlarda vatanparvarlikni shakllantirishdagi ahamiyati.....	152
Maftuna Mannapova. CLIL texnologiyasiga asoslangan o'quv jarayonini loyihalashning didaktik tamoyillari	154

Dilobar NOMOZOVA,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
o'zbek adabiyoti ta'limi yo'nalishi doktranti

“QO'L”, “O'G'RI” HIKOYALARI VA “UR, TO'QMOQ” ERTAGINING QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada turli davrlarda yaratilgan uchta adabiy asar – Nazar Eshonqulning “Qo'l”, Abdulla Qahhorning “O'g'ri” hikoyalari hamda o'zbek xalq ertagi “Ur, to'qmoq” qiyosiy tahlil etilgan. Asosiy e'tibor qahramonlar holati, ruhiy kechinmalari, jamiyatdagi o'rni va o'g'rilik motivining badiiy talqiniga qaratilgan. Asarlar orqali insoniy qadriyatlar, ma'naviy tanazzul, nafs, adolatsizlik hamda xalq og'zaki ijodining ramziy qatlamlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ramziy obraz, Salom tegirmonchi, Qobil bobo, nafs, Sizif afsonasi, uslub, ruh qushi.

Annotation. The article presents a comparative analysis of three literary works created in different periods: Nazar Eshonqul's “Qo'l”, Abdulla Qahhor's “O'g'ri” (Thief), and the Uzbek folk tale “Ur to'qmoq” (Beat, Stick). The main focus is on the psychological state of the characters, their inner experiences, social status, as well as the artistic interpretation of the theft motif. Through the analysis of works, key human values, spiritual degradation, lust, social injustice, and symbolic levels of oral folk art are revealed.

Keywords: symbolic image, Salom the miller, Grandfather Qobil, ego, the myth of Sisyphus, style, the bird of the soul.

Аннотация. В статье представлен сравнительный анализ трёх литературных произведений, созданных в разные периоды: рассказов Назара Эшонкула «Кўл» («Раб»), Абдуллы Каххара «Ўғри» («Вор») и узбекской народной сказки «Ур, тўқмоқ» («Бей, дубинка»). Основное внимание сосредоточено на психологическом состоянии персонажей, их внутренних переживаниях, социальном положении, а также на художественной интерпретации мотива воровства. Через анализ произведений раскрываются ключевые человеческие ценности, духовная деградация, похоть, социальная несправедливость и символические уровни устного народного творчества.

Ключевые слова: символический образ, Салом мельник, Дедушка Кобил, эго, миф о Сизифе, стиль, птица души.

Nazar Eshonqul modernistik asarlari bilan o'zbek nasriga munosib hissa qo'shayotgan ijodkor. Yozuvchi asarlarida tasvirlangan ramziy obrazlarning turfa xil ma'no ifodalay oladi. “Qo'l” hikoyasi shunday badiiy yaratilardan biridir. “Badiiy asarda akslangan badiiy voqelik ijodkor tomonidan ko'rilgan, uning ideali asosida qayta ishlangan va g'oyaviy-hissiy baholangan voqelik ekan, demak, badiiy asar mazmuni ijodkor dunyoqarashi bilan bog'liq bo'ladi” [7]. Ijodkorning qalami o'tkir bo'lishida Olloh yuqtirgan iste'dod bilan bir qatorda, hayotni sinchkovlik bilan taftish etishi, o'qigan badiiy asarlari, tarjimalari ham ahamiyatga ega. Professor B. Xoliqov Nazar Eshonqul ijodini o'rganish orqali Yevropa va Lotin Amerikasi davlatlari yozuvchilarining asarlarini teranroq anglashimizni ta'kidlaydi. Darhaqiqat, yozuvchi asarlari va argentinalik yozuvchi X.Kortasar asarlaridagi kabi mistika unsurlarini mohirona qo'llashda uyg'unlik ko'zga tashlanadi. Lekin har bir millat o'z bulog'idan suv ichganidek, mistik yo'nalishning yuzaga kelishida ham xalq og'zaki ijodi, afsona, mif, ertaklarning tutgan o'rni beqiyos.

Yuqorida aytib o'tganimiz, Nazar Eshonqulning “Qo'l” hikoyasi bosh qahramonlaridan biri Salom tegirmonchi. Gohida ro'zg'ori kattaligi uchun tandirchilik kasbi bilan ham shug'ullanadi. Hikoya personajlaridan biri Panji muallim tili bilan aytganda, ikkalasi ham bir-birini to'ldirib turuvchi kasb, o'zbeklar eng ko'p iste'mol qiladigan ne'mat non bilan bog'liq. Oxirgi vaqtlar Salom tegirmonchining topgani ro'zg'origa yetmay qoldi. Turli taftishlardan so'ng oilasidagi olti jonga hamroh yettinchi qo'lni ham ko'rib turardi. Ammo qo'l egasi yo'q edi. Voqealar tuguni shu yerdan boshlanadi. Yettinchi qo'lni daf qilishga qaratilgan jamiyati a'mollar samarasiz yakun topadi. Hikoya so'nggida

bir to'da qurollangan barzangi yigitlar iskovich iti bilan kelib hamma yoqni kovlab, uyni qulatadilar. Hikoyaning eng so'nggi yakunida egasiz qo'l butun qishloqqa oralagani aytiladi.

Shaklan hikoya oxiri yovuzlik g'alabasi bilan tugaydigan sirli ertakdek taassurot qoldiradi. Egasiz qo'l sehrli ertaklardagi yovuz maxluqni yodga soladi. Chunki mantiqqa tayaniladigan bo'linsa, hayotda bunday qo'lni uchratib bo'lmaydi. Shuning uchun egasiz qo'lni ramziy obraz sifatida nafs deya talqin qilishimiz ham mumkin. Ya'ni, Salom tegirmonchining atrofidagi qorin g'amida yurganlarning nafs. Imom G'azzoliyning “Mukoshafat ul-qulub” asarida nafs xususida shunday deyiladi: “Alloh o'rta qo'ygan axloq asoslariga moslashish va nafsning zavqu-safo orzusini sindirish uchun, nafsing bilan jihad qil! Oz uxla, oz so'yla. Bema'ni gapirmaslik, insonlarga va jonotlarga aziyat bermaslik, oz yemak – bularning bari nafsning havoyi istaklariga g'ov qo'ymoq demakdir” [1: 9]. Hikoya qahramoni yonidagi “xo'jatbaror”lar aynan qorin to'yg'izish, tansiqroq tekin taomga sherik bo'lishga intilishadi.

Salom tandirchi “dardiga shifo” izlab borgan atrofidagi har bir insonning nafs bor. Ularning maqsadi tegirmonchidan yanada ko'proq nimanidir undirish. Hikoyada Keldiyor mulla shunday deydi: “Oxirzamoni shunaqa alomatlari bor deb eshitdim... Egasi yo'q qo'llar, egasi yo'q boshlar, egasi yo'q ko'zlar, egasi yo'q oyoqlar egasini qidirib, osmonda uchib yurarkin”. O'ylab ko'rilsa, har bir tana a'zomizning nafs bor. Ya'ni, birovning rizqini tortib oladigan qo'llar, ilmsizlarga johilona yo'l ko'rsatadigan boshlar, haromdan lazzatlanadigan ko'zlar, notog'ri yo'llardan yuradigan oyoqlar...

Diqqat qaratadigan bo'lsak, Salom obrazi faqatgina qorin g'amida yuradigan johil inson. Oddiygina bir arizani ham o'zi eplab yozolmaydigan, shaxs kimligiga aqli yetmaydigan savodxonligi haminqadar kishi. Bid'atu xurofotlardan qutulolmagan, real vaziyatlarga yechim topa olmay qushnoch, folbin, chalamullalarga yuguradigan omi insonlarning obrazi. Ammo tanganing ikkinchi tomoni ham bor. Tirikchilik domiga o'ralashib qolgan, kambag'al fuqaroning ilm olishga vaqti ham kuchi ham yo'q, muammolarni tiniq fikr bilan bartaraf eta olmaydi. Hikoyadagi Azim rais tandirchini *"mahallaning aksar tirikchilikka o'ralashib qolgan odamlari kabi ruhan charchagan deb o'ylaydi"* jumalari buni isbotlaydi. Buning ustiga Salom tegirmonchi bersang yeyman, ursang o'laman deyidigan tanballar xilidan emas. Qo'lida bir emas, ikki hunari bor. Ammo shu bilan ham juda nochor yashaydi, kosasi oqarmaydi. Buni tegirmonchining uyi tasviridan bilib olamiz: *"Oshxonani hisobga olmasa, ham yotoq, ham mehmonxona, ham darsxona, ham bolalar xonasi vazifasini o'tayotgan ikki xonaning birida sandal o'rnatilgan"*.

A.Kamyuning Sizifga hamohanglik Salom obrazida ko'zga tashlanadi. "Qadimgi yunon qahramoni Sizifning mudom baland tog'ga tosh yumalatib chiqishi, tosh yana pastga yumalab tushganda, uni qayta va qayta tog'ga olib chiqishi, yunon xudolari uni umr bo'yi shu besamar ish bilan shug'ullanishga mahkum etganlari absurd tushunchasining eng yorqin misolidir" [8]. Salom ham ro'zg'or toshini tinimsiz yumalatib cho'qqiga chiqarishga harakat qiladi, ammo "la'natlanganligi" (Salom otasini norozi qilgani uchun ham deb o'ylaydi) qo'lning paydo bo'lishi uni cho'qqidan pastga qulatadi. Ming harakat qilmasin ro'zg'ori obod bo'lmaydi.

Tegirmonchining atrofidagi kimsalar ozroq ilmi bor mulla, mahalla raisi, o'qituvchi, nozirning ahvoli undanda badtar. Ular aslida avomga ham diniy, ham dunyoviy, ham huquqiy, ham moddiy yordam berishi kerak bo'lgan mansab egalari. Hikoyaning tili yengil kinoyalarga boy. Yozuvchi kinoyaviy usulda ularning yaqin tarixlarini ham hikoyada qistirib o'tadi. Biri oldin "gai" xodimi bo'lganligi, jarimaga "choyxona oshi" jazosini qo'llashi, yana biri mahalladagi muhtoj oilalarga ajratilgan pulni "gum" qilib semirib yotgan rais, "o'rus shisha" sini buyurtma qildiradigan nozir. Bu shunchaki bir qishloq misolidagi ko'rinib turgan xalqboshilarning ahvoli. Ammo qishloqdan keyin tuman, viloyat, davlat bor. Ijodkor tasvirlagan egasiz hech narsadan tap tortmaydigan "tarbiyasiz" qo'l aslida muz tog'ining ko'ringan tomoni. Yuqorida turuvchi, xalqning dasturxoniga qo'l uzatuvchi, uning muammolari bilan ishi yo'q nafsiga qul amalparastlar timsoli.

Hikoya so'nggida qo'lning butun qishloqqa oralaganligining sababi ham aslida Salom tegirmonchining atrofida xuddi o'zidek omi, ilmsiz, nochor insonlar yig'ilganligidan darak. Shuningdek shaxsiyatimizga singib ketgan soxtakorlik balosi ham mohirona tasvirlangan. Buni ijodkor *"bir piyola choy ichib keting... odamgarchilik yuzasidan... soxta jilmayib boshini irg'agan bo'ldi, ammo*

ichidan zil ketdi" kabi birikmalar bilan ochiqlaydi. O'zbek hikoyachiligiga tamal toshlarini qo'ygan yozuvchilardan biri Abdulla Qahhorning 1936-yilda yozilgan *"Otning o'limi – itning bayrami"* epigrafi bilan boshlanuvchi "O'g'ri" hikoyasida ham o'g'rilik motivi tasvirlangan.

Ikkala hikoya mavzusi, g'oyasida o'xshash jihatlar mavjud. "Qo'l" hikoyasi 2017-yili "Yoshlik" jurnalida chop etilgan. Oradan qariyb 80 yil vaqt o'tmoqda. Ammo hikoya qahramonlari dunyoqarashida o'sish, o'zgarish deyarli sezilmaydi. "O'g'ri" hikoyasi qahramoni ham ismi-jismiga monand yuvoshgina, kim nima maslahat bersa qilaveradigan ilmsiz Qobil bobo. O'g'rini topish ilinjida boshlangan "ber-ber"lar, oxiri ro'zg'orning bor-budini sovurish bilan tugaydi. Qobil boboning atrofidagi amaldor kimsalar ham faqat o'z qorni g'amida.

Ikkala hikoyadagi ayollar obrazi ya'ni Salom tegirmonchining xotini va Qobil boboning ayoli tasvirida ham o'xshashliklar bor. Yozuvchilar ayollarga ism bermaydi. Xotini, kampiri deb ataydi. Ikkala ayol ham boshiga mushkul vaziyat tushganda ilk chorani qushnoch, azayimxon, folbinlardan izlaydi. Bu obrazlar orqali adiblar jamiyatdagi illatlarga oyna tutadi. Salom tegirmonchini shug'ullanadigan kasbi tandirchilik, tegirmonchilik to'rt nafar yosh bolalari bor. Qobil boboning farzandlari hikoyada tasvirlanmaydi. Kasbi dehqon va buni hikoya so'nggida bilib olamiz. Yosh jihatidan ikkala qahramon farqli. Ikkala hikoyaning sujeti o'g'rilikni bilish orqali boshlanadi. "Qo'l" hikoyasida o'g'rini topish biroz taftishlardan so'ng boshlansa, "O'g'ri"da boshlanishidanoq, o'g'rilik sodir bo'lganligi anglashiladi. Shuningdek, ikkala hikoyada yon-atrofdagi insonlar tasviri ham deyarli o'xshash, birorta qo'ni-qo'shni, qarindosh-urug' hikoya qahramonlarini behuda bor-budini sovurishdan qaytarmaydi. Aksincha qo'llab-quvvatlaydi yoki o'zlarini chetga olib tomoshabin bo'lib turishadi. *"Yuzta tuxum qo'ni-qo'shni, yor-biroadarlar o'zaro yig'ib berdi"* ("O'g'ri"). O'zlarining boshiga shunday tashvish tushganda hikoya qahramonlarining yo'lini tutadi. *"Bizga yordam bermasangiz bo'lmaydi, siz ko'pni ko'rgan odamsiz... yana og'zingizda ilmingiz bor... qolavesa siz bularni oldindan bilgansiz..."* ("Qo'l") Shuningdek hikoyalarda avom xalqqa bepisandlik bilan qarovchi "nozir", "ellikboshi", "amin" obrazlari ham ustalik bilan tasvirlangan. "Qo'l" hikoyasida nozirning mastligida aytgan iqrori keladi: *"uchinchi shishada nozir tandirchining yuzidan o'pib, "buning-ku qo'li ko'rinib turibdi, umuman, o'zi yo'q jinoyatchilarni ham tavbasiga tayantiradiganlar bor"ligini aytib maqtana boshladi"*. Jumladan anglashiladiki, hikoyadagi nozir qilmagan gunohini ham aybsizlarning bo'yniga ila oladigan kuchga ega.

Bilamizki, badiiy asarlarda ilk va so'nngi jumlar ma'lum poetik vazifa bajaradi. "So'nggi jumlada badiiy asar kompozitsiyasining yalpi garmoniyasi oydinlashadi"[2]. "O'g'ri" hikoyasi kinoya-jumla bilan, "Qo'l" hikoyasi kulminatsiya-jumla bilan yakunlanadi [2]. Ya'ni Qobil bobodan farqli ravishda Salom tegirmonchi ruhiyatida o'zgarish sodir bo'ldi. U najotni tashqaridan behuda

izlashni to'xtatdi. *“U endi qo'l haqida hech kimga gapirmas, intervyu ham bermas, kelganlarni hovliga kiritmasdi ham”*. Ikkala hikoyaning g'oyasi mushtarak bo'lsa-da, tili farqli. A.Qahhor hikoyasida oz so'zda ko'p ma'no aks ettirish, maqollardan foydalanish, iboralar, achchiq kinoya ustuvor bo'lsa, N.Eshonqul asarida aksincha, o'ziga xos murakkab qurilmali gaplar, noodatiy o'xshatishlar, yengil kinoya hikoya bezagi bo'lib, uslubini shakllantiradi.

Yuqorida “Qo'l” hikoyasini shaklan sehrli ertaklarga o'xshatgan edik. Xalq og'zaki ijodining boy sandig'ida ertaklar munosib o'ringa ega. Yuqoridagi hikoyalarda tasvirlangan o'g'irlik motivi ko'pgina ertaklarda uchraydi. Xususan, sehrli ertaklar sirasiga kiruvchi “Ur, to'qmoq” ertagidagi g'oyani hikoyalar bilan taqqoslaymiz.

Ertaklar xuddi yosh bolalarga aytiladigan jo'n mazmunli epik asar sifatida ko'rilsa-da, aslida ramzlar vositasida ming yillik xalqning turmush tarzi, orzu-armonlari, qo'rquvlari, tajribalarini o'zida mujassam etadi. “Uning asosida qabilaviy e'tiqod, magiya, tabu bilan bog'liq urf-odatlar, animizm, totemizm, fetishizm kabi e'tiqodiy qarashlar feodal-jamoa, matriarxat, feodal-patriarxal munosabat, qonun-qoidalarga aloqador voqea va hodisalar yotadi” [3]. Shuningdek, ertaklarda takrorlanuvchi ko'chib yuruvchi motivlar mavjud. “Ur, to'qmoq” ertagida ham o'g'irlik motivi bor. Motivlarning hayotiy haqiqat bilan bog'liq holda yuzaga kelishi haqida A.N.Veselovskiy shunday yozadi: “Motivni oddiy hikoyaning bir bo'lagi, ibtidoiy kuzatishning turli savollarga obrazli javobi deb bilaman” [3]. Ya'ni ertakdagi hech bir obraz, motiv shunchaki ermak uchun o'ylab topilmagan. Ramziy obrazlarga xalqning orzu-umidlari, da'vatlari singdirilgan. Bu haqida folklorshunos olim Sh.Turdimov shunday yozadi: “Har qanday ertak ma'lum bir voqea, hodisadan hikoya qiladi. Asar bayonidan anglangan mazmun bir sath bo'lsa, uning tub mag'zida boshqa ramziy, timsoliy ma'nolar ham turadi” [10]. Olim ta'kidlaydiki, ertaklarning bolalarga aytilishiga sabab ularda cheksiz hayrat tuyg'usi olovlanib turadi. Ular ertaklarning ramzini to'laqonli tushuna olmasligi mumkin, ammo ongostida qulflangan xazina bo'lib saqlanadi. Ertakning ramz va timsollari alifbodek bola aqliga “Uyg'on” deb qo'ng'iroq chaladi. Bola ulg'ayib, ertak kodlarini o'nglab, bildirgan bilimlarga oshno bo'lsa, shu vositalar ko'magida manzilga adashmay yo'l oladi” [10].

“Ur to'qmoq” ertagidagi bosh qahramonlar ovchilik bilan kun kechiruvchi chol va kampir. Bir kuni tuzog'iga laylaklar sultoni tushib qoladi. Qo'yib yuborishi evaziga istagan narsasini berishini aytadi. Turli sarguzashtlardan so'ng chol laylakning “Qaynar xumcha”, “Ochil dasturxon”, “Ur, to'qmoq” sovg'alariga ega bo'ladi.

Sujetida “ochil dasturxon”, “qaynar xumcha” qatnashgan ertaklarga e'tibor qilinsa, unga yondosh “ur, to'qmoq” ham doimiy parallel keltirilishi kuzatiladi. Chunki “ochil dasturxon”, “qaynar xumcha” detallari qatiga xalqning abadiy to'kin-sochinlik, to'q va farovon, baxtiyor turmush haqidagi orzu-havaslarini singdirilgan. Ularda ming yillik sirlar yashiringan. Bilamizki, turkiy xalqlarning

yigitlari-yu qizlari qadimda jangovar, qo'rqmas, kamonchi, qasoskorlar bo'lishgan. Ular hech qachon dushmanga bo'yin egmagan, do'st-u yaqinlarining boshiga kulfat tushganda tomoshabin bo'lib turmagan. Ko'chmanchilik bilan kun kechirishgan va chorvachilik orqasidan to'q farovon yashashgan. Cholning ovchi sifatida tasvirlangani ham ertak sujeti genezisi juda qadimga borib yetishidan darak. O'zbek xalqining mehmondo'stlik qadriyati ham azaldan shakllangan. Ertakni talqin qilsak, qadimda kishilarning mehmonlar uchun “Ochil dasturxon”i ham, ro'zg'orini ta'minlash uchun yetarali “qaynar xumcha”si ham bo'lgan. Ammo yot-begona biror narsasiga daxl qiladigan bo'lsa, albatta, “ur, to'qmoq”i jazolagan. “Ur, to'qmoq” kinoyaviy timsol sifatida gavdalanadi. U orqali tekinxo'r kimsalarning, o'g'ri-yu qallob aldamchilarning, munofiq va zolim shohlarning qattiq, ayovsiz jazolanishi aytiladi [9]. Ertakda cholning narsalarini o'g'rilaganlar bolalar sifatida tasvirlangan. Ya'ni, bolalar biror gunoh ish qilib qo'ysa, ularni qattiq ayblab bo'lmaydi, ular shu orqali hayotni anglaydi. Ya'ni ko'p hollarda bilmagani, tajribasi kamligi sababli adashadi. Jazo – eng so'nggi chora. Ertakda ham xuddi shunday tasvirlanadi. Shu o'rinda xalqimizning tolerantligi, insonparvarligi, ko'ngli ochiqligi ham namoyon bo'ladi. Ya'ni gunoh qilgan kishilarga ham shafqat, odamiylik nuqtayi nazaridan yondashadi, shu bilan birga, vaqtida jazolaydi ham. “Ertaklar sujetiga ur to'qmoq timsolining kirib kelishiga aslida jamiyat hayotida, kishilar o'rtasida antagonistik munosabatlarning keskinlashishi, zulm-zo'raonlikning kuchayishi, adolatsizlik va nohaqlikning ortishi hamda dualistik-mifologik tasavvurlar sabab bo'lgan [9].

Ertaklarda hudud uchga taqsimlanadi: 1. Ko'k (yuqori olam). 2. Yer (o'rta olam). 3. Yerosti (quyi olam). E.M.Melitinskiy mif va ertakdagi uch olam tushunchasini izohlar ekan, shunday yozadi: Zamin quyidan suvga, yuqoridan ko'kka qarama-qarshi turadi. V.Y.Propp qahramonga tarafdor kuchlarni yuqori, Zarar keltiruvchilarni quyi olamga joylashtiradi: Ayrim xalqlarda ikki olam konsepsiyasi asosida uch olam haqidagi tasavvur yuzaga kelgan. O'zga dunyo qahramonning ezgu homiylari yashaydigan yuqori olam va uning raqiblari makon etgan quyi olamga bo'linadi. O'rta olamda esa odamlar yashaydi, qahramonning o'zi ham shu makonga xos [6].

“Ur, to'qmoq” ertagidagi laylakvoy yuqori olam vakili. Ya'ni homiy obraz. Cholni qilgan yaxshiligi evaziga xazinalar bilan mukofotlaydi. “Qushlar jahon xalqlari mifologiyasida katta ahamiyatga ega bo'lib, voqealar jarayonida birdaniga paydo bo'luvchi, qahramonlarga yordam beruvchi va vaziyatni keskin o'zgartiruvchi unsur sifatida e'tirof etiladi. Ular asosan ilohiyot bilan odamlarning o'rtasidagi ko'prik sifatida yuksaklik va osmon ramzi timsolida talqin qilingan. Qushlar timsoli boshqa ko'pgina xalqlardagi singari turkiy xalqlar mifologiyasida ham ilohiy olam bilan muloqot qiluvchi vosita sifatida ifodalangan” [4: 14]. Ertakdagi laylak obrazini talqin qilsak, u inson ruhiyati bilan bog'liq ramziy obraz. Ya'ni inson

ruhiyatining faoliyati Tangri taoloning izmida. Tana ruh uchun vaqtinchalik jism. Inson ichki ruhiyatining so'ziga quloq tutsa hamma narsaga erisha oladi, boylikka, to'kin-sochinlikka, erkinlikka. Ammo ikkilanish, qo'rquv, aybdorlik hissi ruh qushi uchun tuzoq.

"Ibn Sino "Tayr" qissasida mana shu kabi xalq folklori motivlaridan ta'sirlangan holda insonlarning ruhlarini qushlar shaklida tasvirlaydi. Bu ifoda uning tibbiyotdagi bilimlariga ham asoslangan bo'lishi mumkin. Zero, zamonaviy tibbiyot ham inson ruhining o'limdan keyin qush kabi parvoz qilishini isbotladi" [5].


"Qo'l" va "O'g'ri" hikoyalaridagi bosh qahramonlarning ichki olamidagi homiy ruh qushi tuzoqda ekanligini guvohi bo'lamiz. Bu holatga tushishida o'zi, atrof-muhit, jamiyatning ham hissasi katta ekanligi hikoyalarda aks etgan. Qahramonlar botinidagi teranlik, jasorat, haqiqat uchun kurash va qasoskorlik so'nib qolgan. Uning o'rnini qo'rquv, shubha, mutelik, mushohada yurita olmaslik egallagan. Hikoya qahramonlari o'zi yaratilgan davr kishilarining holatini birmuncha aks ettiradi.

Yuqoridagi uchala asarlarni; obrazlarni, o'g'rilik motivini quyidagi jadvalda qiyoslaymiz:

Asar bosh qahramoni, kasbi	O'g'rilikni amalga oshirgan ramziy ifoda	Nima o'g'rilangani	O'g'rilikdan keyingi qahramonlarning moddiy va ma'naviy holati	Asar janri
Salom tegirmonchi, tandirchi	ko'rinmas qo'l (ochko'z mansabdorlar)	oilasining rizqi	Bor-budini yo'qotdi, yanada kambag'allashdi, atrofda yordam kutishni to'xtatdi.	hikoya (Modernistik, fantastik jihatlar bor)
Qobil bobo dehqon	Kimligi noma'lum (jamiyat).	ho'kiz	Bor-budini yo'qotdi, yanada kambag'allashdi. Haliyam atrofdagilardan umidvor.	hikoya (realizm)
Ovchi chol	bolalar (to'g'ri yo'ldan adashganlar)	dasturxon, qaynar xumcha, to'qmoq	O'g'rilarni jazoladi, hamma narsasini qaytarib oldi, o'z yurtiga xon bo'ldi, boyib ketdi.	ertak (sehrli)

Yuqorida bir-biridan farqli davrlarda, muhitda, jamiyatda yartilgan uch asar tahlilga tortildi. Har bir asar o'z davri kishilarining xarakter-holati, tutumi, yashash tarzini aks ettiradi. Asarlarning qahramonlari xarakter-holati, ruhiyatining zamonlar o'tishi bilan yuksalmaganligi, ko'tarilmaganligi, aksincha, tubanlikka yuz tutganligi anglashiladi. Bir so'z bilan aytganda,

Qobil bobo va Salom tegirmonchi – "ur, to'qmoq"ni yo'qotgan, "ruh qushi" tutqun qahramonlar. Bunga sabablar mustamlakachilik, faqat o'z nafsini o'ylash, mansab egalari oldida ichki qo'rquv, bid'atlar, ilmsizlik kabilar deyishimiz mumkin. Quyida asar qahramonlari ahvolining yuqoridan quyiga tomon o'zgarishi tasvirlangan.



“Qo'l” va “O'g'ri” hikoyalari yaratilgan muddatdagi farq yuqorida ta'kidlaganimizdek, qariyb 80 yil. “Ur, to'qmoq” ertagining genezisi esa judayam qadimga borib taqaladi. Ammo o'g'rilik sodir bo'lganda bosh qahramonlar Salom tegirmonchi, Qobil bobo va ovchi cholning xatti-harakatida, holatida, o'g'rilikni taftishida bir-biriga o'xshash jihatlar bor. Bu esa keng qamrovli vaqtda jamiyatda, insonlar ma'naviyati tafakkurida sodir bo'lgan o'zgarishlarni aniqlash imkonini beradi. Uchala qahramon ham eng quyi qatlam vakili. Qobil bobo ilk o'g'rilikka duch kelgan vaqtda qo'rquvga, Salom tegirmonchi avval taajjubga, keyin g'azabga tushadi. Qobil boboga yon-arofidagilar yordam qo'lini uzatadi, o'zlarini chetga tortmaydi (*Yuzta tuxumni qo'ni-qo'shni, yor-birodarlar o'zaro yig'ib berdi*). “Ur, to'qmoq” ertagida cholga duch kelgan yilqichilar kerakli to'g'ri maslahat beradi (*Laylakvoy menga sovg'a va'da qilib edi, nima so'ray degan ekan, yilqichi bunday debdi: Laylakvoyning bir xumchasi bor, “qayna, xumcha” desa, tilla qaynab chiqadi, shu xumchani so'ra, – debdi*). Ammo Salom tegirmonchining yon-atrofida kimsalar nimanidir ilinjida, payida. Salomning og'ir ahvolidan ham foydalanib jig'ildonini to'ldirishni o'ylaydi. Hikoyada tilga olingan ozroq ilmi bor deb najot kutilgan amal sohiblarining ayanchli ahvoli jamiyatimizda sodir bo'layotgan ba'zi qora ishlar, poraxo'rlik, yulg'ichlik, huquqiy savodsizlik singarilarga ishoradir. Shukur Xolmirzayevning shunday gaplari bor: “Muammolarning muammosi – odam. Odamni chinakamiga aks ettirar ekansan, uning qilmish-qidirmishlaridan muammolar kelib chiqaveradi. O'sha

muammolarni hal etish esa... Sening ishing emas: uni hayot hal etadi va pirovardi, o'sha hal etilish jarayoni yana adabiyotda aks etishi mumkin”. Ya'ni ikkala hikoya va ertakda jamiyat muammosi, insonlar muammosi aks etgan. Yozuvchilar ikkala hikoyada ham davr muammosini, avom xalqning dardini qalamga olganlar, ammo hal etilish yo'lini emas. Aslida bu ham adabiyotning eng muhim vazifalaridan biridir.

Bugun texnologiyalar, telefonlar, sun'iy intellekt kabilarda rivojlanishning eng yuqori cho'qqisida. Yashaydigan xonadonlarimizning ko'rinishi, qulayligi yuz yil oldingidan yuz marta ortiq. Ammo beixtiyor savol tug'iladi, insonlar ma'naviyati-chi? Odamgarchiligimiz-chi? Taassuflar bo'lsinki, bu jihatimiz yuz yil oldingidan ko'ra pastroqdek, yuksalmagandek. Kishi boshiga tashvish tushsa, atrofida tomshabinlikdan ortig'ini bajarmayotgandek. Ayniqsa, bu jihat “Qo'l” hikoyasida yaqqol namoyon bo'ladi.

Haqiqiy o'g'rilarni jazolash yaqin yuz yil ichida imkonsiz jarayonga aylangan, oddiy xalqning ko'r-ko'rona taftishi samarasizdek taassurot uyg'otadi kishida. Qon-qonimizga singib ketgan mutelik, qo'rquv, xavotir, amaldorlar oldida bo'yin egish mustamlaka davridan beri soyadek hamrohimizga aylangan, hali tark qilolganimiz yo'q. Yuqorida tahlilga tortilgan uch asar aynan shu jihatlari bilan uzoq o'tmishda, yaqin o'tmishda, hozir qanday saviyada ekanligimizni oynadek o'zimizga tutadi. Bugun rivojlanishlar cho'qqisida yashayotgan bo'lsak ham, ovchi cholning qalb qushi laylakvoyi va jazolovchi “ur, to'qmoq”ni hali hamon topa olganimiz yo'q.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Homid G'azzoliy. Mukoshafat-ul qulub. – Toshkent: Adolat, 2002.
2. Hamrayev K. Hikoyada so'nggi jumlaning poetik vazifasi. // Til va adabiyot ta'limi, 2020, №6.
3. Imomov K. O'zbek xalq nasri poetikasi. – Toshkent: Fan, 2008.
4. Mamadaliyeva Z. Lison ut-tayr obrazlari: ramz va majoz olami. – Toshkent: Qaqnus media, 2014.
5. Mamadaliyeva Z. Mumtoz adabiyotda qushlar obrazi. – Toshkent: Sharq yulduzi, 2013.
6. Nazarova Sh. O'zbek xalq ertaklarida sinov motivlarining genezisi va poetikasi: Filol. fan. bo'y. fal. dok. diss... – Toshkent, 2017.
7. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi 2004.
8. Qodirov P. Ma'naviyat, modernizm va absurd. // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2004, №12.
9. Rasulova Z. O'zbek xalq ertaklarida g'aroyib buyumlar: Filol. fan. bo'y. fal. dok. diss... – Toshkent, 2012.
10. Turdimov Sh. Hikmatlar xazinasini. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.

Aslam USMONOV,

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'zbek tilini o'qitish metodikasi kafedrasini dotsent v.b.,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

NUTQIY MULOQOT JARAYONIDA KULGI UYG'OTUVCHI BIRLIKLARNING PRAGMATISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada nutqiy muloqot jarayonida hajviy matnning pragmatik ma'nosi hamda kulgi uyg'otuvchi birliklarning muloqot jarayonidagi funksional-stilistik vazifalari o'rganilgan. Til birliklarining hajviy nutq vaziyatida lokutiv, illokutiv, perlokutiv aktlarni yuzaga keltirishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: hajviy matn, til birliklari, pragmatika, uslub, bo'lak, munosabat.

Annotation. The article examines the pragmatic significance of a humorous text in the process of speech communication and the functional-stylistic functions of units that evoke laughter in the process of speech communication. It has been established that linguistic units form locutionary, illocutionary, and perlocutionary actions in humorous speech situations.

Keywords: comic text, linguistic units, pragmatics, style, part, relation.

Аннотация. В статье исследуется прагматическое значение юмористического текста в процессе речевой коммуникации и функционально-стилистические функции единиц, вызывающих смех в процессе речевой коммуникации. Установлено, что языковые единицы формируют локутивные, иллокутивные и перлокутивные действия в юмористических речевых ситуациях.

Ключевые слова: комический текст, языковые единицы, прагматика, стиль, часть, отношение.

Muloqot – bu ikki yoki undan ortiq kishilarning afektiv baholovchi xarakterda va bilish bo'yicha ma'lumot almashishdan iborat bo'lgan o'zaro ta'sir etishdir. Antropotsentrik paradigmaning asosiy o'rganish obyektlaridan biri muloqot jarayonidir. Muloqot jarayonini nafaqat tilshunoslik, balki psixologiya fani ham o'rganadi [1: 63]. Unga ko'ra, aytilganidek, muloqot – kamida ikki kishining o'zaro ta'sir jarayoni bo'lib, bu ta'sir davomida axborot almashiniladi, munosabat o'rnatiladi va rivojlantiriladi, tugatiladi yoki tuzatiladi [2: 4].

Muloqot tizimida uning o'zaro bir-biriga bog'liq jihatlar ajratiladi: kommunikativ, interaktiv va perseptiv. Muloqotning kommunikativ tomoni deyilganda, uning shaxslararo axborotlar, bilimlar, g'oyalar, fikrlar almashinuvi jarayoni sifatidagi vazifalari nazarda tutiladi. Bu jarayonning asosiy vositasi bo'lib til xizmat qiladi. Til shaxslar o'rtasida aloqa vositasi bo'lib, uning yordamida kishilar bilgan ma'lumot va hokazolarni bir-biriga yetkazadi. Ma'lumki, aloqa vositasi sifatida nutqning asosan 2 turi farqlanadi: yozma nutq hamda og'zaki nutq.

Muloqot paytida, gapirayotganda yoki yozayotganda turli xil birliklardan foydalanamiz. Ehtiyojga ko'ra lisoniy va nolisoiy omillardan foydalanamiz. Ba'zan boshimizdan o'tgan yoki o'zimiz guvoh bo'lgan voqealarni kimgadir aytib beramiz. Tinglovchiga notanish bo'lgan biror kishi yoki joyni batafsil tasvirlab berishga harakat qilamiz. Ba'zan fikrimizni turli dalillar yordamida isbotlashga, izohlashga ehtiyoj sezamiz. Yoxud kimgadir pand-nasihati qilamiz. Uni turli hayotiy voqealar vositasida tarbiyalash yoki aytilganlardan xulosa chiqarishini istaymiz. Muloqot maqsadimiz ba'zan qandaydir informatsiyani tinglovchiga yetkazishga qaratilgan bo'ladi.

Adabiyotshunos Matyoqub Qo'shjonov bir maqolasida hajviy, komik-yumoristik yo'nalish haqida gapirar ekan, jumladan, shunday deydi: "Yozuvchi hajvda har xil uslublardan foydalanishi mumkin. Shu asosda nuqson va kamchiliklarni, hayotda uchrab turadigan illatlarni qavartirib, ayrim joylarda oshirib tasvirlashi, zarur paytlarda noreal situatsiyalardan real xulosalar chiqarib, kamchiliklarni sog'lom nuqtadan turib fosh qila bilishda, hayot bir daryo ekanligini, unga tushib qolgan ba'zi bir xas-cho'plar, shox-shabbalar, shiddatli oqim natijasida paydo bo'lgan yengil ko'piklar uning tagli oqimiga putur yetkazishini anglagan holda ish tutishidir" [3].

Shunday ish tuta olgan ijodkorlar sifatida Hamza Hakimzoda Niyoziy Erkin Vohidov, Said Ahmadlarni ko'rsatish mumkin. Masalan: Erkin Vohidov o'zining "Donishqishloq latifalari", "Hajv daftari", "Tabassum" rukni

ostidagi ijod namunalarida komik-satirik detallar, belgi-chiziqlar hamda beixtiyor kulgi uyg'otadigan birliklarni topib ishlatganki, hayotning salbiy tomonlarini inkor etishda yumoristik muloqot yaratga olgan.

MATMUSA – RASSOM

*Ko'chma muzey kelibdi
Bizning Donishqishloqqa.
Eshitdi-yu Matmusa,
Shoshib qoldi u yoqqa.
Ko'rdi borib mo'ylovdor
Qilich taqqan zotlarni.
U zotlarning ostida
Gijinglagan otlarni.*

*Ayniqsa, deng, ayollar,
Qarab-qarab oldi u.
Boqib ba'zi suratga,
Surat bo'lib qoldi u.*

*Biri-biridan qiziq,
Bir-biridan zo'r, ammo
Abstrakt san'atga
Tushunmadi mutlaqo.*

*Dedi: shu suratga ham
Pul to'lashar, hoynahoy.
Demak, rassom ishi zo'r,
Demak, rassom juda boy.*

*Dedi: san'at kimuchun?
San'at hamma uchunmi?
Men ham endi bu ishda
Sinab ko'ray kuchimni.*

Shoir birgina Matmusa obrazi orqali o'zining yumaristik salohiyatini isbotlay olgan. Erkin Vohidov "Zo'ravon" qisqa she'rida ham yumaristik muloqot namunasini ko'rishimiz mumkin.

*Qoch, chetga o't, yo'l ber yigitga! –
Deya tog'ni tepdi chigirtka*

Erkin Vohidov "Zoravon" she'rining ushbu qatorida kichik bir chigirtkaning harakati orqali insonning hayotdagi o'rni, jamiyatga bo'lgan munosabati va uning ulkan qudrati haqida chuqur falsafiy fikrni yashirgan. Ikkinchi tomondan, o'z kuchini chamalay olmagan kishining noo'rin

chirinishi ifada etilgan. Buni she'r nomidan ham bilish qiyin emas. She'rning nomi hamda yuqorida keltirilgan parcha mazmuni birlashtirilganda har qanday o'quvchida beixtiyor kulgi uyg'onadi. "Zo'ravon" hamda "qoch deya tog'ni tepgan chigirtka". Bunday aktik pragmatik ma'nolar muloqot jarayonida yuzaga keladi.

Biz muloqot jarayonida biror ishni qanday bajarish kerakligi haqida tavsiyalar beramiz yoki biror ishni qilmaslik haqida buyruq beramiz. Maqsadimizga erishish uchun turli ko'rsatma, ta'qiq va xitoblaridan foydalanamiz. Insonlar o'rtasidagi muloqot maqsadi va mazmuni shular bilangina chegaralanib qolmaydi. Inson hissiyotlarini, tuyg'ularini, hayajonlarini, azob va qayg'ularini ifodalash, shu orqali tinglovchi ta'sirlantirishni istaydi [4: 99].

Muloqot jarayonida, u og'zaki yoki yozma bo'lishidan qat'i nazar, inson, shaxslararo munosabatni ta'minlash vazifasidan tashqari, matn yaratish va fikrni uzviy ifodalash vazifalari ro'yobga chiqadi [5: 184]. Nutqiy muloqotda avvalo so'z, so'z birikmasi, fraza, gap, matn muhim rol o'ynaydi. Bularning ma'nolari va ifoda vositalari ijtimoiy holatlarga ko'ra aniqlanadi. Ana shunday hollarda ba'zan bog'lovchilardan foydalanamiz. Bog'lovchilar nutqiy voqelanishi, ifoda imkoniyatlari namoyon qilishi uchun ma'lum bir til birliklarining ta'sirini hamda nutqiy muloqot, nutqiy vaziyatni taqozo qiladi. Negaki, nutqiy muloqot (diskurs) til birliklarining har qanday ko'zga ko'rinmas,

nutqiy aktik ma'nolarni ham yuzaga chiqaruvchi murakkab bir tizimdir [6: 9].

Nutqiy muloqot – so'zlovchi va tinglovchilarning axborotlari, qiziqishlari, qobiliyatlari, bilim, ko'nikma, malakalari lisoniy va nolisoniy vositalar bilan birga ko'p tarkibli, rang-barang pragmatik qiymatga ega ta'sir jarayoni [7: 30].

2-sentabr.

O'qituvchi: "Bolalar, kelinglar, tekshirib ko'ramiz – yozda hech narsani unutmadigizmi?"

O'quvchilar: "Xolajon, siz kimsiz?!"

2-sentabr.

O'qituvchi: "Darslar haqida fikrlaringiz qanday?"

O'quvchilar: "Yoz boshlanishiga 273 kun qoldi!"

Bu muloqot jarayonidan sezish mumkinki o'quvchilar yozgi tatil davomida hattoki USTOZini ham unitib yuborishibdi va dars davomida faqat yozgi tatil haqida uylagan.

Bizning nutqimizda shunday so'z va brikmalar borki, biz ularni deyarli har kuni nutqimizda, kitoblarda, filmlarda va boshqa adabiyotlarda qo'llaymiz, eshitamiz, va o'qiyamiz. Lekin har doim ham ularning ma'nolarini bilvosita tushuntirib bera olmaymiz. Shunday tushunchalardan biri bu "Komizm"dir. Komizm konseptiga odamlarda tabassum, kulgi va quvonch uyg'otuvchi xatti-harakatlar, so'zlar va iboralar, turli xil so'z o'yinlari va rasmlar kabi vositalar kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nurmonov A., Yo'ldoshev B. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. – Toshkent: Sharq, 2001.
2. Muloqot psixologiyasi. – Toshkent, 2003.
3. Qo'shjonov M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2019.
4. Yo'ldoshev M., Muhamedova S., Saparniyazova M. Matn lingvistikasi. – Toshkent, 2020.
5. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
6. Toirova G. Pragmalingvistika. O'quv lug'at. – Toshkent: Akademyashr, 2016.
7. Toirova G. Ko'rsatilgan o'quv lug'at. – Toshkent: Akademyashr, 2016.

Akbar JUMANOV,

Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

TILGA E'TIBOR – ELGA E'TIBOR

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilining tarixiy, madaniy va ma'naviy jihatdan xalq hayotidagi o'rni, uning mustahkamlanib borayotgan davlat tili sifatidagi mavqeyi haqida fikr yuritiladi. Navoiyning barhayot an'alarini XX asr adabiyoti vakillari, jumladan, Erkin Vohidov davom ettirgani asoslab beriladi. Til madaniyatini targ'ib qilish, uni asrash, so'z boyligini kengaytirish va yosh avlodga yetkazish zarurligi g'oyasi ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: tafakkur, maqom, millat, ma'naviyat, ruh, taraqqiyot, badiiyat.

Annotation. In this article, the opinions about the fact that the Uzbek language is a product of centuries-old cultural, spiritual-educational and artistic thinking and potential of our people and its current status are stated. It is shown that the living traditions of Navoi continued in the literature of the 20th century, including the work of Erkin Vahidov.

Keywords: thought, status, nation, spirituality, spirit, development, art.

Аннотация. В данной статье рассматриваются историческая, культурная и духовная роль узбекского языка в жизни народа, его статус в качестве укрепляющегося государственного языка. Обосновано, что вековые традиции Навои были продолжены представителями литературы XX века, в том числе Эркином Вахидовым. Формулируется идея о необходимости популяризации языковой культуры, её сохранения, обогащения словарного запаса и передачи молодому поколению.

Ключевые слова: мысль, статус, нация, духовность, дух, развитие, искусство.

Bebaho milliy qadriyatlarimizdan biri, shubhasiz, ona tilimizdir. Til millat tafakkuri va madaniyatining o'zagidir. Millat ruhi, inson kamolotining ko'zgusi bo'lgan til muqaddas va mo'tabar ne'mat. Hazrat Alisher Navoiy aytgan:

*Insonni so'z ayladi judo hayvondin,
Bilgilki guhari sharifroq yo'q ondin [1: 32].*

Darhaqiqat, til insonni shakllantirgan, uni ma'naviy komillikka boshlagan va tafakkur taraqqiyoti bosqichlariga olib chiqqan tengsiz bir mo'jizadir. Adabiyotimiz faxri Cho'lpon asr boshida "Adabiyot yashasa- millat yashaydi" [2: 6], deb bashorat qilgan edi. Ezgu maqsad va g'oya bilan yo'g'rilgan bu hayotiy fikrni biroq o'zgartib, "Ona tilimiz yashasa-millatimiz kamol topadi" desak ham xato bo'lmaydi. Tiriklik uchun toza havo, quyosh nuri, non-u suv qanchalik hayotiy zarur bo'lsa, millatning yashashi va ravnaq topishini ham ona tilisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Milliy tilning rivoji millat taraqqiyotining asosiy shartlaridan biri. Tilning muqarrar yashashi, sofliги shu tildan foydalanuvchi xalq tafakkuri va milliy o'zligini anglashiga bog'lik ekanı aynı haqiqat. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni va o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun – 21-oktabr sanasining **"O'zbek tili bayrami kuni"** sifatida nishonlanishi mamlakatimizda davlat tilining to'laonli joriy etilishini ta'minlashga qaratilgan. Eng muhimi, O'zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasida o'zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan. Darhaqiqat, bu Qonunning jamiyatimiz va xalqimiz madaniyati va ruhiyati, yosh avlodning ma'naviy kamoloti va dunyoqarashi uchun nechog'lik katta ijtimoiy-siyosiy va tarbiyaviy-estetik ahamiyatga ega ekanligi yillar o'tgan sayin tobora ravshanlashmoqda. Xalqimiz ong-u tafakkuri va ma'naviy taraqqiyotida yangi bir bosqichni boshlab bergan bu hayotbaxsh jarayon misolida hazrat Navoiyning "Tilga e'tibor – elga e'tibor" degan purhikmat satrlarining haqqoniy bir ifodasini ko'rishimiz mumkin. Zero, inson uchun uning vatani, ota-onasi, oilasi qanchalik qadrlı bo'lsa, ona tili ham shu qadar aziz va muqaddasdir.

Modomiki, xalq va millat mavjud ekan, uning tili ham o'sha xalq hayoti va turmush tarziga mos ravishda yashashi va rivojlanishi tabiiydir. Chunonchi, XX asrning dastlabki murakkab davrida o'zbek adabiy tilimizda ro'y bergan sifat o'zgarishlari va tilimizning xalq hayoti va ruhiga tobora yaqinlashib, yanada sodda va ravon bo'lib borganligini ko'ramiz. Bu tarixiy-ilmıy haqiqat yirik adib Pirimqul Qodirovning 2006-yili chop etilgan "Til va el" asarida ham ancha keng yoritilganı keng adabiy jamoatchilik tomonidan e'tirof etildi. Tilimizda yuz bergan ijobiy o'zgarishlarni o'zbek tilining sofliğı va xalqchilligi yo'lida tinimsiz kurashgan adıblarimizdan biri Abdulla Qahhor bundan yarım asr muqaddam chuqur qoniqish bilan shunday ta'kidlagan edi: "Hozirgi adabiyotimizning

darajasi va mahorati kuchini shu kungi va yaqin o'tmishdagi adabiy tilimiz orasidagi tafovutdan ham qiyos qilsa bo'ladi: Furqatning 1891-yilda yozgan maktubidan: "Xossa ul siyodatpanohi karim tab' Muhiddin xo'ja qoziykim, holo nomlari qazo devonining debochasig'a tug'rodur, tabiatlari fazilat ahlig'a moyil ermish bir do'st vositasi birla shinosolig' muyassar bo'ldi" [3: 84]. Bugungi adabiy til va uslubimizdan, qolaversa, jonli og'zaki so'zlashuv nutqimizdan ham butunlay farq qiluvchi bunday kitobiy so'z va jumlarlar murakkabligidan tashqari arab va fors tillaridan bexabar kitobxonlar, ayniqsa, o'quvchi yoshlar uchun deyarli tushunarsizdir. Bunday hollarda "O'zbek tilining izohli lug'at"idan va yordamchi qo'llanmalardan foydalanishga ehtiyoj sezilishi tabiiy.

O'zbek tili xalqimizning ko'p asrlik madaniy, ma'naviy-ma'rifiy va badiiy tafakkuri, ilmiy salohiyatining mahsuli ekanligi va hozirgi kundagi tutgan o'rni xususida fikr yuritish millat tafakkuri, xalqimiz ma'naviyati va madaniyati haqida hamda tilimizning jamiyat hayotidagi maqomi va nufuzi haqida mulohaza yuritish demakdir. Yurtimizda 1989-yil 21-oktabrda millatparvar insonlarning jiddiy sa'y-harakatlari natijasi o'laroq, xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan va kurashib kelgan ona tilimizga Davlat tili maqomi berildi. Bu tarixiy voqea xalqimizning milliy mustaqillikka erishish yo'lidagi muhim qadamlaridan biri bo'lgan edi. Istiqloл yillarida mamlakatimizda barcha sohalarda bo'lgani kabi tilimiz taraqqiyotida ham muhim ijobiy o'zgarishlar yuz berdi.

O'zbek tilimizning xalqaro miqyosda obro'si oshmoqda. "Davlat tili haqida"gi qonun ona tilimizning bor go'zalligi va jozibasini to'la namoyon etish bilan birga, uni ilmiy asosda go'zalligi va rivojlantirish borasida ham keng imkoniyatlar yaratdi. Olimlar va mutaxassislar tomonidan ilm-fan va turli sohalarga oid ensiklopediya va lug'atlar, darslik va o'quv qo'llanmalari chop etildi. Mumtoz adabiyotimiz namunalari, 80 mingdan ziyod so'z va so'z birikmasini, fan, texnika, sanoat, madaniyat va boshqa sohalarga oid atamalarni hamda shevalarda qo'llaniladigan so'zlarni o'z ichiga olgan besh jildlik "O'zbek tilining izohli lug'ati" bu borada amalga oshirilgan salmoqli ishlarning eng muhim natijalari sanaladi.

O'zbek tili boyligini yaxlit holda tasavvur etish uchun mumtoz adabiyotimiz va adabiy tilimiz yalovbardori Alisher Navoiy ijod olamiga bir nazar tashlaylik. Eng avvalo, ulug' shoir va mutafakkir ona tili ravnaqi uchun ulkan ishlarni amalga oshirganining guvohi bo'lamiz. Navoiy o'zbek tilini bebaho xazina deb baholaydi. U aytganidek, *"Ko'ngil maxzanining qulfi til va qulfnıng kalitin so'z"*. Ya'ni inson qalbining xazinası – til, bu qalb xazinasining kaliti esa so'zdir. Xalq madaniyati, ma'rifati va ma'naviyatining yuksalishida tilning muhim ahamiyati, til bashariyat naslini o'tmish va zamon bilan bog'lovchi timsol ekanligi hamisha Navoiyning diqqat markazida bo'ldi. "Muhokamat-ul lug'atayn" kabi lingvistik asari bilan tilimiz qadr-qimmatini oshirdi, sharq mumtoz adabiyotining hamma janr va turlarida betakror asarlar yaratdi. Bu tilda birinchi chor devon – "Xazoyin ul-

maoniy"ni va betakror "Xamsa"ni yaratdi. Mumtoz badiiy va ilmiy asarlari bilan ona tilimiz mavqeini ko'targan va uni nechog'lik latif va rangin, lug'at boyligi jihatidan ham, ifoda jihatidan ham beqiyosligini faxr bilan ta'kidlagan Navoiy tilimizni nozik gavharg mengzaydi. Darhaqiqat, ona tilimiz o'zbek xalqining ming yillik tafakkuri va tasavvurining bepoyon va cheksiz ekanligidan guvohlik berib turadi. Ayniqsa, Prezidentimizning 2020-yil 19-oktabrdagi "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi va Z.M.Bobur tavalludining 540 yilligiga bag'ishlangan 2023-yil 25-yanvardagi qarorlari mumtoz adabiyotimiz namunalari va ularning tili va badiiy xususiyatlarini chuqur o'rganishni yanada dolzarb vazifa qilib qo'ymoqda.

Buyuk siymolarimiz an'alarini ijodiy davom ettirgan XX asr adabiyoti boshqa davr adabiyotlariga qaraganda ijodkorlarning ko'pligi, mavzularining kengligi bilan e'tiborga loyiq. Bu davrda yaratilgan asarlardan biz o'zbek tilimizning o'lmas, durdona namunalari ko'plab topa olamiz. Mashhur shoir-yozuvchilar va adabiyotshunoslar "Adabiyot – so'z san'ati", "Adabiyot tildan boshlanadi", "Til-adabiyotning asosiy quroli" deb ta'riflashlarida ham chuqur haqiqat ifodalangan. Bu muhim haqiqatni ibratli misol bilan dalillash mumkin. Mumtoz adabiyotimiz sohasida izlanish olib borayotgan yuzlab adib-u tilshunoslar va adabiyotshunoslar ichida O'zbek tilimizga Davlat tili maqomi berilishi jabhasida izchil kurashgan va Navoiyning tengsiz siymo ekanligi, beqiyos ijodi va yuksak san'atkorligi haqida Erkin Vohidov darajasida nuqtadonlik bilan yozgan ijodkor kamdan-kam topiladi. Shoirning so'nggi asari "So'z latofati" buyuk Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asaridan ta'sirlanib va ilhomlanib yozilgani ham ma'naviy hayotimizda quvonchli bir voqeadir.

Ma'lumki, ulug' adib va mutafakkirlar hamisha milliy tillari sofligi va ravnaqi uchun faol kurashib kelganlar va bu bilan ham o'zlarining vatanpar varlik burchlarini ado etganlar. Bu jihatdan Erkin Vohidov ijodi va til saboqlari alohida e'tiborga munosib. Darhaqiqat, unutilgan so'zlari-mizni tiklash, borini boyitib borish, xorijiy atamalarga munosib istilohlar topish faqat tilshunoslarning emas, butun millatning umumxalq ishidir. Tilga mehr-e'tibor ham muqaddas burchimiz. Tilimiz boyligi xalq hayoti va ko'p asrli tarixiy ildizlariga bog'liq. Xalq tili va dilining tarjimoni bo'lgan mutafakkir katta ishonch va g'urur bilan ta'kidlagandi: **"Barcha dedi barobar: "Ona tilim o'lmaydi".**

Ustoz shoirlarimiz aytganidek, ona tili umummillat mulkidir. Demak, til oldidagi ma'suliyat ham umummilliy. Men o'zbekman, degan har bir inson o'zbek tili uchun qayg'urmog'i kerak. Chunki bir millatni yo'qotish uchun uni qirib tashlash shart emas, balki tili va tarixiy xotirasidan judo qilish kifoya ekan. Zotan, adabiyot va she'riyatda millatimiz va xalqimiz hayoti, orzu-umidi, tili va tarixiy xotirasi mujassamdir. Navoiy, Bobur, Mashrab kabi mutafakkir-shoirlarimizning va Qodiriy, Cho'lpon, G'ulom, Oybek, Qahhor, Mirtemir va Erkin Vohidov singari ustoz adiblarimizning boy, rang-barang tili va xalqchil, serjilo

uslubini puxta o'rganishimiz va ulardan so'z tanlash va qo'llash borasida ko'proq saboq olish ma'naviyatimizni ham, nutq va tafakkurimizni ham behad boyitadi. Ammo Erkin Vohidov ta'kidlaganidek, bugungi tanqidchilikda badiiy asarni so'zma-so'z, jumlama-jumla tahlil qilish, shoir yoki yozuvchining zargarlik xislatini o'rganish va nazorat qilish yetishmayapti.

Ayniqsa, buyuk Navoiy ijodi va badiiy-estetik olamidan boshqalardan ko'ra ko'proq oziqlanib, unga beqiyos darajada ixlos va e'tiqod qo'ygan Erkin Vohidov mumtoz she'riyat matnini anglash, undagi so'zlar ma'nolari va fasohatini teran tahlil etish borasida ham yetuk ustoz sifatida gavdalanadi. "Adabiy ijod-hamisha so'z olamiga sayohatdir" deb bilgan Erkin Vohidovning tilimiz sofligi va ma'nodorligi uchun jonbozligi turli shaklda, jumladan, muharrirlik-noshirlik faoliyatida ham yaqqol namoyon bo'lardi. Bu jihatdan ustoz shoirimizning ayrim nashriyotdagi "mutaxassis"larning tilga e'tiborsizligi va chalasavodligini ko'rsatuvchi bir xotirasi xarakterlidir. "Nashriyotda muharrir bo'lib ishlardim. Bir she'riy bayozni bosma xonaga topshirdik. Bir oy o'tib terilgan nusxa – korrektura keldi. Ne ko'z bilan ko'raylikki, biror sahifa bexato yozilmagan. Harf teruvchi hamma she'rlarni o'zi tushungancha "to'g'rilab" chiqqan. **Muzofot** mukofotga, **muxammas** musallasga, **pesha** teshaga aylangan.

Hammasidan qizig'i, bir g'azalxon shoirimizning **"Ne muattarlikki bor, ul mushki anbar din kelur"** degan satrini "mushuk ombordan kelur", deya o'zicha tuzatibdi. O'sha harf teruvchini suhbatga chaqirdik. Xatolarini ko'rsatdik. U esa, uzr aytish o'rniga biz bilan bahs qilishga tushdi. "Mushuk ombordan keladi-da, boshqa qayerdan keladi?" deb turib oldi. Biz so'zlarning ma'nosini chaqib, sodda qilib tushuntirganimizdan keyin ham xatosini bo'yniga olmadi, o'zimizni aybdor qildi. Odamzod tushunadigan qilib yozinglar-da, dedi u bizga va g'olibona qadam tashlab chiqib ketdi. O'shanda biz ijodkorlar, muharrirlar emas, oddiy harf teruvchi ustun chiqdi. Uning aytganlari o'sha zamonning so'zi, davlatning, hokim mafkuraning so'zi edi" [4: 216]. Istiqlolimizdan so'ng mumtoz adabiy merosimizga mafkuraviy nigilistik munosabat va tilimiz tarixi va boyliklariga nisbatan bepisandlik kabi illatlar barham topmoqda. Erksevar va ma'rifatparvar xalqimiz qalbini oftob yanglig' munavvar etib turgan yuk sak ishonch tilimiz, adabiyot va ma'naviyatimiz rivoji yo'lida tog'day tayanch bo'lgan qudratli zaminga-tarixiy haqiqatga asoslangandir". O'zligini angelayotgan butun bir millatning xohish-irodasi va asriy orzularini ifoda etgan tarixiy Farmonlar xalqimiz ong-u tafakkuri, madaniyati va yosh avlod kamoloti uchun nechog'lik katta ijtimoiy-siyosiy va tarbiyaviy-estetik ahamiyatga ega ekanligi yillar o'tgan sari yaqqolroq namoyon bo'lishi shubhasizdir. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, "Bugungi kunda biz yangi O'zbekistonni va yangi Renessans poydevorini barpo etishdek ezgu maqsadlarimizga erishishda, hech shubhasiz, ona tilimizning hayotbaxsh qudratiga tayanamiz". Darhaqiqat, buyuk mutafakkirlar va ulug' ijodkorlarimiz faxr bilan e'tirof

etganidek, tilimizning olmos yanglig' serjilo-serqirraligini, unda eng murakkab, eng teran fikr va nozik his-tuyg'ularni ham haqqoniy ifodalash imkoniyati cheksiz ekanligini ko'rsatib turadi. Albatta, xalqimiz hayoti, boy ma'naviyati va yuksak tafakkurining munavvar ko'zgusi bo'lgan O'zbek

tilimizning bebaho boyligi va beqiyos imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, ularni yuksak qadrlash esa eng avvalo, mustaqil ona-yurtimizga bo'lgan farzandlik burchimiz va mehr-u sadoqatimizga, bilim saviyamiz va nutq madaniyatimizga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. – Toshkent, 2014.
2. Cho'lpon. Adabiyot nadir? – Toshkent, 1998.
3. Abdulla Qahhor. Yoshlar bilan suhbat. – Toshkent, 2017.
4. Vohidov E. So'z latofati. – Toshkent, 2018. – 216 b.

Asliddin ISMATOV,

*Renessans ta'lim universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

ERTAK JANRINING STRUKTURAVIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek xalq ertaklarining strukturaviy xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Ertaklarning boshlang'ich, asosiy va yakuniy qismlari o'rganilib, umumiy va madaniy o'ziga xos tomonlari aniqlanadi.

Kalit so'zlar: ertak janri, strukturaviy xususiyatlar, initsial qism, medial qism, final qism, qiyosiy tahlil.

Annotation. This article provides a comparative analysis of the structural features of English and Uzbek folk tales. The initial, main, and concluding parts of fairy tales are studied, and their common and cultural characteristics are identified.

Keywords: fairy tale genre, structural features, initial part, medial part, concluding part, comparative analysis.

Аннотация. В данной статье проводится сравнительный анализ структурных особенностей английских и узбекских народных сказок. Изучаются начальная, основная и заключительная части сказок, выявляются их общие и культурные особенности.

Ключевые слова: жанр сказки, структурные особенности, начальная часть, медиальная часть, заключительная часть, сравнительный анализ.

Xalq og'zaki ijodini o'rganuvchi olimlarning takidlashlaricha, dunyodagi jamiyki xalqlar og'zaki ijodida bir-biriga eng yaqin janr ertakdir. Shunday ekan, mushtaraklik ularni yagona tizimga bo'ysundiradi. Jahon, xususan, ingliz va o'zbek ertaklaridagi o'xshashlik va mushtarakliklar insoniyat tarixida barcha millat madaniyati baravar rivojlana boshlaganini ko'rsatish bilan bir qatorda, jahon tamaddunida dunyo xalqlari ertaklari bir-birini to'ldirib, kengaytirib borishiniham yaqqol anglatadi.

Ertaklarning tarkibiy qismidagi o'xshashliklar. Jahon xalqlari kabi o'zbek xalq og'zaki ijodida ertaklarning syujet va kompozitsiyasida an'anaviy morfologik holatlarning mavjudligini follorshunos olimlar isbotlagan. Ularning fikricha, tom ma'noda ertak janriga mansub bo'lgan har bir hikoya asosan uch tarkibiy qismdan iboratdir:

1. Ertakning initsial qismi, ya'ni boshlanmasi. Folklorshunoslikda bu qism ko'pincha *zachin* nomi bilan yuritildi.

2. Medial qism. Bu qismda hikoya qilinayotgan voqea to'liq bayoniga ega bo'ladi va ertakning qaysi tasnif turkumiga mansub ekanligini dalillaydi.

3. Final qism, ya'ni ertakning tugallanma qism asosan o'quvchiga qahramonlarning murod-maqsadiga yetishini yetkazishdan iborat bo'ladi [3: 152].

Ertakning initsial qismi odatda zamon, vaqt, makon va asar qahramoni haqidagi dastlabki ma'lumotlarni berishga bag'ishlanadi. O'zbek xalq ertaklarida kirish qism ayrim hollardagina ertak boshlamasiga ulansa, ayrim hollarda o'zicha mustaqil holda qolaveradi.

Boshlama sujet yo'nalishida noaniqlik va umumiylik kasb etadi: "*Bor ekan-da, yo'q ekan. Och ekan-da, to'q ekan. Qadim zamonda bir podsho o'tgan ekan*" [2: 304]. O'zbek xalq ertaklari boshlamalari ko'rinishiga ko'ra uzun yo qisqa bo'lib, voqea-hodisalarning kelajak o'rne va vaqti haqida noaniq, umumiy va mavhum ma'lumot beradi. Ammo ingliz xalq ertaklarida voqealar bayoniga asosiy e'tibor qaratilib kirish qismidagi an'anaviy qoliplardan ko'p ham foydalanilmaydi. Ularda asosan "Once upon a time..." birikmasi orqali ("*Once upon a time there was a poor widow who had only son named Jack...*" - "Jack and the Beanstalk") yoki hech qanday birikmalarsiz asosiy voqelar bayoniga o'tiladi: "*Titty Mouse and Tatty mouse both lived in a house ...*" - "Titty Mouse and Tatty Mouse". Lekin ba'zi hollarda ingliz xalq ertaklarida ayni shu an'anaviy qolipdan chetga chiqilib, ertaklar bir birini takrorlovchi she'riy va nasriy boshlanmaga ega bo'lishadi. Masalan: "The Magpie's Nest" va "The Story of 3 Little Pigs" ertaklari boshlanmasi ko'rinishi va tuzilishi jihatidan bir xil.

*"Once upon a time when pigs spoke rhyme
And monkeys chewed tobacco,
And hens took snuff to make them tough,
And ducks went quack, quack, quack, O!" [1: 285]*

Medialda esa yetishmovchilik, safar, vazifa, raqib taqiq, ta'qib, kurash kabi omillar an'anaviy unsurlar sifatida ishtirok etadi. Final, ya'ni ertakning tugallanma qismi asosan murod-maqсадiga yetishi vazifasidan iborat bo'ladi. Ertaklarning oxirida tugallama keladi, ular ertakning yakuniy qismini ta'riflaydi va hamisha optimistik ruhdagi intiho sifatida xalqning yengilmas ruhi va qudratini namoyish etadi.

O'zbek xalq ertaklaridan farqli ravishda ingliz xalq ertaklarida har doim ham optimistik ruh ufurib turmaydi. Bosh qahramonlar (ayniqsa, agar ular salbiy obrazda bo'lsa) ba'zan murod-maqсадlariga erisholmasligi, hatto o'limga yuz tutishlari mumkin. Masalan "Mr Vinegar" ertagida janob Vinegar yo'lda qo'lga kiritgan barcha narsasini boy beradi, uyga pulsiz, hech vaqosiz qaytib kelishga majbur bo'ladi. "Titty Mouse and Tatty Mouse" ertagida esa ertak qahramonlarining o'limi birgina Tiittyning bexosdan kuyib qolib halok bo'lishidan kelib chiqadi. Ba'zi hollarda esa ertak yakuni noaniq bo'lishi mumkin. Chunki ko'pchilik ertaklarda yakun salbiy qahramonning o'limi yoki undan olingan qasos bilan xarakterlanadi. Lekin "Binnorie" ertagida opa o'z singlini jarlikdan itarib yuboradi, singil cho'kib halok bo'ladi. Uning suyaklaridan va tilla sochidan

arfa yasaladi. Arfachi uni chala boshlaganda singilning bo'lgan voqealarhaqidagi nidosi taraladi. Ammo shu bilan arfa sinib ketadi va ertak yakunlanadi.

Final qism haqida gap ketganda, uning safardan qaytish, to'y, raqibini jazolash, murod-maqсадga yetish kabi tarkibiy qismlaridan iboraligini aytish zarur. Chunki deyarli barcha xalq ertaklaridagi yakuniy qism yuqoridagi qismlar bilan bog'liq bo'ladi. Ammo bu qismda yana bir e'tibor qaratish joiz hodisa borki, ingliz va o'zbek xalq ertaklarida bu bir xil emas. Bu – ertakchining aralashuvi: *"So they married one another, and that was the fine wedding they had, and if I were to be there then, I would not be here now; but I heard it from a birdeen that there was neither cark nor care, sickness nor sorrow, mishap nor misfortune on them till the hour of their death, and may the same be with me, and with us all!" ("Guleesh") [1: 285].*

Ko'rinib turganidek, o'zbek xalq ertaklarida ertakchi ovozi na kirish va na yakunlovchi qismda seziladi, ingliz ertaklarida esa asosan yakunlovchi qismida ertak aytuvchi ko'rinish beradi va bu ko'rinish yaqqol ko'zga tashlanadi. Demak, xalq og'zaki ijodiyotining tarkibiy qismi bo'lmish ertaklar g'oyaviy mohiyatiga ko'ra o'zaro mushtarak bo'lib, ularning hammasida ham xalq hayoti, ruhiyati, orzu-umidlari, shodlik va kulfatlari ifodalanadi. Ularning strukturaviy jihatdan ifodalanishi esa jahon xalq ertaklari aspektida ko'plab mushtarakliklarni keltirib chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. More English fairy tales. Complete Fairy Tales / Ed. Joseph Jacobs, 1894. – 285 p.
2. Uch og'ayni botirlar. O'zbek xalq ertaklari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – 304 b.
3. Пропп В.Я. Морфология сказки. Л.: Academia, 1928.

Mumtozbegim AXMADJONOVA,

O'zbekiston Milliy universiteti 2-bosqich magistranti

BOBURIYLAR DAVRIDA HINDISTONDAGI TURKIY ADABIY MUHIT

Annotatsiya. Ushbu maqolada boburiylar davrida Hindistonda shakllangan turkiy adabiy muhit, uning ijtimoiy-madaniy omillarga ta'siri tahlil etiladi. Bobur va uning vorislari hukmronligi davrida Hindistonga ko'chib borgan ijodkorlar faoliyati, ularning asarlari hamda madaniy hayotdagi o'rne yoritilgan.

Kalit so'zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, Hindiston, turkiyzabon, Xumoyun, Bayramxon, Forig'iy.

Annotation. This article analyzes the Turkic literary environment formed in India during the reign of the Baburids and its influence on socio-cultural factors. The activities of artists who migrated to India during the reign of Babur and his successors, their works, and their role in cultural life are illuminated.

Keywords: Zahiriddin Muhammad Babur, India, Turkish speaking, Khumayun, Bayram Khan, Farigiy.

Аннотация. В данной статье анализируются тюркская литературная среда, сформировавшаяся в Индии в период правления Бабуридов, и ее влияние на социально-культурные факторы. Освещены деятельность художников, переехавших в Индию во время правления Бабура и его преемников, их произведения и роль в культурной жизни.

Ключевые слова: Захириддин Мухаммад Бабура, Индия, тюрко язычный, Хумаюн, Байрамхан, Фаригий.

Jahon turkiy adabiyotida Alisher Navoiydan keyingi o'rinda o'zining olti yuzdan ziyod g'azal, ruboiy, qit'a, tuyuq, fard va masnaviy janrlaridagi ash'orlari bilan Zahiriddin

Muhammad Bobur turadi. Uning asarlari qariyb 500 yildirki, hamon she'riyat muxlislari orasida sevib, ardoqlab o'qiladi. U turkiy she'riyatda sof va nafosatli devon tartib

etdi, nazm yo'lida "Mubayyin" atalmish asarni yaratib, islomiy huquqshunoslikka doir ta'limotning muallifi bo'ldi. Shuningdek, aruz vazni haqida benazir risola yozdi va "Risolai Volidiya"ni tarjima qildi. Uning bequsurlikda yagona hamda sodda uslubda yozilgan "Vaqoye", ya'ni "Boburnoma" asarining qiymati tengsizdir.

Bobur asos solgan, avlodlari esa siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy taraqqiyot manziliga yetkazgan davlatning hind tarixida nima sababdan "mahalliy saltanat" sifatida e'tirof etilgani va Hindistonda boburiylar davlatining qanday shart-sharoitlarda qaror topganini tasavvur qilish uchun bayon ibtidosini, mantiqan, qadim hind davlatchiligi tarixidan boshlagan ma'qul. Faqat shundagina "Buyuk boburiy"lar davlatchiligidan mahalliy muhitga yo'g'rilgan xususiyatlarini to'g'ri anglab yetish mumkin.

Avvalo shuni aytib o'tish kerakki, Hindiston ijtimoiy-ma'naviy holati, xalqning yashash sharoiti nihoyatda og'ir bo'lgan. Javoharlal Neruning "Hindistonning kashf etilishi" kitobida ta'kidlanishicha, qotib qolgan diniy e'tiqod va toshbitgan ijtimoiy tartib ijtimoiy turmushning asosini tashkil qilib, progressni to'xtatib qo'ygan. Mamlakat aholisi ko'p hollarda tashqi dunyodan, boshqa mamlakat, boshqa madaniyatdan ajratib qo'yilgan edi. Shunga qaramasdan, O'rta Osiyodan kelgan Abd ar-Razzoq yozib qoldirgan manbalarga ko'ra, u bu yurtida misdan quyilgan ibodatxonani ko'rgan. Taassurotini esa shunday ta'riflagan: "Bunday shahar bilan tenglashishi mumkin bo'lgan boshqasini biror yerda na ko'z ko'rgan va na quloq eshitgan. Shaharga kiraverishdagi bozorlar peshtoqlar bilan bezatilgan. Lekin shohning saroyi bularning hammasidan ham mahobatli. Aqlni rom qiluvchi bu maskanda tekis va taroshlangan tosh ariqlardan suvlar oqib turadi. Mamlakatning aholisi shu qadar zich joylashganki, uni batafsil tavsiflab berish juda ham mushkul" [3: 40]. Arablar bu yerdagi aholi va mahalliy hokimlar bilan juda yaxshi munosabatda bo'lib, savdo-tijorat faoliyatlari bilan yarimorolning janubiy viloyatlari rivojiga tegishli hissa qo'shganlari hind muarrixlari asarlarida alohida ta'kidlanadi.

Akademik S.Azimjonova Bobur nima sababdan Hindiston sari yurish boshlaganini ortiqcha baxs va munozarasiz, Boburning o'z izohidan olish yo'lini tanlagan: "Bu so'zlar oraga tushubkim, Shayboniixondek yot el va qari dushman jami Temurbek avlodining ilkidagi viloyatqa mutasarraf bo'ldilar. Turk va chig'atoydin har go'sha va kajrda ham kich qolib erdilar, ba'zi rag'bat bila, ba'zi qahr ila o'zbakka payvast bo'ldilar. Bir men Kobulda qolib edim. Dushman bisyor qaviy... O'zimizga bir yer fikrini qilgulukdur va bu miqdor furja va fursatga qanday dushmandin yiroqroq ayrilguluktur, yo Badaxshon jonibi, yo Hinduston sori azim qilmoq kerak... Men vi ba'zi ichki beklar Hinduston tarafi bormoqni tarjih qilib, Lagmonga mutavajjuh bo'lduk" [7]. "Boburnoma"dan keltirilgan parcha muallifni Hindiston yurishiga undagan sabablarni va safar vaqtiga oid rejalarini yetarlicha yoritib bergan.

Bobur o'z maqsadiga erishgandan so'ng, Hindiston sharoitida hukmdor uchun sharaflı mas'uliyatga – hind va musulmonlardan iborat fuqaro birligini ta'minlashga sidqidildan xizmat qilga. Hukmdorligining dastlabki kunlaridan boshlab davlat ishlarini tartibga solish maqsadida ichki siyosatdagi asosiy yo'nalishni uzoqni ko'zlovchi, fotih uchun zarur bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni bartaraf qilishga qaratdi. Bu xususda Kobulga xat yo'llab, unda din, ilm, siyosat vakillarini va ular bilan xaram ahlini ham saroyga chaqirgan. Qolgan viloyatlarga elchilar yuborib, "Kimdakim agar bizga kelib mulozamat qilsa, har tomonlama ra'yyat qilamiz, agar ular ichida ota-bobolarimizga xizmat qilgan kishilar bo'lsa katta mukofotga sazovor bo'ladilar. Sohibqiron va Chingizxon avlodidan bo'lgan har bir kishi bizning dargohimizga qaytib kelsinlar" ma'nosida buyruq bergan va "Xudo bizga Hindiston mamlakatini ato qildi, kelsinlar, to bu davlatni birga suraylik" degan. Dehlydan yo'llangan noma va buyruqlar temuriylar xonadonining tarqoq vakillari va qarindosh-urug'larni yo'lga tushishga chorladi.

Movarounnahr hamda Xurosondan fan, san'at va adabiyot namoyandalari oqimining Hindistonga kirib kelishi Bobur boshlagan madaniyat borasidagi jarayonga yanada rag'bat va kuch bag'ishladi. Ularning orasida muarrix Xondamir, adib va ulamolardan Shayx Zayn Sadr, Shayx Abdulvohid Forig'iy, Abdurahmon Jomiyning shogirdlari, tajribali tabiblar: Mavlono Yusuf, Xo'ja Nizomiddin Ali Xalifa Abdulbaqo va boshqalar bor edi. Ikki va uch tilda ijod etuvchi shoirlar orasida boburiylar davlati va madaniy hayotida faol ishtirok etgan Bayramxon ham bor edi. Uning shaxsiyati va she'riyatini alohida ta'kidlash joiz. Chunki Bayramxonning fors tilidagi ash'ori o'z salmog'i bilan XVI asr adabiyotida mustahkam o'rin egallagan. Uning ijodi o'ziga xos bayramona badiiyati, turkiy va forsiy mumtoz g'azaliyot merosidan bahra olgan tajribasi hamda she'riy san'atlarni o'rinli istifoda etish uslubi bilan xarakterli. Pokistonlik olim Muhammad Hasan Siddiqiyning xabar berishicha, u fors, turkiy tillardan tashqari hindiyda ham qalam tebratgan.

Forig'iy devonida turkiy va forsiy she'rlar qatori shir-u shakar uslubida yozilgan bir necha g'azallar ham uchraydi. Muallif ularda ohang va ritm yaxlitligini ikkala til uchun mos qofiya hamda radif orqali saqlab qolishga muvaffaq bo'lgan. Shoirning har ikkala tilda barobar yoza olish qobiliyatiga qaraganda, uning hozircha yagona devonidagi turkiy g'azallari, o'z ona tilidagi ijodiy merosidan faqat bir lavhagina bo'lishi kerak. "Boburiylar davrida yashagan deyarli barcha nazm va nasr qalam ahli nafaqat turkiy va forsiy, balki arab hamda mahalliy tillarda ham bimalol qalam surganlar" [3: 269], deb ta'kidlaydi N.G.Nizomiddinov.

Boburning vorisi Xumoyunning hukmronligi davrida ham an'analar keng tarmoq yozdi. Hindistonga kelib ijod qilishga ilhaq adib va san'atkorlar safi ko'paya bordi. Misol uchun, Xumoyun Tabriz safarida tanishgan hattot va musavvir Mirzo Said Ali hamda Xo'ja Abdussomadlar hind yerida qo'nim topdilar. Shuningdek, Sulton Husayn Boyqaro zamonida Behzod ustaxonasida ishlagan naqqosh

– darvesh Muhammad xushnavis Mir Muhammad Asg'ar (Mirmunshiy), shikasta uslubining mohir ustasi – Xo'ja Amin singari san'atkorlar iqtidorlariga yarasha podshoh iltifotiga sazovor bo'ldilar. Xumoyunning turli ilmlarga munosabati shu darajada yuqori ediki, bayon qalami uning ta'rifi o'ziga o'zlik qiladi. Seydi Ali Reis o'z asarida Xumoyunning mirzolari Xushholbek va Abdurahmonlarning mushoira, adabiy bahslardagi ishtiroki hamda g'azallari hind viloyatida shuhrat topib, hamma ularni yod olib, o'qiy boshlaganini ta'kidlagan. Xumoyunning hukmronlik yillarida fan va adabiyot ahli "Gulshan" nomli didaktik dostoni bilan tanilgan Najmiddin Abulqosim Kohiy, turkiygo'y shoir Bahrom Darvesh Saqo, Aliqulixon bin Haydar, shoir va tarixchi Xoni A'zam Mirzo, shoir hamda falakiyotga oi ilmiy risolalar muallifi Ali Akbar Saidxondek ko'plab ijod ahli bilan boyidi. Ijodkorlar orasida bizning vatandosh qalamkashlarni ham uchratish mumkin edi. Ular movarounnahrlik Firoqiy Xo'ja Ayub, Buxoroda tahsil ko'rgan Husayn binni Xo'ja Mirdo'st, samarqandlik Nodiriy, Merojiy Toshkandiy va boshqalar edi.

Demak, Hindistondagi turkiy adabiyotni o'rganish hind va turkiy adabiyot vakillari uchun birdek ahamiyatli, ular ikki xalqning umumadabiy merosidir. Qolaversa, bugungi adabiyot vakillarining ushbu mavzuga qiziqishi xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan bunday baynalmilal ruhdagi

badiiy merosni o'rganish, ularni targ'ib-u tashviq qilish ko'lamini kengaytirishni taqozo qilmoqda. Shu nuqtayni nazardan, Hindistonda ijod qilgan turkiygo'y shoirlar asarlarining tasavvufiy adabiyot bilan bog'liq holda tahlil qilinishi nafaqat ushbu xalqlar she'riyati o'rtasidagi adabiy aloqalarni kengaytiradi, balki ular orasidagi g'oyaviy, ijtimoiy va badiiy mushtarakliklarni aniqlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Manbalarda ta'kidlanishicha, hind adabiyoti azaldan nafaqat mahalliy va xorijiy o'quvchilar, balki dunyo adabiyotshunoslari e'tiborini ham tortib kelgan. Bu adabiyotning uzoq va boy tarixiy taraqqiyoti davomida ayrim bosqichlari mavjud bo'lib, ular o'tgan asrning so'nggi choragigacha alohida ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida ko'rib kelingan. Xususan, o'rta asr hind adabiy muhitida shakllangan turkiy adabiyot ana shunday tadqiqot obyektlaridan biridir. Garchi Hindistondagi turkiy adabiyotga bo'lgan ilmiy qiziqish dastlabki davrlardayoq yuzaga kelgan bo'lsa-da, bu yo'nalishda olib borilgan izlanishlar bugungi kunga qadar ham e'tiborga loyiq natijalar bilan boyib bormoqda. Yakuniy jihatdan aytish mumkinki, taqdir taqozosi bilan turli yurtlarda yashab, ilm-fan, adabiyot va san'at sohasida faoliyat yuritgan vatandosh ijodkorlarimiz merosiga nisbatan jamiyatimizda e'tibor tobora ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida, ularning ijodini targ'ib qilish va chuqur o'rganish ishlarini yanada kengaytirishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Джавахарлал Неру. Взгляд на мирную историю. Т.2. М., 1975.
2. Раева Т.В. История стран Азии и Африки в средние века. Челябинск, 2016.
3. Nizomiddinov N.G'. Buyuk Boburiylar tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
4. Qudratullayev X. Bobur buyukligining qirralari. // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2010, №7.
5. Shamsuddinov R. Buyuk boburiylar saltanati va uning jahon tamaddunidagi o'rni. – Toshkent: Vodiynoma, 2017.
6. Uilyam Erskin. Bobur Hindistonda. – Toshkent: Cho'lpon, 1995.
7. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2019.

Guljamal SAPARBAEVA,

Qoraqalpog'iston Respublikasi Chimboy tumani 49-sonli maktabning qoraqalpog tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

“ERSAYIM” DOSTONINING TILI VA USLUBI

Annotatsiya. Mazkur maqolada qoraqalpog xalq og'zaki ijodining yorqin namunalardan biri bo'lgan "Ersayim" dostoni tilshunoslik aspektidan tahlil qilinadi. Dostonning boshqa turkiy xalqlarning folkloriy an'analari, xususan, "Edige", "Shahriyor" dostonlari bilan mazmun, struktural va til qurilishi jihatdan o'xshash va farqli tomonlari yoritiladi. Shu bilan birga, dostonidagi poetik struktura, fonetik va leksik birliklar, obrazli ifodalar hamda qahramonlarning nutq xususiyatlari lingvopoetik nuqtayi nazardan tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: "Ersayim" dostoni, tilshunoslik tahlili, lingvopoetika, struktura, tipologik o'xshashlik, epik poetika.

Annotation. In this article, the epic "Yersayim", one of the brightest examples of Karakalpak oral folk art, is analyzed from a linguistic point of view. The similarities and differences of the dastan with the folklore traditions of other Turkic peoples, in particular, with the dastans "Edige", "Sharyar", are highlighted in terms of content, structure, and linguistic structure. At the same time, the poetic structure, phonetic and lexical units, figurative expressions, and speech features of the epic heroes are analyzed from a linguopoetic point of view.

Keywords: Ersayim epic, linguistic analysis, linguopoetics, structure, typological similarity, epic poetics.

Аннотация. В данной статье дастан «Ерсайым», являющийся одним из ярких образцов каракалпакского устного народного творчества, анализируется с лингвистической точки зрения. Освещаются сходства и различия дастана с фольклорными традициями других тюркских народов, в частности, с дастанами «Едиге», «Шарьяр» с точки зрения содержания, структуры и

языкового построения. Вместе с тем, с лингвопоэтической точки зрения анализируются поэтическая структура, фонетические и лексические единицы, образные выражения и речевые особенности героев дастана.

Ключевые слова: дастан «Ерсайым», лингвистический анализ, лингвопоэтика, структура, типологическое сходство, эпическая поэтика.

Qoraqalpog' xalq dostonlari turkiy og'zaki an'analarning ajralmas qismi bo'lib, ularda nafaqat xalqning tarixiy xotirasi, balki til boyligi, obrazli ifoda vositalari, estetik dunyoqarashi ham aks etadi. Ana shunday dostonlardan biri "Ersayim" qahramonlik mohiyati, xalqparvarlik g'oyasi va til boyligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolada "Ersayim" dostoni adabiy-folklor kontekstda emas, balki tilshunoslik, xususan, lingvopoetik tahlil, stilistika, epik nutq strukturalari kabi yo'nalishlarda ko'rib chiqiladi. Maqsad – dostonning boshqa turkiy dostonlar bilan strukturaviy-tahliliy qiyosini berish, til vositalari va ifoda unsurlarini o'rganish hamda uning turkiy xalqlar og'zaki an'analari tizimidagi o'rnini aniqlashdir.

Til va poetik struktura: "Ersayim" dostonining ichki tizimi. "Ersayim" dostonida xalq og'zaki ijodining barcha muhim unsurlari mujassam: qofiyali she'rlar, parallelizm, epitettar, takrorlar, formulalik kabi janrga xos birliklar muntazam uchraydi. Masalan, quyidagi misralarda epik parallelizm va an'anaviy epitettardan foydalanish kuzatiladi:

*Ersayimday botirding,
Qo'lida qilich bor edi,
Ollohim mardga yor edi,
Kelgan zolimning
Bo'ynini mo'ljallab uradi [1: 25].*

Ushbu misralarda "Ersayimday botir", "qo'lida qilich", "mardga yor" kabi epitettar orqali qahramonning tipik epik obraziga urg'u beriladi. Shu kabi poetik tuzilish "Edige" dostonida ham kuzatiladi.

Leksik-semantik tahlil: epik til sathida obraz yaratish vositalari. Doston tilida urush, jang, bahodirlik kabi semantik maydon doirasidagi so'zlar yuqori chastotada qo'llanadi: "qilich", "xanjar", "darvoza", "jang", "dushman", "qochadi", "kesib oldi" va boshqalar. Bu – dostonida

urush timsoli asosiy semantik yadro ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, dialoglar va monologlarda nutq uslubining lirik-emotiv xarakterda bo'lishi, ayniqsa, Sari xonning Ersayimga qizini bermaslikdagi nutqlari orqali kuzatiladi. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan, bu yerda modal-so'zlar, otash nutq, intonatsiyaviy kuchlanish ifodalari asosiy o'rinni egallaydi.

Fonetik va morfologik vositalar: dostonning og'zaki ijod shaklidagi xususiyatlari. "Ersayim" dostonining lisoniy qurilishida turkiy tillarga xos bo'lgan fonetik vositalar, ayniqsa, unli-tovushlar muvozanati, turg'un sintaktik birliklar (formulalar) epik ritmi saqlab turadi. Har bir misrada tugal ohang, urg'u va to'liq mazmun mavjudligi bu doston og'zaki ijodda shakllanganini ko'rsatadi.

Qahramonlik obrazlarining nutq portreti va ideologik yuk. "Ersayim"ning nutqi doimo xalq, adolat, kurashga yo'naltirilgan. U nutqida faqat harakatga da'vat, kuch-quvvat va g'urur ifodalarini ko'p ishlatadi. Bu jihatdan u "Shahriyor", "Alpomish", "Edige" obrazlariga o'xshaydi. Ammo leksik qurilishda Ersayim nutqida kambag'allik, xalq orasidan chiqqanlik, yerni sevishtir, ona-Vatanga mehr singari motivlar kuchli. Masalan:

*Zarur bo'lsa, jon otajon olib ket,
Men beray, Xo'ja, senga ruxsat [1: 55].*

Bu so'zlarda til jihatidan egalik affikslarining (jon-otajon), fe'l zamonlarining (beray, olib ket), dialogik voqelik (Xo'ja, senga) vositasida murakkab nutq sathida qahramonning ichki dunyosi ochiladi.

Tipologik jihatdan "Edige" dostoni bilan qiyosiy tahlil. "Ersayim" va "Edige" dostonlari qahramonlik mohiyati bilan bir-biriga yaqin bo'lsa-da, lingvopoetik struktura, qahramonlarning ijtimoiy kelib chiqishi, nutq uslubi, ideologik ko'lam jihatidan farqlanadi.

Tahlil mezonlari	"Ersayim"	"Edige"
qahramonning kelib chiqishi	oddiy dehqon oilasi,	yetim, ammo podshoh tarbiyasida
epik uslub	ravon, xalqona, isyonkor	rasmiy, og'ir, murosal
til sathida asosiy maydon	harakat, jang, xalq	adolat, donishmandlik, himoya
obraz yaratish uslubi	xalqdan chiqqan qahramon	qahramon siyosiy sistemaga yaqin

"Ersayim" dostoni nafaqat mazmun jihatidan, balki til qurilishi, poetik uslubi, obrazli ifoda vositalari orqali ham

xalqning hayoti, ruhiy dunyosi, orzu-umidlarini yoritadi. Lingvopoetik tahlil shuni ko'rsatadiki, doston o'ziga xos

stilistik struktura, fonetik-morfologik barqarorlik, obrazli leksika hamda epik nutq dinamikasiga ega. Ushbu dostonni boshqa turkiy xalqlar dostonlari bilan taqqoslash orqali, biz nafaqat folklor o'xshashliklarini, balki xalq tilining adabiy-estetik qirralarini ham aniqlash imkoniga ega bo'lamiz. Shuningdek, bunday dostonlarni lingvistik jihatdan o'rganish, milliy identitet va madaniy xotirani saqlashda muhim ahamiyatga ega.

“Ersayim” dostoni turkiy xalqlarning og'zaki ijod an'alarida shakllangan yirik epik asarlardan biri bo'lib, uning tili va uslubi mazmuniy hamda badiiy jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu doston xalq og'zaki ijodining mahsuli sifatida ko'proq she'riy tasvir vositalariga, xalqona iboralarga, jonli va tabiiy so'zlashuv uslubiga tayanadi. Doston tilining asosiy xususiyatlaridan biri – **soddalik va xalqchilik**dir. U turkiy tilning qadimiy leksik qatlamlarini o'zida saqlagan holda, bir vaqtning o'zida obrazli va ta'sirchan ifodalar bilan boyitilgan. Ayniqsa, doston uchraydigan **metafora**,

ta'kid, parallelizm, epitet kabi badiiy vositalar asarning badiiy-estetik qiymatini yanada oshiradi.

Uslubiy jihatdan doston epik janrga xos ravishda **qahramonlik ruhini, sodiqlik, vatanparvarlik, fidoyilik kabi qadriyatlarni** yuksak pardada tarannum etadi. Qahramon obrazi orqali milliy ruh, xalqning dunyoqarashi va orzu-umidlari ifodalangan. Dostonning sujeti an'anaviy xalq og'zaki ijodiga xos drammatizm, konflikt va g'alaba motivlari bilan boyitilgan bo'lib, bu esa uni nafaqat tarixiy, balki adabiy manba sifatida ham ahamiyatli qiladi. Shuningdek, unda **dialektal so'zlar, etnografik atamalar, qadimiy terminlarning** uchrashi ham diqqatga sazovor bo'lib, bu holat asarni tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham o'rganishga munosib asos bo'la oladi.

Umuman olganda, “Ersayim” dostoni nafaqat adabiy-estetik, balki **tilshunoslik, madaniyatshunoslik va tarixshunoslik** nuqtayi nazaridan ham bebaho manba hisoblanadi. Uning tili orqali biz o'zbek tilining tarixiy shakllari, xalqning mentaliteti, qadimiy tasavvurlari va ifoda uslubi haqida boy ma'lumotga ega bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qarqalpaq folklori. XX tom. – Nókis: Qarqalpaqstan, 1990.
2. Maqsetov Q. Qarqalpaq jirav-baqsilari. – Nókis: Qarqalpaqstan, 1983.
3. Dawletov A. Dawletov M., Qudaybergenov M. Házirgi qarqalpaq ádebiy tili. – Nókis: Bilim, 2010.
4. Hamidov H. Qarqalpaq tili tariyxiniń ócherkleri. – Nókis: Qarqalpaqstan, 1974.

Ellora ISAQOVA,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti

QADIMIY DOSTONNING YANGI OHANGI

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asrda Qo'qonda yashab ijod etgan Mahzunning “Farhod va Shirin” qissasi haqida so'z boradi. Farhod va Shirin ishqiga bag'ishlangan dostonlar tadrijiy tahlil etilib, asarning Navoiy, Nizomiy va Dehlaviy dostonlari bilan bog'liqligi, xalqona uslubdagi o'ziga xos badiiy xususiyatlari, til va tasvir vositalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Mahzun, “Farhod va Shirin”, sujet, doston, yodnoma, qissa.

Annotation. This article tells about the story “Farhad and Shirin” by Mahzun, who lived and worked in Kokand in the 19th century. The epics dedicated to the love of Farhad and Shirin are subjected to evolutionary analysis, highlighting the connection of the work with the epics of Navoi, Nizami, and Dehlavi, as well as the unique artistic features of the folk style, linguistic and figurative devices.

Keywords: Mehzun, “Farhad and Shirin”, plot, poem, memoirs, novella.

Аннотация. В этой статье рассказывается о повести «Фархад и Ширин» Махзуна, жившего и творившего в Коканде в XIX веке. Дастаны, посвященные любви Фархада и Ширин, подвергаются эволюционному анализу, освещаются связь произведения с дастанами Навои, Низами и Дехлеви, своеобразные художественные особенности народного стиля, языковые и изобразительные средства.

Ключевые слова: Мехзун, «Фархад и Ширин», сюжет, поэма, мемуары, повесть.

O'zbek adabiyotida “Xamsa” dostonlari, xususan suyetga ega bo'lgan ishqiy-muhabbat mavzusidagi asarlar xalq orasida keng tarqalgan. “Farhod va Shirin” hamda “Layli va Majnun” dostonlari xalq qissasi shaklida ko'p marotaba qayta ishlangan bo'lib, ijodkorlar asar tilini sodda va xalqona qilishga intilganlar. Turmush tarzi va xalq sharoitidan kelib chiqqan qo'shimcha detallar bilan boyitilgan bu talqinlar keng omma tomonidan qiziqish bilan o'qilgan. Mahzunning “Qissai shahzoda Farhod va

Shirin” asari ham ana shunday xalqona ruhda yaratilgan dostonlardan biridir.

Farhod, Shirin va Xusrav haqidagi qissa, rivoyat yoki dostonlarning yaratilish tarixi ancha qadimiy bo'lib, ko'pgina sharqshunoslarning tadqiqotlarida qayd qilinganidek, bu qissa aslida tarixiy shaxs bo'lmish Xusrav Parvez bilan bog'liqdir. Xusrav Parvez binni Hurmuz sosoniylar sulolasiga mansub shohlardan bo'lib, 590–628-yillar orasida hukmronlik qilgan. Uning shaxsi haqida Mirxond

va Xondamirning asarlarida, shuningdek, Alisher Navoiyning “Tarixi muluki Ajam” asarida ham bayon etilgan.

Tarixiy asarlar, yodnomalarda Xusrav va Shirin muhabbati, hatto Shirin Xusravning jufti haloli ekanligi haqidagi ma'lumotlar bor. Ammo X asrgacha bo'lgan davrdagi manbalarda Farhod eslanmaydi. Faqat X asr tarixchisi Abu Ali Muhammad al-Bal'amiyning “Tarixi Tabariy”ni fors tiliga o'g'irgan nusxasida Xusrav va Shirin tarixi bayonida Farhod nomi tilga olinadi. Keyinchalik esa u badiiy tarzda bitilgan dostonlarning asosiy qahramonlaridan biri bo'lib qoladi. Farhod haqidagi qissalar asosini tarixiy voqelik tashkil etsa-da, ammo keyinchalik bu tarixiylik faqat nomlarda saqlanib qolib, voqealar, sarguzashtlar bayonida badiiylik qonuniyati ustuvor bo'ladi. Bu mavzuga murojaat etgan har bir shoir o'zining ijodiy dunyoqarashi va estetik mezonlari asosida asar yaratdi. Natijada Xusrav, Shirin, Farhod obrazlarining turli talqinlari yuzaga keldi.

Amir Xusrav Dehlaviyning “Xusrav va Shirin”i Nizomiylikidan ko'p ham farq qilmagan holda ayrim o'zgartirishlar bilan yozilgan. Masalan, Nizomiyda chinlik oddiy usta yigit sifatida keltirilgan Farhodni Dehlaviy Chin xoqonining yolg'iz farzandi sifatida tasvirlagan. Ushbu an'anani davom ettirgan ulug' mutafakkir Alisher Navoiyning maqsadi esa shunchaki o'xshatma yozmoq emas, balki salafllari ijodiga tanqidiy yondoshib, o'zgacha bir asar yaratmoq edi. O'zigacha o'tgan, “Xusrav va Shirin” dostonini yozgan barcha shoirlardan farqli ravishda, Navoiy Farhodni ideal obraz, bosh qahramon sifatida tasvirlaydi. Bundan tashqari asarning boshqa qahramonlarining ham asardagi o'rni va ahamiyati sezilarli darajada o'zgaradi. Shu paytgacha faqat go'zallik timsoli bo'lib kelgan Shirin Navoiyda oliyjanoblik, aql-zakovat sohibasi sifatida tasvirlanadi. Bu o'zgarishlardan so'ng asar nomi ham o'zgarishi tabiiy hol edi.

Shoirlar Farhod qissasini ma'lum bir g'oyaviy maqsadni ifodalash uchun muvofiqlashtirishi natijasida u haqida yaratilgan har bir asar yangi epizodlar, detallar bilan boyitib boraverdi. XV asrgacha sharq adabiyotida “Xusrav va Shirin” an'anasini keng tus olgan bo'lsa, Navoiyning “Farhod va Shirin”i maydonga kelgach, dostonning ta'sir kuchi ancha keng yoyildi. Aslini olganda Farhodni bosh qahramon sifatida tasvirlash biroz oldin boshlangan. Bu haqida “Navoiyshunoslik” kitobida quyidagi fikrlarni uchramiz. Farhidning bosh qahramon qilib olinishi adabiyotda ilk bor XIV asrda Ozarboyjonda yashab faoliyat yuritgan Orif Andalibiyning “Farhodnoma” (1369) nomli fors-tojik tilida yozilgan dosotni bilan boshlanadi [1: 101]. XV-XIX asrlar davomida tojik, uyg'ur, ozarbayjon, turk xalqlari adabiyotida “Farhod va Shirin” ta'sirida yaratilgan asarlar, buyuk shoirning go'zal dostoni tarjimalari yaratila boshlandi. “Farhod va Shirin”ning XVIII asrda gruzin tiliga tarjima qilinganligi haqida ham ma'lumot bor.

XV–XIX asrlarda Navoiydan ijodiy ilhomlangan Harimiy, Lomiy Chalabiy, Vaxshiy Bafqiy, Urif Sheroziy, Nizoriy, Umar Boqiy, Mahzun kabi ijodkorlar ham turli tillarda “Farhod va Shirin” nomli asar yaratdilar. Navoiyning “Farhod va Shirin”idan so'ng keyingi davrlarda yaratilgan asarlarda Farhod bosh qahramon sifatida gavdalantirildi.

Hazrat Navoiydan keyin ham bir necha ijodkorlar tomonidan yaratilib, qayta ishlanib xalq e'tiboriga taqdim

etilgan go'zal namunalardan biri Farhod va Shirinning Mahzun versiyasidir. XIX asrning birinchi yarmida Qo'qonda yashab ijod qilgan, Uychida qozilik qilgan shoir va yozuvchi Mahzun qalamiga mansub bo'lgan bu asar nasrda yozilgan. Mahzun hayoti va ijodiy faoliyati haqida to'liq ma'lumot beruvchi manbalar yetarli emas. Po'lotjon domulla Qayyumovning “Tazkirayi Qayyumiy”ida Mahzun taxallusli to'rtta shoir haqida ma'lumotlar va ularning ijodidan namunalar keltiriladi. Ular shartli ravishda Mahzun I, Mahzun II, Mahzun III, Mahzun IV tarzida nomlanadi.

Mahzun I – “Bu shoir XIX asrning birinchi yarmida Xo'qandda nash'u namo etmish otoqli olimlardandur. Uychi nomli kasabada qozi bo'lib turgan. O'zi ham shul joydan ekan. Fazliyning tubandagi masnaviysidan ma'lum bo'ladi. Bunda kular yuzli, yaxshi aytuvchi, tushunuvchi, yaxshi fahmli Uychidan deb ko'rsatadur.

*Zi Uychast Mahzuni pur xanda xo'y,
Suxansanj, xusgdaxm, sanjida go'y* [2: 242–243].

Ushbu ma'lumotlarni Po'latjon Domulla Fazliyning masnaviysidan ma'lum bo'lgan deya ta'kidlaydi va Mahzunning bir g'azalini keltiradi.

Mahzun II – “Bu kishi Ho'qand shahridan bo'lib, Xo'jand dahasidan ila kabob mahallalidir. Kosib oilasida dunyoga kelib, shunda o'qub qoriyi qur'on karim bo'lmish. Nomi qori Rahmatilladir. Ho'qandli shoirlardan bo'lib Nasriddinbekning xon saroyi etilmish sunnat to'yi to'g'risida, umuman o'rdaning ichki hayoti to'g'risidagi ma'lumotlar ila yozilmish kitobning sohibi shul kishi ekani gumon etiladi. Taxallusi Mahzun bo'lib, bu kishini ikkinchi Mahzun deyish mumkindur” [2: 552–553]. Shuningdek, ushbu tazkirada shoirning Muqimiyga o'gay tog'a ekani, oq yuz va soqolli kishi bo'lgani, bir necha she'rlari mavjudligi ma'lum qilinadi.

Mahzun III – “Bu kishi Xo'qandli bo'lub, nomi Mir Sayyid Nu'mon xo'jadir. Vafoti to'g'risida ma'lumotimiz yo'q. Faqat davri hayoti to'g'risida ma'lumot shuki, Buxoro shayxlaridan Xalifa Soleh eshon Ho'qandiyning vafotiga ta'rix yozmishdurki, hijriy ila abjad hisobida 1217-yil kelib chiqadi, mutoqib 1899-yil melodiyl (yil) bo'ladi. Xudoyorxonning saroyiga bog'li turib Nasriddinbekni to'yi to'g'risida kitob yozmish, xon saroyidan xabardor bo'lmish Mahzun taxallusli bir shoir bor edi. O'shal Mahzun shul kishi bo'lishi ehtimolga qarib” [2: 371–372]. Shuningdek, tazkirada Mahzun III ga mansub deya ikkita g'azal hamda yuqorida aytib o'tilgan Xalifa Soleh eshon Ho'qandiyning vafotiga yozgan ta'rixi keltiriladi.

“Tazkirayi Qayyumiy”dagi ma'lumotlardan Mahzun I Umarxon, Mahzun II va Mahzun III Xudoyorxon va undan keyingi davrlarda yashaganliklari ma'lum bo'ladi. Po'latjon Domulla shuningdek Mahzun II ni ham, Mahzun III ni ham Xudoyorxon saroyiga aloqasi bo'lgan, Nasriddinbekning to'yi, o'rdaning ichki hayoti haqida ma'lumotlar yozgan Mahzun bo'lishi mumkin deya taxmin qiladi. “Tazkirai Qayyumiy”ning mundarijasida Mahzun IV nomi uchrasa-da, biroq asarning biror joyida u haqida ma'lumot berilmaydi. Mundarijada Mahzun I, Mahzun II, Mahzun III lar haqida

qaysi sahifalarda ma'lumot berilganligi ko'rsatilgan. Ammo Mahzun IV haqidagi sahifa ko'rsatilmagan. Bundan Po'latjon Domulla Mahzun IV haqida yetarlicha ma'lumotlarga ega bo'lmagani bois, u haqda alohida to'xtalmagan degan xulosaga kelish mumkin. Tazkirada keltirilgan "XIX asrning birinchi yarmida Xo'qandda nash'u namo etmish otoqli olimlardan" Mahzun I qalamiga mansub "Qissai Farhod va Shirin" haqida ilk ma'lumot beruvchi Fitrat "Farhod va Shirin" dostoni to'g'risida" maqolasida Mahzunni Amir Umarxon saroyida xizmat qilganligini aytadi [3].

Mahzun qissasi manbalarini aniqlar ekanmiz, Navoiyning ham, Nizomiy, Dehlaviy dostonlarining ta'sirini, shuningdek, yana xalq afsona va rivoyatlarining ham izini ko'rishimiz mumkin. Birinchi navbatda, Navoiyning "Farhod va Shirin"iga asoslangan Mahzun mehnatkash va ijodkor Farhod obrazini gavdalandiradi. Asosiy e'tiborini Farhod obrazini yaratishga qaratadi. Shu sabab barcha hikoyalar Farhod atrofida jam bo'ladi. Shoir Farhodning Shiringa bo'lgan muhabbatini, uning ilm-u hunardagi mahorati, zakovatini so'z san'ati vositasida ifodalashga harakat qiladi.

Asar tili juda xalqchil va ravon, oddiy ibora va maqollardan foydalanilgan. Xalqona uslubda yozilgan ushbu asarda izohtalab so'zlar uchramaydi. Masalan, taxtda o'tirgan Shirinning tasvirini olsak: "Ul taxt ustida bir juvon nozanin o'lturibdir. Ul nozaninni husn va latofatda shu'las shul bo'stonga urub turubdur. Ul qizni husnu jamoli olamni munavvar qilubdur. Yuz ming lashkar oni farmonindadur. Bu qizni andog' ta'rif qildiki, hushdin ketilur".

Muallif kitobxonning diqqatini qaratish yoki jamlash uchun, voqealarni boshlanishi yoki tugashini bildirish uchun turli boshlanmalar, an'anaviy birikmalardan foydalangan. Xususan, alqissa, alg'araz, vaqteki, chun boshlanmalari jumlar avvalida qo'llangan. Alqissa boshlanmasi biror voqeaning yakunidan so'ng boshqa voqea boshlanishini anglatadi, yakuniy xulosa yasaydi, ya'ni qissadan hissa

qabilida, voqealar natijasi quyidagicha bo'ldi degan ma'nolarda qo'llaniladi. Ba'zida esa bu boshlanma voqealar cho'zilib, davom etayotgan bir paytda o'quvchini hushyor torttirib, keyingi voqealarga yo'naltiradi. Alg'araz so'zi esa qahramonlar tilidan aytilgan nazmiy parchalarning boshida va she'r tugagach, keyingi voqeaning boshlanishidan avval beriladi. Ammo chun boshlanmalari ham jumla avvalida, zidlov ma'nolarida ishlatiladi. Vaqteki boshlanmasi qahramonlar munosabati yuz berayotgan jarayonda o'sha vaqtni ifodlash uchun keltiriladi: Vaqteki, bu nomam sanga **etsa** biladurmanki, sanga qiyomat qoyim bo'lg'ay va tiriklik va achchig' o'lum totlig' bilingay, ey mushfiq onam. Vaqteki, san jahon ahlini oqili va onasi turursan, kerakki, manga kelgan qazog'a rizo bergaysan, ko'nglungni mandin uzub, Xudo taolog'a bog'lag'aysan.

Shuningdek, an'anaviy iboralar ham voqealarni kitobxonga qulay usulda **yetkazish** maqsadida kiritilgan. Qissadagi shunday faol so'zlardan biri zor-zor chun abri navbahor yig'ladi iborasi bo'lib, bahor yomg'irlaridek ko'z yoshlari oqdi, degan ma'noni ifodalagan va qahramonning ruhiy holatini, g'am-anduhini yanada kuchaytirib ko'rstishga xizmat qilgan: "Bu so'zni otasiga aytub zor-zor chun abri navbahor yig'lar erdi", "Xoqoni Chin ko'rdiki, Shahzoda Farhoddin ayrilibdur. Shul **erda** zor-zor chun abri navbahor yig'lab aydi", "mundog' mehnat qilib o'lturub zor-zor chun abri nayson yig'lab bu baytni o'qigan turur".

Xulosa qilib aytganda, Mahzunning "Farhod va Shirin" qissasi klassik Sharq dosotnchiligi an'analari davom ettirgan, pokiza muhabbat, vafodorlik va insoniy fazilatlarni ulug'lovchi muhim asardir. Toshbosma nusxani o'rganish natijalari Navoiy dostoniga va Nizomiy va Dehlaviy dostonlariga qiyosiy o'rganish imkonini beradiki, bu qissa o'zbek adabiyotida nafaqat Navoiy dostoni ta'siri, balki yanada kengroq boshqa tillardagi adabiyotning ta'siri borligini ham ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sirojiddinov S., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2019.
2. Qayyumov P.D. Tazkirayi Qayyumiy. – Toshkent: Fan, 1998.
3. Fitrat. "Farhod va Shirin" dostoni to'g'risida. // Alanga, 1930. №1/2

Zarina JALILOVA,

Buxoro innovatsion ta'lim va tibbiyot universiteti assistenti,
Buxoro davlat universiteti mustaqil taqiqotchisi

XURSHID DO'STMUHAMMAD HIKOYALARIDA QAHRAMON PSIXOLOGIYASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek nasrining yetakchi vakillaridan biri Xurshid Do'stmuhammadning ijodi, xususan, "Vasiy" hikoyasi tahlil qilinadi. Hikoyada realizm va modernizm alomatleri, psixologik tasvir va ramziy ifodalar birlashib, inson ruhiyatining murakkabliklari yoritilgan. Muallifning badiiy uslubi va qahramonlarning ichki olami, ularning ziddiyatlari o'quvchini chuqur mushohada va fikrlashga chorlaydi. Tahlilda, shuningdek, taniqli adabiyotshunos olimlarning fikrlari va muallifning badiiy psixologizmga asoslangan uslubi ko'rsatib o'tiladi. "Vasiy" hikoyasi o'zbek nasrida insoniy va ma'naviy qadriyatlarni yoritishda muhim o'rin tutadi.

Kalit so'zlar: novella, proza, ijodiy individuallik, xarakter, obraz, psixologizm, badiiy uslub, timsol, ramz, metafora, illuziya, uslubiy izlanish, psixologik tasvir.

Annotation. This article analyzes the work of one of the leading representatives of modern Uzbek prose, Khurshid Dustmukhammad, in particular, the story "Vasiy". The story combines features of realism and modernism, psychological imagery and symbolic expressions, and illuminates the complexities of the human psyche. The author's artistic style and the inner world of the characters, their conflicts, prompt the reader to deep reflection. The analysis also shows the opinions of renowned literary scholars and the author's style based on artistic psychologism. The story "Vasiy" occupies an important place in the illumination of human and spiritual values in Uzbek prose.

Keywords: novella, prose, creative individuality, character, image, psychologism, artistic style, symbol, metaphor, illusion, stylistic search, psychological image.

Аннотация. В данной статье анализируется творчество одного из ведущих представителей современной узбекской прозы Хуршида Дустмухаммада, в частности рассказа «Васий». В рассказе объединяются признаки реализма и модернизма, психологические образы и символические выражения, освещаются сложности человеческой психики. Художественный стиль автора и внутренний мир героев, их конфликты побуждают читателя к глубоким размышлениям. В анализе также показаны мнения известных литературоведов и стиль автора, основанный на художественном психологизме. Рассказ «Васий» занимает важное место в освещении человеческих и духовных ценностей в узбекской прозе.

Ключевые слова: новелла, проза, творческая индивидуальность, характер, образ, психологизм, художественный стиль, символ, метафора, иллюзия, стилистический поиск, психологический образ.

Zamonaviy o'zbek nasrining yetakchi vakillaridan biri Xurshid Do'stmuhammad prozaning roman, hikoya, qissa janrida samarali ijod qilib kelmoqda. Xurshid Do'stmuhammad adabiyotshunos olim, yozuvchi, tarjimon yozuvchi sifatida barakali ijod qilib kelmoqda. Muallifning ijodi XX asr oxiri va XXI asr boshida maydonga keldi. Uning qissalari va hikoyalari hayotning turli vaziyatlarini insoniy his-tuyg'ularni, jamiyatdagi turli voqea-hodislarni chuqur idrok etish va mukammal tasvirlash bilan ajralib turadi. Ijodkor o'z hikoyalarida insoniy qadriyatlar ustunligi, xalq ma'naviyatining muhim ekanligini tarannum etadi. Qolaversa, hikoyalarida realizm va modernizm alomatlari bor ekanligini uchratish mumkin. Simvol va badiiy detallardan to'g'ri foydala olish mahoratiga ega. Asarlarida falsafiy teranlik, chuqur mushohada ustunlik qiladi. Uning "Saf" va "Vasiy" hikoyalari ishon ruhiyatini, uning ichki olamini jamiyatdagi insonlar orasidagi qarama-qarshiliklar va ma'naviy izlanishlarni yoritib bergan hikoyalar sirasiga kiradi. Muallifning "Vasiy" hikoyasi insonning tabiatidagi noqisliklarni tasvirlab berish bilan ajralib turadi. Hikoya quyidagi tasvir bilan boshlanadi: "Oppoq, toza dasturxonga yo'rgaklangan chaqaloqni tizzalari orasiga yotqizib tebratib o'tirgan juvon ayvonning lang ochiq derazasidan bo'ynini cho'zib hovliga qaradi. Quvalashayotgan bir juft musichani ko'rdi-yu, yo'rgakni avaylab ko'rpachaga yotqizdi, o'rnidan ildam turib kalishni oyog'iga ilganicha hovliga tushdi. Musichalar qanotini parillatib, oldinma-keyin tomga ko'tarildi" [2]. Xurshid Do'stmuhammad ushbu qissani tasvirlashda tabiat tasviri bilan uyg'unlashgan holda tasvirlashni ma'qul ko'radi. Xalqimizda chaqaloqni oppoq beg'ubor farishta misolida talqin qilishadi. Hikoyachi ham chaqaloqni oppoq, toza yo'rgakka yotqizib olgan olda juvonn ham tasvirlaydi. Juvonning doimiy qo'rquvda yashashi, hayotning zarbalari uni qo'rqqoq qilib qo'yg'anligi hikoyada o'z aksini topgan.

Ushbu hikoyani tahlil qilish jarayonida taniqli adabiyotshunos olimlarning fikrlari bilan tanishib chiqqan holda shunday talillarni kiritishimiz mumkin. Hikoyada Muallif ramziy tarzda aytilmoqchi bo'lgan axloqiy-falsafiy

ma'nolarni teran yoritib bergan. Asarda qahramonning faoliyati, ichki xakteri, xulq-atvori, tashqi qiyofasi, o'zini tutishi haqidagi tasvirlar muallifning psixologik tasviridir. Adabiyotshunos olim M.Qo'chqorova quyidagi iqtibosi fikrimizning isboti sifatida xizmat qiladi. "Xurshid Do'stmuhammad nasri o'quvchini mudom o'ylantirib, mushohada-mulohaza yuritishga, kitobxonni faol fikrlashga o'rgatuvchi intellektual jihatdan baland ijod. Shuning uchun ham Xurshid Do'stmuhammad nasri oddiy xalq orasida ommabop bo'lib keta olmaydi. Yozuvchi ko'proq elita nasr namunalarini yaratdi" [1]. Ushbu iqtibosdan ma'lum bo'ladi, olim M. Muallifning barcha hikoayalarida metafora, turli badiiy tasvir vositalari orqali qahramon psixologiyasini yoritib beradi. Ushbu hikoyada ham ham inson oq va qorani, yaxshilik va yomonlikni, hayotda hamisha qarama-qarshiliklar borligini uqtiradi. Hikoyaning nomi ham kitobxonni badiiy tafakkur qilishga chorlaydi. Muallif insondagi yomon illatlarni qoralab, yaxshi fazilatlarni ulug'laydi. Uning hikoya va qissalari mazmunan turfa bo'lishi bilan birgalikda barchasida insoniy tuyg'ular ufurib turadi. Muallifning eng katta yutug'i ham hayotiy muammolarni yoritib bera olishidir.

Atoqli olim har bir yaratgan qahramonlarini shunchaki yaratmagan. Bunda adib ortiqcha narslardan xoli bo'lib, ularni real hayot voqelari bilan tasvirlaydi. Xurshid Do'stmuhammad o'z nasrida qahramonlar obrazini aks ettirishda, uni to'la qonli jonlantirishda badiiy psixologizmdan unumli foydalandi. Undagi qahramonlar hayot haqiqatiga to'la javob bera oladi. Adabiyotda badiiy psixologizm esa qahramonning ruhiy holatini, uning ichki olamini, xarakter xususiyatlarini psixologik jihatidan ochib berishdir. Psixologizm deganda qahramonning qisqa vaqt ichida yurgan xarakteridagi, uning ichki olamdagi o'zgarishlarni aks ettirishdan iborat. Ijodkor bunday asarlar yaratishda ijodiy teranlikka erishganligini uchratish mumkin. Tasvir obyekti sifatida qahramonning ichki xarakteridagi o'zgarishlarni misol sifatida tanlab oladi. "Vasiy" hikoyasida bosh qahramon ya'ni juvonning

xarakteriga diqqat qaratadigan bo'lsak, juvonni hamisha qo'rquv ostida yashashini uchratishimiz mumkin. "Juvon g'ira-shira tong ota boshlaganida uyg'ondi. O'tirgan ko'yi ostin-ustun bo'lib ketgan uyning ahvoliga razm soldi. O'rnidan shoshilmay turib sochini ko'ylak yoqalarini tuzatdi, so'ng taxmondagi ko'rpalarni tushirdi, boya o'zi qo'ygan yo'rgakni olib dog'lari qotib qolgan qog'ozga, qaychilab tashlangan dasturxonga angraydi, chuqur, so'lg'in uf tortdi. Qog'ozni dasturxonni ochdi-da, unga o'ralgan chaqaloq-yostiqni olib taxmonga qo'ydi, oyoq uchida yurib kelib, eshik tirkishidan ayvonga mo'raladi [3]. Hikoyada qahramon o'z olami og'ushida yashaydi. Hayot va o'lim, orzu va haqiqat insoniy va ma'naviy qadriyatlar uyg'unligi kabi g'oyalar o'z ifodasini topgan. Asarda bosh qahramon juvonning doimo qo'rquv ostida yashashi, hayotdagi o'z o'zni va mavqeyi, uning o'ziga va boshqalarga bo'lgan munosabati, hayotiy tanlovlar va ziddiyatlar kabi masalalar o'z ifodasini topgan.

Xurshid Do'stmuhammad o'ziga xos ijod uslubiga ega olim sifatida tanilgan. Muallif asarlarida realistik tasvir va psixologik tasvirlar o'zaro uyg'unlashgan bo'lin kitobxonni qahramonning ichki olamiga olib kira oladi. Ushbu tahlilga tortilgan hikoyada ham muallif chuqur mazmunli iboralar va metaforalarni keng qo'llaydi. Hikoyada oddiy insoniy munosabatlar aks ettiriladi. Hikoya ijodkorni haqiqiy olim sifatida tanilishiga katta xizmat ko'rsatgan. Qolaversa, asarda qahramonlarning ichki monologlari, ularning ichki olami, psixologiyasidagi holatlar ham o'z aksini topgan. Bosh qahramon o'zi bilan o'zi kurashib asar ichida o'zaro muloqotga kirishadi. Bu uslub orqali ijodkor qahramonning psixologik holatini aniq va izchil tasvirlay bera oladi. Qahramonning o'tmish voqealarini eslashi va ularning bugungi kundagi ahamiyati, bugungi kundagi muammolar bilan uzvir bog'lanishi hikoyada jonli tasvirlangan. Bunday usul esa xotira jarayoni usuli bo'lib personajlar ushbu uslub orqali o'z-o'zini anglash jarayoni bosqichini boshdan kechiradi. Asarda qahramonning ichki

to'qnashuvlari, ya'ni o'z xohish-istaklariga va haqiqat o'rtasidagi kurash aniq tasvirlanganligini ko'rish mumkin. Ijodkor asarda qo'rquv, umidsizlik, sevgi va nafrat kabi tushunchalarni to'la namoyon etdi. Hikoyadagi kichik detallar ham o'z o'rniga ega bo'lib kerakli o'rinda asardan joy topa oldi.

O'zbek hikoyanavisligida Xurshid Do'stmuhammad o'zining ijod uslubi, g'ayrioddiy obraz va voqealari orqali sharq va g'arb prozasining yetuk namoyondasi bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Jumladan Adibning bir hikoyasi haqida taniqli olim Marhabo Qo'chqorovanning fikridan iqtibos keltirsak: "Yozuvchining "Jim o'tirgan odam" hikoyasida bitta ilmiy institutda qirq yil xizmat etgan olim – Qurbonalining hayoti, xususan, uning pismiqlik xarakteri, ya'ni ko'rib, bilib turib, bilmaganlikka olish kabi jamiyatimizda kun kechirayotgan shaxslarga xos loqaydlik ijtimoiy salbiy illati badiiy muhokama etiladi. Hikoya qahramoni Qurbonali aslida, hayotning birinchi qismida gapga chechan, botir edi. Ammo hayotning ikkinchi qismida xuddi otasi kabi padari vasiyat etib ketganidek, tiliga qulf solib jim yashaydi" [4]. Binobarin, hikoya qahramoni Qurbonalining jim turib bilganicha ish tutib kelishi bugungi kundagi ayrim shaxslar qiyofasini eslatadi. O'tmishda ham hozirgi davrda ham bundayin shaxslar hamisha hayotda uchrab kelishi asarda o'z ifodasini topgan. Qurbonalining onasi vafotidan keyingi ma'ralalarda bo'lgan ba'zi suhbatlarda no'malum bir shaxsning har doim Qurbonalining oldidan chiqib qolishi asarda ramziy ma'no yuklaydi. Notanish kimsa Qurbonaliga "Olim bo'lish oson, ammo odam bo'lish qiyin" degan xalqona maqol orqali uning aslida kim ekanligi va uning hayotida qanday vaziyatlar bo'lib qolganligi haqida ishora qiladi. Asarda u *Kimsan* deya nom olgan. Kimsan bosh qahramonga jim o'tirgan odam hamisha xavfli odam deya uqtiradi. Shu bois ham hikoyada Kimsan obrazi o'ylab topilgan narsa, u hikoya syujetini va uning eng muhim kompozitsion qurilishini, asar mavzusi va g'oyasini shakllantirib berishga xizmat qiluvchi muhim topilma.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Marhabo Qo'chqorova. Xurshid Do'stmuhammad qissachiligida metafora va timsolli ishoralar. https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/marhabo-qochqorova-xurshid-dostmuhammad-qissachiligida-metafora-va-timsolli-ishoralar/?utm_source=chatgpt.com.
2. Do'stmuhammad X. Hovli etagidagi uy. – Toshkent: Sharq, 1989. – 156 b.
3. Do'stmuhammad X. Jajman. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 210 b.
4. Do'stmuhammad X. Beozor qushning qarg'ishi. – Toshkent: Sharq, 2006. – 512 b.

Aziza MAHAMMATOVA,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi

NAVOIY LIRIKASIDA TURKIY POEZIYA TAJRIBASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Navoiy turkiy poeziyaning boy tajribasi va an'alaridan foydalangani, o'z lirikasida uni yanada rivojlantirgani haqida fikr yuritiladi. Navoiy ijodidagi janrlar tanlovi, kompozitsiya va poetik mazmunning o'ziga xos jihatlari o'rganilib, Sharq she'riyatidagi o'zni va ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: Navoiy lirika, turkiy poeziya, poetika, janr, devon, kompozitsiya.

Annotation. This article discusses how Navoiy utilized the rich experience and traditions of Turkic poetry and developed them in his lyrics. The choice of genres in Navoi's work, the peculiarities of composition and poetic content are studied, and its place and significance in Eastern poetry are illuminated.

Keywords: Navoi, lyrics, Turkic poetry, poetics, genre, divan, composition.

Аннотация. В этой статье обсуждается, как Навои использовал богатый опыт и традиции тюркской поэзии и развивал ее в своей лирике. Изучается выбор жанров в творчестве Навои, особенности композиции и поэтического содержания, освещаются его место и значение в восточной поэзии.

Ключевые слова: Навои, лирика, тюркская поэзия, поэтика, жанр, диван, композиция.

Navoiy lirikasi faqat mavzu doirasining kengligi, g'oyaviy dunyosining boyligi bilangina emas, ayni zamonda, chuqur fikrlar silsilasining original ifodasini ta'min etgan yuksak badiiy fazilatlar bilan ham diqqatga sazovordir. Alisher Navoiy arab, fors va turkiy poeziyaning boy tajribalarini o'zlashtirib olish bilan cheklanib qolmadi, balki mavjud an'analarning eng ilg'or jihatlarini yanada yuqori bosqichga ko'tardi, va eng muhimi, Sharq she'riyatiga xos badiiyat xazinasi poetik durdonalarning go'zal namunalarini boyitdi. Navoiyning lirik she'rlari humanist mutafakkir g'oyalarining iste'dodli san'atkor mahorati bilan mutanosib tushishi va tabiiy ravishda qo'shilib ketishining haqiqiy namunasi hisoblanadi. Binobarin, Abdurahmon Jomiy va Mirzo Bobur ta'rifi har qanday mubolag'adan xoli bo'lgan adolatli, lekin muxtasar bahodir.

Navoiy lirikasining asosiy fazilatlaridan biri she'rning tub mohiyatini tashkil etgan mazmun, g'oyaning o'ziga xos shaklda namoyon bo'lishida ko'rinadi. Bu esa o'z navbatida, har bir fikr uchun unga muvofiq keladigan janrni tanlash va uning hajmini ham asosiy maqsadning mukammal ifodasiga mos qilib belgilashda ko'zga tashlanadi. Navoiy g'azallari orasida 7, 9, 11 baytli she'rlar asosiy qismni tashkil qilsa ham, ularning har biri mazmun taqozosi bilan tanlangan [3: 35]. Jumladan, ishqi mavzu uchun esa hajman kattaroq g'azallar asos qilib olingan.

Shoir devonida muhim o'rini tutgan qit'alarining ko'pchiligi ikki baytdan iborat bo'lgani holda mazmun taqozosi bilan g'azal hajmiga teng (7–11 baytli) qit'alar ham uchraydi. Xullas, she'riy shakl masalasiga Navoiy ijodiy yondashib, mazmun va poetik janrlar uchun xos umumiy me'yor talablari asosida ish ko'rgan. Lirik she'rning kompozitsiyasi masalasida ham Navoiyning novatorligi, lirika taraqqiyotidagi buyuk xizmati diqqatga sazovor.

Avvalo, shuni ta'kidlash kerakki, Navoiyning har bir she'ri mazmunan va shaklan mutanosib bo'lib, boshdan oxiriga qadar mantiqiy izchillikka ega bo'lgan yaxlit bir asar bo'lishi lozimligi haqidagi ajoyib mulohazasi rasmiy jihatdan g'azallar haqida bayon qilingan bo'lsa ham, mohiyat e'tibori bilan barcha lirik janrlar uchun taalluqli. Chunki shoir devonidagi qaysi bir janrga murojaat qilmang, ularda ijodkor estetik tamoyillarining yorqin ifodasini ko'rish mumkin. Ikkinchi tomondan, Navoiyning chuqur ma'noga ega bo'lgan mazkur mulohazasi umumlashgan xarakterda bo'lib, ijod jarayonida u mazmun va muallifning shaxsiy uslubi taqozosiga ko'ra xilma-xil aspektida namoyon bo'lishi mumkin [6: 67]. Buning ajoyib isbotini Navoiyning o'z she'rlarida, xususan, uning g'azallari misolida aniq ko'rish

mumkin. Muhim tomoni shundaki, Navoiy g'azaliyotining o'ziga xos fazilatlarini, shoir novatorligining yorqin qirralari uning zamondoshlari diqqatini ham o'ziga tortgan va ular ijodiyotiga samarali ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, Navoiy ijodiyotining haqiqiy muxlisi va obyektiv tadqiqotchisi bo'lmish Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma"da shoir adabiy merosiga umumiy baho bergan bo'lsa, aruz haqidagi asarida o'rni-o'rni bilan uning poetik mahorati qirralarini ta'kidlab o'tadi. Navoiyning bir qator g'azallari lirik qahramon kechinmalari bilan aloqador voqeaning poetik tasviridan iborat.

Navoiyning ilk devoniga kiritilgan "Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro' kelmadi", "Havo xush erdiyu o'limda bir sadah mayi nob" misralari bilan boshlanuvchi ana shu tipdagi g'azallari bu fazilat shoir ijodining dastlabki davrlaridayoq shakllanib yetganligidan dalolat qiladi [2: 73]. Navoiy g'azallari uchun xos yaxlitlik, poetik lavha tarzidagi xususiyatlar uning peyzaj xarakteridagi she'rlarida ham o'ziga xos ravishda namoyon bo'ladi. Lekin bunday she'rlarda muayyan syujet ko'rinmaydi, balki tabiat manzarasining izchil tasviridan shoir o'z muddaosi bayoni uchun o'ziga xos fon sifatida foydalanadi va maqsadning izchilligi she'riy uslubda ham o'z ifodasini topadi.

Ma'lumki, Navoiy g'azaliyotiga xos yaxlitlik, mantiqiy izchillikni ta'minlagan omillardan yana biri har bir g'azalga konkret bir fikr, detal yoxud obrazning (keng ma'noda) asos qilib olinishi va tasviriy imkoniyatlarning barchasi tasvir ob'ekti to'liq va izchil ifodasi uchun safarbar etilishidan iboratdir. Maqsad – g'oyaning konkret bo'lishi hamda tasvirdagi qat'iy izchillik kompozitsiyaning mukammalligi va she'rdagi dinamikaning tabiiyligini ta'min etgan. Bu xususiyatning yuzaga kelishi esa har bir she'rda, tasvir ob'ekti xarakteri bilan bog'liq holda, xilma-xil yo'sinda ko'rinadi (bir g'azalda yagona predmet bilan bog'liq xususiyatlarning izchil tasviri, boshqa birida esa biror voqea-hodisaning tub mohiyatini ko'rsatish uchun bog'liq hodisalarning bayoni va hokazo).

Shuni eslatish kerakki, Navoiy devonidagi poetik usullarning bir qismi Navoiyga qadar bo'lgan o'zbek lirikasida mavjud bo'lsa, ayrimlari boshlang'ich holda bo'lgan, ba'zilar esa mutlaqo bo'lmagan va o'zbek she'riyati uchun yangilik hisoblanadi. Biz xuddi shunga yaqinroq manzarani poetik obrazlar va iboralarda ham mushohada etishimiz mumkin. Navoiyga qadar bo'lgan o'zbek lirikasida barcha janrlar to'liq shakllanmagan edi. G'azal, qasida, masnaviy, tuyuqlarning esa o'z qolipi mavjud edi. Umumiy xulosa shundan iboratki, Navoiyning janrlar masalasida mavjud qolipga munosabati mutlaqo ijodiy va ayrim masalalarda tanqidiy xususiyatga

ega ("Badoye' ul-bidoya" debochasida keltirilgan) [1: 30]. U janr strukturasi xos umumiy yoki asosiy belgilardan eng muhimlarini – g'oyaning badiiy inkishofi uchun monelik qilmaydiganlarini saqlab qolgani holda asar strukturasi yangiliklar olib kirdi. Natijada, janrlarning mavjud qoidalari Navoiy uchun qat'iy chegara emas, balki yanada yuksalkikka parvoz qilish maydoni hisoblanadi. Shuning uchun ham Navoiy g'azal, soqiynoma kabi janrlarning yangicha, mukammal modelini yaratdi. Shuningdek, o'zbek adabiyotida boshlang'ich davrlarda bo'lgan ayrim janrlar rivojlantirildi va ular ichki tugallikka erishdi.

Demak, Navoiy lirikasi Sharq lirikasi tarixida (faqat janrlar yuzasidan olib qaraganda ham) mutlaqo yangi va yuqori bosqich hisoblanadi. Binobarin, O'rta asr Sharq adabiyoti haqida umumiy hukm chiqargan paytda faqat Hofiz yoki bir nechta arab va fors shoirlari merosiga tayanishning o'zi yetarli emas. Yo atamaning ma'nosini chegaralash (izoh bilan), yo bo'lmasa turkiy poeziyaning yuqori cho'qqisigina emas, ayni zamonda Sharq she'riyatining ulkan yutug'i bo'lmish Navoiy lirikasini, albatta, nazarda tutmoq lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 13-jild. – Toshkent: Fan, 1997.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 14-jild. – Toshkent: Fan, 1998.
3. Mallayev N.M. o'zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. – Toshkent: O'qituvchi, 1976.
4. Mualliflar jamoasi. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik. 2-jild. – Toshkent: Fan, 1977.
5. Hayitmetov A. Ilk Navoiyshunoslar / Navoiyga armug'on. 2-jild. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2000.
6. Valixojayev B. Mumtoz siymolar. – Toshkent: Meros, 2003.
7. Boltaboyev H. Mumtoz so'z qadri. – Toshkent: Adolat, 2004.
8. Navoiyning ijod olami. Maqolalar to'plami. – Toshkent: Fan, 2001.
9. Qayumov A. Asarlar. 3-jild. – Toshkent, 2009.

Dilnoza DADABOEVA,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA SHAXS ERKINLIGINING TALQINI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek adabiyotida shaxs erkinligi va ozodlik g'oyalarining badiiy hamda nazariy talqini Cho'lpon va Hamza kabi ijodkorlarning asarlari misolida tahlil qilinadi. Inson qadr-qimmati, erkinligi va huquqlari milliy uyg'onish g'oyalari bilan uzviy bog'liq holda madh etilgani ko'rsatib beriladi. Erkinlik motivining badiiy tasviri, ilmiy-nazariy talqinlari, shaxsiy va ijtimoiy hayoti e'tiborga olinadi.

Kalit so'zlar: shaxs erkinligi, ozodlik g'oyasi, milliy uyg'onish, jadid adabiyoti, badiiy tafakkur, inson qadr-qimmati, erkinlik motivi, ma'naviy yuksalish, ijtimoiy adolat, adabiy meros, taraqqiyot poydevori.

Annotation. This article analyzes the artistic and theoretical interpretation of the ideas of individual freedom and independence in Uzbek literature through the works of Cholpon and Hamza. It is shown that human dignity, freedom, and rights were glorified in close connection with the ideas of national revival. Attention is paid to the artistic depiction of the motif of freedom, its scientific and theoretical interpretations, personal and social life.

Keywords: individual freedom, freedom idea, national revival, Jadid literature, artistic thinking, human dignity, freedom motif, spiritual growth, social justice, literary heritage, foundation of progress.

Аннотация. В данной статье анализируется художественная и теоретическая интерпретация идей свободы личности и независимости в узбекской литературе на примере произведений таких творцов, как Чулпан и Хамза. Показано, что человеческое достоинство, свобода и права восхвалялись в тесной связи с идеями национального возрождения. Уделяется внимание художественному изображению мотива свободы, его научно-теоретическим интерпретациям, личной и общественной жизни.

Ключевые слова: свобода личности, идея свободы, национальное возрождение, джадидская литература, художественное мышление, человеческое достоинство, мотив свободы, духовный рост, социальная справедливость, литературное наследие, основа прогресса.

Shaxs erkinligi masalasi adabiyotda doimiy e'tiborni tortib kelgan murakkab va ko'p qirrali tushunchalardan biridir. U insonning ichki olami, ijtimoiy maqomi, ma'naviy izlanishlari va tarixiy sharoitlar bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Adabiyotshunoslikda shaxs erkinligini tadqiq etish o'ziga xos metodologik

yondashuvlarni, zamonaviy tahlil uslublarini va madaniyatlararo taqqoslashni talab etadi.

O'zbek adabiyotshunosligidagi yondashuvlar

O'zbek adabiyotshunosligida shaxs erkinligi, ko'proq ijtimoiy-ma'naviy kontekstda, ya'ni jamiyat, milliy qadriyatlar va tarixiy sharoit bilan bog'liq holda tahlil qilinib, asosan quyidagi prinsiplarga tayaniladi:

Tarixiylik prinsipi – shaxs erkinligi obrazlarining muayyan davrdagi siyosiy va ijtimoiy muhitga bog'liq holda yoritilishi. Masalan, jadid adabiyotida shaxs erkinligi ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan uyg'unlashgan.

Milliy mentalitetni hisobga olish – o'zbek adabiyotida erkinlik masalasi ko'pincha jamoaviy ong, burch va axloqiy mezonlar bilan bog'liq tarzda yoritiladi.

Etik-psixologik yondashuv – qahramonning ichki erkinligi, ruhiy holati, ma'naviy tanlovi tahlil qilinadi (Oybek, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon asarlarida).

Xorijiy adabiyotshunoslikdagi yondashuvlar

G'arb va boshqa xorijiy adabiyotshunoslikda shaxs erkinligi, odatda, individualizm, ekzistensializm, psixoanaliz va modernistik yondashuvlar doirasida o'rganiladi:

Ekzistensial yondashuv (Sartre, Kamyu) – inson erkinligi uning tanlovi, yolg'izligi va mas'uliyatida namoyon bo'ladi.

Psixologik yondashuv (Freyd, Jung) – shaxsning ichki erkinligi ongsiz instinktlar, bolalikdagi tajriba va ruhiy jarayonlar orqali izohlanadi.

Postmodernistik yondashuv – erkinlik tushunchasi nisbiy, murakkab va ko'p qatlamli deb qaraladi (Kafka, Bekket asarlarida).

Feministik va postkolonial tahlillar – shaxs erkinligini gender va madaniy kontekstda tahlil qilish (Toni Morrison, Chimamanda Ngozi Adichie asarlari).

Taqqosiy nuqtayi nazar

O'zbek va xorijiy adabiyotshunoslikda shaxs erkinligini tadqiq qilishda quyidagi umumiy prinsiplarga amal qilinadi:

Kontekstual tahlil – adabiy obrazlar tarixiy va madaniy muhitda baholanishi.

Intertekstual yondashuv – shaxs erkinligi g'oyasining turli adabiy an'analarda aks etishini solishtirish.

Dialogik tahlil (Baxtincha) – erkinlik masalasi ijtimoiy ovozlari, qarama-qarshiliklar orqali yoritilishi.

O'zbek adabiyotshunosligida shaxs erkinligi bir necha olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo'lib, ulardan Matyoqub Qo'shjonovning "Hamza Mahoratidan Lavhalar", "Qodiriy – erksizlik qurboni", Dilmurod Qur'onovning "Cho'lpon nasri poetikasi", "Adabiyot nadir" yoki Cho'lponning mangu savoli kabi tahlillarida inson erk-zodligi haqida o'z tahlillarini bayon etishgan.

Matyoqub Qo'shjonovning "Hamza mahoratidan lavhalar" tahliliy kitobida Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodiga chuqur nazar tashlaydi [1: 34]. Yozuvchining ijodi juda ham xilma-xil bo'lib, turli xil mavzular o'rin olgan. Ulardan biri erkinlik, hurriyat mavzusi haqida so'z boradi. Matyoqub Qo'shjonovning ushbu kitobida quyidagi tahlillarga duch kelamiz. "Hamza ashula-she'rlariga yana bir muhim tushuncha kirib keladi. Bu – hurriyat tushunchasidir. Revolyutsiya arafasida Turkistonda keng tarqalgan bu so'zni ham Hamza o'z dunyoqarashi, estetik prinsiplari asosida ishlatadi. Ashula – she'rlarning asosiy mohiyati xalqning og'ir ahvoliga achinish, uni ma'rifatga chaqirish, taraqqiyotga to'siq bo'ladigan

illatlarni qoralashdir. "Hurriyat" so'zini ham shoir shu estetik prinsiplariga bo'ysundirgan holda tadqiq etadi. O'qish, o'rganish, uning nazarida, jaholat pardasini yirtib, hurriyat g'alabasini olib keladigan omillardan biridir. Shoir nazarida yangi zamon boshlanmoqda, bu – erk zamoni, ilm-urfon zamoni, yangiliklar zamoni.

Afsuski, shoir kutgandek erkinlik davri kelmadi. Xalqning chorizm ta'siridan qutulgan, burjuaziya qobig'idan xalos bo'lish kaliti ilm o'rganishda deb bildi, Fevral revolyutsiyasidan katta ozodlik kutdi, ammo u kutgandek natija bo'lmadi, lekin umidsizlanmay chin ozodlik davri kelishiga ishonch bildirib, 1917-yil o'rtalarida "Shundoq qolurmu?!" she'rini yozadi. Hamza Hakimzoda Niyoziyning 1916–1917-yillardagi ijod nafasi tamomila erkinlikka intilish bilan yo'g'rilgan bo'lib, yangi hayotga umid, chaqiruv va undov sadolari keladi. U o'zining inqilobiy hayqirig'ida ilm-ma'rifatgina xalqni jaholat, asirlik va tobelik botqog'idan qutqarish mumkinligini qayta-qayta uqtiradi, xalqni ilmsizlik uyqusidan uyg'onishga va jamiyat illatlari bilan kurashishga chorlaydi. Hurriyat davri kelishiga katta niyatlar qiladi. Hamza o'z asarlarida tom ma'noda o'zini ozodlik kuychisi ekanligini yaqqol namoyon etadi. Hamzaning 1917-yilda yo'zgan she'rlari uning to'rt jildlik asarlar to'plamiga jamlangan va janr jihatidan bu ijodiy to'plam ashulalar bo'lib, revolyutsiya paytida yozilgan. Mazmuni va shakliga ko'ra avvalgi she'rlaridan butunlay farq qilgan holda ijodkorning hurriyat umidi nafasi bilan yozilgan. Oktabr revolyutsiyasidan keyingi she'rlari esa erishilgan erkinlikni shod qarshi oladi, uzoq kutilgan azaliy taraqqiyotning ilk qadami deb baholaydi. Ushbu she'rlarida jamiyatning asosiy bo'g'ini – ishchilar sinfi deb biladi va adib ijodida asosiy o'rin tutadi. Xususan shoirning "Ishchilar uyg'on", "Hoy ishchilar", "Hoy, hoy otamiz" she'rlarida ularning asl nochor holini tasvirlab, o'tmishdagi holatni eslatadi, ekspluatatorlar qatlami zulmiga qarshi isyonga, kurashga chorlaydi. Hamza Hakimzoda Niyoziyning inqilobga yaqin paytlarda yaratilgan bir qator she'rlarida boylar, yuqori sinf vakillari, shariat peshvolarini hayviy yo'llar bilan tanqid qildi. Oktabr inqilobidan so'ng esa uning ovozi ishonchga to'la bo'ldi, asarlariga dadillik ruhi kirdi. G'alabani shod-xurramlik bilan kutib olib shoirni yanada ilhomlantirib yangi mazmun, ko'tarinki kayfiyatdagi she'rlar tug'ila boshladi. "Zamon keldi...", ("Biz ishichimiz"), "Yangi turmush yo'llarida yosh ko'ngillar yashnasin!" ("Yasha Sho'ro"), "Sho'ro hokimiyati ko'p yashasin, "Erkinlik marshi" kabi ijod mahsullari shular jumlasidandur. Qolaversa, uzoq kutilgan g'alaba osonlik bilan erishilmagani, hurriyatni qadrlash va uni himoya qilish kerakligini adib o'z she'rlarida jo'shqin da'vat etadi. Turkiston zaminiga kirib kelgan inqilob g'alabasidan quvonib "Ishchi bobo" she'rida "Sharqqa quyosh chiqdi", deb ta'riflaydi [1: 38]:

*Ishchi bobo seskansangchi
Sharqqa quyosh chinlab chiqdi.*

Hamza Hakimzoda Niyoziyning inqilob ruhidagi ijod mahsuli 1919-yilda bitilgan “Berma erkingni qo‘ldan” she‘ri bilan yakun topadi. Ushbu asar she‘r-ashula uslubida yo‘zilgan bo‘lib ozodlik va erk uchun kurash va uni himoya qilish muhim ekanligini uqtiradi. Erkinlik tiriklikning asosiy yutug‘iligini aniq va tiniq tasvirlab beradi.

Matyoqub Qo‘shjonovning “Hamza mahoratidan manzaralar” asari o‘zbek ma‘rifatparvar shoiri va dramaturgi Hamza Hakimzoda Niyoziy hayoti, ijodi va ijtimoiy faoliyatiga bag‘ishlangan muhim tahliliy asarlardan biridir. Bu asarda Hamzaning mahorati, dramatik sahnalar yaratish usuli, tilga bo‘lgan e‘tibori, eng muhimi, erk g‘oyasiga sodiqligi yoritilgan.

Asarda erkinlik mavzusi quyidagicha aks etgan:

1. Hamzaning ijtimoiy erkinlikka da‘vati. Hamza o‘z asarlari orqali xalqni jaholat, zulm, feodal tuzumdan xalos etishni maqsad qilgan. Qo‘shjonov Hamzaning bu kurashini tahlil qilib, uni “xalq ozodligi uchun kurashgan ijodkor” deb ta‘riflaydi. Pyesalarida aks etgan Hamzaning zo‘ravonlik, ayollarga zulm, savodsizlik kabi illatlarga qarshi kurashini ozodlikka xizmat qilib ko‘rsatadi.

2. Fikrlash erkinligi. Hamza asarlarida o‘z davrining ijtimoiy muammolariga ochiq to‘xtalib o‘tishdan qo‘rqmagan. Qoshjonov bu jasoratni ijodkorning fikr erkinligiga hurmati, deb baholaydi. Ayniqsa, “Zaharli hayot” yoki “Paranji sirlaridan bir lavha” kabi asarlarida Hamza fikr erkinligi orqali o‘z davri illatlarini fosh etadi.

3. Ayollar erkinligi. U o‘z asarida Xamzaning ayollar muammolariga munosabatini tahlil qiladi. Xotin-qizlarning ijtimoiy hayotda erkin fikrlashi va ilm-ma‘rifatga hissa qo‘shishini erkinlikning asosiy shakli sifatida ko‘radi. Shu nuqtayi nazardan, Qo‘shjonov Hamzaning teatr faoliyatiga ham sahnadagi erkinlik g‘oyasining ifodasi sifatida qaraydi.

4. Ijodiy erkinlik. Hamzaning dramaturg bo‘lib yetishishi, o‘ziga xos sahna tilini yaratishi ham ijodiy erkinlikning bir namunasidir. Qo‘shjonov ijodida Hamzaning teatrdagi yangiligi, obrazlar yaratishga yondashuvlari uning mustaqil ijod yo‘lidan dalolat beradi.

“Hamza mahoratidan parchalar” asarida erk g‘oyasi markaziy mavzulardan biri sifatida yoritilgan. Matyoqub Qo‘shjonov Hamza hayoti va faoliyatini tahlil qilar ekan, uning xalq, jamiyat, xotin-qizlar ozodligi uchun kurashini chuqur ochib beradi. Bu asar nafaqat Hamza ijodiy obrazini aks ettiradi, balki o‘zbek adabiyotida erk g‘oyasining shakllanishi va rivojlanishi haqida ham muhim ma‘lumotlar beradi.

Muxtasar aytganda, Matyoqub Qoshjonov “Hamza mahoratidan lavhalar” asarida **erkinlik** mavzusini keng doirada tahlil qiladi. U Hamza Hakimzoda Niyoziy xalq erkinligi, xususan, inson erkinligi uchun kurashgan, ayollarning ijtimoiy o‘rnini tiklashga harakat qilgan, zamonaviy sahna orqali fikr erkinligini targ‘ib etgan mustaqil fikrli ijodkor sifatida ko‘rsatadi.

Bu orqali Qoshjonov o‘z asarida **erkinlik g‘oyasini o‘zbek adabiyotshunosligida ilmiy asosda tahlil qilgan muhim tadqiqotchi** sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbek adabiyotshunosligida yana bir yirik ijodkor D.Quronov o‘zbek modernizmining yirik vakillaridan biri bo‘lgan **Abdulla Qodiriy** va ayniqsa **Cho‘lpon** ijodiga murojaat qilib, ular asarlarining markaziy g‘oyasi – erkinlik mavzusini chuqur tahlil qiladi. Xususan, olimning “Cho‘lpon nasri poetikasi” asarida Cho‘lpon nasrining o‘ziga xos badiiy olami, obrazlar tizimi, til poetikasi va, albatta, **shaxs erkinligi** mavzusi tahlil qilinadi [2: 56].

Shaxs erkinligi Cho‘lpon nasrining asosiy yo‘nalishi bo‘lib, Dilmurod Quronov Cho‘lponning nasriy asarlarida **insonning ruhiy holati, ichki kechinmalari, jamiyatda tutgan mavqei va ozodlikka bo‘lgan intilishi** asosiy estetik-ideologik yo‘nalishida ko‘rilishini ta‘kidlab o‘tadi [2: 78].

Olimning talqinicha, **Cho‘lponning ijodiy mahsuli inson qalbining erkinlik orzusiga yetishishiga badiiy tasvirlar vositasida shaxs erkinligining falsafiy mohiyatini ko‘rsatib beradi**. D.Quronov ayniqsa, “**Kecha va kunduz**” romanini tahlil qilib [3: 43], **Zebi** obrazi orqali ayol shaxsining erkinlikka bo‘lgan intilishi – **nafaqat ijtimoiy, balki ichki, ruhiy ozodlik** istagi sifatida ifodalaydi. **Omon** obrazi esa millat va shaxsiyat orasida ikkilanish, o‘zligini anglash va shu orqali **shaxsiy erkinlikka erishish** jarayonini ko‘rsatadi. Cho‘lpon fikricha, shaxs erkinligi bu – **inson o‘z tanlovini mustaqil amalga oshira olish huquqi**, his-tuyg‘ulariga qarshi chiqmasdan, balki ular bilan hamohang uyg‘un yashay olish imkoniyatidir. Quronov Cho‘lpon nasrida erkinlikni faqat siyosiy emas, balki **falsafiy, ma‘naviy tushuncha** sifatida tahlil qiladi. Bu erkinlik avvalo **o‘zligini anglash, qiziqish va istaklariga quloq solish, o‘z fikriga ega bo‘lish**, shuningdek hayotda yo‘lini topish bilan asoslaydi. Shaxs erkinligiga erishishda **kurash, iztirob, qaror qabul qilish va javobgarlikni bo‘yniga olish** kabi mashaqqatli yo‘llarni bosib o‘tish kerakligini ta‘kidlaydi. Bu jihatlar Cho‘lpon nasrining salmoqli qismini tashkil etib, asarlarida ham o‘z aksini topgan. Shuningdek, Dilmurod Quronov Cho‘lpon nasrida **badiiy til, lirizm va ramziy tasvirlar** ko‘rishida ham shaxs erkinligi g‘oyasining uzatilishini ko‘rsatib beradi. Bu o‘rinda qahramonlarning **tashqi voqealari emas, balki ichki dunyosini ramzlar, badiiy vositalar** bilan ko‘proq tasvirlanadi.

Dilmurod Quronovning “**Cho‘lpon nasri poetikasi**” asarida shaxs erkinligi quyidagicha talqin etiladi:

- Erkinlik – Cho‘lpon nasrining asosiy estetik tamoyilidir.
- Bu erkinlik shunchaki siyosiy mustaqillik emas, balki **ma‘naviy, ruhiy ozodlik**dir.
- Ayol obrazi orqali ijtimoiy erkinlik; erkak obrazi orqali **ruhiy, falsafiy kurash** ko‘rsatiladi.
- Til va uslub orqali badiiy erkinlik konsepsiyasi chuqur yoritiladi.

Cho'lpon ijodida ayollar huquqi masalasi adibning keng qamrovli adabiy merosidan muhim o'rin egallaydi. Ayollar huquq va erkinligi zahirida butun bir millat ozodligi masalasi turganligini o'z asarlarida yorqin ifodalab bergan. Uning "Kecha" nomli asarida, ya'ni zamondagi ma'naviy qashshoqlik, jaholat botqog'iga botib qolgan, razolat o'rab olgan jamiyatni zulmat pardalari bilan o'ralganini his etadi. Cho'lpon bu ma'naviy qashshoq davrni qiyoslash uchun asarni "Kecha" deb nomlashga ahd qildi. Bu davrning dahshatli tomoni shundaki u insonlarni ma'naviy tanazzulga olib boradi, ruhan majruh qiladi. Odamlar faqat bugunning tashvishi bilan o'ralashib, na oxirat haqida o'ylaydi va na foni dunyodagi hayotini yaxshilaydi. Asarning bosh qahramoni Zebi obrazi talqin etilib, uning iztiroblari, inson sifatidagi his-tuyg'ulari butun hayoti va taqdir yo'llarida keng aks ettiriladi. Inson sifatida huquqlari poymol etiladi, ayol sifatida o'jizaligidan foydalaniladi, butun jamiyat bir ayolni himoya qilish xayoliga ham kelmasdan uning fojiaiy taqdiriga tomoshabin bo'lib qo'l qovushtirib turishadi, uning achchiq qismatini taqdirning chizig'iga to'nkab qo'ya qoladi. Ayollarning haq-huquqlari toptalanadi, fojiali taqdirlari yaqqol chizgilar bilan tasvirlanadi, erk va muhabbat orzusidagi kurashlari kuylanadi. Zebi sujet liniyasi atrofida butun xotin-qizlar taqdiri markaziy o'rinda turgandek tuyuladi. Lekin Zebi orqali Cho'lpon mustamlaka tuzumi bilan ezilgan, erkinlik va ozodlikdan mahrum bo'lgan, shuningdek, haqiqat, adolat va o'z haq-huquqlari uchun kurashishga jur'at etmagan xalqning achinarli ahvoli tasvirlanib inson erki masalasi pirovard maqsadga aylanadi. Adibning Zebi timsolida mutelikka yo'l bergan uni hayotiy dasturga aylantirgan inson fojiasini ko'rsatib beradi. Shu mutelik orqali bir inson emas, jamiyatning asosiy bo'g'ini – butun bir oilaning fojiasiga olib kelganini yorqin ifodalab berdi. Yillar davomida ezilgan, ma'naviy biqlikka tushib qolgan jamiyatda inson erki poymol etiladi, haq-huquqlari toptalinishi asarda o'z aksini topgan. Demak, asar nafaqat bir ayolning fojiasini, balki xalqning erksizlikka mahkum etilgan taqdirini badiiy umumlashtirishdir.

Cho'lponning inson erki masalasi uning nazm durdonalarida ham asosiy mavzuligicha qolgan. 1922-yilda yozgan "Ko'ngil" she'rida quyidagi satrlarga duch kelamiz:

*Ko'ngil, sen munchalar nega
Kishanlar birla do'stlashding?
Na faryoding, na doding bor,
Nechun sen muncha sustlashding?
Haqorat dilni og'ritmas,
Tubanlik mangu ketmasmi?
Kishanlar parchalanmasmi,
Qilichlar endi sinmasmi?
Tirixsan, o'lmagansan,
Sen-da odam, sen-da insonsan;*

*Kishan kiyma, bo'yin egma,
Ki, sen ham hur tug'ilg'onsan! [4: 1]*

Ushbu satrlar adib ozodlik, insoniy qadr-qimmat va milliy uyg'onish g'oyalariga bag'ishlangan she'riyatidan namuna bo'lib jo'n va sodda til bilan yo'g'rilgan. She'r mazmunida **erkinlik va kishan** motivlari asosiy o'rinda turadi. Lirik qahramon "ko'ngil" obraziga murojaat qilib, uni kishanlardan, sustlik va befarqlikdan voz kechishga chaqiradi. Adib ko'ngilga murojaati orqali ichki tug'yonini fosh etadi [5: 25]. Bu yerda "ko'ngil" ramziy ma'no kasb etib, xalqning ruhiyati, irodasi va ongini ifodalaydi. Kishan esa hukmronlik asoratini, qullik va tobelikni anglatadi. She'rda lirik qahramon xalq ruhiyatidagi sustkashlikni, befarqlikni tanqid qiladi, uni uyg'onishga, erkinlik uchun kurashga da'vat etadi.

Badiiy jihatdan, satrlarda ritorik savollar ("Na faryoding, na doding bor, / Nechun sen muncha sustlashding?") orqali xalqning befarqligi ochib beriladi. Epitet va metaforalar ("kishanlar", "qilichlar") esa ozodlik va kurash ramzlari sifatida foydalanilgan. Ayniqsa she'rning so'nggi satrlarida esa muallifning pirovard maqsadi – inson erkin tug'iladi va uni asoratda yashash emas, balki hur yashashga chorlash lozimligini ifodalaydi [6: 19].

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, mashhur adibimiz qalbi va qalami bir-biriga hamohang uyg'un holda doim ozodlikka umid, unga erishish uchun kurash o'ti bilan yonib-kuyib yashagan, bir muddat ham ortga chekinmay inson erki uning hayotiy va ijodiy maqsadi bo'lganligi yaqqol korinib turibdi. Butun umri davomida **insonning qadr-qimmatiga erishish, millatning uyg'onishini kutib, xalqni hushyorlikka, harakatga chorlovchi asarlar yaratgan.**

O'zbek adabiyotida shaxs erkinligi va ozodlik g'oyalarining badiiy ifodasi milliy adabiy tafakkur rivojida alohida o'rin tutadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, "inson erki va huquqi masalasi har qanday davr adabiyotining eng dolzarb mavzularidan biri sifatida millatning ma'naviy uyg'onishini ta'minlagan" (D.Quronov). Ayniqsa, jadid adabiyoti vakillari hamda Cho'lpon, Hamza kabi ijodkorlarning asarlarida shaxsiy erkinlik va milliy ozodlik masalalari o'zaro uzviy bog'liq holda talqin qilinib, xalqni uyg'otishga qaratilgan badiiy hayqiriq sifatida gavdalangan. Mustaqillikdan keyingi davrda esa adabiyotshunoslikda erkinlik mavzusi yangicha nazariy yondashuvlar bilan tadqiq etilib, "ozodlik g'oyasi jamiyat taraqqiyotining poydevoriy mezonlaridan biri" [1] sifatida baholandi.

Shunday qilib, o'zbek adabiyotshunosligida shaxs erkinligini kuylagan yozuvchilar ijodi nafaqat milliy badiiy merosni boyitgan, balki ilmiy-nazariy qarashlarning shakllanishiga ham kuchli ta'sir ko'rsatgan. Ularning

asarlarida yoritilgan ozodlik va erkinlik motivlari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan holda, jamiyatning ma'naviy yuksalishi va milliy o'zlikni anglash jarayonida muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Demak, shaxs erkinligi masalasi o'zbek adabiyoti va adabiyotshunosligida nafaqat badiiy-estetik hodisa, balki ijtimoiy-madaniy taraqqiyotning zaruriy sharti sifatida ilmiy asoslangan holda qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qo'shjonov M. Hamza mahoratidan lavhalar. – Toshkent: Fan, 1986. – 70 b.
2. Quronov D. Cho'lpon nasri poetikasi. – Toshkent: Sharq, 2004. – 288 b.
3. Quronov D. Ruhiy dunyo tahlili. "Kecha va Kunduz" romanida xarakterlar psixologizmi. – Toshkent, 1995. – 114 b.
4. Cho'lpon. Ko'ngil. – Toshkent, 1922.
5. Rasulov B. O'zbek adabiyotida ozodlik g'oyasi. – Toshkent: Akademnashr, 2015.
6. Zohidov F. O'zbek adabiyotida milliy uyg'onish g'oyalari. – Toshkent: Fan, 2002.

Madina TURDIMATOVA,

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

INTENDED MEANING OF IRONY IN THE PROCESS OF SPEECH ACTS

Annotation. This study explores verbal irony as a key subtype of irony, emphasizing its psycholinguistic features and cognitive underpinnings. Unlike written discourse, oral speech reveals the nuanced dynamics of ironic expression, where meaning is intentionally displaced from its literal interpretation. Verbal irony engages multiple mental processes, including emotional intelligence, background knowledge, and contextual awareness. Drawing on insights from cognitive linguistics and psychology, the study demonstrates that irony operates not merely as a linguistic device but also as a manifestation of individual cognition and communicative intent.

Keywords: verbal irony, perception (mentalizing), emotional intelligence, addresser, addressee, contextual meaning.

Annotatsiya. Ushbu maqolada ironiyaning muhim turlaridan biri hisoblangan so'zlashuv (verbal ironiya) o'rganiladi hamda uning psixolingvistik xususiyatlari va kognitiv jihatlarini yoritiladi. Yozma manbalardan farqli o'laroq, og'zaki nutq ironik ifodaning nozik jihatlarini ko'rsatib beradi, bunda ma'no atayin o'zining bevosita shaklidan chetlashtiriladi. So'zlashuv kinoyasi turli aqliy jarayonlarning faollashuvini talab qiladi, jumladan, emotsional qobiliyatlar, fon bilimlari va kontekstual xabardorlik. Kognitiv lingvistika va psixologiya sohasidagi tadqiqotlarga asoslanib, tadqiqot ishida kinoya faqat lingvistik hodisa emas, balki shaxsiy kognitiv tajriba va kommunikativ maqsadning aks ettiruvchisi sifatida ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: verbal ironiya, idrok (mentalizatsiya), emotsional intellekt, qabul qiluvchi, murojaat qilingan shaxs, kontekstual ma'no

Аннотация. В данной статье рассматривается вербальная ирония как важный подтип иронии, акцентируется внимание на её психолингвистических свойствах и когнитивных аспектах. В отличие от письменных источников, устная речь раскрывает тонкие особенности иронического выражения, при котором значение намеренно отходит от буквального. Вербальная ирония требует активации различных мыслительных процессов, включая эмоциональные способности, фоновые знания и контекстуальную осведомлённость. Опираясь на исследования в области когнитивной лингвистики и психологии, работа подчеркивает, что ирония функционирует не только как лингвистическое явление, но и как отражение индивидуального когнитивного опыта и коммуникативного намерения.

Ключевые слова: вербальная ирония, восприятие (ментализация), эмоциональный интеллект, получатель, адресат, контекстуальное значение.

A number of mental processes must be activated for verbal irony to occur. Just as cognitive linguistics has explored the cognitive, or interpretive, dimensions of words, ironic utterances also participate in cognitive phenomena. As Sullivan, Winner, and Hopfield note, "an individual's emotional abilities, mental capacity, background knowledge, and belief system play a crucial role in perceiving ironic speech" [3: 204]. This observation implies that in any language, a sentence produced in one's native tongue directly reflects the underlying cognitive process. A person's external knowledge – that is, their memory associated with words, contextual familiarity, intonation, tone of voice, and other situational cues – all

contribute to the perception of irony alongside other stylistic means of influence.

The study of verbal irony, which belongs to the internal category of irony, is of particular importance. Verbal irony functions not merely as a linguistic phenomenon but as one that is more pervasive than other types of irony due to its psycholinguistic characteristics. Spoken discourse, when compared with written sources, reveals many subtle and intriguing aspects of language use. Verbal irony has therefore been examined by researchers from psychological as well as linguistic perspectives. In ironic speech, a purely literal meaning is not intended, nor is there a clear and fixed boundary between ironic and non-ironic utterances.

For instance, in ironic expression, describing someone as “elegant” does not straightforwardly mean “clumsy,” but rather implies a spectrum of associated meanings – awkward, rough, shy, sloppy, or shabby. A distinctive feature of verbal irony is that the speaker deliberately constructs the ironic meaning, intentionally distancing their utterance from its literal sense.

Valeria Pfeifer states that verbal irony integrates two main factors essential for its effective realization in speech:

1. Perception (mentalizing. 2. Emotional intelligence.

In the process of mutual exchange and understanding between the participants of communication – the speaker (addresser) and the listener (addressee) – these two factors are primarily attributed to the listener. This is evident in the following example: “*I am in a great mood*” (uttered with an angry tone and a frown). When relying on imagination and contextual interpretation, only a person possessing sufficient intellectual capacity and linguistic awareness can perceive the hidden ironic meaning in such a statement. Therefore, the two factors mentioned above – perception and emotional intelligence – are undoubtedly recognized as essential components in the realization of verbal irony.

Based on the fundamental characteristics of irony, literary theorist **Douglas Muecke** identifies three principal features of irony in a general sense:

1. Dual-layered structure – Irony contains two layers of meaning, and its successful use, according to Muecke, depends on perception. “In the lower layer lies the situation presented implicitly by the speaker using irony; in the upper layer lies the situation visible to an external participant, that is, the listener.”

2. Contradiction or inconsistency – The ironist deliberately employs contradiction, dissimilarity, or incongruity between these two levels.

3. Ambiguity in interpretation – During speech, the recipient may hesitate as to which meaning of irony is intended. When they feel they have grasped the original meaning, they are simultaneously confronted by the contradictory layer, creating confusion or uncertainty (often reflected in a “cut-off” tone).

In English linguistics, the person employing irony is referred to as an “**ironist**”. We also find it appropriate to adopt this term in Uzbek for both spoken and literary contexts, as it preserves linguistic conciseness and economy by replacing a word combination with a single lexical item.

From the three features of irony discussed above, we can infer several subtle aspects that manifest contextually. In particular, irony – through the use of vivid, flattering, or seemingly pleasant words that conceal mystery, hidden meaning, and misleading implications – typically places the target of irony in a complex communicative position.

As Douglas C. Muecke [4: 102] notes, irony’s “two-layered” nature ensures that even the most colorful expressions never lose connection with their original, pragmatic, and emotional meanings within the context.

In examining the manifestation of irony within speech acts, attention should be directed to the **concept of proposition**. According to **M.Khakimov**, one of the structural units of a speech act is the **propositional act**, which he defines as follows:

“A propositional act, as a substantive structure, encompasses the informational content of a speech or a sentence. In linguistics, the term *dictum* is often used synonymously with the concept of a propositional act. A dictum, as a linguistic term, represents a proposition that contains the core content of a sentence. A propositional act is a message about the subject of speech and its affirmation, specific to the speaker’s utterance” [1: 158]. Let us compare the manifestation of irony within propositional acts in the following examples from English and Uzbek:

Context: It is raining heavily. – *The rain is pouring down.*

Speaker’s implicit attitude: “*What lovely weather we’re having!*” – “*What lovely weather!*”

Speaker’s communicative purpose: “*The weather is terrible.*” – “*The weather is unpleasant.*”

In this speech act, the utterance about the rain constitutes the **propositional act**. The propositional act activates the speaker’s **communicative intention**, while the speaker’s **attitudinal stance** is conveyed implicitly. The speaker does not overtly disclose their true intention. Instead, in expressing the communicative goal, the **illocutionary act** is deliberately concealed beneath the propositional content. Thus, the illocutionary purpose is reflected within the **semantic structure of the proposition**.

Here, the speaker employs irony as a linguistic and pragmatic device within the illocutionary act to implicitly convey their communicative purpose. Through this mechanism, the speaker’s real meaning diverges from the literal propositional meaning, resulting in a contrast between **explicit expression** and **implicit intention**.

This phenomenon aligns with **N.Kazakova’s theory** [2: 104], which posits that in the process of generating an ironic utterance, speakers often use irony as a means of **mitigating potential conflict** in communication through subtle forms of **criticism, humor, or ridicule**. In both English and Uzbek, sentences and speech situations of this type demonstrate internal differences in **pragmatic interpretation** despite surface-level similarity. The variance lies in how each linguistic culture encodes the balance between **criticism and politeness, emotion and intellect**, and **directness and concealment** in the ironic act.

References

1. Hakimov M., G‘aziyeva M. Pragmalingvistika asoslari. – Toshkent, 2020. – B. 158-162.
2. Qazaqova N. G‘afur G‘ulom asarlarining pragmalingvistik tadqiqi: Filol. fan. nomz... diss. – Namangan, 2019. – B. 104.
3. Sullivan K., Winner E., Hopfield N. How children tell a lie from a joke: The role of second-order mental state attributions // British journal of developmental psychology, 1995, №13(2), – P. 191–204.
4. Muecke D.C. The compass of irony. Taylor & francis limited, 2023. – P. 91–92.

Mukammalxon KOSIMOVA,

*Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

ISH YURITISH USLUBIDA QO'SHMA GAP TURLARINING QO'LLANILISHI

Annotatsiya. Maqolada rasmiy uslubning asosiy belgilari – aniqlik, ixchamlik va bir ma'nolilik yoritilgan. Hujjatlarda keng qo'llaniladigan qo'shma gaplarning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, o'zbek va ingliz tillaridagi rasmiy hujjatlar tilida qo'llaniladigan qo'shma gap turlarining sintaktik tuzilishi, mazmun ifodalashdagi o'рни va funksional yuklamasi qiyosiy tahlil etilib, tarjima muvofiqlik hamda amalda qo'llanilish imkoniyatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: rasmiy uslub, qo'shma gap, ergash gap, teng bog'lovchilar, bog'lovchisiz qo'shma gap, rasmiy yozishmalar.

Annotation. The article highlights the main features of official style - accuracy, conciseness, and unambiguity. The documents analyze the features of widely used compound sentences. Also, a comparative analysis of the syntactic structure, the role in expressing the content and functional load of the types of compound sentences used in the language of official documents in Uzbek and English was conducted, and the correspondence of translation and practical application possibilities were highlighted.

Keywords: official style, compound sentence, subordinate clause, coordinating conjunctions, conjunctionless compound sentences, official correspondence.

Аннотация. В статье освещаются основные черты официального стиля - точность, лаконичность и однозначность. В документах проанализированы особенности широко используемых сложных предложений. Также проведен сравнительный анализ синтаксической структуры, роли в выражении содержания и функциональной нагрузки видов сложных предложений, используемых в языке официальных документов на узбекском и английском языках, освещены соответствие перевода и возможности практического применения.

Ключевые слова: официальный стиль, сложное предложение, придаточное предложение, сочинительные союзы, бессоюзные сложные предложения, официальная переписка.

“Barcha hujjatlar va rasmiy yozishmalarni o'z ichiga oluvchi uslub rasmiy uslub” [2: 30] bo'lib, uning qo'llanish doirasi juda kengdir. Ish yuritish hujjatlari, diplomatik, biznes, sud hujjatlarining hammasi rasmiy uslubda yoziladi, yuritiladi. M.Kojina rasmiy-idoraviy uslubni tilning ma'muriy-huquqiy ijtimoiy faoliyatda qo'llanadigan turi va shu ijtimoiy sohadagi nutqiy faoliyatga xos til vositalari bilan xarakterlanadi deya ta'riflaydi [3: 25]. O.A.Fedorovskayaning fikricha, “ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayotda, davlatlar, tashkilotlar hamda jamiyat a'zolarining rasmiy muloqotlari paytida yuzaga keladigan rasmiy munosabatlarni rasmiy hujjatlar ko'rinishida ifoda etadigan uslubdir” [4: 70]. Bu uslub har qanday bo'yoqdorlik, ko'p ma'nolilik va ifodalilikdan xoli ekanligi bilan ajralib turadi.

Rasmiy ish stili boshqa uslublarga qaraganda sinq va chegaralangandir [5: 11]. Rasmiy uslub uchun aniqlik o'ta muhim, yani, hatto bir gapning o'zida nima, kim, qachon, qayerda, qanday qilib kabi savollarga javob berishga to'g'ri kelishi mumkin. Bu esa gaplarning to'liq bo'lishini talab qiladi. Shuning uchun ham rasmiy uslub uchun to'liq gaplar harakterlidir. Bunda o'zbek tilining grammatik qoidalariga to'liq amal qilinadi. Qonun hujjatlari o'ziga hos murakkablikka ega bo'lsa, xizmat hujjatlari qisqa va tili soddaroq ekani bilan ulardan farq qiladi. Hujjatlar tilini tahlil qilib, ularda qo'shma va ergashgan qo'shma gaplarning ishlatilishi bilan bog'liq xususiyatlarni quyida ko'rib chiqamiz.

Qo'shma gaplarning ishlatilishi. Hujjatlarda odatda bir gapning ichida sabab, maqsad, shart-oqibat kabi ma'nolar anganadi va bu o'z-o'zidan uzun va murakkab gaplar qurilishiga olib keladi. Hujjatlar turiga qarab ulardagi gaplar hajmi ham har hil bo'ladi. Masalan, qonun hujjatlari, tashkiliy hujjatlar ko'proq murakkab gaplarni o'z ichiga olsa, xizmat yozishmalarida soddaga gapdan tortib murakkab

qo'shma gapgacha uchratish mumkin. Odatda soddaga yig'iq gaplar hujjatlarda uchramaydi, lekin soddaga yoyiq gaplarni barcha hujjatlarda topish mumkin.

Meni 4-kasalxonaning ichki kasalliklar bo'limiga vrach sifatida ishga qabul qilishingizni so'rayman. (arizadan)

I revoke all my prior wills and codicils [6] – Men barcha oldingi vasiyatnomalarim va kodissillarimni bekor qilaman (vasiyatnomadan).

Ingliz tilida odatda xizmat yozishmalarining boshida yoki ohirida soddaga gaplar ishlatiladi. O'rtasida esa qo'shma va murakkab gaplarni ko'rish mumkin. Lekin bu qat'iy qoida emas, ko'p hollarda gaplar shu tartibda berilishim mumkin.

Hujjatlarining asosini turli qo'shma gaplar tashkil etadi. Ma'lumki, qo'shma gaplar quyidagi turlarga bo'linadi: 1) teng bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplar; 2) ergashtiruvchi bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplar. 3) bog'lovchi-yuklamalar vositasida bog'langan qo'shma gaplar; 4) nisbiy so'zlar vositasida bog'langan qo'shma gaplar; 5) faqat ohang vositasida bog'langan qo'shma gaplar [6]. Quyida qo'shma gaplarning hujjatlarda tez-tez uchraydigan turlari tahlil qilingan.

1) Teng bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gaplar. Bunday gaplar ikkita soddaga mustaqil gapni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladi. Lekin o'zbek tili hujjatlarida teng bog'lovchili qo'shma gaplar kam, sababi, odatda qo'shma gaplar vergul bilan yoziladi.

Men... meros mulkini qabul qilib oldim va meros qoldiruvchining vafot etgan vaqtidan boshlab uni amalda boshqara boshladim. (arizadan)

Lekin har ikki tilning xususiyatlariga mos ravishda o'zbek tilida egani tushirib qoldirish mumkin bo'lsa, ingliz tilida shaxs-son qo'shimchalari yo'qligi sababli, fe'llar uyushib kelganda ega tushib qolsa ham (*I nominate and appoint*), qo'shma gaplar tarkibidagi gaplarda ega tushib qolmaydi.

I nominate and appoint [NAME], of [CITY], County of [COUNTY], State of [STATE] as Personal Representative of my estate and I request that (he/she) be appointed temporary Personal Representative if (he/she) applies. – Men o'z mulkimning shaxsiy vakili sifatida [manzil]dagi [ism]ni nomzod qilib ko'rsataman va tayinlayman va agar u rozi bo'lsa, vaqtinchalik shaxsiy vakil etib tayinlanishini so'rayman. (vasiyatnomadan)

Teng bog'lovchili qo'shma gaplarda o'z nomi bilan, gaplar va, hamda, ammo, lekin kabi teng bog'lovchilar orqali bog'lanadi. Ingliz tilida ham *and*, *but* bog'lovchilari sodda gaplarni bog'lashga xizmat qiladi. Teng bog'lovchili qo'shma gaplarning uslubiy ahamiyati shundan iboratki, ular tarqoq mazmunni birlashtirishga, turli fikrlarni umumlashtirishga, bir-biriga bog'lashga xizmat qiladi. Bu rasmiy uslub uchun muhim bo'lib, aniqlik va qisqalikni ta'minlashga yordam beradi. Shuningdek, teng bog'lovchili qo'shma gaplar ergashtiruvchi bog'lovchili qo'shma gaplar bilan sinonimlik xususiyatiga ham ega, masalan, ... *merosxo'ri sifatida uning mulkini tasarruf etishga kirishmadim va meros mulkidan hissa olishni xohlamayman*. Huddi shu gapda va bog'lovchisi o'rniga shuning uchun bog'lovchisini ishlatish ham noto'g'ri bo'lmaydi. ... *merosxo'ri sifatida uning mulkini tasarruf etishga kirishmadim, shuning uchun (shu sababli, ... kirishmaganim uchun) meros mulkidan hissa olishni xohlamayman*.

2) Ergashgan qo'shma gaplar. Hujjatlarda aynan shu turdagi qo'shma gaplarni tez-tez uchramiz. Bunday gaplar tarkibida ikki hil gap bo'lib, biri hokim, ikkinchisi tobe gap deyiladi. Hokim va tobe gaplar bir-biriga ergashtiruvchi bog'lovchilar, ko'makchilar, yuklamalar, nisbiy so'zlar, fe'lning ravishdosh formasi, shart mayli formasi yordamida bir-biriga bog'lanadi. Ergash gaplar bosh gapga bog'lanish usuli, angelayotgan mazmuni va shakllanishiga o'ra quyidagi turlarga bo'linadi: ega ergash gap, kesim ergash gap, to'ldiruvchi ergash gap, aniqllovchi ergash gap, payt ergash gap, o'rin ergash gap, sabab ergash gap, maqsad ergash gap, shart ergash gap, to'liqsiz ergash gap, natija ergash gap, o'xshatish ergash gap, miqdor-daraja ergash gap, ravish ergash gap.

Meva-sabzavotlarni yig'ishtirib olish boshlangani sababli sabzavot saqlash omborxonasini sovitish uskunolari bilan qayta jihozlashni qisqa vaqtda tugatishni yana bir bor Sizdan iltimos qilamiz – sabab ergash gap.

Mazkur summa belgilangan muddatda to'lanmasa, ish xo'jalik sudiga oshiriladi (da'vo arizasidan) – shart ergash gap.

3) Bog'lovchisiz qo'shma gaplar. Gaplar hech qanday bog'lovchi vositalarsiz ham bir biriga bog'lanishi mumkin. Bu ohang yordamida amalga oshadi va yozuvda tinish belgilar bilan ifodalanadi.

Biz mazkur manzildagi merosiy xonadonda yashab kelmoqdamiz, omonat daftarchasi hamda "Matiz" avtomashinasining texnik pasporti T.S.Bozorov vafot etgan vaqtdan beri bizning qo'limizda turibdi (arizadan) [1: 170] – bog'lovchisiz, ohang yordamida bog'langan gap. Odatda bog'lovchisiz qo'shma gaplarda, gaplar o'rnini o'zgartirib bo'lmaydi, chunki ular ohang yordamida harakatlar ketma-ketligini, uzviylikni ifodalaydi. Shuningdek, bog'lovchisiz qo'shma gaplar bog'lovchili qo'shma gaplar bilan sinonim bo'la oladi.

Ingliz tilida ham asosan qonun va sud hujjatlari, shartnomalarda juda uzun gaplarni uchratish mumkin. Yozishmalarda iltimos, taklif, so'rov, buyruq kabilar aks etar ekan, albatta bu ish harakatlarning ortida qachon, qayerda, qanday qilib degan savollar yotadi. Ushbu savollarga javob berish turli xildagi ergash gaplardan foydalanishni talab qiladi. Ingliz tilida ergashgan qo'shma gap (complex sentences) turlari o'zbek tilidan biroz farq qiladi. Ko'p o'rinlarda shart ergash gap turlari uchga, ya'ni ot ergash gap, sifat ergash gap va ravish ergash gaplarga bo'linishini ko'rish mumkin. Shuningdek, relative clauses (nisbiy gaplar), adverbial clauses va conditional clauses (shart ergash gaplar)ga bo'linadi degan qarorga keldik. Umuman, ingliz tilida har qanday uslubda ham aniqllovchi ergash gap juda faol ishlatiladi.

O'zbek tilida rasmiy hujjatlar tili sodda va tushunarli bo'ladi, ko'pincha bog'lovchisiz qo'shma gaplardan keng foydalaniladi. Ingliz tilida esa rasmiy hujjatlar, ayniqsa qonuniy va sud hujjatlari, murakkab sintaktik qurilmalarga boy bo'lib, aniqllovchi ergash gaplar (relative clauses), ravish ergash gaplar (adverbial clauses) va shart ergash gaplar (conditional clauses) keng qo'llanadi. Bu jihatlarda ikki tilning grammatik tizimi va uslubiy xususiyatlaridan kelib chiqadi. Rasmiy uslubni chuqur tahlil qilish hujjatlar tilining sintaktik qurilishi va ifoda usullarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Shu bilan birga, o'zbek va ingliz tillaridagi hujjat tilini qiyoslash tarjima jarayonida aniqlik va mazmunning to'liq yetkazilishini ta'minlaydi. Demak, rasmiy uslubning leksik va sintaktik xususiyatlarini mukammal o'rganish nafaqat lingvistik tadqiqotlar, balki amaliy jihatdan ham, xususan, huquqiy, diplomatik va biznes hujjatlarini tuzishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Odilov Y. Davlat tilida ish yuritish. – Toshkent: O'zbekiston, 2020.
2. Бабаханова Д.А. Официально-деловой стиль современного литературного узбекского языка: автореф. дисс. канд. фил. наук. Т., 1987.
3. Кожина М.Н. Стилистика русского языка. М.: Просвещение, 1983.
4. Федоровская О.А. О жанровой классификации научно-технических документов и их научных трудов. М., 1990.
5. Qilichev E. O'zbek tilining amaliy stilistikasi – Toshkent: O'qituvchi, 1985. – 104 b.
6. Qo'shma gap. https://uz.wikipedia.org/wiki/Qo%CA%BBshma_gap?utm_source=chatgpt.com.

Durdona AHATOVA,

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

OMON MUXTOR HIKOYALARIDAGI QAHRAMONLAR OLAMI

Annotatsiya. Maqolada Omon Muxtor ijodidagi hikoya qahramonlari olami badiiy va psixologik tahlil asosida o'rganiladi. Adib hikoyalarida inson ruhiyatining nozik qirralari, ijtimoiy muhit ta'siri, zamonaviylik va an'anaviylik o'rtasidagi ziddiyatlar, shuningdek, ayol obrazi evolutsiyasi chuqur yoritiladi. "Sehrgar" va "Oddiy voqea" hikoyalari misolida avlodlar to'qnashuvi, ramz va psixologik kechinmalar orqali qahramonlarning ichki olami ochib beriladi.

Kalit so'zlar: qahramonlar olami, psixologizm, ramz, ijtimoiy muammolar, ichki kechinma, o'zbek ayoli, badiiy tahlil.

Annotation. The article explores the world of characters in Omon Muxtor's stories based on artistic and psychological analysis. The writer's works deeply reveal the subtle nuances of human psychology, the influence of social environment, the contradictions between modernity and tradition, and the evolution of the female image. Through the examples of the stories "The Sorcerer" and "The Ordinary Story", the inner world of the characters is revealed through the clash of generations, a system of symbols, and psychological experiences.

Keywords: world of characters, psychologism, symbol, social issues, inner experiences, Uzbek woman, literary analysis.

Аннотация. В статье на основе художественного и психологического анализа исследуется мир героев рассказов Омона Мухтара. В произведениях писателя глубоко раскрываются тонкие грани человеческой психологии, влияние социального окружения, противоречия между современностью и традицией, а также эволюция образа женщины. На примере рассказов «Волшебник» и «Обычное событие» через столкновение поколений, систему символов и психологические переживания раскрывается внутренний мир персонажей.

Ключевые слова: мир героев, психологизм, символ, социальные проблемы, внутренние переживания, узбекская женщина, художественный анализ.

O'zbek adabiyoti taraqqiyotida inson ruhiyati va ijtimoiy muhit uyg'unligini badiiy tahlil markaziga olib chiqqan ijodkorlar orasida Omon Muxtor alohida o'rin egallaydi. Uning hikoyalarida qahramonlarning ichki dunyosi, hayotiy iztirob va quvonchlari, ijtimoiy muammolar hamda ma'naviy izlanishlari tasvirlanishi orqali milliy tafakkurning yangi qirralari ochiladi. Xususan, "Sehrgar" hikoyasida yozuvchi oddiy voqelik zahirida murakkab ruhiy kechinmalarni yoritib, qahramonlarning hayotiy tajribalari, qarashlari va orzulari orqali jamiyatdagi ma'naviy o'zgarishlarni badiiy talqin etadi. Shu jihatdan, Omon Muxtor hikoyachiligida qahramonlar olami nafaqat individual xarakter, balki davr ruhiyatini anglash vositasiga ham aylanadi.

Omon Muxtorning "Oddiy voqea" hikoyasida qahramonlar olami oddiy oilaviy mojarodan kengroq ijtimoiy va ma'naviy muammolarni qamrab olgan voqelikka aylanadi. Asar markazida turuvchi Layli va qaynona obrazlari orqali yozuvchi avlodlar to'qnashuvini ko'rsatadi. Qaynona qadimiy an'analarni, o'zini uy qorovuli deb bilgan eski dunyo ayolini ifodalaydi, Layli esa zamonaviy hayotga moslashgan, mustaqil, erkin qarashli yosh avlod vakilidir. Bu qarama-qarshilik oddiy kelin-qaynona nizosi emas, balki jamiyatdagi an'anaviylik va modernlik muammosining badiiy talqinidir. Muallif bu obrazlar orqali o'zbek ayolining davr o'tishi bilan kechirayotgan o'zgarishini ham yoritadi. Qaynona o'z hayotini erkaklardan past turish, qat'iy urf-odatlar bilan chegaralashga odatlangan bo'lsa, Layli o'zining tashqi qiyofasi, erkin yurishi, shaxsiy fikri va istaklari bilan yangi davr ayoli sifatida gavdalanadi. Shu jihatdan hikoya o'zbek ayolining jamiyatdagi o'rnini o'zgarish jarayonida ko'rsatadi. N.Karimovning "Ayol obrazlari milliy ruhiyatning eng nozik qatlamlarini ochadi" [4: 43] degan fikri aynan shu hikoya misolida ham o'z tasdig'ini topadi.

Laylining oynaga tikilib, sochidagi oq tolalarni yulishi, bolaga zorlikdan mushukcha va keyinchalik maynaga mehr qo'yishi, oxir-oqibat bolani "Bolalar uyi"dan olib kelishi – barchasi uning ichki iztiroblarini ochib beruvchi ramziy tafsilotlardir. Mushukcha Laylining ona bo'lish orzusini yashiruvchi ramz, mayna oiladagi mojaroning aks-sadosi, bola esa uning asl ehtiyoji va orzusining timsolidir. Qaynona esa ichki dunyosini tashqi imoishora, bosh silkitish va gap sotish orqali ifodalaydi. Bu psixologik kechinmalar yozuvchining mayda detallar orqali katta ma'naviy ziddiyatlarni ochishga erishganidan dalolat beradi.

Hikoyada shaxsiy taqdir misolida jamiyatdagi umumiy muammolar ko'tariladi. Nikoh yoshi, kelin-qaynona mojarosi, ayolning jamiyatdagi o'rnini va ona bo'lish orzusi kabi dolzarb masalalar oilaviy voqealar ortidan badiiy ifoda topgan. Shu jihatdan hikoya A.Qahhor an'analari bilan hamohang bo'lib, oddiy oilaviy voqealar orqali keng ijtimoiy-ma'naviy muammolarni yoritishga erishadi. O.Sharafiddinovning "Yozuvchi uchun oilaviy hayotning ichki ziddiyatlarini ko'rsatish – jamiyatdagi chuqur ijtimoiy muammolarni ochib berishning eng tabiiy yo'lidir" [9: 154] degan fikri ham shu asarga tatbiq etilishi mumkin. Muallif o'z pozitsiyasini ochiq ko'rsatmaydi, qahramonlarga bevosita baho bermaydi. Ularning hayotini betaraf tasvirlash orqali o'quvchini mustaqil xulosaga undaydi. Bu uslub Omon Muxtorning psixologik realizmga tayanganini ko'rsatadi. Shu orqali u ijtimoiy tahlil va psixologik tasvirni uyg'unlashtirgan yozuvchi sifatida namoyon bo'ladi. Yakuniy natijada "Oddiy voqea" hikoyasi qahramonlar olamida avlodlar to'qnashuvi, ayol obrazi, psixologik kechinmalar, ramziy detallar va jamiyat muammolarining badiiy ifodasi uyg'un holda aks etadi. Bu asar Omon Muxtorning o'zbek nasrida real voqelikni chuqur psixologik tahlil orqali ifodalay olgan yozuvchilardan biri sifatida ko'rsatadi.

Omon Muxtorning “Sehrgar” hikoyasi yozuvchining badiiy olamida markaziy o‘rin tutadigan masalalardan biri – **inson ruhiyatini nozik tasvirlash, iztirob va umid o‘rtasidagi psixologik keskinlikni ko‘rsatish** jihatidan yuksak darajada e‘tiborga molik. Hikoya ikki notanish insonning telefon orqali bo‘lib o‘tgan suhbatlariga qurilgan bo‘lsa-da, mazmunan inson qalbining eng yashirin qatlamlariga nazar tashlaydi. Zuxra obrazi – hayot sinovlaridan sinib, ammo mehr va samimiyatga tashna bo‘lgan ayol qiyofasining yorqin namunasi. U avval o‘zini “xunuk” deb hisoblaydi, oynaga qarab yig‘laydi. Bu – uning tashqi dunyoda topolmagan e‘tibor va ishonchning ramzi. Biroq suhbat davomida Zuxraning ruhiy holati o‘zgaradi: yozuvchi bilan suhbatlashib, o‘zini anglashga, iztiroblardan yengillashishga intiladi. Natijada Zuxra obrazi ayol qalbining murakkab, ammo go‘zal qirralarini ochib beradi.

Shu nuqtada akademik Naim Karimovning quyidagi fikrlarini eslash o‘rinlidir: “O‘zbek hikoyachiligining eng yuksak badiiy yutug‘i – bu inson qalbining ichki dunyosini, uning og‘riq va quvonchlarini ko‘rsatishdagi samimiyatdir” [4: 45–53]. “Sehrgar” hikoyasi aynan shunday samimiyat bilan yozilgan. Mehmon aka obrazi – yozuvchining o‘zi, ya‘ni “hamdard qahramon” sifatida talqin qilinadi. U Zuxraning dardlarini tinglabgina qolmay, balki uning ruhiy yuki engillashishiga sababchi bo‘ladi. Shu bilan birga, o‘zining hayoti, xatolari, iztiroblarini ham ochib beradi. Bu yerda ikki ruh bir-birini to‘ldiradi – Zuxra begona odamdan tasalli topar ekan, yozuvchi ham o‘zining samimiyat orqali topilgan “ruhiy poklanish” yo‘lini izohlaydi. Omon Muxtor qahramonlarini tahlil qilarkanmiz, ularda ajralib chiqadi:

- **Psixologik iztirob va go‘zallik izlanishi:** Zuxraning o‘zini xunuk deb hisoblashidan o‘zini anglash sari o‘sishi.
- **Hamdardlik va samimiyat:** Mehmon akaning quloq solishi, tasallisi va samimiy javoblari.
- **Ramziy detallarning mahoratli qo‘llanishi:** oynaga qarash, ovoz orqali “ko‘rishish”, suhbatning o‘zi ruhiy ko‘zguga aylanishi.
- **Muallifning badiiy pozitsiyasi:** bevosita baho bermasdan, qahramonlarning ichki kechinmalarini ochish orqali o‘quvchini fikrlashga undash.

Adabiyotshunos O.Sharafiddinov ta’kidlaganidek, “yozuvchining badiiy qudrati insonni inson sifatida ko‘rsatishida, uning ruhiy olamidagi eng nozik qirralarni sezdirishida namoyon bo‘ladi” [9: 94]. “Sehrgar” hikoyasi ham ana shu jihati bilan qimmatlidir. Hikoya yakunida yozuvchining mehmonxonadan chiqib ketayotib, xiyobonda Zuxrani ko‘rishi, biroq qiz uni taniyolmasligi – butun hikoyaning poetik kulminatsiyasi bo‘lib xizmat qiladi. Bu sahna insoniy ruhiyatning eng nozik dramtizmini ifodalaydi: ular bir-birlarini topgan, lekin ayni paytda ajralib ketgan ruhlardir.

Omon Muxtor hikoyalarida qahramonlar olami badiiy jihatdan serqatlam va rang-barangdir. Yozuvchi asarlarida avlodlararo qarashlar to‘qnashuvi, ayol obrazi evolyutsiyasi, inson ruhiyatidagi ziddiyatlar hamda jamiyat muammolarining ramziy va real ifodasi ustalik bilan yoritiladi. Layli, qaynona yoki Zuxra singari obrazlar orqali milliy mentalitet va zamonaviy qarashlarning qarama-qarshiligi badiiylashtiriladi, o‘quvchi esa ijtimoiy va ma’naviy jarayonlarni yangicha nigoh bilan idrok etishga chorlanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Omon Muxtor hikoyalarining qahramonlari o‘zbek adabiy tafakkuridagi modern psixologizmning yorqin namunasidir. Mushukcha, mayna, oyna yoki telefon kabi ramzlar orqali yozuvchi oddiy turmush detallaridan chuqur ma’no yaratadi. Bu jihat O‘zbek hikoyachiligida psixologik tahlil uslubini yanada boyitganini ko‘rsatadi. Mazkur tadqiqot asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Omon Muxtor hikoyalarini adabiy tahlil jarayonlarida psixologizm va ramzlarning badiiy vazifasini kengroq o‘rganish.
2. Hikoyalardagi ayol obrazi orqali milliy mentalitet va ijtimoiy muammolarni tahlil qilishni adabiyot ta’limida samarali qo‘llash.
3. Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligida avlodlar to‘qnashuvi motivini Omon Muxtor asarlari misolida qiyosiy o‘rganish.

Shunday qilib, Omon Muxtor hikoyalari nafaqat badiiy-estetik jihatdan, balki falsafiy-ijtimoiy mazmuni bilan ham qimmatli adabiy merosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muxtorov O. Ayollar mamlakati va saltanati. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa konsernining bosh tahririyati, 1997.
2. Muxtorov O. Aflotun. – Toshkent: Ma’naviyat, 1998.
3. Muxtorov O. Vazifa. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1988.
4. Karimov N. O‘zbek adabiy tanqidi tarixi. // O‘zbek tili va adabiyoti, 1996, №1 – B. 45–53.
5. Rasulova M. Adabiyotda ayol obrazi evolyutsiyasi: an‘ana va zamonaviylik. // Filologiya masalalari, 2015, №2. – B. 67–75.
6. Nurmatov B. O‘zbek hikoyalarida avlodlararo qarashlar talqini. // Sharq yulduzi, 2018, №6. – B. 120–128.
7. Xudoyberdiyeva N. Psixologizm va milliylik uyg‘unligi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2020.
8. Yusupov S. Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligi taraqqiyot bosqichlari. – Samarqand: Zarafshon, 2021.
9. Sharafiddinov O. Sardaftar sahifalari. – Toshkent: Yozuvchi, 1999.

Ro'zixol PANJIYEVA,

Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

REALIYALARNI INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH USULLARI TIPOLOGIYASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilidan o'zbek tiliga realiyalarni tarjima qilish usullari tipologiyasi yoritilgan. Realialarni tarjimada yetkazishda obyektiv voqelik, madaniy kontekst va tarjimonning ekstralingvistik bilimlari muhim o'rin tutishi qayd etilgan. S.Vlaxov va S.Florinning qarashlari asosida realiyani tarjima qilish jarayonida uchraydigan asosiy qiyinchiliklar hamda ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilingan, realialarning to'g'ridan to'g'ri ekvivalenti mavjud bo'lmagan holatlarda qo'llaniladigan usullar ilmiy asosda izohlangan.

Kalit so'zlar: realiya, tarjima, tipologiya, ekvivalent, madaniyat, ekstralingvistik bilim.

Annotation. This article explores the typology of ways to translate realia from English to Uzbek. It is noted that the objective reality, cultural context, and the translator's extralinguistic knowledge play a significant role in conveying realities in translation. Based on the views of S.Vlaxov and S.Florin, the main difficulties arising in the process of translating realia and ways to overcome them were analyzed, and the methods used in the absence of a direct equivalent of realia were explained on a scientific basis.

Keywords: reality, translation, typology, equivalent, culture, extralinguistic knowledge.

Аннотация. В данной статье освещена типология способов перевода реалий с английского на узбекский язык. Отмечается, что объективная реальность, культурный контекст и экстралингвистические знания переводчика играют большую роль в передаче реалий в переводе. На основе взглядов С.Влахова и С.Флорина проанализированы основные трудности, возникающие в процессе перевода реалий, и пути их преодоления, на научной основе объяснены методы, используемые при отсутствии прямого эквивалента реалий.

Ключевые слова: реалия, перевод, типология, эквивалент, культура, экстралингвистические знания.

Realialarni tarjima qilishning amaliy usullari tahlil qilsak, realialarni to'g'ri tarjima qilishning asosiy shartlaridan biri tarjimonning obyektiv voqelik faktlarini bilishi va tushunishi, tarjima qilingan matnni to'g'ri tushunishidir. Tilni bilishdan tashqari, tarjimon yetarli darajada ekstralingvistik (fon) bilimga ham ega bo'lishi kerak, chunki B.I.Repinning ta'kidlashicha, "realiyada mavjud bo'lgan ma'lumotlar mavjud voqelikdan kelib chiqadi (...) va bu ma'lumotni etkazish muammosining mohiyati bu ma'lumotni uzatishning to'g'riligini ta'minlaydigan vositalarni topishdir, ya'ni asl til orqali ifodalangan realiyaning substantiv va hissiy ma'nosi tarjima jarayonida o'zgarishi mumkin emas, lekin shakli o'zgarishi mumkin" [1: 89].

S.Vlaxov va S.Florin ta'kidlaganidek, "realiyani tarjima qilish" tushunchasi ikki barobar shartli: realiya umuman tarjima qilinmaydi (lug'atda) va u odatda tarjimasiz (kontekstda) uzatiladi. Tarjimada realiyani yetkazishda ikkita asosiy qiyinchilik mavjud: 1) ushbu tilning ona tilida so'zlashuvchilar orasida realiya tomonidan belgilangan obyekt (referent) yo'qligi sababli ko'rsatilayotgan tilda mos keladigan ekvivalent (analog) yo'qligi; va 2) realiyaning nafaqat obyektiv ma'nosini (semantikasini), balki uning mazmunini – milliy va tarixiy jilosini ham yetkazish zarurati mavjuddir [2: 89].

Ushbu qiyinchiliklarga qaramay, tarjimada realiyaning ma'nosi va kerak bo'lganda mazmunini turli darajada yetkazish mumkin. Tarjimon olimlar realialarni tarjima qilish usullarining turli tasniflarini taklif qilishadi. G.V.Shatkov ularni o'zlashtirish usullariga (to'liq shakli bilan o'zlashtirish yoki transliteratsiya, qisman o'rnini bosuvchi o'zlashma, yoki kalkalash) va tavsiflash usullariga (qo'shma so'z yoki ibora ko'rinishida ona tilida semantik ekvivalent yaratish, tarjima qilingan so'zning o'xshash ma'nosi orqali

ma'nosini ochish) ajratadi [3: 114]. G.V.Chernov turli mualliflar tomonidan taklif qilingan ekvivalent bo'lmagan lug'atni tarjima qilish usullarini tavsiflaydi:

1. Transliteratsiya (G.V.Chernovga ko'ra, ko'pincha o'zlashtirish bilan aralashtiriladi). 2. Analog. 3. Yangi so'z yasash. 4. Asl so'z ma'nosi ta'sirida so'z ma'nosining o'zgarishi yoki so'zning ko'chma ma'noda ishlatilishi. 5. Qo'shma so'z yasalishi. 6. So'z birikmasining yasalishi. 7. Adekvat almashtirishlar [4: 107–108]. Biroq G.V.Chernovning ta'kidlashicha, tarjima usullari sifatida asl so'zning ma'nosi ta'sirida so'z ma'nosini o'zgartirish va o'zgartirishdan foydalanish shubhali. U tilda obyektiv mavjud bo'lmagan, vaqti-vaqti bilan transkripsiyalangan "potentsial" so'zlarni ko'rib chiqishni taklif qiladi [3: 114]. V.N.Komissarov ekvivalentga ega bo'lmagan birliklarni tarjima qilishda paydo bo'ladigan besh turdagi okkazional muvofiqliklarni ajratib ko'rsatadi:

1. Moslik–o'zlashmalar – chet tilidagi so'z shaklini tarjima tilida qayta tiklaydigan o'zlashmalar.

2. Moslik–kalkalar – asl til so'zining morfem tarkibini yoki barqaror birikmaning tarkibiy qismlarini tarjima tilida qayta tiklaydigan birliklar.

3. Moslik–analoglar – ekvivalentga ega bo'lmagan asl til birligiga tarjima tilida ma'nosi jihatidan eng yaqin bo'lgan birlikni topish yo'li bilan yaratiladigan mosliklar.

4. Moslik–leksik almashtirishlar – ekvivalentga ega bo'lmagan so'zning ma'nosini kontekstdagi turli tarjima transformatsiyalari yordamida ifodalash asosida yaratiladigan mosliklar.

5. Tavsif – yuqorida ko'rsatilgan usullar bilan muvofiqlik yaratishning imkoni bo'lmagan hollarda, ekvivalentga ega bo'lmagan so'zning ma'nosini kengaytirilgan so'z birikmasi orqali ochib berish [4: 148–150].

Realialarni tarjimada ifodalash usullarining murakkabroq sxemasini S.Vlaxov va S.Florin ishlab chiqqan [2: 96–105]. Ular, avvalo, quyidagilar o'rtasida aniq farq qo'yishni taklif etadilar: a) transkripsiya (va transliteratsiya); b) tarjima (almashtirish). G.V.Chernovning ta'kidlashicha, o'zlashmani, tabiiyki, tarjimaning bevosita usuli deb hisoblab bo'lmaydi [3: 112]. Ikkinchi guruh usullari quyidagilarni qamrab oladi:

- neologizm yaratish (kalkalash, yarim-kalka, "osvoenie", ya'ni realiya nomini o'zga til materiali asosida "milliy tuslantirish", semantik neologizm);
- almashtirish, ya'ni asl til madaniyatiga xos realiyani tarjima tili madaniyatiga xos realiya bilan almashtirish;
- taxminiy tarjima (jins – tur almashuvi, funksional analog, tavsif, izoh, sharhlash);
- kontekstual tarjima (asl matndagi realiyani bildiruvchi birlikning tarjimada bevosita mosligi bo'lmagan hollarda kontekstni transformatsiya qilish yo'li).

Taklif etilgan klassifikatsiyalarni qiyoslash shuni ko'rsatadiki, terminologiya va bo'linishdagi farqlarga qaramay, aslida realialarni tarjimada ifodalashning deyarli bir xil usullari ta'riflanadi. Usullarni turlicha tasniflash, avvalo, ular o'rtasida aniq chegarani belgilash odatda juda qiyinligi bilan izohlanadi.

Tarjima nazariyasida realialarni ifodalashda ularning turli tasniflari ko'pincha bir-biriga yaqinlashib ketadi.

Chunki ularni aniq chegaralash qiyin. Masalan, *chopon* so'zining ingliz tiliga *traditional coat* shaklida berilishi tavsifiy tarjimaga kiradi (milliy kiyimning muhim belgisi ochib beriladi), shu bilan birga umumlashtirish (generallashtirish) misoli ham hisoblanadi, chunki u oddiy "coat" emas, balki an'anaviy milliy kiyimdir. Yana bir misol sifatida *amir* so'zining *ruler* yoki *governor* tarzida berilishi mumkin. Bu holatda tarjima bir tomondan umumlashtirish usuliga mansub bo'lsa (hokimiyatni bildiruvchi keng tushuncha qo'llanmoqda), boshqa tomondan analog sifatida ham baholanishi mumkin, chunki tarixiy shaxsning vazifasiga eng yaqin birlik tanlangan. Xuddi shuningdek, *sipoh* so'zi ingliz tiliga *warriors* yoki *troops* tarzida o'girilganda ham kontekstga qarab umumlashtirish, ham analog sifatida talqin qilinishi mumkin. *Qal'a* so'zining *fortress* bilan berilishi ayrim hollarda tavsifiy tarjimaga, ayrim hollarda esa to'g'ridan-to'g'ri analogga mos keladi. *Otliq* so'zini esa *horseman* yoki *cavalryman* deb tarjima qilish mumkin: birinchisi umumlashtirish bo'lsa, ikkinchisi yanada aniqroq analogni ifodalaydi.

Shunday qilib, tarjima nazariyasi realialarni tarjima qilish muammosiga ko'plab tizimlashtirilgan yondashuvlarni va ushbu leksik birliklarning ma'nolarini etkazish usullarining tasnifini ishlab chiqqanligi aniq. Bu ish doirasida ularning hammasini qamrab olishning iloji yo'q.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Репин Б.И. Национально-специфические слова-реалии как особая часть лексики в переводимом произведении. // Теоретические и прикладные вопросы преподавания иностранных языков. М.: Наука, 1970.
2. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. М.: Высшая школа, 1986.
3. Чернов Г.В. Вопросы перевода русской безэквивалентной лексики на английский язык. Дис. канд. филол. наук. М., 1958.

Marxabo QILICHOVA,

Jizzax davlat pedagogika universiteti maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

SHAROF RASHIDOV ASARLARIDA MA'NAVIY-AXLOQIY MASALALARNING YORITILISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ma'naviy-axloqiy masalalarning Sharof Rashidov ijodidagi badiiy ifodasi tahlil qilinadi. Muallifning "Goliblar", "Bo'rondan kuchli" kabi epik asarlari hamda bolalar uchun yozilgan "Kashmir qo'shig'i" qissasida yurt, xalq va tabiat timsollari orqali berilgan tarbiyaviy g'oyalar pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Ularda yosh avlod tarbiyasi, vatanparvarlik, insoniylik, axloqiy tanlov va ma'naviy kamolot masalalari markaziy o'rinda tutishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Sharof Rashidov, ma'naviy-axloqiy tarbiya, yosh avlod, vatanparvarlik, milliy qadriyatlar, pedagogik tahlil, badiiy asar.

Annotation. This article analyzes the artistic expression of spiritual and moral issues in Sharaf Rashidov's work. In the author's epic works such as "The Victors", "Stronger than the Storm", as well as in the story "The Song of Kashmir" written for children, educational ideas expressed through symbols of the country, people, and nature are analyzed from a pedagogical point of view. They emphasize that issues of educating the younger generation, patriotism, humanity, moral choice, and spiritual perfection occupy a central place.

Keywords: Sharaf Rashidov, spiritual and moral education, young generation, patriotism, national values, pedagogical analysis, artistic work.

Аннотация. В данной статье анализируется художественное выражение духовно-нравственных вопросов в творчестве Шарафа Рашидова. В таких эпических произведениях автора, как «Победители», «Сильнее бури», а также в повести «Песня

Кашмира», написанной для детей, с педагогической точки зрения анализируются воспитательные идеи, представленные через символы страны, народа и природы. В них подчеркивается, что вопросы воспитания молодого поколения, патриотизма, гуманности, нравственного выбора и духовного совершенствования занимают центральное место.

Ключевые слова: Шараф Рашидов, духовно-нравственное воспитание, молодое поколение, патриотизм, национальные ценности, педагогический анализ, художественное произведение.

Yosh avlod tarbiyasi har doim jamiyatning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Prezident Sh.M.Mirziyoyevning ta'kidi bilan aytganda, XXI asrda bu masala, haqiqatan ham, hayot-mamot masalasiga aylanmoqda. Tarbiya jarayoni nafaqat insonning shaxsiyati va ma'naviyati uchun, balki butun xalqning baxtli va farovon hayoti uchun zarurdir. Donishmandlarning "Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi" [1] degan fikri, bu jarayonning ahamiyatini yanada oshiradi. Tarbiyaning mukammalligi, avvalo, uning uzluksizligini ta'minlashda yotadi. Bo'shliq paydo bo'lishi esa tarbiyaning sifatini pasaytiradi va natijada yosh avlodning ma'naviy-axloqiy qadriyatlari zaiflashadi. Shu nuqtayi nazardan, talabalarni har tomonlama rivojlangan shaxslar sifatida tarbiyalash zarurati tug'iladi. Bu jarayonda jismoniy va ruhiy sog'lom turmush tarzini shakllantirish muhimdir. Yoshlar orasida ma'naviyat, axloq, insonparvarlik, vatanparvarlik va hayotiy faollik kabi yuksak g'oyalarni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylangan.

Milliy g'oya, har bir xalqning o'ziga xos tarixi, madaniyati va an'alariga asoslangan holda, yoshlarni ma'naviyatli etib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Bu borada A.Makarenkova V.Suxomlinskiy, tarbiyaning asosiy vazifalaridan biri sifatida yoshlarni vatan sevgisi ruhida tarbiyalashni ta'kidlaganlar [2: 132–133]. Ularning fikricha, ma'naviy tarbiya orqali yosh avlodning shaxsiyati shakllanadi va ularning ijtimoiy faoliyatga tayyorgarligi oshadi. J.Dewey ta'limda faoliyat nazariyasi orqali yoshlarni ijodkorlikka, mustaqil fikrlashga va o'z fikrini ifoda etishga undaydi [3: 363–364]. Bu esa milliy istiqloq g'oyasining asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, yoshlarning o'z vatanga bo'lgan sadoqatini kuchaytiradi. Shunday qilib, milliy istiqloq g'oyasi nafaqat ma'naviyatni shakllantirish, balki yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish va ularni kelajakda o'z vatani uchun foydali insonlar sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Sh.Rashidov O'zbekiston tarixida muhim o'rin tutgan, xalqimizning ulug' farzandi sifatida tanilgan shaxsdir. U o'zining hayoti davomida ko'plab sinovlarga duch kelgan, lekin har bir qiyinchilikni yengib o'tish qobiliyatiga ega bo'lgan. Uning rahbarligi davrida O'zbekiston murakkab va og'ir vaziyatlarda rivojlanish yo'lini tanladi. Sh.Rashidovning irodasi, sabri va matonati uning xalqparvarligi bilan birga yurtimizning taraqqiyotida muhim rol o'ynadi. Ikkinchi jahon urushi paytida u ko'plab qiyinchiliklarni boshidan kechirdi va bu tajriba uni yanada kuchli, ishonchli liderga aylantirdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev aytganidek: "Sharof Rashidov o'z davrining farzandi edi, u mavjud tuzumga sadoqat bilan xizmat qildi. Ammo bedodlikni qarangki, shunday odam dunyodan ko'z yumganida o'zi umr bo'yi himoya qilgan, sodiq bo'lib

xizmat qilgan tuzum unga xiyonat qildi. Misli ko'rilmagan shakkoklik bilan uning xotirasini tahqirlab, jasadini ko'chirdilar, oila a'zolari va qarindosh-urug'larini ta'qib etdilar. "Rashidovchilik" degan soxta iborani o'ylab topib, uning xotirasini yomonotliq qildilar" [4: 343–344.]

Yozuvchi T.Alimardonov "O'chmas Sharaf" ilmiy monografiyasida Sh.Rashidov siymosini muvaffaqiyatli tahlil qiladi. Haqiqatda, Sh.Rashidov hayoti va faoliyatining avlodlar tarixiy xotirasidagi sifatini u amalga oshirgan faoliyatga nisbatan ko'p insonlar tomonidan bildirilgan yoki aytilgan fikrlar tarozisida o'lchaydi. Buni muallif shunday ta'kidlab o'tadi: "Sharof Rashidov shaxsiga baho berishda tadqiqotning bosh masalasi bo'lgan totalitar jamiyatning O'zbekistonga tatbiq etgan siyosiy boshqaruvining tajovuzkor mohiyati, xo'jalik yuritishning ma'muriy-buyruqbozlik uslubi va undan kelib chiqqan fojialar ko'lam, ziddiyatli inson va davlat manfaatlar, bo'ysundirishning xufyona usullari va uning siyosiy-iqtisodiy va mafkuraviy vositalari, ayni paytda, xalqning zanjirbandligi holatida yuksalish va istiqbol maqsadlarga intilish, tashqi va ichki siyosiy tazyiqlar bosimini yumshatish va bunda millat yetakchisining jasorati, uning imkoni yoki vaqti yetmagan muammolari bilan uyg'un qarashga hamda xulosalar chiqarishga harakat qildik" [5: 276]. Bu jamiyat va shaxs munosabatlari muammosini yoritishda ajoyib uslub va amaliy natija.

Pedagogik olimlar, masalan, V.Suxomlinskiy tarbiyada insonning ichki kuchini, irodasini shakllantirish muhimligini ta'kidlagan. Sh.Rashidovning hayoti va faoliyati bu fikrni tasdiqlaydi. U nafaqat rahbar sifatida, balki o'z xalqining qadriyatlarini, urf-odatlarini hurmat qiluvchi inson sifatida ham ajralib turardi. Uning yutuqlari va xizmatlari yosh avlod uchun namuna bo'lib qoladi. Sh.Rashidovning hayoti va faoliyati bizga saboq beradi: har qanday qiyinchilikda ham irodali bo'lish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalangan inson bo'lish zarur. Bu g'oyalar yoshlarni mustaqil fikrlashga, o'z xalqiga sadoqatli bo'lishga undaydi va ularni kelajakda o'z vatani uchun foydali insonlar sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Sh.Rashidovning merosi bugungi kunda ham biz uchun yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiladi, uning hayoti va faoliyati milliy istiqloq g'oyasini hayotga tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sh.Rashidovning "Kashmir qo'shig'i" qissasi tabiat va hayotning kurashdan iborat tabiiy harakatini mahorat bilan tasvirlaydigan asar sifatida e'tirof etiladi. Ushbu asar ko'hna hind diyori afsonasiga asoslangan bo'lib, Kashmir va Jammu xalqlarining boy o'tmishi, yurt ozodligi va mustaqilligi yo'lidagi qahramonona kurashlari orqali tabiat timsollarida aks ettiriladi. Teatr ijodiy jamoasi bu ezgu g'oyalarni qo'g'irchoqlar harakati orqali o'ziga xos badiiy talqin etishga intilib, bolalar qalbiga yetkazishga

harakat qiladi. Yangi sahna asarining taqdimot marosimida teatr mutaxassislari, adabiyotshunoslar va pedagoglar ishtirok etib, uning rejissurasi va ijrosi haqida fikr almashadilar. Qissa mazmuni, ezgu g'oyasi va uning qahramonlari – asalarilar shohi Bambur, gullar malikasi Nargiz, yovuz kuch Bo'ron va ziroat zararkunandasi Xorud o'rtasidagi kurash qo'g'irchoqlar orqali qiziqarli va bolalar ruhiy dunyosiga mos talqin etilgani barchada katta taassurot qoldiradi. Taniqli pedagog olim V.Suxomlinskiy bolalarning ruhiy rivojlanishida san'atning ahamiyatini ta'kidlagan. Uning fikricha, san'at bolalarga nafaqat estetik zavq bag'ishlaydi, balki ularning fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi [6: 387]. “Kashmir qo'shig'i” asari orqali bolalar tabiatning go'zalligini va uning muhofazasini anglab, yurt ozodligi uchun kurashayotgan qahramonlarga o'zlarini bog'lash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunday asarlar bolalarga nafaqat estetik, balki ma'naviy tarbiya berishning muhim vositasi hisoblanadi. Sharof Rashidovning bu qissasi bolalar uchun o'ziga xos hayotiy saboqlarni o'z ichiga oladi va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Teatrda qo'g'irchoq harakati orqali bu ezgu g'oyalarni ifodalash esa bolalarning qiziqishini oshirib, ularning tasavvurini kengaytirishga yordam beradi. Asar orqali bolalar hayotdagi kurashlar, qiyinchiliklar va ulardan qanday qilib g'alaba bilan chiqish mumkinligini o'rganadilar. Shu tariqa, “Kashmir qo'shig'i” nafaqat estetik jihatdan, balki tarbiyaviy jihatdan ham bolalar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan badiiy asar sifatida e'tirof etiladi.

Sharof Rashidov asarlarini o'rganish, yoshlar uchun ma'naviy-axloqiy tarbiyaning muhim manbayi hisoblanadi. Ularining asarlarida milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, xalq dardini tushunish, fidoyilik va jonbozlik kabi sifatlar ta'kidlangan. Bu sifatlar yoshlarni nafaqat shaxs sifatida, balki jamiyat a'zolari sifatida ham shakllantirishda muhimdir. Yoshlarning o'z xalqi va vataniga bo'lgan muhabbati, ularning ma'naviy taraqqiyotini ta'minlaydi va ularni kelajakda faol fuqarolar bo'lishga tayyorlaydi. Uning “G'oliblar” va “Bo'rondan kuchli” (1958) dilogiyasi urush davri va urushdan keyingi yillarning muhim badiiy epik solnomasi bo'lib qoldi. Bu asarlar ana shu yillarda O'zbekiston yigit-qizlari, o'zbek xalqining ko'rsatgan matonati va qahramonliklari haqida hikoya qiladi [7: 1109].

Bugungi kunda globalizatsiya jarayonlari ta'siri ostida xalqlarning madaniyati va o'zligini yo'qotish xavfi kuchaymoqda. Bu jarayonlar yoshlarni yot g'oyalar ta'sirida qoldirib, ularning ma'naviy-axloqiy qiyofasini zaiflashtirishi mumkin. Shuning uchun bo'lajak pedagoglarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash borasida qo'shimcha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish zarurati dolzarb masalalardan biridir. Shu nuqtai nazardan Sh.Rashidov she'rlarida ma'naviy-axloqiy masalalarni o'rganish, ularni bo'lajak pedagoglarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda foydalanish kerak. Chunki o'z asarlarida insonning ichki dunyosini, uning ma'naviy izlanishlarini va axloqiy tanlovlarini o'rganishga katta e'tibor qaratadi. Uning asarlarida tarixiy kontekstni to'g'ri tushunib, xalqning urf-odatlarini va qadriyatlarini o'zida mujassam etgan holda, u millatning ma'naviy merosini ulug'laydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi. Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir. https://uza.uz/oz/posts/jismoniy-va-ma-naviy-yetuk-yoshlar-ezgu-maqsadlarimizga-yeti-30-06-2017?utm_source=chatgpt.com.
2. Казакова А.Г., Новашина М.С. Непреходящее значение идей А.С. Макаренко и В.С. Сухомлинского о патриотическом воспитании. / Вестник МГУКИ, №4. М., 2016.
3. Томина Е.Ф. Педагогические идеи Джона Дьюи: история и современность. / Вестник ОГУ, №2. М., 2011.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2017. – B. 343–344.
5. Alimarlonov T. O'chmas Sharaf. – Toshkent: Dono, 2017.
6. Rashidov Sh. G'oliblar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981.
7. Киличова М.Х. Использование произведений Шарафа Рашидова в духовно-нравственном воспитании молодежи. / Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi, 2024, №11.

Ozoda RAJABBAYEVA,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi

“XUASTUANIFT” ASARIDA SAMOVIY KULTLAR VA ULARGA OID TUSHUNCHALAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Xuastuanift” asarining qisqacha mazmuni hamda mifologik va diniy-falsafiy ahamiyati yoritiladi. Asar parchalari asosida undagi samoviy kultlar, xususan, oy va quyosh kultlariga alohida e'tibor qaratilib, ularning mazmuni va dolzarbligi yoritiladi. Shu bilan birga, asardagi tavba qilish g'oyasi bilan bog'liq mifologik tushunchalar tahlil qilinadi. Samoviy kultlar va ularga oid tasavvurlar nafaqat tarixiy-madaniy kontekstda, balki bugungi kundagi o'zni nuqtayi nazaridan ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: samoviy kultlar, tavba, yaxshilik, yomonlik, moniylik, quyosh, oy, kult.

Annotation. This article examines the brief content of the work "Huastanift", its mythological and religious-philosophical significance. Based on the fragments of the work, special attention is paid to celestial cults, in particular, the cults of the moon and sun, and their content and relevance are highlighted. At the same time, the mythological concepts associated with the idea of repentance in the work are analyzed. Celestial cults and related concepts are considered not only in historical-cultural context but also from the perspective of their contemporary significance.

Keywords: celestial cults, repentance, good, evil, monism, sun, moon, cult.

Аннотация. В данной статье рассматривается краткое содержание произведения «Хуастванифт», его мифологическое и религиозно-философское значение. На основе фрагментов произведения особое внимание уделяется небесным культам, в частности культам луны и солнца, освещается их содержание и актуальность. В то же время анализируются мифологические концепции, связанные с идеей покаяния в произведении. Небесные культы и связанные с ними представления рассматриваются не только в историко-культурном контексте, но и с точки зрения их современного значения.

Ключевые слова: небесные культы, покаяние, добро, зло, монизм, солнце, луна, культ.

Moniylik dini milodiy III asrda Eronda paydo bo'lgan. Bu ta'limot asosida koinotda nur bilan zulmat, ruhiy va moddiy, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi doimiy ziddiyat mavjudligi tushuniladi. Bu ta'limotda barcha jonli mavjudotlarni muqaddas deb bilish, ularni himoya qilish va to'g'ri, halol yashash zarurligi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, noto'g'ri ishlar uchun Tangrilarga tavba qilish amali mavjud. Moniylik ta'sirida yaratilgan eng mashhur asarlardan biri "Xuastuanift" manbasi hisoblanadi. Bu asar moniyar orasida madhiya sifatida qabul qilingan. Asarning o'ziga xosligi shundaki, u moniylik dinining paydo bo'lish sabablarini, uning mohiyati va jamiyatdagi o'rnini izohlaydi va tahlil qiladi. Matnda asarning nomi *N(i)go'shaklari'n suyi'n yazuq'in okungu Huastuan(i)vt* shaklida berilgan. Bu yerda "nigo'shak" atamasi sug'd tilidan o'zlashgan bo'lib, "tinglovchi" degan ma'noni anglatadi va moniy jamoasida quyi darajani bildiradi; *su yazuq* – gunohlar yoki yozuqlar degan juft so'z; *okungu* esa o'kinuv, tavba qiluv so'ziga to'g'ri keladi. Shunday qilib, ushbu nom "Tinglovchilarning gunohlariga o'kinishi" degan ma'noni bildiradi. Qo'lyozma chiroyli xat bilan o'rama qog'ozga yozilgan, biroq qog'ozning bosh qismi yirtilgan. Matndan taxminan 160 qator saqlangan. Asarning qahramonlari turkiy xalqlarning mifologik obrazlariga o'xshashlikni aks ettirgan holatlari mavjud. Masalan:

Asl matn: Ikinti (ikkinchi):

"Yama kun tangrika iki yaruq ordu ichra olurug'ma tangrilarka qamug' burxanlarning arig' nomning. Adgu qilinchlig' uzutlarning. Yir (sub) yaruqunung. Tozi yiltizi tirnaguli tangri yiringaru barsar ongu qapig'i. kun ay tangri ol. Biz tangrig boshug'ali. Yaruqug' qarag' atirg'ali tag'da tali tagzinur tort bulungug'! Yaritir tangrim suida baru bilmatin kun ay tangrika iki yaruq ordu ichra olurug'ma tangrilarka nacha yazintimiz arsar. Arksizin tug'ar batar arki bar arsar tuymasin tidimiz arsar. Kantu ikinti bilmatin yazinmish yazuqig' boshunu otunur biz. Manastar birza..."

Ma'nosi: "Kun, Oy xudolariga, ikki nur saroyi ichra o'tirgan xudolarga-hamma burxanlarni, pok-muqaddas yozuvlarni, yaxshi xulqli xabarchilarni, yer-suv nurini, tuproqni, ildizlarni birga xudolar makoniga jo'natgan edik. Oldingi darvoza Kun, Oy xudolarnikidir. Beshala xudoni ozod qilgani, nur bilan zulmatni (bir-biridan) ajratgani (nur) tag-tugi bilan aylanib, to'rt tomonni yoriyapti.

Ey Xudoyim! Gunoh (ichida) yurib, bilmasdan, Kun, Oy (xudolari) halok bo'lyapti, dedik. Zaifligi bilan (ular) chiqadi va botadi, qudrati bor bo'lsa edi, quyosh chiqmas edi. Biz o'zimiz Kun, Oy xudolaridan yuqorimiz, dedik. Ikkinchi (marta) bilmasdan qilgan gunohlarimizdan xalos qilgin, deb iltijo qilyapmiz, Gunohlarimizni kechirgin! [4: 132–133]

Ushbu parchadan shunday xulosa chiqarishimiz mumkinki, moniylik miflarida zulmatdan qutqarilgan nurning zarralaridan quyosh va oy yaratilgan. Shuning uchun ham yuqoridagi parchada, hamma burxanlarni yersuvni, tuproq va ildizlarni ularning huzuriga poklanish uchun jo'natganligi, Kun va Oydan o'zini yuqori qo'yish gunoh ekanligi aytilmoqda. Ko'p xalqlar quyosh va oyni muqaddas deb bilishgan, ularni xudo deb ishonishgan, uning uchun otlarni qurbonlik qilishgan. Massagetlarning diniy e'tiqodlari to'g'risida Gerodot shunday yozadi: "Massagetlar ma'budlar orasida faqat quyoshnigina muqaddas deb bilishadi va unga otlarni qurbon qilishadi. Bunga sabab eng shiddatli, tezkor ma'budga hayvonlar orasidan chopag'on otlargina munosibdir, deb bilishdir" [4: 132–133]. Ushbu ma'lumotdan ko'rinib turibdiki, deyarli barcha xalq quyoshni muqaddas bilib, unga qurbonliklar qilishgan. Hattoki hozir ham ba'zi xonadonlarda quyosh tasviri tushirilgan gilam, so'zana va shu kabi buyumlarning bo'lishi xosiyatlik belgisi bo'lib, yaxshilik keltirishiga ishonishadi.

Kun, Oy mifologik obrazlarining qadimgi turkiy adabiyotdagi, xususan, moniylik adabiyotidagi vazifasini yanada aniqroq tasavvur qilish uchun quyidagi parchaga murojaat etamiz:

Keywords: anthroponyms, customs, national identity, borrowed layer, pseudonym, cognitive, mental field.

Аннотация. Антропонимы – это постоянные или изменяющиеся элементы, используемые для именования лиц. Они имеют важное ментальное значение в обществе для идентификации личности, определения ее уникальности и передачи исторической, культурной и социальной информации. Художественные тексты обычно используются как средство интерпретации и выражения в искусстве и литературе. В данной статье анализируются когнитивно-семантические и функционально-стилистические особенности антропонимов узбекского языка, используемых в художественных текстах. Тюркский пласт имен начала XX века и его формирование освещен на научной основе.

Ключевые слова: антропонимы, обычаи, национальная идентичность, заимствованный слой, псевдоним, когнитивный, ментальное поле.

Jadidchilik davrida ta'lim va madaniyatni rivojlantirishga katta ahamiyat berildi. Ilm-fan, ma'rifat va taraqqiyot g'oyalarining yuqori o'ringa chiqishi natijasida inson shaxsining ma'naviy qiyofasini shakllantirish muhimligini ta'kidlashdi. Bu jarayonda, ayniqsa, nomlar semantikasida yangi tushunchalar namoyon bo'ldi. Oldingi an'analarga asoslangan nomlar bilan birga, yangi ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlarni ifodalovchi ismlar keng tarqala boshladi.

Jadidlar amaliy faoliyati bilan o'zbek onomastikasi, xususan, antroponimlar taraqqiyotida ham muhim o'rin tutganlar. Jadid namoyandalari milliy ismlarga hurmat bilan yondashuvni, avvalo, o'z taxalluslari, nisbalaridan boshlaganlar. O'zlariga milliy qadriyatlarimizga mutanosib keladigan taxalluslarni tanlashgan va qahramonlarini ham o'zbekcha ismlar bilan nomlashgan. Shu orqali **o'zbekcha milliy ismlarning** saqlanib qolishi va omma orasida keng yoyilishiga katta hissa qo'shishgan. Masalan, Mashriq Yunus o'g'li Elbek jadidlar etakchisi Fitrat tomonidan tashkil

etilgan "Chig'atoy gurungi" to'garagida o'z faoliyatini boshladi.

Mashriq dastlab matbuotda bosilgan she'r va maqolalarini "Chig'atoy gurungi" taxallusi bilan e'lon qilgan bo'lsa, 1919-yil "O'ksuz" she'ridan boshlab ustoz tanlab bergan Elbek taxallusini qo'llay boshladi. Bizga ma'lumki, o'tmish ajdodlarimizning ko'pchiligi arab va fors so'zlaridan taxallus tanlashgan. Til sofligi uchun kurashgan "Chig'atoy gurungi" a'zolari esa bu an'anadan voz kechib, sof turkiy so'zlardan taxallus tanlay boshladilar. Masalan, yuksak bilim va iqtidorga ega Fitrat guruh a'zolari Botu, O'ktam, Elxon, Elchi, Chig'atoy, O'g'uz, O'qtoy, Eltuzar Jig'oy Yildirim kabi jasurlik, qahramonlik bobida dong taratgan ajdodlarimiz nomlari asosida taxallus tanlab bergan [2].

XX asr boshlarida ijod qilgan ijodkorlarning asarlaridagi qahramonlarga tanlangan nomlar shaxsning xarakteri, vazifasi, kongnitiv modeli va ijtimoiy mavqeyini belgilashda muhim vosita hisoblanadi. Quyida keltirilgan antroponimlar ham shunday vazifa o'taydi.

Antroponim	Xarakter	Vazifasi	Kongnitiv model	Ijtimoiy mavqeyi
O'zbek oyim	+	+	+	+
Qurvonbibi	+	+	+	+
Miryoqub epaqa	+	+	+	+
Yusufbek hoji	+	+	+	+
Do'xtir Muhammadiyor	+	+	+	+

Antroponimlarning funksional jihatlari badiiy matnda turli vazifalarni bajaradi:

➡ Tarixiy va madaniy kontekstni belgilaydi. Shaxsning nomi orqali uning madaniy muhiti, u yashagan davrdagi urf-odat, an'analar haqida ma'lumot uzatadi: *"Qurvonbibi jinni bo'lib paranjisiz va yirtiq kiyimlar bilan eshonnikiga kelgan vaqtida uni zanjirga bog'laydigan odam ham topilmadi"* [5: 279]. *"Bizning so'fi mo'min-musulmonning bu urfiga ham amal qilmaydi, u o'z halol jufti Qurvonbibini hamma vaqt "Fitna" deb chaqiradi: "Fitna, sallamni ber!", "Fitna, qiz o'lguring qani?", "Fitna, puldan uzat!"* [5: 10]

➡ Xarakter va vazifani ta'kidlab o'tadi. Masalan, "Arslon" nomi odatda yuksak mardlik va jasoratni anglatadi. Fitratning "Arslon" dramasida Buxoro xonligida yashagan dehqonlarning hayoti va yer islohotlari yoritilgan. Dramada Arslon antroponimi bosh qahramon va asarning tizginini tutib turuvchi obraz hisoblanadi, u barcha voqea-hodisalarda ishtirok etadi. Yozuvchi asardagi qahramoniga mos nom tanlagan. Arslon so'zi O'TILda quyidagicha ta'riflangan: 1. Mushuksimonlar oilasiga mansub bahaybat yirtqich sutemizuvchi hayvon; sher. Yigit so'zidan, arslon izidan (qaytmas). Maqol. Arslonning o'ligi, sichqonning tirigi. Maqol. 2 ko'chma. Bahodir, zabardast, dovyurak odam haqida (shu jonivorga nisbat berila-di). Mash'um Kalon minorasidan o'limga itarilgan el arslonlarining na'rasi qal'a os-monini hamon larzaga keltirmoqda (Sh.Toshmatov, Erk qushi) [3].

Arslon juda aqlli, mehribon, hech kimdan yordamini ayamaydigan vatanparvar, mard yigit ekanligini uning quyidagi so'zlaridan ham bilish mumkin. *Botur, men so'zimda turaman, so'zida turma-ganlarni odam sanamayman. Sening tinchlig'ing uchun qo'limdan nima kelsa, qilaman* [6].

"Arslon" o'zbekcha – she'r yo'lbars; kuchli qudratli, dovyurak [1] ma'nosini angatadi. 20–30-yillar o'zbek adabiyoti haqida gap ketganda, u davrda yaratilgan badiiy asarlar orqali baho berilad. Bunday voqea-hodisalarni ko'zda tutmay turib, chinakam ilmiy tarixni tasavvur etib bo'lmaydi. Fitratning "Arslon" dramasidagi nomlar qahramonlar xarakteri va asardagi vazifasini, dunyoqarashini chizishda muhim element hisoblanadi.

Badiiy matndagi antroponimlarning uslubiy jihatlari nomlarning ko'p takrorlanishi bilan muhitga xos muhim ma'lumotlar uzatiladi. Nom orqali ma'lum axborot uzatiladi: *"Ammo o'zining mansab suymasligi vajhidan yana eskicha "Yusufbek hoji" bo'lib qola berdi"* [4]. Badiiy matndagi antroponimlar orqali shaxs va jamiyat munosabatlari ko'rsatib beriladi. Ulardan o'rinli foydalanish asar tilini jonli xalq tili bilan yaqinlashtirishi, milliylikni ko'rsatuvchi qurol sifatida xizmat qiladi Asarda qahramonlarini nomlash orqali ham millatning ijtimoiy-siyosiy ahvolini ko'rsatish imkoni tug'iladi.

Asarlardagi antroponimlar orqali kitobxon asar mohiyatini to'liq anglaydi. Yozuvchining niyati ravshanlashadi. Yozuvchi va kitobxon o'rtasidagi o'ziga xos ko'prik vujudga keladi. Bunday birliklar lingvopoetik jihatdan muayyan vazifalarni bajarishga moslangan bo'ladi. Yozuvchilar qahramon ismiga uning hatti-harakati, fe'l-atvori bilan bog'liq axborotlarni joylaydi o'zining mental dunyosi va kongnitiv olamining qanchalik boy ekanligini namoyon etadi. Buni anglay olgan kitobxon asar matnidagi yashirin, ramziy belgilarni anglay oladi. Turkiston jadidlarining rahnamosi Mahmudxo'ja Behbudiy ham tarixni o'rganish, undan saboq olish masalasiga alohida e'tibor qaratdi. *"Qabilasining ismini va etti otasining otini bilmaydurgonlarni qul – marquq derlar"* [7], deb yozgan edi Behbudiy maqolalaridan birida.

XX asrning 20–30-yillarida o'zbeklarning familiyalari, asosan Ahmad Fozil o'g'li, Hakima Fozil qizi tarzida yuritilgan. Shuningdek, bu davrda ziyolilar orasida ism-shariflar qisman -zoda (Hamza Hakimzoda Niyoziy), -iy, -viy, -iya, -viya (Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Muzayana Alaviya) qo'shimchalari orqali shakllantirilgan. Ba'zan qo'shimchalarsiz ham hosil qilingan: *Sulton Jo'ra, Salim Karim, Parda Tursun* va b.

Bugungi kunda ham adidlar an'alarini davom ettirib, ruscha familiya hosil qiluvchi elementlardan voz kechganlik holatlarini ko'rishimiz mumkin. Masalan, O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikasiyalar universiteti rektori, Xalqaro press klub raisi Sherzod Qudratxo'jaev o'z familiyasidagi -yev qo'shimchasidan voz kechdi. U "O'zbekiston – 24" radiokanali efirida bu haqida izoh berar ekan, endi o'zligini topganini va bundan buyon uning sharifi Qudratxo'ja deb yuritilishini ma'lum qildi [8].

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, badiiy matnda antroponimlarning kognitiv-semantik va funksional-uslubiy tahlili ularning shaxsni belgilash, xarakter va ijtimoiy mavqeyini ochib berishda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Ularning ma'nosi va ishlatilishi orqali yozuvchi nafaqat shaxsning individual xususiyatlarini, balki uning madaniy, tarixiy va ijtimoiy kontekstini ham yangicha ifoda etadi.

XX asr boshlarida siyosiy tuzumning ham ta'siri bo'lgan bir paytda ijodkorlarning nom tanlashi, qahramonlarini nomlashda milliylik asosida yondashishlari o'zbek millati onomastikasi taraqqiyotining muayyan davrga xos xususiyatlarini hamda millatning qadriyat, an'analarga fidoyi ziyolilarining ijtimoiy-siyosiy qarashlarini yoritishda ahamiyatlidir. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Mustaqillik sharofati bilan Turkiston xalqlarining erki, mustaqilligi, milliy davlatchilik g'oyalari, ma'rifati uchun kurashgan vatanparvarlarning muborak nomlari tiklandi, asarlari chop etildi. Jadidlarning g'oyalari o'lmas g'oyalar bo'lgani uchun ham mustaqillik bilan birga hayotimizga qayta kirib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begmatov E. O'zbek ismlari izohi. - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2016.
2. Bobomurodova Sh. Elbekning tilshunoslik merosi. - Toshkent, 2020.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. 1-jild. - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007.
4. A. Qodiriy. O'tkan kunlar - Toshkent: Navro'z, 2019. - 400 b.
5. Cho'lpon. Kecha va kunduz. - Toshkent: Sharq, 2007.
6. Fitrat. Tanlangan asarlar. 5 jildli. 2-jild. - Toshkent: Ma'naviyat, 2020.
7. Nurboy Jabborov saboqlari. <https://t.me/nurboyjabborov>.

Shaxobiddin MUSAYEV,

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti tadqiqotchisi

DAVLAT TILIGA DOIR SIYOSATNI YORITISHDA BADIY-PUBLITSISTIK JANRLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Annotatsiya. Maqolada "Davlat tili haqida"gi qonun ijrosini yoritishda badiiy-publitsistik janrlardan foydalanishning afzalliklari va ahamiyati, bu janrning jamiyat hayotiga ta'siri, davlat tili siyosatini samarali yoritishdagi roli ko'rsatiladi. Badiiy-publitsistika orqali milliy tilga bo'lgan mehr, madaniy va ma'naviy qadriyatlarning chuqur ifodalanishi, ularni o'quvchi ongiga yetkazish imkoniyatlari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: badiiy-publitsistik janr, davlat tili, qonun, mavzu, yoritish.

Annotation. The article shows the advantages and significance of using artistic-publicistic genres in covering the implementation of the Law "On the State Language", the influence of this genre on society's life, and its role in effectively covering state language policy. Through artistic journalism, love for the national language, the profound expression of cultural and spiritual values, and the possibilities of conveying them to the reader's consciousness are analyzed.

Keywords: artistic-publicistic genre, state language, law, theme, coverage.

Аннотация. В статье показаны преимущества и значение использования художественно-публицистических жанров в освещении исполнения Закона «О государственном языке», влияние этого жанра на жизнь общества, его роль в эффективном освещении политики государственного языка. Через художественную публицистику анализируется любовь к национальному языку, глубокое выражение культурных и духовных ценностей, возможности их донесения до сознания читателя.

Ключевые слова: художественно-публицистический жанр, государственный язык, закон, тема, освещение.

Badiiy publitsistik janrlar ommabop va ta'sirchan, bu turdagi janrlar orqali jamiyatdagi muhim muammolar, qonunlar ijrosi, milliy qadriyatlar haqida chuqur mazmunli va ta'sir kuchi yuqori bo'lgan materiallar yozish mumkin. Bu janrlar adabiy ta'sir kuchi bilan o'quvchining qalbiga yo'l topadi, uni o'ylantiradi va ichki dunyosiga ta'sir etadi. Badiiy publitsistika janrlaridan biri **ocherk**dir. Uning portret ocherk, yo'l ocherk, sud ocherk kabi turlari mavjud. Ularda real shaxslar, voqealar, ijtimoiy muammolar haqida badiiy tahlil va obrazli tasvir bo'ladi. Ocherk o'quvchiga ijtimoiy voqelikni his qildiradi, uni ijobiy yoki tanqidiy xulosa chiqarishga undaydi. **Felyeton** tanqidiy va yumoristik ruhda janr bo'lib, jamiyatdagi kulgili, achchiq, ba'zan esa og'riqli holatlarni ochib berishga xizmat qiladi. U orqali muallif mavjud kamchiliklarni kinoya, istehzo va obrazli tilda fosh etadi. **Esse** esa muallifning shaxsiy fikri, hissiyotlari va taassurotlari asosida yoziladi. Unda mulohaza, estetik yondashuv va falsafiy tafakkur ustuvor o'rin tutadi. Esse erkin shakl va uslubda yoziladi. Real voqealar asosida yaratiladi, ammo badiiylikka urg'u

beriladi. Voqealarning vaqt, makon va ishtirokchilar bilan bog'liqligi, hodisalar davomiyligi, shuningdek, muallif taassuroti muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur janrlarda har qanday jiddiy ijtimoiy yoki ma'naviy muammo badiiy-publitsistik tarzda tahlil qilinadi.

Professorlar O.Tog'ayev ("Publitsistika janrlari" [1]) va M.Xudoyqulov ("Jurnalistika va publitsistika" [2]), O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi B.Do'stqorayev badiiy publitsistik janrlar va ularning o'ziga xosliklari haqida tadqiqotlar qilishgan, qo'llanmalar yaratishgan. Taniqli jurnalist Ahmadjon Meliboyev badiiy-publitsistik janrlardan ko'p foydalanadigan ijodkorlar sirasiga kiradi. Uning mazkur janr bo'yicha amaliyotchi sifatidagi fikrlari ahamiyatli: "Publitsistika jamiyat hayotiga, voqea-hodisalarga tezkor munosabat bildiruvchi ijodiy-tahliliy tafakkur mahsulidir. Bu janr, ayniqsa, badiiy publitsistika o'quvchi ongiga tez ta'sir ko'rsatadi, biror-bir umummilliy vazifa yoki muammo xususida jamoatchilik fikrini yuzaga keltiradi, uni zarur yo'nalishda rivojlantiradi" [3].

Davlat tili taraqqiyoti va muammolarini yoritishda gazetalar badiiy publitsistik janrlardan qay darajada foydalanyapti? Buni aniqlash uchun “Yangi O‘zbekiston” va “Ma‘rifat” nashrlarida e‘lon qilingan badiiy-publitsistik asarlarni tadqiqotimiz obyektiga aylantirdik. Til siyosati yoritilayotgan ushbu gazetalarda asosan axboriy va tahliliy janrlarga urg‘u berilgan bo‘lsa-da, kam sonli badiiy-publitsistik asarlar ayni mavzuni chuqurroq ochishga xizmat qilgan. Ushbu janrdagi materiallar nafaqat ilgari aytilgan fikrlarni (masalan, Abdulla Avloniyning “Har bir millatning dunyoda borlig‘in ko‘rsatadurgan o‘yinayi hayoti – til va adabiyotidir” degan so‘zlarini) eslatadi, balki zamonaviy badiiy ifoda orqali mualliflarning o‘z qarashlarini ham yetkazadi. Masalan: “Til – ona allasi orqali kirib, insonning ruhiyatiga milliylikni singdiradi. Til – millatning ko‘zgusi bo‘lib, unda tarix – o‘tmish va kelajak jonlanadi”; “So‘z – fikr qurolidir. Kishi qanchalik ko‘p so‘z bilsa, uning fikrlash doirasi, dunyoqarashi ham shunchalik keng bo‘ladi” [4]; “O‘zbek tili bizning milliy boyligimiz yoki faxri-g‘ururimiz emas. U... bayroq, gerb yo gimn singari ramzlardan biri ham emas. Chunki ularning hammasini, sharoit taqozo qilsa, o‘zgartirsa bo‘ladi. Ammo tilingizni qanday o‘zgartirasiz? Til – millatning joni. Shu til bo‘lmasa, o‘zbek yo‘q, O‘zbekiston yo‘q” (Zuhriddin Isomiddinov) [5].

Yozuvchi publisistikasi haqida A.Meliboyev shunday deydi: “Publitsistika hayotning barcha sohalarini qamrab oladi va shu bois, badiiy ijod kabi bir necha (ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, iqtisodiy, adabiy-badiiy, madaniy-ma‘rifiy, hajviy) sohalariga bo‘linadi. Bu sohalar ichida badiiy publitsistika, ya‘ni yozuvchi publitsistikasi alohida mavqega ega” [2].

Bu fikrga yorqin misol sifatida Ulug‘bek Hamdamning “Ma‘rifat” gazetasida chop etilgan “Tilimiz – o‘zligimiz” sarlavhali publitsistik asarini keltirish mumkin. Muallif global miqyosda tillarning yo‘qolib borayotgani haqida yozar ekan, badiiy obrazlarga murojaat qiladi: “Har ikki haftada bitta til o‘lib boryapti, deya xabar berishadi olimlar. Dunyoda yana shunday tillar borki, ularda faqat er-xotin gaplashadi. Ulardan keyin til

ham egasiz qoladi. Tilning egasi yo‘qolsa, tilning o‘zi ham tarixga aylanadi. Shu bilan birga, buning aksi ham bo‘lishi mumkin: el yashayveradi, biroq o‘z tilidan voz kechadi. Bunday holatda ham til o‘ladi. Xalqning jismi yashaydi, ammo ruhi o‘ladi, xotirasi unutiladi. Chunki har bir xalqning tili – uning bosh belgisi, o‘zligini ifodalaydigan mezondir”.

Qo‘llanilgan so‘zlar, iboralarga e‘tibor beramiz. Til ham o‘ladimi? Til egasiz qolishi mumkinmi? Bu kabi ta‘sirli ifodalar (*til o‘ladi, til egasiz qoladi, xalqning nomi o‘chadi*) axborot yoki tahliliy janrlarda kam qo‘llaniladi. Aynan shuning uchun badiiy-publitsistik janr o‘quvchining hissiyotiga bevosita ta‘sir qiluvchi, ongiga chuqur singuvchi vositadir. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi Elmurod Nishonovning “Tilingdan aylanay, xalqim!” sarlavhali publitsistik asarida ham shu kabi yondashuv ko‘zga tashlanadi: “Havo ham yog‘adimi? Keyingi paytda shunga to‘liq ishonch hosil qildimki, tilimizdagi hech bir ibora shunchaki paydo bo‘lmagan. Janubiy viloyatlarimizda yomg‘ir yog‘sa, *havo yog‘yapti* deyishadi. Axir havo bo‘shliq-ku, u qanday yog‘adi? Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘otit-turk”da guvohlik berishicha, eski o‘zbek tilida yomg‘ir – osmon deb atalgan. Demak, *havo yog‘yapti* iborasi ming yillik tarixga ega. Tilingdan aylanay, xalqim!” [8] Bu asarda kichik sarlavhadagi tabiiy savol (“Havo ham yog‘adimi?”), undan chiqqan mantiqiy xulosa va emotsional yakun (“Tilingdan aylanay, xalqim!”) o‘quvchining tilga bo‘lgan munosabatini kuchaytiradi, o‘z tiliga nisbatan mehr uyg‘otadi. Mazkur janrning afzalligi shundaki, u ilmiy tilda ifodalash qiyin bo‘lgan g‘oyalarni badiiylilik orqali jonli va hayotiy qilib ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, davlat tili siyosatini yoritishda badiiy-publitsistik janrlar yuqori estetik va emotsional ta‘sir kuchiga ega bo‘lib, mavzuni chuqurroq ochish, o‘quvchining qalbiga yo‘l topishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Ularni samarali qo‘llash uchun jurnalistlar til siyosati masalasiga ixtisoslashib, maxsus axborot konsepsiyalarini ishlab chiqishlari zarur. Bu esa milliy jurnalistikamiz oldidagi muhim vazifalardan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tog‘ayev O. Publitsistika janrlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1987. – 180 b.
2. Xudoyqulov M. Jurnalistika va publitsistika. – Toshkent: Tafakkur, 2011. – 288 b.
3. Meliboyev A. Badiiy publitsistikada davr ruhi. // Jahon adabiyoti, 2011, №4.
4. Ibodova N. Qalbimiz-u ruhimizga ko‘zgu til. // <https://yuz.uz/news/qalbimiz-u-ruhimizga-ko-zgu-til>.
5. Til – millatning so‘nggi qo‘rg‘oni. <https://yuz.uz/news/til--millatning-songgi-qorgoni>.
6. Hamdam U. Tilimiz – o‘zligimiz. // Ma‘rifat, 2019, 8-may.
7. Nishonov E. Tilingdan aylanay, xalqim! // Ma‘rifat, 2023, 12-iyul.

Ilyos NURALIYEV,

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tayanch doktoranti

HUNARMANDCHILIKKA OID REALIYALARNING FRAZEOLGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada hunarmandchilikka oid realiyalarning frazeologik birliklardagi o'рни va funksional-semantik xususiyatlari tahlil qilingan. Hunarmandchilik atamaları asosida shakllangan frazeologizmlarning etnomadaniy, kognitiv va pragmatik jihatlari, ularning milliy tilning frazeologik tizimidagi o'ziga xos xususiyatlari ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: hunarmandchilik realiyalari, frazeologik birliklar, etnomadaniy semantika, hunarmandchilik terminologiyasi, frazeologiya, milliy-madaniy komponent.

Annotation. The article analyzes the role and functional-semantic features of craft realities in phraseological units. The ethnocultural, cognitive, and pragmatic aspects of phraseologisms formed on the basis of craft terms, their features in the phraseological system of the national language, have been scientifically substantiated.

Keywords: handicraft realia, phraseological units, ethnocultural semantics, handicraft terminology, phraseology, national-cultural component.

Аннотация. В статье анализируется роль и функционально-семантические особенности ремесленных реалий во фразеологических единицах. Научно обоснованы этнокультурные, когнитивные и прагматические аспекты фразеологизмов, сформированных на основе ремесленных терминов, их особенности во фразеологической системе национального языка.

Ключевые слова: ремесленные реалии, фразеологические единицы, этнокультурная семантика, ремесленная терминология, фразеология, национально-культурный компонент.

Zamonaviy lingvistikada realiyalar va ularning frazeologik birliklardagi ishtiroki tilning milliy-madaniy xususiyatlarini o'rganishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Hunarmandchilik realiyalari xalqning uzoq tarixiy rivojlanishi davomida shakllangan madaniy kodlarning tashuvchisi bo'lib, ular tilning frazeologik tizimida o'ziga xos semantik va funksional xususiyatlar bilan namoyon bo'ladi. O'zbek tilida hunarmandchilikka oid realiyalar asosida shakllangan frazeologik birliklar nafaqat til hodisasi, balki xalqning hayot tarzi, dunyoqarashi, professional mahorat va mehnat madaniyatini aks ettiruvchi muhim etnomadaniy kategoriya hisoblanadi.

Realia tushunchasi tilshunoslikda ijtimoiy-madaniy o'ziga xosliklarni bildiruvchi, boshqa tillarda muqobili bo'lmagan yoki qisman mos keladigan obyektlar va hodisalarni ifodalovchi so'zlar sifatida belgilanadi. Sergey Vlahov va Sider Florin realiyalarni milliy madaniyatning o'ziga xos elementlari deb ta'riflagan va ularning tarjima jarayonidagi muammolarini ko'rsatganlar. Evgeniya Vereshchagin va Vitaliy Kostomarov esa realiyalarni lingvomadaniy tadqiqotlar kontekstida o'rganib, ularning til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ifodalashini ta'kidlaganlar. Hunarmandchilik realiyalari maxsus asboblardan, uskunalar, jarayonlar, mahsulotlar va hunarmandlik kasblariga oid nomlarni o'z ichiga oladi va bu realiyalar frazeologik birliklarda ko'pincha o'z bevosita ma'nosidan uzoqlashib, metaforik va simvolik ma'nolar kasb etadi.

Frazeologiya fani nuqtai nazaridan hunarmandchilik realiyalari bilan bog'liq birliklar turli tiplarga mansub bo'lishi mumkin. Vinogradov tasnifiga ko'ra, ular frazeologik birlik (qisman motivatsiyalangan),

frazeologik birlik (motivatsiya nisbatan zaif) yoki frazeologik qotishma (butunlay motivatsiyasiz) bo'lishi mumkin. Masalan, *temirni qizig'ida bos* frazeologizmi temirchilik hunari bilan bog'liq bo'lib, temir issiq vaqtida unga osongina shakl berilishini bildirsa-da, tag ma'nosi – "qulay vaqtdan foydalan". Bu frazeologik birlik turiga kiradi, chunki hunarmandchilik jarayonining mantiqiy asoslari seziladi. *Kulolning qo'li* frazeologizmi esa mohir usta ma'nosida ishlatilganda, bevosita kulolchilik kasbi bilan bog'liqligi saqlanib qolgan holda metaforik kengayishga ega bo'ladi.

Hunarmandchilikka oid frazeologik birliklarning semantik xususiyatlarini tahlil qilganda, ularning aksariyati mehnat jarayonlari, professional mahorat, natija va sifat konseptlari bilan bog'liqligini ko'ramiz. *Zargar ko'zi* frazeologizmi nozik ish uchun zarur bo'lgan o'tkir ko'rish va diqqatlilikni bildiradi va bu yerda zargarlik hunari o'ta aniqlik va sezgirlikni talab qilishidan kelib chiqqan holda umumlashtirilgan ma'noga ega bo'ladi. *To'quvchi qo'li* usta ishchi qo'lini, *duradgorning qulog'i* mohir hunarmandning tajribasini anglatib, bu frazeologizmlar metafora va metonimiya mexanizmlari orqali semantik o'zgarishga uchragan. Bu jarayonda kognitiv mexanizmlar muhim rol o'ynaydi: konkret hunarmandchilik harakati abstraktroq tushunchaga proyeksiya qilinadi.

Etnomadaniy jihatdan hunarmandchilik frazeologizmlari milliy hayot tarzining o'ziga xos jihatlari aks ettiradi. O'zbek xalqi tarixida keng tarqalgan hunarmandchilik turlari: duradgorlik, temirchilik, kulolchilik, to'qimachilik, zargarlik frazeologik tizimda keng namoyish etilgan. *Non bilan tuz qo'shib yegan* frazeologizmi nonvochilik hunari bilan bevosita bog'liq bo'lmasa-da, non tayyorlash va iste'mol qilish

madaniyatining chuqur ildizlarini ko'rsatadi. *Ip uchidan tutib to'qib chiqarish* to'qimachilik jarayonidan kelib chiqqan holda, biror ishni boshlang'ichdan oxirigacha bajab chiqarish ma'nosini bildiradi va bu yerda to'qimachilik jarayonining ketma-ketligi va uzviyligidan kelib chiqqan metaforik o'tish kuzatiladi.

Hunarmandchilik frazeologizmlarining struktural xususiyatlari ham xilma-xildir. Ko'pchilik ot va sifat birikmasi (temirdek qattiq, oynagdek tiniq, ipday nozik), fe'l va ot birikmasi (po'lat qayla, sim tortmoq, ip yigirmoq), qiyosiy tuzilish (chaqqondek charaqlar, pashshadek yopishmoq) shaklida namoyon bo'ladi. Struktural jihatdan sodda bo'lsa-da, bu birliklar chuqur madaniy semantikaga ega. *Po'lat qaylamoq* frazeologizmi temirchilik jarayonidan kelib chiqqan bo'lib, biror ishni jiddiy tayyorgarlik bilan qilish, o'zini qattiqqo'llik bilan tarbiyalash ma'nolarini bildiradi va bu yerda po'latning qattqlik, mustahkamlik ramzi sifatidagi madaniy konsepti asosiy rol o'ynaydi.

Kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan hunarmandchilik frazeologizmlari konseptual metaforalarning namunasi hisoblanadi. Lakoff va Jonson nazariyasiga ko'ra, metafora nafaqat til hodisasi, balki fikrlashning asosiy mexanizmi bo'lib, bir konseptual soha (source domain) boshqa sohaga (target domain) proyeksiya qilinadi. Hunarmandchilik frazeologizmlarida konkret mehnat jarayonlari source domain bo'lib, abstrakt insoniy fazilatlar, xususiyatlar, harakatlar target domain bo'ladi. *Oltin qo'l* frazeologizmida zargarlik yoki metall ishlash konseptidan inson qobiliyati konseptiga o'tish amalga oshadi va oltin metalni qayta ishlash mohirligi umumiy professional mahoratning ramziga aylanadi.

Pragmatik jihatdan hunarmandchilik frazeologizmlari nutqda turli funktsiyalarni bajaradi. Ular baholash (yaxshi/yomon ishchi), intensivatsiya (juda mohir), ironiya (qo'li tik, yog'ochdan qo'g'irchoq yasaydi) maqsadlarida qo'llaniladi. *Qo'li og'ir* frazeologizmi taraqqiyot, muvaffaqiyat keltirish ma'nosida ijobiy baholash funktsiyasini bajarsa, *qo'li yengil* kamtarroq samarali ma'nosida nisbiy salbiy baholash beradi. *Aql bovar qilmaydi, ko'z ko'rganiga ishonmaydi* kabi maqollar hunarmandlarning ajoyib mahsulatlarini ta'riflashda ishlatilganda, ularning emotsional-ekspressiv xususiyati namoyon bo'ladi.

Hunarmandchilik frazeologizmlarining diachronik o'zgarishlarini kuzatish ham qiziqarlidir. Ba'zi frazeologizmlar zamonaviy hayotda tegishli hunarmandchilik turlari nisbatan kamaygan taqdirda ham faol qo'llanilishda qolmoqda. *Novvoyxona* so'zi zamonaviy paytda kam uchraydi, lekin *novvoyxona issi* frazeologizmi hali ham juda issiq joy ma'nosida faol ishlatiladi. Bu hodisa frazeologik birliklarning lingvistik xotirada mustahkam o'rni borligidan va ularning madaniy semantikasi bevosita realiya bilan bog'liqligidan uzilib, mustaqil birlik sifatida shakllanganligidan dalolat beradi. Shuningdek, ba'zi yangi frazeologik birliklar paydo bo'lmoqda: zamonaviy hunarmandchilik va texnologiyalar rivojlanishi bilan *kompyuterchi qo'li*, *internetchi miyasi* kabi nisbatan yangi birliklar paydo bo'lmoqda, garchi ular hali tilning frazeologik tizimiga to'liq singmagan bo'lsa ham.

Hunarmandchilik frazeologizmlarining milliyliklararo qiyosiy tahlili ularning universal va spetsifik jihatlarini aniqlashga yordam beradi. Ko'pgina tillarda hunarmandchilik asosida shakllangan frazeologizmlar mavjud, masalan, rus tilida *золотые руки* (oltin qo'llar), ingliz tilida *a master hand* (mohir qo'l) kabi birliklar o'zbek tilidagi o'xshash frazeologizmlar bilan umumiylikka ega. Biroq har bir tilda o'ziga xos, milliy madaniyat bilan bog'liq frazeologizmlar ham mavjud. O'zbek tilida suzanchilik bilan bog'liq *kashta tikilgan* (juda nozik, chiroyli ishlangan) frazeologizmi rus yoki ingliz tillarida bevosita muqobilga ega emas va tarjima qilishda izohlab berish zarur bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, hunarmandchilikka oid realiyalar o'zbek tilining frazeologik tizimida muhim o'rin tutadi va ular tilning milliy-madaniy xususiyatlarini, xalqning mehnat madaniyatini, qiymatlar tizimini aks ettiradi. Bu frazeologizmlarning semantik rivojlanishi konkret hunarmandchilik jarayonlaridan abstrakt konseptlarga o'tish yo'li bilan amalga oshadi va bu jarayonda metafora, metonimiya, ramziylashtirish kabi kognitiv mexanizmlar faol ishtirok etadi. Hunarmandchilik frazeologizmlarining chuqur tahlili nafaqat frazeologiya faniga, balki etnomadaniy lingvistika, kognitiv lingvistika, leksikografiya sohalariga ham hissa qo'shadi va milliy madaniy merosni saqlash hamda keyingi avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Виноградов В.В. Русский язык. Грамматическое учение о слове. М., 1972.
2. Влакхов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. М.: Высшая школа, 1986.
3. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
4. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1978.

Diloram FATTAKHOVA,
NUUz is named after Mirzo Ulugbek

LINGUISTIC FEATURES OF UZBEK FIGURATIVE LANGUAGE

Annotation. The article provides students of Russian-language groups with insights into the correct use of figurative devices in the Uzbek language and their appropriate application to enhance the expressiveness and impact of speech. These devices help convey ideas clearly and fluently, thereby improving the effectiveness of communication. Figurative means in the Uzbek language are formed through the extended transfer of a word's original meaning. The use of words in a figurative sense is a key indicator of lexical richness and serves as an important tool for creating imagery that conveys stylistic meaning and expressiveness.

Keywords: trope, figure of speech, metaphor, figurative language devices, linguistic features, expressiveness, journalistic text, terminology.

Annotatsiya. Maqolada rus guruhlari talabalariga o'zbek tilida tasviriy vositalardan to'g'ri foydalanish, nutqning ta'sirchanligini oshirish uchun ekspressiv tasviriy vositalardan o'rinli foydalanish haqida tushunchalar berilgan. Bu vositalar fikrni aniq va ravon ifodalashga xizmat qilib, muloqot samaradorligini oshiradi. O'zbek tilidagi tasviriy vositalar so'zning asl ma'nosini kengaytirish, ko'chirish asosida hosil bo'ladi. So'zlardan ko'chma ma'noda foydalanish lug'at boyligining asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, uslubiy ma'no va ifoda vositalarini yaratishda muhim vosita hisoblanadi.

Kalit so'zlar: trop, shakl, metafora, tilning majoziy vositalari, tilning lingvistik xususiyatlari, ekspressivlik, publitsistik matn, terminologiya.

Аннотация. В статье рассматривается правильное использование средств выразительности студентами русскоязычных групп. Эти выразительные средства служат для точного и правильного выражения мыслей, тем самым повышая эффективность коммуникации. Образные средства в узбекском языке образуются расширением первоначального значения слов. Использование слов в переносном значении является ключевым показателем богатства словарного запаса и важным инструментом создания образов, передающих стилистический смысл и выразительность.

Ключевые слова: троп, форма, метафора, образные языковые средства, языковые особенности языка, выразительность, публицистический текст, терминология.

Speech culture is a branch of philology that studies speech skills within a specific social period and teaches the rules of using language as a means of communication, as well as for forming and expressing thoughts on a scientific basis [1: 230]. In modern linguistics, including Uzbek linguistics, the concepts of "linguistic culture" and "speech culture" are distinguished. According to E. Begmatov, a leading scholar in the field of Uzbek speech culture, "linguistic culture" determines the level of "speech culture"; that is, it indicates the degree to which a language is refined and standardized [2: 50–58]. The concept of "speech culture," in a narrow sense, refers to the use of linguistic means in accordance with literary norms, while in a broad sense, it reflects the speech culture of the nation to which it belongs, since speech culture constitutes a part of national culture [3: 264].

In developing the doctrine of speech culture, B.N.Golovin identified three aspects of this concept: **subjective**, **objective**, and **epistemological**. The subjective aspect encompasses a set of knowledge, skills, and abilities that enable the speaker to construct speech reasoning with ease and to adequately address communicative tasks. The objective aspect represents a system of features and qualities that reflect the degree of linguistic refinement. The epistemological aspect denotes a field of linguistic knowledge – the science of the communicative properties of speech [4: 335].

It is customary to distinguish the following main functions of language as reflected in speech: **communicative**

(the function of communication), **cognitive** (the function of forming and expressing ideas), **expressive** (the function of conveying the speaker's emotional state), and **aesthetic** (the function of creating beauty through language). The communicative function lies in the ability of language to serve as a medium of interaction among people. From the perspective of speech culture, the communicative function of language requires the effective exchange of ideas among participants in speech communication, mutual benefit from interaction, and a general orientation toward correct understanding of speech.

However, without knowledge of and adherence to the norms of literary language, it is impossible to achieve the desired communicative effect. This, in turn, necessitates an understanding of the most essential and fundamental concepts related to the lexical, grammatical, and stylistic norms of the Uzbek language. These norms are indispensable for constructing properly organized Uzbek speech, characterized by clarity, fluency of expression, consistency, and richness of content. Such speech should also be marked by expressiveness, appropriateness, purity, comprehensibility, correctness, logic, precision, and other communicative virtues.

The modern system of humanitarian education is aimed at shaping a culturally developed and educated individual. From this perspective, mastering the use of the state language in the professional training of future teacher-philologists and developing proficiency in the Uzbek language and its speech culture occupy an important place.

In this regard, while preparing specialists for professional and pedagogical activity, it is necessary to ensure that they possess knowledge not only of their native literary language but also of the state language – Uzbek. The infrequent use of figurative language devices in the speech of Russian-speaking students, the difficulties they face in mastering them, and the insufficient attention to this issue in the process of teaching the Uzbek language are causes for concern.

The logicity of students' speech – the ability to express the essence of their thoughts consistently, coherently, and rationally – reflects the content of speech in its connection with reality. It is noteworthy that, from a linguistic point of view, speech culture involves two stages in the process of teaching students the culture of speech. The first stage concerns **the correctness of speech**, which requires adherence to the norms of the modern literary language. The second stage relates to **the mastery of speech**, encompassing such qualities as appropriateness, accuracy, logic, brevity and conciseness, clarity, and expressiveness.

At the core of a student's linguistic and stylistic choices lie lexical, phraseological, and grammatical synonyms. The same idea can be expressed through different selections and arrangements of words, word forms, phrases, and sentence structures. The **expressiveness of speech** is one of the most complex aspects of speech quality to define, as each individual evaluates the effectiveness of a text according to their own rhetorical ideals. Language possesses a rich treasury of expressive means, and **speech culture** represents an essential component of national culture. Therefore, conducting scientific research on the development of speech culture among Russian-speaking students is a significant and timely requirement.

Cultivating the ability of future philologists to comprehend and effectively use the figurative means of the Uzbek language constitutes one of the most pressing pedagogical tasks today. The characteristics of the communicative situation, the purpose of the speaker or writer, and the prior knowledge and perceptions of the reader or listener all play a decisive role in determining the effectiveness and quality of speech or text.

The use of figurative language significantly enhances the expressiveness of speech. As noted by researchers, "Expressiveness – the expressive quality of a text – reflects the speaker's emotional state through the linguistic and stylistic means of speech, as well as their subjective attitude toward reality, objects, and phenomena being described" [5: 869]. Expressive speech not only conveys the speaker's feelings but also exerts an emotional influence on the listener or reader. Emotional expressiveness and the emotional impact of speech are "not separate, distinct

phenomena, but different facets of a single whole" [6: 20]. Verbal figurative expression represents a specific form of speech that vividly reveals the speaker's emotional state.

Tropes and figures of speech are the main figurative language devices used to enhance the expressive power of communication. The rhetorical intensification of speech content through figurative means constitutes one of the key stylistic techniques and simultaneously serves as a means of increasing the aesthetic effect of the text. Tropes and figures demonstrate different levels of functional activity across various communicative contexts: they are most frequently used in fiction and journalistic writing, while their use in scientific discourse is relatively limited. In official and scientific-technical texts, figurative devices are typically absent, as such genres prioritize objectivity and precision. Figurative expressions, therefore, represent a deliberate departure from an objective mode of expression, designed to achieve emotional and aesthetic impact.

A **trope** is any linguistic unit that carries a figurative (connotative) meaning realized on the basis of a direct or primary meaning. The interrelation and mutual enrichment of these two meanings constitute the source of lexical semantics [7: 125]. In general, figurative language devices are stylistically embellished units of speech that arise from and are reflected within the linguistic creativity of native speakers. Naturally, such units correspond to objective elements of reality while simultaneously enriching the aesthetic dimension of communication.

The figurative means of the Uzbek language are formed through the expanded transfer of a word's original meaning. The use of words in a figurative sense serves as a key indicator of lexical richness and functions as an essential means of creating imagery that conveys stylistic nuance and expressiveness. Figurative language has played a pivotal role in the development of the **artistic style of speech**, which constitutes one of the major functional styles of the literary language. Moreover, such means are also employed in other modern Uzbek styles, including colloquial speech.

In the study of figurative means in the Uzbek language – particularly tropes – special attention should be given to instances of **correspondence and non-correspondence** between linguistic phenomena within bilingual systems. This analysis provides valuable opportunities for offering lexical and stylistic interpretations that facilitate a deeper and more conscious understanding of speech, taking into account both similarities and differences between languages.

The ultimate goal of teaching Uzbek to native and bilingual speakers is to develop speech competence that can be effectively applied in both formal and informal communication. These contexts inevitably require the

integration of figurative language devices alongside neutral vocabulary. Therefore, in the educational process, it is crucial to consider the structural and semantic distinctions between the figurative means of the Uzbek and Russian languages in order to ensure a nuanced and culturally appropriate use of expressive linguistic forms.

When teaching Russian-speaking students the figurative devices of the Uzbek language, it is essential to familiarize them with and encourage the use of the following groups of tropes: **metaphor, metonymy, epithet, and simile**, as well as **rhetorical questions, rhetorical addresses, repetitions, and symbolism**. Analysis shows that these devices are frequently employed in various types of texts. Metaphors, in particular, can be divided into two categories: **those belonging to common language** and **those created by authors**. Conventional metaphors, which have gradually lost their vividness, constitute a significant portion of terminology and specialized expressions used in official, journalistic, and literary discourse.

Metaphor is one of the most widespread and natural devices in fiction, especially in poetry. The most common artistic means of expression include comparison, metaphor, synecdoche, exaggeration, and litotes. However, the metaphor differs from the simile in the way the compared phenomena are integrated. In a metaphor, the comparison has already been completed within a single figurative image, whereas in a simile, the comparison is merely presented, leaving interpretation to the reader or listener. Consequently, the understanding of metaphor and simile differs due to their distinct structural and semantic nature.

Metaphor, like other expressive means that enhance the impact of speech, exhibits varying functional activity across different communicative spheres. It is well known that **fiction** serves as the primary domain for the use of expressive devices that enrich language imagery. Another field where figurative expressions are actively employed is **journalism**, as its purpose – to influence and engage the audience – is often achieved through expressive and emotionally charged language. However, excessive use of figurative means that oversaturates journalistic texts is not advisable. The effectiveness of figurative expression depends on the communicative context, primarily the topic, idea, intent, and the overall stylistic environment of the text, all of which are determined by the unity of form and content.

The use of expressive means in **Uzbek oral speech** depends largely on the individuality of the speakers, the topic of conversation, and the communicative situation. Oral discourse is characterized by emotional richness and spontaneity, which naturally enhance expressiveness. In such contexts, general linguistic expressiveness is commonly observed, though occasional metaphors also

appear. This phenomenon arises from the spontaneous, unprepared, and situational nature of oral speech.

It is well known that expressive metaphors are characteristic of both the Uzbek and Russian languages and share certain similarities in form and function. However, **cognitive types of metaphors** reveal differences in how similar aspects of reality are conceptualized and expressed in each language – differences that are deeply rooted in the distinct worldviews and cultural consciousness of their speakers.

In the Uzbek language, metaphors function as tropes based on perceived similarities between objects [8: 19]. Metaphor is always grounded in resemblance and comparison, yet it differs from simile in a crucial way: whereas simile involves two or more components that remain distinct and can be expanded, metaphor compresses meaning into a single component carrying a figurative sense. For example:

Visol

*Ko'ksimga yarqirab quyosh chiqadi,
Boshimga mehribon baxt qushi qo'nar.
Ayriliq tog'ini visol yiqadi,
Ko'ngil gulzorida chechaklar unar.
Chunki... sen kelasan quyoshday kulib,
Chunki... sen kelasan tole qushiday,
Chunki sen kelasan chiroyga to'lib,
Shoirning tong chog'i ko'rgan tushiday. (H.G'ulom)*

In both languages, key metaphors transfer one part of reality to another part of it. They ensure the conceptualization of reality according to the analogy formed in the system of concepts. Types of metaphors also include depiction through symbols.

Mo'jiza lahzalari

*Umrin bo'g'otiga qor tushdi necha,
Laylak qorlar yog'di afsona aytib.
Hayotimga yangi yil kirgan kecha
Har gal bolaligim uchratdim qaytib.
Kumush teraklarning qir uchlarida
Tilla isirg'aday qolgan varraklar,
Bir hovuch nur o'ynab kulgichlarida
O'smirligim kelar har yil daraklab. (O.Hojiyeva)*

Thus, a metaphor can be defined as the transfer of the properties of one object to another based on the shared or similar features inherent in both compared entities. The semantic structure of metaphor represents a complex phenomenon, the formation of which involves a synthesis of linguistic and cognitive knowledge. The linguistic characteristics of metaphors necessitate their systematic

classification, taking into account the ability of Russian-speaking students to perceive and employ metaphors, epithets, similes, paraphrases, and metonymy at each stage of language learning. An analysis of all examples of tropes in Uzbek and Russian demonstrates that, despite belonging to different linguistic systems, both languages are equally rich in their capacity to convey thought – or fragments of reality – through figurative means.

Consequently, it has been determined that tropes constitute an essential component of the language

system, as they remain a vital instrument of linguistic development, reflecting the verbal realization of significant cognitive processes and serving as an effective means of enhancing the expressiveness of speech. Therefore, it is advisable to organize a consistent and comprehensive study of tropes—covering their structure, meaning, and function—in Uzbek language instruction for Russian-speaking students.

References

1. Tomashevsky B. Stylistics and versification. – L., 1989.
2. Begmatov E. On the concept of speech culture // Uzbek language and literature, Tashkent, 1975. №5. – P. 50–58.
3. Culture of Russian Speech: Textbook for Universities / Edited by Prof. L.K.Graudina et al. – Moscow: Norma, 1998. – 264 p.
4. Golovin B.N. Fundamentals of Speech Culture. – Moscow: Higher School, 1980. – 335 p.
5. Expressive Means of Modern Russian Speech. Tropes and Figures. Terminological Dictionary. – Moscow: Phoenix, 2007.
6. Kozhina M.N. Stylistics and some of its categories. – Perm, 1981.
7. Boboniyozov A. Linguistic artistry of figurative means in Abdulla Qodiriy's novel "Days Gone By". Dissertation for Candidate of Philological Sciences. – Tashkent, 1995. – 125 p.
8. Khayitov T.A. Methods of teaching expressive reading using audiovisual teaching aids in national language pedagogical universities. Abstract of dissertation for Candidate of Pedagogical Sciences. – Tashkent, 1991. – 19 p.
9. Anthology of 20th Century Uzbek Poetry "National Encyclopedia of Uzbekistan". – Tashkent, 2007. – 476 p.
10. Kuronov D. Introduction to Literary Studies. Textbook for university students. – Tashkent: Fan, 2007. – 227 p.
11. Eshchanova G. Linguomethodological foundations of studying poetic works in Uzbek language lessons (on the example of schools where education is conducted in other languages). Abstract of Ph.D. dissertation. – Tashkent, 2009.

Nilufar HAYITOVA,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti jahon adabiyoti kafedrasida 2-bosqich magistranti

HAMID OLIMJON IJODIDA ILM VA NAFOSAT UYG'UNLIGI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Hamid Olimjonning adabiyotshunos sifatidagi faoliyati yoritiladi. Uning xalq og'zaki ijodi, "Alpomish" dostoni hamda Alisher Navoiy merosini o'rganishdagi hissasi, ilmiy-tadqiqot ishlari, adabiy tanqidchilikdagi qarashlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Hamid Olimjon, adabiyotshunoslik, "Alpomish", xalq og'zaki ijodi, Alisher Navoiy, ilmiy izlanish, adabiy meros.

Annotation. This article explores the literary scholarship of Hamid Olimjon. His contribution to the study of oral folk art, the epic "Alpomish", and the legacy of Alisher Navoi was analyzed, research works were studied, and views in literary criticism were highlighted.

Keywords: Hamid Olimjon, literary studies, "Alpomish" oral folk art, Alisher Navoi, scientific research, literary heritage.

Аннотация. В данной статье освещается литературоведческая деятельность Хамида Алимджана. Проанализирован его вклад в изучение устного народного творчества, эпоса «Алпамыш» и наследия Алишера Навои, изучены научно-исследовательские работы, освещены взгляды в литературной критике.

Ключевые слова: Хамид Алимджан, литературоведение, «Алпамыш», устное народное творчество, Алишер Навои, научные исследования, литературное наследие.

Hamid Olimjon... Aksariyat kitobxonlarga shoir sifatida tanilgan. She'rlari tarix sahifalariga jo'shqin tuyg'ular va tabiatga mehrni go'zal ifoda etgan ijodkor o'laroq muhrlangan. U faqat shoir emas, yuksak bilimli olim ham edi.

U o'z she'rlarida onasi – Komila aya aytgan ertaklarning adabiy dunyosiga qanday ta'sir qilganini bir necha bor ta'kidlagan. Balki aynan shu ertaklar unga shoirlik va olimlik yo'lini ko'rsatgan bo'lsa, ajab emas. Yana bir muhim omil – mashhur baxshi Fozil Yo'ldosh ularning xonadoniga tez-tez tashrif buyurib turgan. Bu esa yosh Hamidning adabiy va ilmiy muhitda shakllanishida katta rol o'ynagan. Hayot yo'li qisqa bo'lganiga qaramay, Hamid Olimjon ilm va tarix oldidagi mas'uliyatni teran his etgan. Bolaligida

tinglagan ertaklari, o'qigan dostonlari uning qalbida chaqnagan ilhom uchqunini alangaga aylantirdi...

Bo'lajak olim Fozil Yo'ldoshning ashaddiy muxlisi o'laroq o'zida ming bir sirni yashirgan "Alpomish" dostonini har gal jon qulog'i bilan tinglar, har bir satr mohiyatini tushunishga harakat qilardi. Eshitganlarini shunchaki qabul qilmas, *nega, nima uchun?* deb savollar berardi. "Maktabda ham juda ilg'or, turli tadbirlarning asosiy qatnashchisi edi. Natija o'laroq, maorif bo'limining aralashuvi bilan Hamid Samarqandga – dorilmuallimlikka o'qishga borgach [1: 23], birin-ketin savollarga javob qidira boshlaydi. "Yoshlik chog'laridanok xalq og'zaki ijodiga mehr qo'ygan Hamid Olimjon, bu davrda uni asosli ravishda o'rgana boshladi"

[2: 100]. Talabchan tanqidchilik, zakiy adabiyotshunoslik yo'li boshlangan edi. "Alpomish" dostonining tadqiqidan so'ng yozgan "Mardlik, muhabbat va do'stlik dostoni", "Alpomish", "O'xshashliklar" kabi maqolalarida bu boradagi izlanishlarini bayon qildi. U xalq og'zaki ijodiga yuksak e'tibor va ehtirom bilan qarar, "dostonlarda xalqning chin turmushi va kurashi o'nlab rasmiy tarix kitoblaridagiga qaraganda real – rost ko'rsatil"ishiga diqqat qilardi [3: 97].

H.Olimjon nafaqat o'zbek, balki qo'shni xalqlar ijodiyotini ham o'qigandi. "O'xshashliklar" maqolasida arman xalqining "David Sasunskiy" dostoni bilan "Alpomish"ni tipologik jihatdan ko'rib chiqadi. Shota Rustavelining "Yo'lbars terisini yopingan bahodir" dostonidagi Nestan va Darejan sevgi qissasini esa Alpomish va Barchin muhabbatiga qiyoslaydi. U dostonlarni nafaqat sevib o'qir, balki ularni to'plab, nashrga tayyorlashda ham faol ishtirok etar edi. "Alpomish" dostonini yozib olib, unga so'zboshi yozadi va nashrga tayyorlaydi. Shu boisdan, Hamid Olimjon tayyorlagan nashr bugungi kunda ham juda qadrlil va ishonchli manba sifatida e'tirof etiladi.

H.Olimjon adabiyotshunos sifatida eng katta e'tiborini Alisher Navoiy shaxsiyati va ijodini o'rganishga qaratdi. "Navoiy shu yillargacha ba'zi munaqqidlar nazarida oddiy taqlidchi shoir, feodal o'tmish kuychisi hisoblanar, shuning uchun ham uning hayoti va ijodini o'rganishga hojat yo'qdek tuyular edi. Hamid Olimjon bunday g'ayriilmiy qarashlarga zarba berib, uning Shekspir, Balzak, Gyote, Pushkin kabi jahon badiiy madaniyatining gigantlari bilan bir safda turishini zo'r berib uqtirgan ijodkorlardan bo'ldi" [4: 131]. Shoir Navoiy shaxsiga boshqa millat ziyolilarining ham e'tiborini qaratishga muvaffaq bo'ldi. 1938-yili Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligini nishonlash g'oyasini ilgari surdi. O'zbekiston hukumati yubiley komitetining kotibi sifatida tadbirga astoydil tayyorgarlik ko'rdi. Yubiley oldidan 20 ga yaqin maqolalar tayyorlaydi. Moskva, Leningrad va boshqa shaharlarda ilmiy nutqlar bilan chiqib, rus sharqshunos olimlarida katta qiziqish uyg'otdi. 1940-yil 3-dekabr kuni Moskvada o'tgan majlisda u shunday degan edi: "Navoiy ijodini o'rganish masalasi hozir biz uchun o'zbek xalqining butun tarixini hal qiladigan markaziy masala darajasiga ko'tarilgan. Aminimizki, bu yubiley o'zbek xalqining tarixini yaratish imkonini beradi" [4: 134]. Tarixga munosabat siyoslashgan, har bir chiqishga sinfiylik nuqtayi nazaridan baho beruvchi jamoatchilik oldida bu so'zlarni aytishning o'zi jasorat edi. Natijada tadbir keng jamoatchilik ishtirokida tantanali o'tkazildi. Alisher Navoiy asarlari esa rus, tojik, arman, ozar, qozoq va ukrain tillariga tarjima qilindi. Ulug' shoir hayoti va ijodini targ'ib qilishga bag'ishlangan filmlar suratga olindi, spektakllar sahnalashtirildi.

"Yozuvchilar soyuzidagi betinim ishlar va komandirovkalar shoirga Navoiy haqidagi asarlar ustida hammuallif sifatida ishlash imkoniyatini bermadi. Lekin qalamkash do'stlarining ijodiy ishlarini hormay-tolmay kuzatdi. Oybek va Mirkarim Osimni Navoiy to'g'risida tarixiy qissa va roman yozishga undagan ham Hamid Olimjon bo'ldi" [4: 127–128]. O'zi "Xamsa"ga, xususan, "Farhod va Shirin"ga alohida e'tibor qaratdi. "Farhod va Shirin"ni "beshlik"ning eng go'zal dostoni sifatida e'tirof etdi. Xamsachilik an'anasida

qaror topgan yangi yondashuvlar sifatida Farhod va Xisrav obrazlaridagi o'ziga xoslikni keltiradi. Ulug' shoirga qadar markaziy qahramonlar Xisrav bilan Shirin edi, Navoiy esa Farhod obrazini qo'shgandi. H.Olimjon bunga qanday zarurat borligi haqida mushohada yuritir ekan, mutafakkirning nega Xisravni emas, Farhodni tanlagani bo'yicha kuchli dalillar keltiradi. Xususan, shoir Farhodni eng go'zal insoniy fazilatlar bilan ziynatlagani, ushbu obraz orqali umumbashariy masalalar ilgari surilganini ta'kidlaydi. "Navoiy Farhod ruhida buyuk odam obrazini yaratgan. Farhod Navoiy tasvirida jahon adabiyotidagi eng buyuk obrazlarni esga keltiradi. Jahon falsafasini yaxshi bilgan Navoiy faylasuf Arastuni Farhodning kichik bir shogirdi qilib ko'rsatadi..." [3: 14]

H.Olimjon Navoiy portretiga chizgilar berar ekan, uni shoir, olim, tarixchi, tanqidchi, tilchi, adabiyot nazariyotchisi, siyosiy arbob, musiqachi, kompozitor, xattot kabi sifatlar bilan birga, butun bir davrning buyuk siymolariga tegishli bo'lgan og'ir yukni ko'targan va manziliga oqilona yetkazgan o'zbek xalqining ulug' farzandi sifatida tasvirladi. Navoiy ijodiga sustkashlik bilan qaralayotgan bir vaziyatda ulug' siymoning nafaqat o'zbek adabiyoti, balki jahon adabiyotidagi o'rnini ko'rsatib bera oldi, o'zbek tilining rivojida ulkan xizmatlarini e'tirof etdi va ijodini ommalashtirishga munosib hissa qo'shdi. 1943-yili Moskva yozuvchilar klubida yana bir bor so'zga chiqib, butun sovet adiblarining peshvolari yig'ilgan davrada adabiy-tarixiy davrning poetik jihatdan shakllanishi va bu jarayonda yaratilgan asarlar qimmatini yaxlit ko'rsatib bera oldi. Dunyo adabiyoti ham uning nazaridan chetda qolmadi. Adabiyotning asl durdonalarini millat tanlamasdan o'rgandi. Xususan, Pushkinning she'rlarini 7–8 yoshida bobosining tilidan yod olgan Hamid Olimjon keyinchalik bunga ham adabiy sinchi nigohi bilan qaradi. Pushkin tavalludining 100 yilligiga bag'ishlab yozilgan maqolasida shoirning shaxsiyatini, ijodi va rus nazmida tutgan o'rnini ham yetarlicha yoritilgan edi. Umuman, Hamid Olimjon dunyo adabiyotidan Tolstoy, Taras Shevchenko, Serafimovich, Gorkiy, Mayakovskiy, Yakub Kolas kabi atoqli adiblar haqida qalam yurizar ekan, har birining ijodiga xolis baho bera oldi.

Qisqa umr, lekin havas qilarli g'ayrat va tashkilotchilik, go'zal asarlar va tadqiqotlar. Hamid Olimjon hayotidagi bunday kontrast zahirida mashaqqatli mehnat, tinimsiz izlanishlar mujassamdir. U har kuni 50 bet qog'oz qoralamasdan o'ziga uyquni ravo ko'rmagan. Eng muhimi, o'z mehnati bilan cheklanmas, g'ayratini boshqalarga ham "yuqtirardi". Matbuotdagi yengil-yelpi chiqishlarni sira qabul qilolmas, bunday vaziyatda jim qarab turishni adabiyotga nisbatan vijdotsizlik deb baholar edi.

Hamid Olimjon faqatgina muhabbat va tabiat kuychisi emas, balki teran tafakkurli olim, tashkilotchi, o'z davrining yetakchi adabiyotshunosi, milliy adabiyotimizning jonkuyari edi. Uning ilmiy-estetik qarashlari, tanqidchilik mahorati, fidoyiligi bugungi tadqiqotchilar uchun ibrat maktabidir. Shoir fenomenini shu nuqtayi nazardan o'rganish yangi xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov N. Hamid Olimjon. – Toshkent: Sharq, 1979.
2. Azimov S. Saylanma. 2-tom. Abadiyat. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988.
3. Olimjon H. Mukammal asarlar to'plami. 5-tom. Mardlik, muhabbat va do'stlik dostoni. – Toshkent, 1982.
4. Karimov N. Ajoyib kishilar hayoti. – Toshkent: Toshkent: Sharq, 1990.

Maftunabonu XOLJO'RAYEVA,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti

IJTIMOY-SIYOSIY MATNLARNI TARJIMA QILISHDA LINGVOPRAGMATIK MUAMMOLAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada Islom Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida qo'llangan ijtimoiy-siyosiy terminlar lingvopragmatik tahlil nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Asarda uchraydigan "xavfsizlik", "barqarorlik", "taraqqiyot", "milliy manfaatlar", "xalqaro hamkorlik" kabi terminlarning semantik mazmuni, ideologik yuklamasi hamda tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolar yoritilgan. Qiyosiy tahlil asosida ushbu terminlarning ingliz tiliga ekvivalentlari ham ko'rsatilib, lingvopragmatik farqlar ochib beriladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-siyosiy matn, lingvopragmatika, tarjima, ijtimoiy-siyosiy termin, ekvivalentlik, ideologik yuklama.

Annotation. This article examines the socio-political terms used in Islam Karimov's book "Uzbekistan on the Threshold of the Twenty-First Century: Threats to Security, Conditions of Stability and Guarantees of Progress" from the perspective of linguo-pragmatic analysis. Terms such as security, stability, progress, national interests, and international cooperation are analyzed in their semantic and pragmatic dimensions. Special attention is given to their ideological implications and the challenges of translation into English.

Keywords: political text, linguo-pragmatics, translation, socio-political terms, equivalence, ideological implications.

Аннотация. В данной статье социально-политические термины, использованные в работе Ислама Каримова «Узбекистан на пороге XXI века: угрозы безопасности, условия стабильности и гарантии развития, изучаются с точки зрения лингвопрагматического анализа. Освещены семантическое содержание, идеологическая нагрузка и проблемы, возникающие в процессе перевода таких терминов, встречающихся в произведении, как «безопасность», «стабильность», «развитие», «национальные интересы», «международное сотрудничество». На основе сравнительного анализа также показаны эквиваленты этих терминов в английском языке и выявлены лингвопрагматические различия.

Ключевые слова: социально-политический текст, лингвопрагматика, перевод, социально-политические термины, эквивалентность, идеологическая нагрузка.

Bugungi kunda siyosiy nutqlar va hujjatlar xalqaro muloqotning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Siyosiy matnlarni boshqa tillarga tarjima qilish jarayonida nafaqat leksik-semantik ma'nolarni, balki ularning pragmatik kuchi, ya'ni auditoriyani ishontrish, da'vat etish, legitimlashtirish kabi vazifalarini ham to'g'ri yetkazish zarur. Shu bois siyosiy matnlarni tarjima qilish jarayoni ko'plab lingvopragmatik muammolarni keltirib chiqaradi.

Ushbu maqolada "Xalq so'zi" gazetasida chop etilgan ijtimoiy-siyosiy siyosiy matnlar hamda ingliz tilidagi The Guardian nashrida yoritilgan ijtimoiy-siyosiy maqolalar misolida ijtimoiy-siyosiy terminlarning lingvopragmatik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi.

Lingvopragmatikaning nazariy asoslari. Lingvopragmatika nutqning kommunikativ maqsadini, auditoriyaga ko'rsatiladigan ta'sirini va yashirin mazmunlarini o'rganadi. J.Austin va J.Searlelarning nutq aktlari nazariyasiga ko'ra, har bir gapning lokutsion (ma'no), illokutsion (nutqiy maqsad) va perlokutsion (auditoriyaga ta'siri) jihatlari mavjud [1; 2]. Ijtimoiy-siyosiy matnlarda bu jihatlari ayniqsa muhimdir, chunki

siyosatchining so'zi nafaqat axborot, balki harakatga chorlovchi signal bo'lib xizmat qiladi.

"Xalq so'zi" gazetadagi ijtimoiy-siyosiy terminlar tahlili. 2021-yil fevral oyida chop etilgan maqolada Prezidentning BMT Inson huquqlari bo'yicha Kengashiga murojaati yoritilgan [3: 4]. Unda *demokratik yangilanishlar*, *inson huquqlari*, *huquqiy davlat* kabi terminlar ishlatilgan. Ularning ingliz tilidagi tarjimasi mos ravishda *democratic reforms*, *human rights*, *rule-of-law state* ko'rinishida beriladi. Bu terminlar xalqaro auditoriyaga ochiqlik va ishonch signali sifatida qabul qilinadi. 2021-yilning 15-sentabridagi sonida esa *Yangi O'zbekiston strategiyasi*, *xalq manfaatlari*, *davlat boshqaruvi islohoti* kabi atamalar uchraydi. Ular *New Uzbekistan Strategy*, *public interest*, *public administration reform* shaklida ingliz tiliga tarjima qilinadi. Bu yerda *xalq manfaatlari* iborasi bevosita *people's interests* deb tarjima qilinsa ommaviy tus olishi mumkin, shuning uchun *public interest* neytralroq va pragmatik jihatdan to'g'ri hisoblanadi.

2025-yil 20-iyun sonida chop etilgan maqolalarda *barqaror*, *adolatli va demokratik davlat*, *xalqaro hamkorlik* [4: 6] kabi terminlar qo'llangan. Ularning ingliz tilidagi muqobil variantlari *stable*, *just and democratic state* hamda

international cooperation shaklida ifodalanadi. *Adolatli* so'zini just deb berish to'g'riroq, chunki *fair* leksemasi ko'proq protsessual tenglikka urg'u beradi.

2021-yil 15-sentabr sonida "*Milliy manfaatlarimizni himoya qilish – eng oliy vazifamiz*" jumlasini keltirilgan. Bu matnda *milliy manfaatlar* termini asosiy siyosiy kategoriyalardan biri sifatida qo'llangan. U o'zbek auditoriyasi uchun davlat suvereniteti va mustaqil rivojlanish konsepsiyasini bildiradi. Ingliz tiliga *national interests* tarzida o'tkaziladi. Biroq G'arb diskursida bu atama ko'pincha tashqi siyosatdagi strategik manfaatlarni anglatadi. Demak, tarjima jarayonida ideologik-pragmatik tafovutni yumshatish uchun kontekstual izoh zarur.

2023-yil 10-iyun sonida nashr etilgan maqolada "*Xavfsizlikni ta'minlash – taraqqiyotning muhim sharti*" jumlasini keltirilgan. *Xavfsizlik* va *taraqqiyot* terminlari birgalikda qo'llanib, sabab-oqibat munosabatini hosil qilgan. Ingliz tilida *ensuring security is a vital condition for progress* tarzida berilishi mumkin. Bu yerda *security* atamasi xalqaro siyosiy diskursda ko'proq harbiy va geosiyosiy xavfsizlikni bildirsa, o'zbek kontekstida ijtimoiy barqarorlik va tinchlik ma'nolarini ham qamrab oladi.

The Guardian's jurnalidagi ijtimoiy-siyosiy terminlar tahlili. 2022-yil oktabr oyida chop etilgan maqolada AQSh Milliy xavfsizlik strategiyasiga doir *national security, deterrence, rules-based order* kabi ijtimoiy-siyosiy terminlar qo'llanadi. Ularning o'zbek tilidagi tarjimasi *milliy xavfsizlik, qarshi qo'yish siyosati (to'sib turish), qoidalarga asoslangan tartib* ko'rinishida bo'lishi mumkin. Ayniqsa, *deterrenceni* oddiy "*qo'rqitish*" deb tarjima qilish noto'g'ri, chunki bu termin strategik siyosiy tushunchani bildiradi.

2025-yil avgustidagi maqolada *rule of law* atamasi siyosiy bahs markazida turadi. Uni *huquq ustuvorligi* deb tarjima qilish maqsadga muvofiq. Chunki "*qonun ustuvorligi*" varianti formal shakl bo'lsa-da, "*huquq*" deb olingan tarjima varianti konstitutsion mazmunni aniqroq ochadi.

2025-yil aprel sonida esa *national security apparatus, intelligence, civilian control* terminlari ishlatiladi. Ularning o'zbek tilidagi mos variantlari *milliy xavfsizlik apparati, razvedka, fuqaroviy nazoratdir*. "*Fuqaroviy nazorat*" demokratik boshqaruv tamoyillarini ifodalovchi muhim termin hisoblanadi.

2023-yil yanvar sonida "*Global security challenges require collective solutions*" jumlasini bor, unda *global security* termini

qo'llanadi. Ingliz auditoriyasi uchun bu ko'proq xalqaro harbiy tahdidlar va terrorizmga qarshi kurash bilan bog'liq. O'zbek tilida esa *global xavfsizlik* atamasi iqlim o'zgarishi, migratsiya va iqtisodiy beqarorlik kabi omillarni ham qamrab oladi. Tarjimon shu semantik-pragmatik tafovutni hisobga olishi lozim.

2021-yil dekabr sonida esa ommaviy shior – "*one rule for them*" yoritilgan. Bu ibora "*ular uchun alohida qoida*" deb tarjima qilinib, huquqiy tenglik prinsipiga ishora qiladi. "*Democracy and human rights are under pressure worldwide*". Bu yerda *democracy* va *human rights* terminlari birgalikda qo'llangan. Ularni o'zbek tiliga "*demokratiya va inson huquqlari*" deb tarjima qilish oson. Biroq lingvopragmatik nuqtayi nazardan, o'zbek siyosiy diskursida bu tushunchalar ko'pincha xalqaro tashkilotlarning talablari bilan bog'lanadi, ingliz diskursida esa ularni jamiyatning asosiy qadriyatlarini sifatida talqin qilish keng tarqalgan.

Qiyosiy tahlil. Keltirilgan misollar shuni ko'rsatadiki, o'zbek va ingliz siyosiy matnlaridagi ijtimoiy-siyosiy terminlar semantik jihatdan o'xshash bo'lsa-da, ularning lingvopragmatik qiymati turlicha qabul qilinadi. O'zbek diskursida terminlar ko'proq milliy suverenitet, ichki barqarorlik va xalq manfaatlarini bilan bog'liq bo'lsa, ingliz diskursida ular ko'proq xalqaro siyosiy tizim, geosiyosiy manfaatlar va universal qadriyatlar kontekstida ishlatiladi. Shu sababli tarjimon faqat lug'aviy ekvivalentni tanlash bilan cheklanib qolmasdan, kontekst va auditoriya kutgan pragmatik ma'noni ham hisobga olishi zarur.

"Xalq so'zi" materiallarida ijtimoiy-siyosiy terminlar ko'proq legitimatsiya va mobilizatsiya funksiyasini bajaradi. Ular davlat siyosatini asoslash, xalqni birlashtirish va xalqaro auditoriyaga ijobiy imij yaratishga xizmat qiladi. "The Guardian" materiallarida esa terminlar asosan tanqidiy va nazorat funksiyasida qo'llanadi. Ular hukumat siyosatini tahlil qilish, demokratik institutlarni himoya qilish va auditoriyani ogohlantirish maqsadiga xizmat qiladi.

Siyosiy matnlarni tarjima qilishda lingvopragmatik muammolar terminlarning konnotatsiyasi, ideologik yuklamasi va illokutsion kuchini saqlash bilan bog'liq. "Xalq so'zi" va "The Guardian" misollarida ko'rganimizdek, har ikki til va madaniyatda bir xil termin turlicha pragmatik yuklama kasb etadi. Shu sababli tarjimon nafaqat til bilimiga, balki siyosiy kontekst va auditoriya xususiyatlariga ham e'tibor qaratishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Austin J. How to Do Things with Words. – Oxford: Clarendon Press, 1962.
2. Searle J. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969.
3. Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Inson huquqlari bo'yicha Kengashiga murojaati. // Xalq so'zi, 2021, №34 (7898).
4. Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1997.
5. Prezident Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasi 76-sessiyasida nutq so'zladi. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/09/22/un-as-sembly-76/>.
6. Salomov G. Til va tarjima nazariyasi masalalari. – Toshkent: Fan, 1983.
7. Saidov F. Til va siyosat munosabatlari. – Toshkent: Fan, 2005.
8. "Xalq so'zi" va "The Guardian" gazetalarining 2021–2025-yillardagi sonlari.

Zilola NIYAZOVA,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'zbek adabiyoti ixtisosligi 2-bosqich tayanch doktoranti

BADIIY ADABIYOTNI ASSOTSIATIV TAHLIL QILISH TAMOYILLARI **(Nodir Normatov hikoyalari misolida)**

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy asarni assotsiativ tahlil qilish mohiyati, o'zbek badiiy adabiyotida assotsiativ tafakkur, assotsiativ usulning o'rn haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, taniqli adib Nodir Normatovning mashhur hikoyasidan misollar keltirilib, assotsiativ usulning badiiy tasvir kuchini oshirishdagi roli tahlil qilinadi. Nodir Normatov hikoyalarning asosiy qismi bolalikdagi assotsiativ tafakkur mahsul o'laroq yuzaga kelgani, poetik konstruksiyasi tahlili jarayonida yozuvchi assotsiatsiyasining ma'lum xususiyatlarini ochishga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: assotsiatsiya, tarixiy-tipologik, tarixiy- genetik, poetik unsur, reministensiya, modernistik oqim, detal, avtobiografiya, realizm.

Annotation. This article discusses the essence of associative analysis of a literary work, the role of associative thinking in Uzbek literature, and the significance of the associative method. In addition, examples from a famous short story by the renowned writer Nodir Normatov are presented, analyzing the role of the associative method in enhancing the power of artistic expression. It is emphasized that a major part of Nodir Normatov's stories emerged as a product of childhood associative thinking, and attention is given to revealing certain features of the writer's associations during the analysis of their poetic construction.

Keywords: association, historical-typological, historical-genetic, poetic element, reminiscence, modernist movement, detail, autobiography, realism.

Аннотация. В данной статье рассматривается сущность ассоциативного анализа художественного произведения, ассоциативное мышление в узбекской художественной литературе и роль ассоциативного метода. Кроме того, приводятся примеры из известного рассказа известного писателя Нодира Норматова, анализируется роль ассоциативного метода в усилении художественной выразительности. Подчеркивается, что основная часть рассказов Нодира Норматова возникла как продукт детского ассоциативного мышления, а в процессе анализа их поэтической конструкции уделяется внимание выявлению определённых особенностей авторских ассоциаций.

Ключевые слова: ассоциация, историко-типологический, историко-генетический, поэтический элемент, реминисценция, модернистское течение, деталь, автобиография, реализм.

So'nggi paytlarda o'zbek adabiyotida tadqiqotchilarning diqqat-e'tibori nafaqat muayyan muallif ijodini o'rganishga, balki uning matnlaridagi murakkab assotsiativ zanjirlarni aniqlashga qaratilmoqda, ular asarlarni butun adabiy jarayon bilan bog'lashga intilmoqda.

Assotsiatsiya – bu badiiy ifodalilikka, ma'no hosil qilishga erishishning o'ziga xos usuli, “voqelikning bevosita aks etishi jarayonida paydo bo'ladigan hissiy obrazlarning xotirada saqlanayotgan yoki inson faoliyatining madaniy-tarixiy tajribasida mustahkamlangan tasavvurlar bilan bog'lanishiga asoslangan” [1: 212].

“Assotsiatsiya” tushunchasi qadimgi falsafada ham shakllangan. Birinchi marta ruhiy faoliyatdagi assotsiativ jarayonlarning shart-sharoitlari Aristotel tomonidan tushunilgan bo'lib, u assotsiatsiyalar asosida obrazlarning shakllanishi mumkinligi uzoq tushunchalarning kutilmagan uyg'unlashuvi natijasida yuzaga keladi; u kuchliroq metaforiklik va subyektivlikka ega bo'ladi. “Assotsiativlik har qanday badiiy obraz, ayniqsa trop asosida yotadi, biroq assotsiativ obraz intensiv tarzda qo'shimcha, go'yoki majburiy bo'lmagan, ixtiyorsiz aloqalarni aniqlashga quriladi” [2: 40]. Bu o'quvchi tomonidan ilg'ab olinishi lozim bo'lgan ishora bo'lib, u kuchli diqqat va idrokni talab qiladi. Aynan mana shunday “qo'shimcha aloqalar” (ko'pincha ularning butun zanjiri) assotsiativ obrazga o'ziga xos muallifona betakrorlik baxsh etadi.

Adabiyotshunoslik nazariyasida adabiyotning asosiy predmeti inson ekani ta'kidlanadi. Biroq insonni alohida emas, balki jamiyat va tabiat bilan uzviy aloqada tasvirlash

adabiyotning bosh vazifasi sifatida qaraladi. Shu nuqtayi nazardan, Nodir Normatov hikoyalari voqelik tasviri hamisha insoniy ruhiyat va ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog'liq holda ochiladi. O'zbek adabiyotida inson va tabiat, xotira va hayotiy kechinmalarni badiiy tadqiq qilishda Nodir Normatov o'ziga xos maktab yaratgan adibdir. Uning ijodini o'rganishda turli tadqiqotchilar alohida to'xtalib o'tishadi. Ulug'ovning “Ma'naviy malham yoxud zaharmuhra” maqolasida yozuvchining “Bisot” to'plamiga kiritilgan qissa va hikoyalarni tahlil qilish orqali adibning umumiy badiiy olami ochib beriladi. Tadqiqotchi ta'kidlaydi: “Nodir Normatov o'zi ko'rgan, kuzatgan, ta'sirlangan voqealarni qalamga oladi va mayda tafsilotlarga berilib ketmasdan, hodisalar kechayotgan zamon va makonning eng muhim detallariga e'tibor qaratadi” [4: 55]. Bu fikr adib ijodidagi assotsiativ tafakkur mohiyatini belgilab beradi. Normatov tafsilotlarni yirik tasvirlarga bo'ysundiradi, shu bois o'quvchi ongida voqealar bir-biriga bog'lanib, yaxlit badiiy manzaraga aylanadi. Sanobar To'laganova esa yozuvchining asosiy badiiy ruhini “sog'inch” bilan bog'laydi. U shunday yozadi: “Nodir Normatov o'zbek nasrida “sog'inch”ning badiiy ifodasini chizgilar orqali ko'rsatishga harakat qiladi. Uning qahramonlari bugungi kun Surxon vohasi odamlari ham esdan chiqqan so'zlar bilan o'zaro tillashadi” [5: 163]. Bu o'rinda assotsiativ tafakkur milliy xotira, unutilgan til qatlamlari, tarixiy-estetik obrazlar orqali yuzaga chiqadi. Demak, yozuvchi o'tmish va bugun o'rtasida badiiy bog'liqlik yaratadi.

Adabiy assotsiatsiyalarni tadqiq etishda shuni yodda tutish kerakki, muallif matni o'zga matndan olingan assotsiativ bir detalni o'z ichiga olganida, u orqali o'sha asar mansub bo'lgan butun davr bilan ham bog'lanadi. Demak, shoir asarlarining adabiy-tarixiy kontekstini hisobga olish zarur. Bu esa, nafaqat muallifning zamonaviy madaniy-tarixiy vaziyatini, balki u murojaat qilgan o'tgan davrlarning xususiyatlarini ham e'tiborga olishni talab qiladi. Assotsiatsiya hayoti badiiy asarni yaratish va qabul qilish jarayoni bilan bevosita bog'liqdir. Haqiqatni ijodiy qayta yaratish predmet va hodisalarni assotsiativ tarzda bog'lash, tasavvur orqali ularning yangi, noodatiy aloqalarini qurish qobiliyati bilan belgilanadi. Badiiy adabiyotni qiyosiy-tarixiy o'rganish murakkab masalalar majmuasini o'z ichiga oladi va tadqiqotning turli jihatlarini nazarda tutadi. Olimlar quyidagi printsiplial jihatdan muhim bo'lgan qiyosiy o'rganish vazifalarini yoritib berganlarki, bular: madaniy o'zaro ta'sir; tarixiy-genetik taqqoslash, ya'ni o'xshash hodisalarni ularning kelib chiqishi jihatidan qarindoshligi va keyinchalik tarixiy sharoitlarda yuz bergan tafovutlar natijasi sifatida ko'rib chiqish; tarixiy-tipologik taqqoslash, ya'ni genetik jihatdan o'zaro bog'liq bo'lmagan hodisalarning o'xshashligini jamiyat taraqqiyotining o'xshash sharoitlari orqali izohlash.

Assotsiatsiyalarni o'rganishda tasodifiy moslik, tashqi o'xshashlik, oddiy o'zlashtirish, to'g'ridan-to'g'ri taqlid va nihoyat, organik qayta ishlash natijasida yuzaga keladigan haqiqiy ta'sirni qat'iy ravishda farqlash lozim. Badiiy asarni assotsiativ tahlil qilish jarayonida uni faqat ikki asar yoki ikki muallifni solishtirish bilan chegaralab qo'ymasdan, balki shoir tarbiyalangan butun murakkab muhitni ham tadqiqot doirasiga kiritib, kengroq ko'lamda o'rganish zarur. Tahlil ikki tomonlama bo'lishi kerak: yozuvchining ijodida begona reministsensiya va o'zlashtirishlarni ajratib ko'rsatish bilan birga, uning asl poetik unsurlarini ham aniq belgilash lozim.

Normatov ba'zan xalq povestlari, rivoyatlar, mifologiya elementlarini o'z hikoyalarida ishlatadi. Masalan, "Ko'ktoshlar" hikoyasida devlar, qabr usti toshlar, momolar – folklor motivlari – barcha real hayot bilan mifologik qatlamlarning aralashmasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu begona (ya'ni xalq ijodi) reministsensiyalari, rivoyatlaridan o'zlashtirish deb qaralishi mumkin. "Toshqayroq" hikoyasida tarixiy-arxeologik unsurlar, qadimiy toshning yuzlab yillar yashaganligi haqidagi tushunchalar, "Zarabog'dan" tosh topilishi kabi elementlar ham madaniy xotira va tarixiy mifosunlardan olingan unsur bo'lib, yozuvchida yangi badiiy-simvolik kontekstga qo'yilgan. Asl poetik unsurlar Normatovning badiiy nutqi: oddiy, sodda, lekin hassos va ramziy tasvirga boy bo'lishi (tosh, hushtak, beg'ubor bola, mehr-oqibat, xotira motivlari). Ichki ruhiyat, iztiroblar, mehr-oqibat, bolalik xotiralari orqali ruhiy dunyo ochilishi – asarlarning markaziy poetik unsuri.

Detalga e'tibor: tosh, hushtak, opaning yuz-ko'zi, bolaning ichki nolasi kabi kichik elementlar orqali katta ruhiy holat, falsafiy loyiha ochiladi. Nodir Normatovning "Bir kuni chumoli bo'lib..." hikoyasini M.Qo'chqorova metamorfoza motivi asosida tahlil qilib, uni X.Do'stmuhammad, N.Eshonqul, I.Sulton kabi yozuvchilar hikoyalari bilan qiyoslaydi [6: 165-178]. Tadqiqotchi hikoya asosida yotgan transformatsiya g'oyasini umumjahon adabiy jarayonlari bilan bog'laydi.

Sh.Davronova esa mazkur hikoyani Rabg'uziyning "Qissai Rabg'uziy"dagi "Sulaymon va qarinchqa" rivoyati bilan qiyoslab, tarixiy-assotsiativ aloqalarni ochib beradi [7: 179-89]. Bu tahlillar Normatov tafakkurining ildizlari milliy an'anaga, shu bilan birga modernistik oqimlarga ham bog'langanini ko'rsatadi. "Bir kuni chumoli bo'lib..." hikoyasi yozuvchining assotsiativ tafakkur mahoratini yorqin ifodalaydi. Hikoya chashmadan suv ichish va giyoh tatib ko'rish detalidan boshlanib, qahramonni g'ayritabiyy hodisalar sari yetaklaydi. Voqealar oqimi mantiqiy zanjir emas, balki ong oqimi va xotiralar assotsiatsiyasi orqali quriladi. Normatovning assotsiativ tafakkuri o'zbek nasrini yangicha badiiy-estetik qirralar bilan boyitgan. Uning ijodida real va xayoliy dunyo o'zaro qorishib, o'quvchini chuqur fikrlash va his qilishga undaydi.

"Anorzor" hikoyasida esa anor detali insoniy mehr-muhabbat, xalqlar o'rtasidagi do'stlik ramziga aylanadi. Masha xola obrazi orqali yozuvchi insonlarni millati va dini bilan emas, balki ularning qalbi, imoni bilan ulash mumkinligini ko'rsatadi. Hikoya o'zining asosida avtobiografik lavhalarga tayanadi, biroq undagi obrazlar, xotiralar o'quvchida yangi assotsiativ qatlamlarni uyg'otadi. Ana shunday mahorat yozuvchining tafakkuri voqelikni badiiy qayta ishlash orqali yangi ma'nolar yaratishga qodirligini ko'rsatadi [9: 17].

Normatovning realizm haqidagi qarashlari ham uning assotsiativ tafakkurini anglashda muhim ahamiyatga ega. "Realizm, bu – barcha 'izm'larning onasi, deyish mumkin. Realizm hayot in'ikosi, hayotdan, voqelikdan ilhomlanadi... Realizm qudratli kuchga ega, u katta bir imoratning poydevoridir" [10: 22]. Demak, yozuvchi uchun realizm nafaqat reallikni to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatish, balki uni assotsiativ tafakkur orqali kengroq ma'noda ifodalash imkonini beruvchi vositadir.

Xulosa qilib aytganda, badiiy asarni assotsiativ tahlil qilish o'quvchiga katta qamrovli tafakkur jarayonini, yozuvchining voqea va hodisalarni bog'lay olish mahoratini ochib beradi. Taniqli adib Nodir Normatov hikoyalarida badiiy detalning ramziy mohiyat kasb etishi, xotiraviy voqealarning keng ijtimoiy ma'noga ega bo'lishi va obrazlarning assotsiativ talqinlarda boyishidan yozuvchining assotsiativ tafakkur mahorati yaqqol namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ивановский В.Н. Ассоцианизм психологический и гносеологический. Казань, 1909.
2. Литературный энциклопедический словарь под ред. Кожевникова. М., 1987.
3. Локк Дж. Избранные философские произведения в 2-х т. М., 1960.

4. Ulug'ov A. Ma'naviy malham yoxud zaharmuhra / Nodir Normatov hayoti va ijodi zamondoshlari nigohida: maqolalar, taqrizlar, adabiy suhbatlar. // San'at, 2017. – B. 55.
5. To'laganova S. Sog'inch suvrati / Nodir Normatov hayoti va ijodi zamondoshlari nigohida: maqolalar, taqrizlar, adabiy suhbatlar. // San'at, 2017. – B. 163.
6. Qo'chqorova M. Hozirgi o'zbek nasrida metamarfoza motivi / Nodir Normatov hayoti va ijodi zamondoshlari nigohida: maqolalar, taqrizlar, adabiy suhbatlar. // San'at, 2017.
7. Davronova Sh. An'ana va o'ziga xos ijod/Nodir Normatov hayoti va ijodi zamondoshlari nigohida: maqolalar, taqrizlar, adabiy suhbatlar. // San'at, 2017.
9. Doniyorova Sh. Nodir Normatov hikoyalarida badiiy detal va obrazlar talqini. – Toshkent: Fan, 2019.
10. Normatov N. Lazizxon Bahranov bilan suhbat. Ummon yuzidagi mavjlar. // Sharq yulduzi, 2016.

Nargiza XURRAMOVA,

Termiz davlat universiteti fakultetlararo chet tillar kafedrası o'qituvchisi

INGLIZ, RUS VA O'ZBEK TILLARIDA ATOQLI OTLAR ASOSIDA YUZAGA KELGAN FRAZEOLIZMLARNING KONTEKSTUAL TAHLILI VA TARJIMADAGI MUAMMOLAR

Annotatsiya. Frazelogizmlar tilning eng murakkab qatlamlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, atoqli otlar asosida yuzaga kelgan frazeologizmlar xalqning tarixiy xotirasi, madaniy qadriyatlari va milliy tasavvurini o'zida mujassam etadi. Ularni boshqa tillarga tarjima qilishda ko'pincha muammoli vaziyatlar, masalan, semantik moslikning yo'qolishi, madaniy alluziyalarning tushunarsizligi yoki estetik ta'sirning kamayishi kuzatiladi. Ushbu maqolada atoqli otlar asosidagi frazeologizmlarni tarjima qilishda uchraydigan asosiy muammolar va ularni bartaraf etish strategiyalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: frazeologizm, atoqli ot, tarjima muammolari, madaniy ekvivalent, semantik adaptatsiya, intermadaniy kommunikatsiya.

Annotation. Phraseologisms are considered one of the most complex layers of language. In particular, phraseologisms formed on the basis of proper names embody the historical memory, cultural values, and national imagination of the people. When translating them into other languages, problematic situations such as loss of semantic compatibility, misunderstanding of cultural allusions, or decreased aesthetic impact are often observed. This article analyzes the main problems arising in the translation of idioms based on proper names and strategies for their elimination.

Keywords: phraseology, proper noun, translation problems, cultural equivalent, semantic adaptation, intercultural communication.

Аннотация. Фразеологизмы считаются одним из самых сложных пластов языка. В частности, фразеологизмы, образованные на основе имён собственных, воплощают историческую память, культурные ценности и национальное воображение народа. При их переводе на другие языки часто наблюдаются проблемные ситуации, такие как потеря семантической совместимости, непонимание культурных аллюзий или снижение эстетического воздействия. В данной статье анализируются основные проблемы, возникающие при переводе фразеологизмов на основе имён собственных, и стратегии их устранения.

Ключевые слова: фразеологизм, имя собственное, проблемы перевода, культурный эквивалент, семантическая адаптация, межкультурная коммуникация.

Til nafaqat muloqot vositasi, balki millatning tarixiy xotirasi, madaniy merosi va ijtimoiy ongini mujassam etuvchi murakkab tizimdir. Tilning eng serqirra va chuqur qatlamlaridan biri sifatida frazeologizmlar xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va ma'naviy-estetik tafakkurini o'zida aks ettiradi. Ayniqsa, atoqli otlarga asoslangan frazeologik birliklar lingvistik birlik sifatida bevosita semantik mazmunga ega bo'lishi bilan birga, ularning asosida tarixiy shaxslar, geografik joylar, mifologik qahramonlar yoki adabiy obrazlarga daxldor madaniy konnotatsiyalar yotadi. Shu bois bunday frazeologizmlarni boshqa tillarga tarjima qilish jarayoni lingvistik muammolar bilan bir qatorda madaniyatshunoslik va tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan ham alohida e'tibor talab etadi.

Shuningdek, bunday frazeologizmlarning qo'llanish konteksti ham tarjimada muhim ahamiyatga ega. Adabiy

matnlarda ular estetik obraz va intertekstual bog'lanish vositasi sifatida xizmat qilsa, publitsistik matnlarda emotsional ta'sirchanlikni kuchaytiruvchi metaforik vosita bo'lib namoyon bo'ladi. Demak, atoqli ot asosidagi frazeologizmlarni tarjima qilish masalasi nafaqat semantik ekvivalentlik, balki kontekstual moslik va madaniy kodni yetkazish zaruriyatini ham o'z ichiga oladi.

Mazkur tadqiqotda ingliz, rus va o'zbek tillarida atoqli ot asosida shakllangan frazeologizmlarning tarjima muammolari deskriptiv, qiyosiy va kontekstual yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Shu orqali nafaqat ularning lingvistik xususiyatlari, balki madaniy va estetik qiymatini yetkazish masalasiga ham ilmiy nuqtayi nazardan yondashiladi. Muayyan matniy holatda bir birlarini bimalol almashtira oladigan frazeologik ekvivalentlar yoki muqobil variantlar boshqa bir holatda

ma'no berishlari yoki uslubiy vazifalari jihatidan farq qilib qolishlari mumkin.

Deskriptiv tahlil – frazeologizmlarning semantik qatlamlarini ochib berish. Frazeologizmlarni o'rganishda deskriptiv tahlil muhim metodlardan biri hisoblanadi. Bu yondashuv frazeologizmlarning tashqi shakli va ichki mazmunini ajratib ko'rsatish, ularning semantik qatlamlarini ochib berish hamda lug'aviy va madaniy jihatlarini aniqlashga qaratiladi. Ayniqsa, atoqli otlarga asoslangan frazeologizmlar ikki yoki undan ortiq semantik qatlamdan tashkil topganligi bilan ajralib turadi: **Denotativ qatlam** – frazeologizm tarkibidagi atoqli otning bevosita ma'nosi. Masalan, *Achilles* yunon mifologiyasidagi qahramonni bildiradi, *Waterloo* esa geografik joy nomidir. **Konnotativ qatlam** – iboraning ramziy, majoziy yoki ko'chma ma'nosi. Masalan, *"Achilles' heel"* – "insonning zaif nuqtasi"; *"to meet one's Waterloo"* – "katta mag'lubiyatga uchramoq". **Madaniy qatlam** – frazeologizmning xalq ongidagi tarixiy, mifologik yoki adabiy assotsiatsiyalari. Bu qatlam ko'pincha faqat manba tiliga xos bo'lib, boshqa tilga tarjimada tushuntirishni talab etadi [2: 469].

Deskriptiv tahlil yordamida frazeologizmlar nafaqat lingvistik birlik sifatida, balki **madaniy belgilar tizimi** sifatida ham o'rganiladi. Masalan, o'zbek tilidagi *"Farhod va Shirin muhabbati"* iborasi faqatgina ikki qahramon nomini emas, balki xalqimiz ongida yuksak sadoqat, chin muhabbat va fidoyilik timsolini bildiradi. Shu bois uni boshqa tilga oddiy *"Farhod and Shirin's love"* deb o'tkazish yetarli emas, balki izohli tavsif zarur bo'ladi. Shuningdek, deskriptiv tahlil frazeologizmlarning **semantik evolyutsiyasini** ham ko'rsatadi. Ba'zi iboralar dastlab tarixiy yoki mifologik kontekstda qo'llanilgan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan umumlashgan va ramziy ma'no kasb etgan. Masalan, ingliz tilidagi *"Rome was not built in a day"* iborasi dastlab tarixiy voqelikni bildirgan bo'lsa, hozirgi kunda u sabr-toqat va izchillikni targ'ib etuvchi umumiy hikmatga aylangan [1: 73].

Kontekstual yondashuv – frazeologizmlarning adabiy va publitsistik matnlardagi qo'llanishini tahlil qilish. Frazeologizmlarni tahlil qilishda kontekstual yondashuv alohida ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Chunki frazeologizmlar o'z ma'nosini ko'pincha izolyatsiyada emas, balki adabiy asarlar, publitsistik chiqishlar va ommaviy axborot vositalari matnlarida namoyon qiladi. Ayniqsa, atoqli otlarga asoslangan frazeologizmlar badiiy matnlarning obrazlilik darajasini oshirish, publitsistik nutqda esa emotsional ta'sirchanlikni kuchaytirish vazifasini bajaradi.

Adabiy matnlarda atoqli ot asosidagi frazeologizmlar ko'pincha **alluziya** va **intertekstual ishora** vositasi sifatida ishlatiladi. Masalan, ingliz adabiyotida *"He met his Waterloo"* iborasi ko'pincha qahramonning hayotidagi keskin mag'lubiyatni ifodalash uchun qo'llaniladi. Bu iboraning semantik qatlamini tushunish uchun o'quvchidan Napoleon tarixidan xabardorlik talab etiladi. Rus adabiyotida esa *"троянский конь"* iborasi yashirin xavf yoki xiyonat ramzi sifatida ishlatiladi. O'zbek adabiyotida shunga yaqin tarzda *"Alpomish"* yoki *"Rustam"* nomlari asosida shakllangan frazeologik birikmalar qahramonlik va qudratni ifodalashda qo'llanadi. Demak, badiiy kontekstdagi frazeologizmlar milliy madaniy kodni anglashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Publitsistik matnlarda esa atoqli ot asosidagi frazeologizmlar odatda **majoziy mazmun** va **ta'sirchanlikni** oshirish uchun ishlatiladi. Masalan, ingliz tilidagi gazeta sarlavhalarida *"Another Achilles' heel in the system"* kabi iboralardan foydalanish orqali siyosiy yoki iqtisodiy tizimning zaif tomonlari ochib beriladi. Rus publitsistik nutqida *"непёйму Рыбикон"* iborasi siyosatchilar qarorlarini baholashda tez-tez uchraydi. O'zbek publitsistik matnlarida esa *"Don Kixotlik"* yoki *"Spartalik sabr-toqat"* kabi iboralar metaforik vosita sifatida qo'llanilib, o'quvchiga kuchli emotsional ta'sir ko'rsatadi.

Kontekstual tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, atoqli ot asosidagi frazeologizmlar: **Adabiy matnlarda** – estetik obraz yaratish, intertekstual bog'liqlikni kuchaytirish va o'quvchini madaniy merosga yaqinlashtirishga xizmat qiladi. **Publitsistik matnlarda** – muallifning emotsional munosabatini kuchaytirish, axborotning ta'sirchanligini oshirish va ijtimoiy voqealarga badiiy-estetik rang berish vazifasini bajaradi.

Shu bois kontekstual yondashuv frazeologizmlarni tahlil qilishda ularning **semantik qirralari bilan bir qatorda stilistik va pragmatik funksiyalarini ham ochib beradi**. Ayniqsa, ingliz, rus va o'zbek tillaridagi frazeologizmlar qiyoslanganda, ular milliy-madaniy o'ziga xoslikni yoritishda va tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlashda muhim metod sifatida e'tirof etiladi.

Atoqli otlar asosidagi frazeologizmlarning tarjimasi nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik yondashuvini ham talab etadi. Tarjimon semantik ma'noni saqlash bilan birga, iboraning madaniy-estetik qiymatini ham iloji boricha yetkazishi kerak. Bu esa tarjimondan ijodkorlik, madaniyatlararo kompetensiya va pragmatik sezgirlikni talab etadi. Kelgusida bu sohada korpus asosidagi tadqiqotlar, shuningdek, frazeologik lug'atlar yaratish tarjimashunoslik amaliyotiga katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kuganova A., Asiljonova Sh., Frazeologik birliklar va tarjima. // Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). 2022. T. 2, №3.
2. Ablakulova O. Frazeologik birikmalarining tarjima masalasi. // Academic Research in Educational Sciences, 2022. T. 3, №12.
3. Хуррамова, Н. А. Фразеологические синонимы и антонимы в современном английском языке // Вестник современной науки. 2016. № 6-1.
4. Khurramova, N. Ingliz tilida tarixiy shaxslar bilan bog'liq frazeologik birliklarning o'zbek tilida berilishi // Бюллетень педагогов нового Узбекистана, 2023. T. 1, №10.

Gulmera QURBONOVA,
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

ITLARGA OID INGIZ MAQOLLARINING TARIXIY EVOLUTSIYASI VA MADANIY AHAMIYATI: O'ZBEKCHA MUQOBILLARI BILAN QIYOSIY TAHLIL

Annotatsiya. Ushbu maqola itlarga oid ingliz tilidagi maqollarning boy tarixi va evolutsiyasini o'rganadi. "Let sleeping dogs lie", "You can't teach an old dog new tricks", "If you lie down with dogs, you will get up with fleas" va "Barking dogs seldom bite" kabi mashhur iboralarning kelib chiqishi va ma'nolari tahlil qilinadi. Ko'plab maqollarning ildizlari o'rta asrlarga borib taqalishi, ularning Geoffrey Chaucer, Jon Heyvud va Jon Vebster kabi yozuvchilarning asarlarida qayd etilgani ko'rsatiladi. Shuningdek, ushbu maqollarning o'zbek tilidagi ekvivalentlari bilan qiyosiy tahlil o'tkaziladi, bu esa ularning madaniyatlararo o'xshashliklarini ochib beradi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, itlar haqidagi maqollar aslida hayvonlarning xatti-harakatlarini kuzatishdan olingan bo'lib, insonning xulq-atvori, maslahat va ijtimoiy munosabatlar haqidagi chuqur falsafiy tushunchalarini ifodalaydi.

Kalit so'zlar: ingliz maqollari, itlar, "Let sleeping dogs lie", "You can't teach an old dog new tricks", "Barking dogs seldom bite", "If you lie down with dogs, you will get up with fleas", kelib chiqishi, madaniyatlararo tahlil.

Annotation. This article explores the rich history and evolution of English dog proverbs. The origin and meaning of popular expressions such as "Let sleeping dogs lie", "You can't teach an old dog new tricks", "If you lie down with dogs, you will get up with fleas" and "Barking dogs seldom bite" were analyzed. It is indicated that the roots of many proverbs go back to the Middle Ages, they are recorded in the works of such writers as Jeffrey Chaucer, John Heywood, and John Webster. A comparative analysis of these proverbs with their Uzbek equivalents is also conducted, revealing their intercultural similarities. The study shows that proverbs about dogs are actually taken from observing animal behavior and express deep philosophical ideas about human behavior, advice, and social relations.

Keywords: English proverbs, dogs, "Let sleeping dogs lie", "You can't teach an old dog new tricks", "Barking dogs seldom bite", "If you lie down with dogs, you will get up with fleas" origin, cross-cultural analysis.

Аннотация. Эта статья исследует богатую историю и эволюцию английских пословиц о собаках. Проанализированы происхождение и значение таких популярных выражений, как "Let sleeping dogs lie", "You can't teach an old dog new tricks", "If you lie down with dogs, you will get up with fleas" и "Barking dogs seldom bite". Указывается, что корни многих пословиц восходят к средневековью, они зафиксированы в произведениях таких писателей, как Джеффри Чоукер, Джон Хейвуд и Джон Вебстер. Также проводится сравнительный анализ этих пословиц с их узбекскими эквивалентами, что выявляет их межкультурное сходство. Исследование показывает, что пословицы о собаках на самом деле взяты из наблюдения за поведением животных и выражают глубокие философские представления человека о поведении, советах и социальных отношениях.

Ключевые слова: английские пословицы, собаки, "Let sleeping dogs lie", "You can't teach an old dog new tricks", "Barking dogs seldom bite", "If you lie down with dogs, you will get up with fleas", происхождение, межкультурный анализ.

Ingliz tilidagi itlarga oid maqollar uzoq va qiziqarli tarixga ega bo'lib, ularning ildizlari bir necha asrlarga borib taqaladi. Ba'zi eng qadimgi maqollarning shakllari o'rta asrlarning oxiriga borib taqaladi. Masalan, "Uxlayotgan itlarni uyg'otma" (Let sleeping dogs lie) (muammo tug'dirmaydigan kimnidir yoki nimadirni qo'zg'atmaslik va g'azablantirmaslik) tushunchasi shu davrdan kelib chiqqan. Ushbu ma'noni o'zbek tilida "Yotgan ilonning quyrug'ini bosma" [9: 68] maqoli bilan berishimiz mumkin. F.S.Azizova birikmani "It is ill to waken sleeping dogs, let sleeping dogs lie" shaklida qo'llaydi va uni "Uxlayotgan itni uyg'otma; Uxlayotgan sherni uyg'otma" [2: 131] deya tarjima qilgan.

Oksford lug'ati (Oxford English Dictionary) ta'kidlashicha, XVIII asrgacha itlar asosan ov qilish, ishlash yoki qo'riqlash uchun boqilgan va tilda ko'pincha bu foydali nuqtayi nazar aks etib, ular shafqatsiz, yirtqich yoki hushyor deb tasvirlangan. Ushbu ibora Geoffrey Chaucerning "Troilus va Criseyde" (taxminan, 1380-yillar) poemasidagi satr bilan o'xshash ma'noga ega: "It is nought good a sleping hound to wake" [4: 765] – Uxlayotgan itni uyg'otish yaxshi

emas). Bu satr keraksiz bezovtalikdan qochish g'oyasini, ya'ni uxlayotgan itni uyg'otmaslik kerakligini ta'kidlaydi. Chaucerning bu satri ushbu maqolning dastlabki ifodasi bo'lsa-da, "Let sleeping dogs lie" zamonaviy iborasi ko'proq keyingi davrlarda, xususan, XIX asrda keng tarqalgan.

XVI asrga kelib bu ibora Jon Xeyvudning 1546-yilda nashr etilgan "A Dialogue conteinyng the nomber in effect of all the Prouerbes in the Englishe tongue" to'plamiga kiritilish uchun yetarlicha mashhur edi. Xeyvudning versiyasi shunday edi: "It is euill wakyng of the slepyng dog" [7: 164].

Garchi bu tarixiy versiyalar biz uni bugungi kundagi variantiga o'xshash bo'lsa-da, uning aniq kelib chiqishi noma'lumligicha qolmoqda. Ba'zilar uni Chaucer tomonidan yaratilgan deb hisoblashadi, ammo buni tasdiqlovchi ishonchli hujjatlar yo'q.

XVI asrda "Keksa itga yangi hiylalar o'rgatib bo'lmaydi" (You can't teach an old dog new tricks) Angliyada Tudor sulolasi hukmronligi davrida paydo bo'lgan. Ehtimol, bu ingliz tilidagi eng qadimgi maqollardan biri. "Qarilikda

o'qish kech bo'ldi; qari itni boyloq turishga o'rgatib bo'lmaydi" [2: 107] ma'nosini beruvchi ushbu naql o'zbek tilida "It qarisa, yotgan yeridan huradi" [9:69] maqoliga birozgina to'g'ri keladi.

Uning bosma nashrdagi eng dastlabki namunasi Jon Fitsxerbirtning 1534-yilda yozilgan "The Boke of Husbandry" asarida uchraydi [6:29]. Bu parcha maqolning kelib chiqishi hayvonlarning xatti-harakatlarini amaliy kuzatishdan olinganligini anglatadi, ehtimol bu dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanuvchilar tomonidan o'ylab topilgan.

U ko'plab qadimgi manbalarda mavjud (masalan, 1546-yilga tegishli "A Dialogue conteinyng the nomber in effect of all the Prouerbes in the Englishe tongue" kitobida) va ularning ko'pchiligida "Keksa itga yangi hiylalar o'rgatib bo'lmaydi" iborasi "eski maqol" deb ataladi. Bu shuni anglatadiki, u bosma nashrlarda qayd etilishidan oldin ancha vaqt og'zaki tarzda aylanib yurgan, bu esa uning asli kelib chiqishini yanada qadimiy ekanligini bildiradi.

"If you lie down with dogs, you will get up with fleas". Hayvonlar haqidagi ko'plab maqollar singari, "Itlar bilan yotsang, burga bilan turasan" degani aslida itlar yoki burgalar haqida emas. Buning ma'nosi shundaki, noinsoflik yoki axloqsizlik kabi insoniy illatlar yuqumli bo'lib, agar kishi yomon odamlarga yaqin yursa, o'zi ham ularning yomon odatlarini yuqtirib olishini ta'kidlaydi. Ushbu ibora eng qadimgi ingliz maqollaridan biri. Dastlabki lotincha matn rimlik yozuvchi Senekaga tegishli deb aytilgan [10: 45], ammo uning aniq bir asariga bog'lanmagan. Xorvatiyalik shoir Nikola Dimitrovik (1510–1553) o'zining 1540-yillarda yozilgan "Pričice: izete iz svetoga pisma i filosafo" (Donishmandlik so'zlari: Muqaddas yozuv va faylasuflardan olingan) nomli she'rining 145-qatorda shunday yozgan: "Svak, sa psi tko lieže, s buhami ustaje" (*Har kimki itlar bilan yotsa, burgalar bilan turadi*).

Keyinchalik ushbu ibora ingliz yozuvchisi J.Sanfordning 1573-yildagi "Garden of Pleasure" (Rohat

bog'i) asarida chop etilgan. Kitob maqollar va hikmatli so'zlar to'plami sifatida yaratilgan. Sanforde uni "Italyan tilidan ingliz tiliga tarjima qilingan" deb ta'riflagan va uning maqsadi bir tilda so'zlashuvchilarga boshqa tilni o'rganishga yordam berish edi. Shuningdek, maqol 1612-yilda Jon Websterning "Oq iblis" (The White Devil) pyesasida keltirilgan. Beshinchi parda, birinchi sahna, 170-qator: "For they that sleep with dogs, shall rise with fleas" (*"Chunki itlar bilan uxlaganlar, burgalar bilan turadilar"*) [8: 65]. Ushbu ibora Benjamin Franklinning "Kambag'al Richardning Olmonaxi" (Poor Richard's Almanack) asarida ham uchraydi: *He that lies down with dogs, shall rise up with fleas* [1: 66].

"Barking dogs seldom bite" (Hurayotgan it kamdan-kam tishlaydi) maqoli aslida itlarni nazarda tutmaydi, balki bu ko'p shovqin soladigan, tahdid qiladigan, lekin aslida hech qanday zarar yetkazmaydigan odamlar yoki vaziyatlarni nazarda tutadi. Ushbu birikmani F.S.Azizova tomonidan "itning indamasi yomon" [2: 111] deb tarjima qilgan, K.M.Karamatova va H.S.Karamatov esa uni o'zbek tilidagi "Qopag'on it tishini ko'rsatmas" [9: 18] maqoliga sinonim sifatida ko'rsatgan.

"The Oxford Dictionary" ning 2006-yilgi ikkinchi nashriga ko'ra, maqol anchagina qadimiy bo'lsa-da, XVI asrdan boshlab ingliz tilida yozila boshlagan, ammo g'oya lotin tilida Rim tarixchisi Kvint Kurtiyning asarlarida uchrayd hamda Jon Xeyvud tomonidan to'plangan ko'plab maqollardan biridir.

Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatdiki, itlarga oid maqollar shunchaki hayvonlar haqida emas, balki odamlar o'rtasidagi munosabatlar, xulq-atvor, sabr-toqat va donolik haqidagi umuminsoniy g'oyalarni ifodalaydi. Ularning o'zbek tilidagi muqobillari bilan qiyosiy tahlili esa ushbu donolikning turli madaniyatlarda qanday aks etishini ko'rsatadi. Bu maqollar avloddan-avlodga o'tib, tilning qanchalik boy va o'zgaruvchan ekanligini, shuningdek, insoniyatning doimiy tajribalarini umumlashtirishda qanday rol o'ynashini isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Franklin B. Poor Richard's Almanack. – New York: The Century Co., 1899.
2. Azizova F.S. Inglizcha-o'zbekcha-ruscha frazeologizmlarning qisqacha lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
3. Martin Gary. If you lie down with dogs, you will get up with fleas. / The Phrase Finder. <https://www.phrases.org.uk/meanings/if-you-lie-down-with-dogs-you-get-up-with-fleas.htm>.
Annotation. This article examines the role and functions of musical imagery in the dramaturgy of A.P. Chekhov. Particular attention is given to the analysis of plays such as «The Seagull», «Three Sisters» and «The Cherry Orchard», where music functions not only as an artistic device but also as an important element in revealing the characters' inner worlds, emotional background, and symbolic meaning. The author explores how musical motifs complement dramatic action, enhance the psychological depth of scenes, and shape the unique atmosphere of Chekhov's drama. The influence of the musical culture of the turn of the 19th and 20th centuries on the writer's work is also examined.

Keywords: emotional expressiveness of language, drama, atmosphere, symbolism, psychologism, music-making, cultural and historical function.

В художественном мире Антона Павловича Чехова музыка занимает особое место. Будучи тонким наблюдателем человеческой психологии, Чехов использует музыкальные образы не только как часть реалистического фона, но и как выразительное средство, раскрывающее внутренний мир персонажей, подчеркивающее драматизм или абсурд происходящего. В его пьесах музыка становится символом ностальгии, утраты, мечты, а также признаком культурной и духовной деградации общества. Особое внимание заслуживают три произведения автора – «Чайка», «Три сестры» и

«Вишнёвый сад», в которых музыкальные мотивы играют концептуально важную роль.

Несмотря на то что Чехов не композитор, а писатель и драматург, музыка в его произведениях звучит особенно выразительно. Она выступает не только как элемент бытовой обстановки, но и как **символ внутреннего состояния, носитель философского смысла, предвестник событий**, а иногда – **атрибут уходящей эпохи**.

В произведениях Чехова музыка выполняет множество функций – атмосферную, символическую, контрастную, культурно-историческую.

В пьесе «Чайка» музыка присутствует лишь в словах героев отдалённо, но значимо. Здесь нет прямых музыкальных эпизодов, как, например, в пьесах «Вишнёвый сад» или «Три сестры», однако важны упоминания и эстетическая концепция самой пьесы. Так, если воспоминания Аркадиной о звуках музыки и пении на озере создают тонкую меланхоличную атмосферу предчувствия и тревоги, усиливают восприятие событий и настраивают зрителя на определённое постижение происходящего, то в монологе еще одного героя пьесы, Шамраева, показан эпизод из театральной жизни талантливого певца и не менее талантливого зрителя: «Помню, в Москве, в оперном театре, однажды знаменитый Сильва взял нижнее до. А я в это время, как нарочно, сидел на певчих, и вдруг, можете себе представить наше крайнее изумление, мы слышим с галереи: «Браво, Сильва» – целую октаву ниже... Вот этак (низким басом): браво, Сильва... Театр так и замер» [1, с. 117].

Чтобы понять смысл описанного случая, нужно заглянуть в значение слова «галерея»: это верхний ярус зрительного зала в театре, так называемая «галерка», где расположены самые дальние и дешёвые места. Следовательно, попасть на данное место мог человек из народа, а отменный слух и широкий диапазон голоса у простого зрителя были чем-то невообразимо удивительными.

В пьесе «Три сестры» звуки игры на рояле в эпизодах прощания героев наполняют сцену грустью и безысходностью и даже становятся фоном их жизни. Это не просто реальный звук – он символизирует уход времени, постоянные перемены, к которым персонажи не готовы. Их мечты о Москве, как музыка, звучат красиво, но остаются недостижимыми: «А завтра вечером я уже не буду слышать этой «Молитвы девицы», не буду встречаться с Протопоповым...» [там же, с. 184], – произносит в задумчивости Ирина. Реплика другого героя пьесы, Андрея, в которой он предвещает, что в скором времени «опустеет город, точно его колпаком накроют» [там же, с. 185], сопровождается звуками арфы и скрипки, что тоже является элементом одиночества, тоски, безысходности, жизни без любви. Звуки военного марша в финальном, четвёртом действии пьесы дают надежду на торжество жизни и движение вперёд, на то, что несмотря ни на что, надо жить дальше и обрести смысл жизни.

В комедии «Вишнёвый сад» звучащая вне сцены музыка усиливает эмоциональную окраску событий, не вторгаясь напрямую в диалоги. **Музыка становится носителем метафорического значения – она символизирует утрату, надежду, уход времени, крушение иллюзий.** Возьмём, к примеру, звук лопнувшей струны в пьесе «Вишнёвый сад», означающий символ распада, умирающей эпохи.

Музыка в детских воспоминаниях сестёр в драме «Три сестры» – неизменный атрибут утерянного смысла жизни, несбывшейся мечты. В этой пьесе музыка пронизывает всё действие. Уже в первом действии мы слышим: Ольга вспоминает, как ровно год назад, 5-го мая, в день именин сестры Ирины, умер их отец. «Помню, когда отца несли, то играла музыка, на кладбище стреляли. Он был генерал, командовал бригадой, между тем народу шло мало. Впрочем, был дождь тогда. Сильный дождь и снег» [2, с. 30]. И похоронная музыка, и дождь со снегом – символ памяти и утраченного детства, музыка как бы связывает прошлое и настоящее, порождая чувство ностальгии.

Вальс в третьем акте «Вишнёвого сада» – признак ложного благополучия, за которым скрывается крушение дворянского мира, утрата всего, что было родным и устоявшимся. Эти музыкальные эпизоды нельзя воспринимать буквально: они **наполнены подтекстом** и играют большую роль в раскрытии философии пьес.

Музыка отражает внутреннее состояние персонажей, часто выражает то, что не проговаривается словами. Воспоминания о музыке вызывают у героев **ностальгию**, тоску по прошлому, потребность в душевной гармонии. Музыкальные паузы или звуки на фоне сцены помогают зрителю прочувствовать **эмоциональную напряжённость**, душевную изоляцию или подавленность героев. У некоторых персонажей (например, у Ирины в «Трёх сестрах») звучащая вдали музыка вызывает **плач или молчание**: музыка выражает то, что человек не в силах выразить словами. В философских пьесах Чехова музыка становится **языком чувств**, особенно тогда, когда человеческая речь бессильна; музыкальные отсылки часто завуалированы, но всегда осмысленны и дополняют художественную ткань произведения.

В некоторых сценах пьес Чехова музыкальные мотивы часто противопоставляются действительности, усиливая трагический эффект через контраст. Например, в «Чайке» – **тишина сцены после несостоявшегося спектакля Треплева** звучит «громче» любой музыки – это эмоциональный диссонанс. А в «Трёх сестрах» музыка марша **торжественна**, но на фоне разбитых надежд сестёр она воспринимается **почти издевательски**. Такое разнополярное использование звуков делает пьесу многослойной и насыщенной внутренними противоречиями.

Музыкальные элементы помогают **воссоздать эпоху**, показать духовную и культурную атмосферу времени. **В театральных постановках Чехова ярко прослеживаются музыкальные произведения, которые выполняют историко-культурную функцию: это не просто звуки, но и часть культурного контекста эпохи, отражение вкусов, привычек, уклада жизни.** В некоторых его пьесах звучит **классическая музыка** (вальсы, мазурки), отсылающая

зрителя или читателя к дворянской культуре XIX века; военные марши отражают **военно-бюрократическую действительность России**, постепенно вытесняющую старую интеллигенцию; упоминания о **домашнем музицировании, игре на скрипке** (особенно в «Трёх сестрах») – важный показатель культурной среды персонажей [3, с. 98].

Музыка в пьесах Чехова – не просто звуковой фон, а важнейший элемент художественной системы,

выполняющий множество функций – символизирует внутреннее состояние героев, акцентирует мотив утраты, обозначает смену эпох. Музыкальные образы в драматических произведениях А.П.Чехова пронизывают всё пространство пьес, позволяя автору говорить о самых глубоких человеческих чувствах языком не только слов, но и звуков. Наполненность в звуках делает драматургию Чехова живой, трепетной, глубоко психологичной и настоящему театральной.

Использованная литература

1. Чехов А.П. Полное собрание сочинений в 15 томах, т. 12. М.: Терра, 2000.
2. Чехов А.П. Пьесы, т. 1, 2. М.: Художественная литература, 1974.
3. Гринченко В.В. Музыкальные мотивы в драматургии Чехова. М.: Искусство, 1985.
4. Кузнецова Е.Н. Образ музыки в творчестве А.П.Чехова // Вопросы литературы, 1990, № 3.
5. Лотман Ю.М. Литература и музыка. Л.: Наука, 1970.

Kumush RAJAPOVA,

Qaraqalpoq davlat universiteti dotsenti

ONA TILI DARSLARIDA MUAMMOLI TA'LIM METODIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili darslarida muammoli ta'lim metodlaridan foydalanish texnologiyalari, ushbu metodning mustaqil fikrlash va tafakkurni o'stirishdagi ahamiyati yoritiladi, undan foydalanish jarayonida amalga oshiriladigan amaliy va ijodiy ishlar bo'yicha namunalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: muammoli ta'lim, muammoli vaziyat, faraz, yechim, muammoli bayon, tadqiqiy metod, nutqiy ko'nikma, nutqiy malaka.

Annotation. This article examines the technologies of using problem-based learning methods in native language lessons, the importance of this method in developing independent thinking, and provides examples of practical and creative work carried out during its use.

Keywords: problem-based learning, problem situation, hypothesis, solution, problem statement, research method, speech skill, speech competency.

Аннотация. В данной статье рассматриваются технологии использования методов проблемного обучения на уроках родного языка, значение этого метода в развитии независимого мышления, а также приводятся примеры практических и творческих работ, выполняемых в процессе его использования.

Ключевые слова: проблемное обучение, репродуктивное мышление, проблемная ситуация, гипотеза, решение, проблемное изложение, исследовательский метод, речевой навык, речевая компетенция.

Bugungi ta'lim tizimi oldida ona tili fanini o'qitish orqali o'quvchilarni mustaqil ishlash, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shakllarda ravon va ta'sirchan ifodalay olish ko'nikmalarini shakllantirish asosiy vazifa sifatida turibdi. Shu bilan birga o'quvchilarni ma'rifatlari, bir so'z bilan aytganda barkamol shaxs sifatida tarbiyalash davr talabidir. Bularni amalga oshirish uchun yosh avlodni jamiyat rivojiga mos bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish lozim.

Tarixdan ma'lumki, jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida ta'lim jarayoniga qo'yilgan talablar bir xil bo'lgan emas. Ular jamiyat rivojlanishining qonuniyatlaridan va uning eng muhim vazifasi – yosh avlodni o'qitish hamda tarbiyalashdan kelib chiqqan. Demak aytish mumkinki, bugungi kunning vazifasi – ta'lim jarayonini o'quvchilarda faqat reproduktiv fikrlashnigina emas, balki ijodiy fikrlashni ham shakllantiradigan yo'sinda tashkil qilishdir. Bu haqida S.O.Rubinshteyn quyidagicha

yozadi: "Doimo muammo savoldan, ajablanish yoki tushuna olmaslikdan va ziddiyatdan boshlanadi" [3: 82].

To'g'ri, o'quvchi uchun har bir muammo qiziqarli, albatta agar u hayotiy bo'lsa. Sir emaski, bugungi ta'limda tez-tez tilga olinayotgan muammoli ta'lim metodining mohiyati o'quvchiga ma'lum ko'nikma va malakalar bilan birga, tushunish hamda tushuntirish uchun ilgari bilimlar kamlik qiladigan voqealar o'rtasidagi didaktik ziddiyatlardan iboratdir [5: 57]. Bunday ziddiyat ijodiy o'zlashtirishga turtki bo'ladi. Biz ta'limdagi muammolikni o'quvchilarning o'quv muammosini anglash va hal qilish borasidagi bilish harakatlarini tashkil etish sifatida tushunamiz. Aslida, ta'limdagi muammolikning asosiy xususiyati esa muammoli vaziyatni vujudga keltirish bo'lib hisoblanadi [7: 278].

Bunda shuni nazarda tutish kerakki, muammoli vaziyat hayotiy dalillar va voqealar asosida vujudga keltiriladi, chunki bu vaziyat o'quvchining hayotiga, uning

yashayotgan muhitiga qanchalik mos bo'lsa, o'quvchilarni faollashtirish va muammoni hal qilishga jalb qilish imkoniyati shuncha yuqori bo'ladi. Ta'limdagi muammolilik an'anaviy didaktikaning tamoyillarini va qoidalarini inkor qilmaydi, aksincha, ularga tayanib ish ko'radi. Ta'limga muammoli yondashishni joriy etishdan asosiy maqsad o'quvchilarni har tomonlama ijodiy fikrlashga o'rgatadigan metodlar va usullar bilan to'ldirishdir.

O'quv jarayonini takomillashtirishdan asosiy maqsad esa uni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishdir. Ana shu maqsadga ko'ra bugungi kun o'qituvchisining faoliyatida qanday yangiliklar sodir bo'lishi lozim? Avvalo, u o'rgatayotgan bilimlarini shunchaki bayon qilmasligi kerak. Shuning bilan birga, o'quvchilarga tayyor xulosalar hamda umumlasmalarni aytib bermasligi lozim. Imkon qadar o'quvchilarning diqqatini va fikrini o'rganilayotgan obyektga qaratishi kerak [7: 280]. Demak, o'qituvchi o'quvchilarga olgan bilimlarini kuzatilgan hayotiy dalillar va voqealar bilan taqqoslashni, shu asosda to'g'ri xulosalar va umumlasmalar chiqarishni o'rgatishi shart. Mana shularning hammasi birgalikda ta'lim jarayonining zamonaviyligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ta'limga muammoli yondashish o'quv dasturlarida ham, o'qituvchi bilimlarini bayon qilishda ham, shuningdek, o'quvchilarning mustaqil ishi hamda boshqa topshiriq va mashqlarda ham o'z aksini topishi kerak. Lekin to'g'ri kelgan har qanday masalani va o'quvchilarning har qanday mustaqil ish hamda izlanishlarini muammoli ta'limga kiritmaslik kerakligini ham unutmash lozim. O'qituvchi shuni yodda saqlash kerakki, u yoki bu muammo hayotiy muhim masalalarni o'rganish jarayonida vujudga kelsa va albatta, ma'lum yangilik bo'lib hisoblansagina, u muammoli ta'lim bo'ladi. Shu muammoni hal qilishda har xil usullar va amaliy ishlardan foydalanish mumkin. M.N.Skatkin muammoli ta'limning uchta asosiy turini ko'rsatib beradi. Bular quyidagilar:

1. Bilimlarni muammoli bayon qilish. Bunday bayon qilishda o'qituvchi o'quvchilarga o'rgatilayotgan bilim va qoidalarini to'g'ridan to'g'ri gapirib berish bilan cheklanmaydi. Shu mavzu xususida og'zaki fikr yuritib, muammoni aytadi va shu muammoni hal qilish jarayonini ko'rsatib beradi.

2. Bayonning ayrim bosqichlarida o'quvchilarni izlanishga jalb etish. Bunda o'qituvchi muammoni qo'yadi, o'quv materialini tushuntiradi, biroq mana shu jarayonda o'quvchilarga ulardan izlanish jarayoniga qo'shilishni va u yoki bu bilish vazifasini mustaqil holda hal etishni talab qiladigan savollar beradi.

3. Ta'limning tadqiqiy metodi. Bunda o'quvchilarning o'zlari bilish muammosini tushunib, shu asosda izlanish rejasini belgilaydilar, taxmin (gipoteza)ni tuzadilar, uni tekshirish yo'lini muhokama qiladilar, kuzatish va tajribalar o'tkazadilar, isbot keltiradilar hamda tajribalarni va dalillarni qiyoslaydilar, umumlashtiradilar [4: 56].

Mana shu muammoli ta'limning uchta turini birlashtiradigan umumiylik – muammoni hal qilish

vositada o'qitish, ularning farqli jihati esa o'quvchilar mustaqil izlanish faoliyatining darajasidir. Muammoga javob izlashda o'quvchining mustaqilligi tadqiqiy metodda yuqori darajaga ko'tariladi, chunki bu metodda o'quvchilarning bilish faoliyati tadqiqotchilik ishiga yaqinlashib boradi.

Shu o'rinda aytib o'tish joizki, har qanday muammoli metodni qo'llashda muammoning qo'yilishi, asosiy boshqaruv va nazorat, xulosa o'qituvchining zimmasida bo'ladi. Masalan, tilshunoslikning sintaksis bo'limiga tegishli bo'lgan «Undalma» mavzusini o'rgatish jarayonida quyidagi muammoli vaziyatlardan foydalanish mumkin. O'qituvchi mavzuni sinf taxtasiga yozib, u bilan o'quvchilarni tanishtirganidan keyin quyidagi uchta gapni yozadi:

1. *Onajon, siz uyimizning quyoshisiz.*
2. *Har to'siqni yengishda kuch bo'lurman, onajon.*
3. *Ko'zlaringda nur kamaysa, onajon, nur bo'lurman, begumon.*

O'quvchilarga shu gaplarni o'qish topshiriladi. Avvalo, gaplar mazmun jihatdan tahlilga tortiladi. Gaplardan anglashilayotgan mazmun tahlili orqali o'qituvchi o'quvchilarning ona haqidagi fikrlari bilan o'rtoqlashadi. O'quvchilar ona haqidagi o'z fikrlarini aytgach, o'qituvchi xulosa sifatida:

- Bolalar, dunyodagi eng mo'tabar, eng aziz inson – ona.
- U bizni oq yuvib, oq tarab voyaga yetkazadi. Shuning uchun ham biz hamisha onalarimizni e'zozlashimiz, kerak bo'lsa, boshimizga ko'tarishimiz kerak. Esingizda bo'lsa, 5-sinf adabiyot darsligini o'qish jarayonida *Jannat onalar oyog'i ostidadir* degan hadis bilan tanishgan edik. Ko'rdingizlarmi, onalarimiz mana shunday aziz insonlar ekan.

Gaplarni mana shunday tahlil qilish orqali darsning eng asosiy maqsadlaridan biri bo'lgan tarbiyaviy maqsadni amalga oshiramiz. So'ng mavzuning nazariy jihatiga o'tiladi va o'qituvchi o'quvchilarga har uchala gap tarkibida ham mavjud bo'lgan so'zni topish kerakligini aytadi. O'quvchilar, albatta, *onajon* so'zi ekanini aytishadi. Shundan keyin o'qituvchi o'quvchilarning sintaksis bo'yicha olgan oldingi bilimlariga suyanagan holda quyidagicha savol bilan murojaat qiladi:

- Xo'sh o'quvchilar, biz gaplar tarkibidagi bosh bo'laklarni va ikkinchi darajali bo'laklarni aniqlay olamiz. Yuqoridagi gaplar tarkibida bosh bo'laklar tarkibiga ham, ikkinchi darajali bo'laklar tarkibiga ham kirmaydigan so'zlar bormi?

O'quvchilar ancha o'ylangandan keyin, *onajon* so'zini aytishadi (lekin hammasi emas, ba'zilar topishga qiynaladi). O'qituvchi ularning fikri to'g'ri ekanligini aytib, keyingi muammoni o'rta tashlaydi:

- O'quvchilar, u holda shu uchta gap tarkibidagi *onajon* so'zi gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklarining birortasiga ham mansub bo'lmasa, uni qanday bo'lak deb aytish mumkin?

Bu muammoni hal qilishga o'quvchilar qiynalib qolishsa, o'qituvchi ularni yo'naltirib, bugun qanday

mavzuni o'rganishimiz kerak, deb yordam berishi mumkin. Lekin eng asosiy muammo endi qo'yiladi:

– Qani, o'quvchilar, bu gaplardagi *onajon* so'zi undalma ekanligini aniqladik.

– Xo'sh, qanday so'z yoki bo'lakka undalma deyishimiz mumkin?

O'quvchilar ancha o'ylangandan keyin o'zlari tushungan qoidalarni aytishadi. Jumladan, ular quyidagicha javoblarni berishi mumkin:

– *Gapimiz kimga aytilsa, shu undalma bo'ladi.*

– *Kimga qarata gap aytgan bo'lsak, o'sha shaxs undalma.*

Demak, muammoga yechim topildi. O'qituvchi o'quvchilarni rag'batlantirgandan keyin, asosiy qoidani aytadi: *So'zlovchining nutqi qaratilgan bo'lak undalma deyiladi. Undalma, asosan, ikkinchi shaxsga qaratiladi.* Shundan keyin mavzu to'liq tushuntiriladi. Mavzuni tushuntirish jarayonida ham kichik muammolar qo'yish mumkin. Masalan, o'qituvchi undalmaning gapdagi o'rni va u bilan bog'liq bo'lgan tinish belgisi haqida tushuncha berish jarayonida yana yuqoridagi gaplarga murojaat qilib quyidagi savollarni berishi mumkin:

– O'quvchilar, undalmaning gapdagi o'rni qanday bo'lishi mumkin?

O'quvchilar misollardan kelib chiqib gapning hamma o'rnida kela olishini aytishadi.

Mavzuni mana shu usulda tushuntirish o'quvchilarning diqqatini tortishga va ularning qiziqishini oshirishga yordam beradi. Agar o'qituvchi mavzuni to'g'ridan to'g'ri tushuntirib ketsa, o'zi kutgan natijaga erishmasligi mumkin. Shuning bilan birga, dars jarayonida qo'yilgan katta-kichik har qanday muammo o'quvchilarni faollashtirishga xizmat qiladi [1: 37].

Muammoli o'qitish usulidan darsning hamma bosqichlarida foydalanish mumkin. Biz yuqorida yangi mavzuni tushuntirish jarayonidagi qo'yilgan muammoli vaziyatlarni ko'rib chiqdik. Darsning mustahkamlash bosqichida ham mana shunday usuldan keng foydalanish mumkin. Buning uchun yangi mavzu o'tib yakunlangandan keyin mavzuni nazariy jihatdan mustahkamlash maqsadida biror tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan matn ustida ishlash yaxshi natija beradi. Masalan, quyidagi rivoyat ustida ishlash mumkin (matn o'quvchilarga o'qib berilishi yoki elektron doska orqali namoyish etiladi):

Bir kuni hayvonot bog'ini aylanib yurganimda qiziq bir holatga duch keldim. Hayvonot bog'idagi fillar yonidan o'tib ketayotganimda, katta fillar old oyog'iga bog'langan ingichka arqon bilan bu yerda ushlanib turganining guvohi bo'ldim. Hayratda qolib, shu yerda to'xtab qoldim. Na zanjir, na qafaslar bor. Fillar o'zi bog'langan ingichka arqonidan osongina qutulishi aniq edi, lekin qandaydir sababga ko'ra ular ozod bo'lishga harakat ham qilmayotgan edilar. Men hayvon o'rgatuvchining yoniga kelib, nega bunday ulkan va go'zal jonzorlar sokin turib, ozod bo'lishga harakat qilmayotganliklariga qiziqdim. U shunday javob berdi... [6:78] (rivoyatning shu joyiga kelganda bayonni to'xtatamiz)

– Xo'sh o'quvchilar, qani bir o'ylab ko'raylikchi, nega bu fillar o'zlari kuchli va bahaybat bo'lsalar ham tuzoqdan ozod bo'lishga harakat qilishayotgani yo'q?

O'quvchilar bu muammoni osonlikcha yecha olmaydilar, ko'p bosh qotirishiga to'g'ri keladi. O'qituvchi yechimga yaqinlashtiradigan qisqa fikrlar berib ularga ko'maklashib yuborishi mumkin. Shunday qilib, o'quvchilarning ko'pchiligi o'z javoblarini aytishadi. O'qituvchi to'g'ri javob aytgan yoki aynan aniq bir xulosani aytmasa ham shu muammo yuzasidan o'zining mustaqil fikrlarni aytgan o'quvchilarni rag'batlantirib, keyin o'zi xulosa qiladi. O'qituvchi muammoning yechimi sifatida hayvon o'rgatuvchining javoblarini keltiradi:

“Ular hoziridan ko'ra yosh va kichkina bo'lganlarida, biz xuddi shu ingichka arqon bilan ularni bog'lab qo'yar edik, endi esa, ular o'sib ulg'ayganlarida, aynan shu ingichka arqon ularni ushlab turishga qodir. Fillar ulg'aygach, shu ingichka arqon ularni ushlab qolishiga ishonadilar va qochishga ham harakat qilmaydilar. Bu ajoyib edi. Fillar bunday “zanjirlardan” osongina xalos bo'la olardilar, ammo bunday qilishga qodir emasliklariga ishonganlari sabab, bu yerda ular abadiy qolardilar, hattoki ozod bo'lish uchun hech qanday harakat ham qilmas edilar” [6: 78].

O'rtaga tashlangan muammo hal qilingach, o'qituvchi o'quvchilarga mana shu rivoyatdan o'zlariga xulosa chiqarish kerakligini uqtiradi va ularga quyidagi gaplarni aytadi:

– *O'quvchilar, mana shu fillar kabi biz ham bir marta bir narsani uddalay olmaganimizdan keyin, muvaffaqiyatga ishonmasdan, shu ishni uddalay olishga qodir emasligimizga ishonib qolib maqsadimizdan voz kechamizmi? Aslo unday qilmasligimiz kerak! Shuni esda tutingki, insonda: “Men hozir ega bo'lganimdan ko'ra ko'proq narsaga, bilimga, muvaffaqiyatga erisha olaman”, – degan ishonch bo'lishi lozim. Insoniyat tarixida bunday misollar nihoyatda ko'p. Agarda insonda ishtiyoq bo'lsa, maqsadi sari intilsa, qat'iyatli, barqaror, tirishqoq bo'lsa, albatta, qo'ygan maqsadiga erishadi.*

O'quvchi matndagi hodisalarni va hayot hodisalarini taqqoslar ekan, asl haqiqatni muhokamalarda topishga intiladi. Barchamizga ma'lumki, qarama-qarshi fikrlar o'rtasida tayyor haqiqat emas, yechimini kutayotgan muammo turadi. O'quvchining shu muammoni his qilib, ma'lum bir qarashlarga asoslangan holda qolipga solishi haqiqatni izlay boshlaganidan dalolatdir. Undagi mana shu intilish va qiziqishning davomiyligini ta'minlash uchun o'qituvchi har bir o'quvchini tinglashi va uning tuyg'ularini tushunishi kerak. Bu esa o'quvchi tafakkuri faolligini va ijodiy erkinligini namoyish etishiga yaxshi imkoniyat beradi [2: 41]. O'quvchilarni berilgan matn, muammo yuzasidan savollar orqali o'ylashga, fikrlashga hamda izlanishga undash barobarida ushbu murakkab vaziyatdan matnda ifoda etilgan holat orqali chiqishga undash, qiyinchiliklarni yengishda o'zlariga ishonch uyg'otish kerak. Mana shunday

ishlar o'quvchi tafakkurining doimo harakatda bo'lishini ta'minlaydi.

Matnning tarbiyaviy jihati ustida ish olib borilgandan keyin o'qituvchi darsning ilmiy jihatiga e'tibor qaratib, matn bo'yicha quyidagi grammatik topshiriqlarni beradi:

1-topshiriq. Matn tarkibidagi qo'shma fe'llarni aniqlang.

2-topshiriq. Matn ichida qo'llangan ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalarini toping va ularning qo'shma fe'llardan farqini ayting.

3-topshiriq. Matn tarkibidagi iboralarni aniqlang va ularning ma'nosini izohlang.

4-topshiriq. Nuqtalar o'rniga so'z qo'yib maqollarni ko'chiring.

Maqollar ma'nosini qanday tushunasiz? Bu maqollarning yuqoridagi matn bilan qanday bog'liqligi bor?

Yo'l bosgan mo'l bosar, o'tirganni ...bosar.

Kim qat'iyatli bo'lsa, o'sha ...dir.

Inson niyatlari – uning ...laridir.

Nimani chala qilsang, o'shanga ... bo'lasan.

Bosh omon bo'lsa, ... topiladi.

O'ychi o'ylanguncha, ishini bitiradi.

Bunday muamoli vaziyatlarni uyga vazifani so'rash bosqichida ham amalga oshirish mumkin.

Xullas, o'qitish jarayoni muammoli ta'lim metodlari asosida tashkil etilganda o'qituvchi qarama-qarshi nuqtayi nazarlarni bir-biriga to'qnashtirish orqali o'quvchilarda tanqidiy tafakkur shakllanishiga sharoit yaratishni ko'zda tutishi kerak. Shunda o'quvchilar o'z qarashlarini himoya qilish uchun tezda o'zganing fikriga qarshi dalillar keltirish, birovning xulosasidagi ojiz o'rinlarni darhol topa bilish kabi sifatlarni o'zlashtirishadi. Shuningdek, fikrlash faoliyatida muammoli vaziyatlarning shakllanishi ularning shaxsida qiziquvchanlik, o'tkir zehnilik, erkin fikrlash, mustaqillik, bilim olishga qiziqish va yaratuvchanlikka, ijodga intilish kabi ezgu fazilatlarni tarbiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hamroyev G. Ona tili o'qitishning samarali usullari. – Toshkent: Bayoz, 2018.
2. Ne'matov H., Gulomov A., Ziyodova T. O'quvchilar so'z boyligini oshirish. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
3. Рубенштейн С.Л. Проблемы общей психологии. Москва: Педагогика, 1976.
4. Скаткин М.Н. Проблемы дидактики. Москва: 1970.
5. Hamroyev G. Ona tilidan o'quv topshiriqlari tuzish metodikasi. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2021.
6. Rajapova K.M. Ona tili darslarida nutqiy ko'nikmalarni tizimli rivojlantirish metodikasi. Metodik qo'llanma. – Toshkent: Firdavs-Shoh, 2024.
7. Mavlonova R., To'rayeva O., Xoliqberdiev K. Pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 2001.

Shahlo ZAXIRIDDINOVA,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

PEDAGOGIKAGA IXTISOSLASHGAN OTM TALABALARINING MATEMATIKA FANIDA MANTIQIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA REFLEKSIV TAHLIL METODLARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. Maqolada pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarida matematika fanini o'rganish jarayonida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda refleksiv tahlil metodlarining o'rn va ahamiyati yoritilgan. Refleksiya jarayoni talabalarning fikrlash faoliyatini chuqurlashtirish, xatoliklarni anglash va o'z fikrini mustaqil tahlil qilishga yo'naltirilgan metod sifatida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: mantiqiy fikrlash, refleksiya, refleksiv tahlil, matematika ta'limi, tahliliy fikrlash.

Annotation. The article examines the role and importance of reflexive analysis methods in developing logical thinking in students of higher pedagogical educational institutions when studying mathematics. The reflection process is analyzed as a method aimed at deepening students' thinking activities, recognizing their mistakes, and independently analyzing their reasoning.

Keywords: logical thinking, reflection, reflective analysis, mathematics education, analytical thinking.

Аннотация. В статье рассматриваются роль и значение методов рефлексивного анализа в развитии логического мышления студентов высших педагогических учебных заведений при изучении математики. Процесс рефлексии анализируется как метод, направленный на углубление мыслительной деятельности студентов, осознание ошибок и самостоятельный анализ своих рассуждений.

Ключевые слова: логическое мышление, рефлексия, рефлексивный анализ, обучение математике, педагогический вуз, аналитическое мышление.

Bugungi kunda ta'lim tizimi talabalardan faqat bilimni o'zlashtirishni emas, balki o'z fikrini mustaqil tahlil qilish, mantiqiy asosda xulosa chiqarish va qaror qabul qilishni

talab etadi. Shu bois, pedagogika yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarning mantiqiy fikrlashini shakllantirishda refleksiv tahlil metodlari muhim o'rin tutadi.

Refleksiya – shaxsning o'z fikrlash jarayonini, qarorlarini, harakatlarini kuzatish va baholash qobiliyatidir. Matematika fanida esa refleksiv yondashuv talabani o'ylashga, xatoni anglashga, dalil va isbotlar orasidagi bog'lanishni tahlil qilishga o'rgatadi. Matematika fanida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun o'qituvchi o'quv jarayonini shunday tashkil etishi kerakki, talaba o'z faoliyatini tahlil qilsin, xatolarni aniqlasin va to'g'rilash yo'lini mustaqil topa olsin. Bu jarayonni amalga oshirishda **refleksiv tahlil metodlari** samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. **Refleksiv tahlil metodining asosiy bosqichlari:**

Kuzatish bosqichi – talaba o'z fikr yuritish jarayonini anglaydi. bu bosqichda talaba o'zining qanday fikrlayotgani, qanday usulda masalaga yondashayotgani va qaysi fikr zanjiridan foydalanayotganini kuzatadi, ya'ni u **“Men bu masalani qanday o'ylayapman?”**, **“Qayerda to'xtadim?”**, **“Qaysi bosqichda qiynaldim?”** kabi savollarni o'ziga beradi. Bu jarayon fikrlashni avtomatik holatdan ongli holatga o'tkazadi. Kuzatish bosqichi refleksiv tahlilning birinchi qadami bo'lib, u talabaning tafakkurini nazorat qilish, o'z fikrlash strategiyasini aniqlash va kerak bo'lsa, uni o'zgartirish imkonini yaratadi.

Tahlil bosqichi bajarilgan amallarni, dalillarni, isbotlarni tahlil qiladi. bu bosqichda talaba o'z yechimini yoki fikr yuritish jarayonini sinchiklab tekshiradi. U har bir bosqichda nima qilganini, qanday dalillardan foydalanganini va ularning mantiqiy asoslarini tahlil qiladi. Masalan, masala yechishda qaysi formulani qo'lladi, nima uchun aynan shu yo'lni tanladi, dalillar orasida qanday bog'lanish bor – bularning barchasini o'rganadi. Natijada talaba **fikrlash jarayonini tahlil qilish** orqali o'zining xatolari yoki mantiqiy uzilishlarini anglaydi. Bu bosqich mantiqiy tafakkurni chuqurlashtiradi va xulosalarning ishonchligini tekshirishga o'rgatadi.

Baholash bosqichi o'z natijalarini mezonlar asosida baholaydi. talaba bajarilgan ishning sifatini, to'g'riligini va mantiqiy asoslanganligini belgilangan mezonlar orqali tekshiradi. U o'zidan so'raydi:

- “Mening yechimim to'g'rimi?”
- “Natijam topshiriq shartiga mos kelyaptimi?”
- “Mantiqiy izchillik saqlanganmi?”

Baholash jarayonida talaba **o'z fikrlashining darajasini aniqlaydi**, xulosalarning to'g'riligi va asoslanganligini tekshiradi. Bu bosqich o'z-o'zini nazorat qilish, mustaqil

baholash va javobgarlikni his qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Xulosa chiqarish bosqichi xatolik sababini aniqlab, yangi strategiya ishlab chiqadi. Bunda talaba o'z tahlil natijalaridan kelib chiqib, nimani to'g'ri, nimani noto'g'ri bajarganini anglaydi va bundan kelajakda to'g'ri yo'lni tanlash uchun xulosa chiqaradi. Masalan, u shunday fikr yuritadi: “Men bu masalada shartni noto'g'ri talqin qildim, keyingi safar masalani oldin to'liq tahlil qilib olaman”. Shu tarzda u **xatodan o'rganadi** va yangi fikrlash strategiyasini ishlab chiqadi. Bu bosqich refleksiv tahlilning yakuniy qismi bo'lib, talabaning mantiqiy fikrlashni ongli boshqarish, muammoni hal etish va o'z fikrini takomillashtirish qobiliyatini mustahkamlaydi. Bu yondashuv talabalarda **metakognitiv fikrlash**, ya'ni o'z fikrlashini boshqarish qobiliyatini shakllantiradi. Masalan, tenglamani yechish jarayonida talaba noto'g'ri amal bajarganini refleksiya orqali anglab, sababini topadi: “Men bu bosqichda mantiqiy bog'lanishni e'tiborsiz qoldirdim.” Shunday qilib, refleksiv tahlil metodlari yordamida u o'z tafakkurini tuzatadi va yangi bilimni chuqurroq o'zlashtiradi.

Tajriba-sinov ishlari shuni ko'rsatadiki, refleksiv tahlil metodidan foydalanilgan guruhda mantiqiy tahlil ko'rsatkichlari o'rtacha 18–25 foizga oshgan. Talabalar muammoni hal etishda o'z fikrini izchil bayon etishga, sabab-oqibat aloqalarini aniqlashga va o'z xulosasini asoslashga moyil bo'lgan. Refleksiv tahlil metodlari:

- Talabaning o'z fikrini kuzatish va baholash qobiliyatini rivojlantiradi;
- Mantiqiy tafakkur jarayonini chuqurlashtiradi;
- Xatoliklarni anglash va tuzatish ko'nikmasini shakllantiradi;
- Mustaqil tahlil, umumlashtirish va mantiqiy xulosa chiqarish malakasini kuchaytiradi;
- O'qituvchi uchun talaba fikrlash jarayonini nazorat qilish va yo'naltirish imkonini yaratadi.

Refleksiv tahlil metodlaridan foydalanish pedagogika OTM talabalari matematika fanida mantiqiy fikrlashni shakllantirishning samarali yo'nalishlaridan biridir. Ushbu metod nafaqat o'quv materialini o'zlashtirishni, balki o'z fikrini tahlil qilish, xulosa chiqarish, xatolardan o'rganish va mustaqil qaror qabul qilishni ham rivojlantiradi. Natijada talabalarda nafaqat mantiqiy, balki tanqidiy va ijodiy tafakkur uyg'onadi, bu esa kelgusida ularni raqobatbardosh, refleksiv fikrlaydigan o'qituvchilar sifatida shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva N. Matematika ta'limida refleksiv metodlar. – Toshkent: Fan, 2022.
2. Xolmatova D. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar. // Pedagogika, 2023, №4.
3. Karimov U. Pedagogik psixologiyada refleksiya. – Toshkent, 2021.
4. Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва, 2019.
5. Dewey J. How We Think? – Boston: D.C.Heath and Company, 1933.

Gulmira SATTAROVA,

*Toshkent shahar Uchtepa tumani 193-sonli IDUM
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

DUNYO TILSHUNOSLIGIDA TIL BILISH BIRINCHI DARAJASINING O'RGANILISHI, UNGA QO'YILGAN TALABLAR

Annotatsiya. Ushbu maqola dunyo tilshunosligida til birinchi darajasining o'rganilishi va unga qo'yilgan talablarni tahlil qiladi. Ingliz tilida til birinchi darajasining (A1) maqsadi, xususiyatlari va o'rganish talablari bayon qilinadi. Shuningdek, til o'rgatishda darajalar tizimi va o'qituvchi malakasining ahamiyati haqida fikrlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: til darajalari, materiallar, o'qituvchining malakasi, axborot texnologiyalari.

Annotation. This article analyzes the study of the first level of language in world linguistics and the requirements for it. In English, the purpose, features, and requirements for learning the first level of language (A1) are outlined. Also, opinions are given on the system of levels and the importance of teacher qualification in language teaching.

Keywords: language levels, materials, teacher qualification, information technology.

Аннотация. В данной статье анализируется изучение первого уровня языка в мировой лингвистике и предъявляемые к нему требования. В английском языке излагается цель, особенности и требования к изучению первого уровня языка (A1). Также приводятся мнения о системе уровней и значении квалификации учителя в обучении языку.

Ключевые слова: языковые уровни, материалы, квалификация учителя, информационные технологии.

Tillarni samarali o'rgatish uning metodikasini bilishni taqozo etadi. Til o'rgatish kishilik jamiyatida muhim sohalardan biri hisoblanadi. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda tilni o'rganish, ko'p tillilik ulkan ahamiyatga ega.

Ko'p mamlakatlar hududida tahsil oladigan o'quvchi va talabalar odatda uch tilni o'rganadilar. "Iqtidorli yoshlarimizning ko'pchiligi uch til egasidir" [1]. Ushbu tillar ta'lim nazariyasida maxsus nomlar bilan yuritiladi. Ona tili, ikkinchi til va xorijiy til. Shunday ekan, har bir til dunyoda o'z mavqeyini boshqa til vakillari tomonidan o'rganilishi bilan amalga oshiradi. Biz ham o'z ona tilimizni – o'zbek tilimizni olam sahnasidagi tillar qatorida ko'rishni istaymiz. Buning uchun esa tilimiz nafaqat o'z egalari tomonidan, balki boshqa millat vakillari tomonidan ham tan olinishi kerak. O'zbek tilini xorijliklarga xorijiy til sifatida o'qitish o'ziga xos talab va tajribalarni talab qiladi. Bu yo'lda, albatta til o'rgatuvchining malakasi muhim hisoblanadi. O'zbek tili muallimi metodika fani yutuqlarini o'zlashtirishi orqali o'quvchining to'plagan til tajribasi me'yorini aniq bilishga va uni yanada takomillashtirishga erishadi.

Bugungi kunda tilni o'qitish va o'rgatishda darajalarga e'tibor qaratilgani bejiz emas. Bu hol dastlab ingliz tilida o'z aksini topdi. Ushbu tilni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj sabab bugungi kunga kelib o'rganuvchining bilimini baholashda to'rtta me'zon asosida bilimlar tekshiriladi va oltita darajadan biriga mansubligi belgilanadi. Shulardan birinchisi A1 daraja bo'lib u quyidagicha:

A1 darajasi tilning asosiy foydalanuvchilariga, ya'ni kundalik vaziyatlarda tez-tez ishlatib turadigan iboralar va elementar lug'at bilan birlashtira oladiganlarga mos keladi. Shuni yodda tutish kerakki, Tillarga oid Evropaning umumiy ma'lumot doirasi (CEFR) ingliz tili kabi tillar uchun og'zaki va yozma so'zlashuv va tushunishning turli darajalarini belgilaydigan va tushuntiradigan tizimdir. U 6 ta ma'lumot sathidan iborat: uchta blok (A yoki asosiy foydalanuvchi, B yoki mustaqil foydalanuvchi va C yoki

malakali foydalanuvchi), ular o'z navbatida 1 va 2 ikkita pastki darajaga bo'lingan.

A1 darajadagi mahorat Ushbu ma'lumotni o'qiyotganda o'zingizdan so'rashingiz mumkin bo'lgan savollardan biri, ingliz tilida A1 darajasiga ega ekanligini isbotlay oladigan odamni qaysi til vakolatlari xarakterlaydi? CEFR quyidagilarni belgilaydi: U tez-tez ishlatiladigan kundalik iboralarni va oddiy iboralarni darhol ehtiyojlarini qondirish uchun tushunishi va ishlatishi mumkin. U o'zini va boshqalarni tanishtirishi mumkin, shuningdek qaerda yashashi, bor narsalari va o'zi biladigan odamlar kabi shaxsiy ma'lumotlar haqida savollar berib javob berishi mumkin. U suhbatdoshi sekin va aniq suhbatlashishi va hamkorlik qilishga tayyor bo'lishi sharti bilan u sodda tarzda o'zaro aloqada bo'lishi mumkin. Ingliz tilida A1 darajasi bilan nima qilishingiz mumkin? Ingliz tilining A1 darajasi juda sodda aloqalar uchun etarli bo'ladi, masalan, ingliz tilida so'zlashadigan mamlakatda sayyoh sifatida. A1 darajasi boshqa ilmiy yoki professional maqsadlar uchun yetarli bo'lmaydi.

Rasmiy CEFR ko'rsatmalariga binoan, kimdir ingliz tilida A1 darajasida kundalik tanish iboralarni va aniq turdagi ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan juda oddiy iboralarni tushunishi va ishlatishi mumkin. O'zini va boshqalarni tanishtirishi mumkin va u qaerda yashashi, tanish odamlari va narsalari kabi shaxsiy ma'lumotlar haqida savollar berib javob berishi mumkin. Boshqasi sekin va aniq suhbatlashishi va yordam berishga tayyor bo'lishi sharti bilan, boshqa odamlar bilan sodda tarzda aloqada bo'lishi mumkin.

A1 darajasidagi ingliz tilini batafsil o'rganish Rasmiy ma'ruzalar o'qitish maqsadida kichik bo'laklarga bo'linadi. Ushbu batafsil mahoratning buzilishi sizga o'zingizning ingliz tilingiz darajasini yoki o'qituvchiga talabning darajasini baholashda yordam beradi. Masalan, ingliz tilida A1 darajasidagi talaba quyidagilarga qodir:

– o'zini oddiygina tanishtiring va asosiy tabriklardan foydalaning

– u va boshqalar qayerdan kelganligini aytib bering va uning shahri haqida asosiy tavsif bering.

– oila va hamkasblar haqida oddiygina gapiring, ularning tashqi qiyofasini va shaxsiy xususiyatlarini tavsiflang.

– kiyimni asosiy darajada muhokama qiling va sotuvchilardan bu haqda oddiy savollar bering.

– sevimli ovqatlar haqida suhbatlashing va olib ketiladigan ovqatlarga oddiy buyurtma bering.

– kundalik ishlar haqida suhbatlashish va do'stlar va hamkasblar bilan uchrashuvlar tashkil etish.

– hozirgi ob-havo sharoitlarini tavsiflash va ob-havo prognoziga muvofiq tadbirlarni taklif qilish.

– sog'lig'i haqida umumiy so'zlar bilan gaplashing va shifokorga tez-tez uchraydigan tibbiy alomatlarini tavsiflang.

– uning uyi joylashgan joyni tasvirlab bering va oddiy ko'rsatmalar bering

– uning sevimli mashg'ulotlari va qiziqishlari haqida suhbatlashing va do'stlaringiz yoki hamkasblaringiz bilan qiziqarli mashg'ulotlar uchun rejalar tuzing

– mehmonxonada asosiy operatsiyalarni bajarish, shu jumladan ro'yxatdan o'tish va chiqish.

– umumiy mahsulotlarni muhokama qilish, asosiy xaridlarni amalga oshirish va nosoz narsalarni qaytarish.

Garchi taraqqiyot kurs turiga va individual talabaga bog'liq bo'lsa-da, talabalar ingliz tilida A – A1 darajasiga 60–80 soatlik o'qitish bilan erishishni kutishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mengliyev B. Globalashuv: tillar taraqqiyoti va tanazzuli. // Ma'rifat, 2017, №76.

2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi Qonuni. // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyoti ning poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997. – B. 31–61.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4732-sonli Farmoni.

Sherqo'zi RAXMATOV

PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALAR YORDAMIDA TALABALARDA AXBOROT TEXNOLOGIK BILIMLARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagogik dasturiy vositalar yordamida talabalarda axborot texnologik bilimlarni shakllantirish jarayonining nazariy asoslari yoritiladi hamda zamonaviy raqamli ta'lim muhiti, interaktiv dasturiy ta'lim vositalari, o'quvchi faoliyatini boshqaruvchi pedagogik modellar hamda o'qitish samaradorligini oshiruvchi texnologiyalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: pedagogik dasturiy vosita, axborot texnologiyasi, interfaol ta'lim, refleksiv tahlil, raqamli ta'lim, simulyator.

Annotation. This article covers the theoretical foundations of the process of forming information and technological knowledge in students using pedagogical software tools, as well as analyzes the modern digital educational environment, interactive software learning tools, pedagogical models for managing student activities, and technologies for improving learning effectiveness. Keywords: pedagogical software, information technology, interactive learning, reflective analysis, digital learning, simulator.

Keywords: pedagogical software tool, information technology, interactive learning, reflective analysis, digital education, simulator.

Аннотация. В данной статье освещаются теоретические основы процесса формирования информационно-технологических знаний у студентов с помощью педагогических программных средств, а также анализируются современная цифровая образовательная среда, интерактивные программные средства обучения, педагогические модели управления деятельностью учащихся и технологии повышения эффективности обучения.

Ключевые слова: педагогическое программное средство, информационные технологии, интерактивное обучение, рефлексивный анализ, цифровое обучение, симулятор.

Bugungi raqamli davrda ta'lim tizimida axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish pedagogik jarayonning ajralmas qismiga aylandi. Talabalarda axborot texnologik kompetensiyalarni shakllantirish nafaqat texnik bilim, balki pedagogik metodik yondashuvlarni ham talab qiladi. Shu jihatdan, pedagogik dasturiy vositalar (PDV) ta'lim jarayonini individuallashtirish, interfaollashtirish va nazorat qilish imkonini beradi.

1. Pedagogik dasturiy vositalarning mohiyati. Pedagogik dasturiy vosita – bu o'qitish, mashq qilish, test o'tkazish, nazorat va o'z-o'zini baholashni avtomatlashtiruvchi dasturiy tizimdir. Ular quyidagi turlarga bo'linadi:

- o'quv dasturlari (tutorials);
- trening va simulyator dasturlari;
- test va baholash tizimlari;
- virtual laboratoriyalar;

O'quv o'yinlari. Pedagogik dasturiy vosita (PDV) bu – o'qitish jarayonini avtomatlashtiruvchi, boshqaruvchi va interfaol tarzda tashkil etuvchi maxsus dasturiy tizim bo'lib, u o'qituvchi faoliyatini yengillashtiradi va talabani bilim olish jarayonini individuallashtiradi. Bunday vositalar ta'lim jarayonida o'quvchi yoki talabani bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, nazorat qilish, tahlil qilish hamda mustahkamlashga xizmat qiladi. Pedagogik dasturiy vositalarning asosiy didaktik mohiyati ta'lim jarayonida o'qituvchi va talaba o'rtasidagi interfaol muloqotni ta'minlashdan iborat. U o'qituvchining rolini pasaytirmay, balki o'zgartiradi: o'qituvchi endi ma'lumot manbai emas, balki yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, maslahatchi sifatida ishtirok etadi. Bilimlarni bosqichma-bosqich egallash jarayoni ta'minlanadi. Ko'rgazmali materiallar

asosida mavzular chuqurroq tushuniladi. O'zlashtirish nazorati avtomatlashtiriladi. Masalan, "GeoGebra", "PhET", "Cabri" kabi dasturlar orqali matematika va fizika fanlaridagi mavzularni vizual tahlil qilish o'quvchining fikrlash jarayonini faollashtiradi. Har bir pedagogik dasturiy vosita uch asosiy komponentdan iborat. Didaktik blok – o'quv material, misollar, mashqlar va nazariy ma'lumotlar joylashgan qism. Boshqaruv bloki – o'qituvchi tomonidan belgilangan o'quv jarayonini rejalashtirish va nazorat qilish mexanizmi. Tahlil va qayta aloqa bloki – talabani javoblari, xatolari, muvaffaqiyat darajasi tahlil qilinadigan qism. Bu tuzilma o'qitishning "kirish – o'rganish – nazorat – tahlil – mustahkamlash" bosqichlarini qamrab oladi. Pedagogik dasturiy vositalar maqsadiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

Turi	Maqsadi	Misollar
O'quv dasturlari (tutorials)	yangi bilimlarni interfaol o'rganish	Duolingo, Coursera, Moodle
Trening va simulyatorlar	amaliy ko'nikmalarni shakllantirish	PhET, Scratch, AutoCAD simulatsiyasi
Test tizimlari	nazorat va baholashni avtomatlashtirish	Google Forms, Testmoz, Kahoot

Individuallashtirilgan o'qitish har bir talaba o'z tezligida o'rganadi. Motivatsiyani oshiradi interfaol elementlar o'rganishga qiziqish uyg'otadi.

Tahliliy fikrlashni rivojlantiradi – talaba faqat yodlamaydi, balki sababni tahlil qiladi. Masofaviy ta'limni qo'llab-quvvatlaydi – istalgan joyda o'rganish imkonini beradi. Dasturiy vositalar yordamida o'rganish insonning psixologik faolligini oshiradi. Vizual va eshitish kanallari orqali axborot yaxshiroq o'zlashtiriladi. Refleksiya (o'z fikrini tahlil qilish) kuchayadi. Motivatsion muhit yaratiladi – talaba o'z natijasini ko'rib baholaydi. Pedagogik dasturiy vosita – bu nafaqat texnik, balki didaktik va psixologik jihatdan puxta o'ylangan o'quv vositasidir. U ta'limni avtomatlashtiradi, o'qitish jarayonini individuallashtiradi va talabalarda axborot texnologik savodxonlikni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Talabalarda axborot texnologik bilimlarni shakllantirishda nazariy yondashuvlar muhim. Konstruktivizm nazariyasi – talaba faoliyatini o'z bilimni yaratish jarayoniga yo'naltiradi.

Refleksiv tahlil metodi o'quvchini o'z fikrini baholash va tahlil qilishga o'rgatadi. **Faol o'qitish** texnologiyasi interaktiv dasturiy muhit orqali mustaqil o'rganish va amaliy faoliyatni uyg'unlashtiradi. **Modulli o'qitish** bilimni bosqichma-bosqich, nazoratli tarzda egallashni ta'minlaydi. Talabalar mustaqil ishlashni o'rganadi. Ularda axborot tizimlari bilan ishlash ko'nikmalari shakllanadi, dars jarayoni esa interaktiv bo'ladi. Fanlararo integratsiya kuchayadi, o'quv materialini vizuallashtirish osonlashadi. Pedagogik dasturiy vositalar quyidagi shakllarda integratsiya qilinadi:

1. LMS tizimlari (Moodle, Google Classroom);
2. Virtual simulyatorlar;

3. Multimedia darsliklar;

4. Onlayn test va tahlil platformalari.

Pedagogik dasturiy vositalar talabalarda axborot texnologik bilimlarni shakllantirishda samarali mexanizm hisoblanadi. Ularning qo'llanilishi ta'lim sifatini oshiradi, mustaqil o'qish va analitik fikrlashni rivojlantiradi. Shu bois, OTMLarda PDVlardan foydalanish didaktik tizimning asosiy komponenti sifatida qaralishi lozim. Pedagogik dasturiy vositalarning (PDV) ta'lim jarayoniga ta'siri nazariy jihatdan pedagogika, psixologiya va axborot texnologiyalari fanlarining kesishgan nuqtasida shakllanadi. Quyida ushbu ta'sirning asosiy nazariy poydevorlari keltiriladi. L.S.Vygotskiy, A.N. Leontyev va P.Y.Galperinlarning faoliyat nazariyasiga ko'ra, bilim inson faoliyati jarayonida shakllanadi. Pedagogik dasturiy vosita bu jarayonda o'quv faoliyatining tashkiliy vositasi bo'lib xizmat qiladi. Talaba PDV orqali bilimni tayyor holatda emas, balki faol harakat natijasida o'zlashtiradi. Simulyatorlar va interfaol mashqlar amaliy faoliyatga o'xshash muhit yaratadi. Bu jarayon talabani bilish motivatsiyasini kuchaytiradi.

Kognitiv yondashuv (J.Piaget, J.Bruner) bilimni ongda qayta ishlash jarayoni sifatida talqin qiladi. PDV bu nazariyaga ko'ra quyidagi mexanizmlarni faollashtiradi. Axborotni vizuallashtirish – murakkab tushunchalar animatsiya, grafik va multimedia orqali tezroq tushuniladi. Qayta aloqa (feedback) – talaba xatoni ko'rib, o'z fikrini to'g'rilaydi, bu refleksiya mexanizmini ishga soladi;

Qisqa muddatli va uzoq muddatli xotirani faollashtirish – interfaol mashqlar bilimni mustahkamlaydi. Konstruktivizm (J.Dewey, E. von Glasersfeld) bilimni tayyor shaklda berish emas, balki talabani o'zi uni "qurishi" lozimligini ta'kidlaydi. PDV bu yondashuvni quyidagicha

qo'llab-quvvatlaydi. Talaba o'quv muhitida muammoli vaziyatni hal qilish orqali bilim hosil qiladi. Dasturiy vosita o'quvchini faol subyektaga aylantiradi. Mustaqil tahlil, qaror qabul qilish va o'z fikrini asoslash ko'nikmalari rivojlanadi. Refleksiv yondashuvga ko'ra, o'quvchi o'z faoliyatini tahlil qila olgandagina haqiqiy o'zlashtirish sodir bo'ladi. PDV bu jarayonda quyidagicha xizmat qiladi. Talaba o'z javoblarini ko'rib, natijani tahlil qiladi. Xatolarni dasturiy tahlil asosida to'g'rilaydi. O'z o'quv faoliyatini baholash malakasi shakllanadi. Masalan, avtomatik test tizimlari yoki simulyatorlar natijani real vaqt rejimida tahlil qilib, talabani refleksiv fikrlashini rag'batlantiradi.

Zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalar shaxsning axborot madaniyatini shakllantirishning markazida turadi. Nazariy jihatdan bu quyidagilarga asoslanadi:

Digital literacy – talaba texnik vositadan foydalangan holda bilim yaratadi;

Blended learning – an'anaviy o'qitish va dasturiy vositalar uyg'unlashadi;

Self-directed learning – PDV yordamida talaba o'z ta'lim jarayonini boshqaradi.

Motivatsion ta'sir – o'yin, baholash va vizual elementlar o'qishga qiziqishni oshiradi. Emotsional barqarorlik – xatolarni avtomatik tahlil qilish stressni kamaytiradi. Mustaqillik hissi – talaba o'z natijasini bevosita ko'radi, bu o'z-o'zini baholashni kuchaytiradi. Nazariy jihatdan pedagogik dasturiy vositalar:

- bilim olishni faol, refleksiv va individuallashtirilgan jarayonga aylantiradi;

- kognitiv, motivatsion va refleksiv mexanizmlarni uyg'otadi;

- shaxsda axborot madaniyati, tahliliy fikrlash va raqamli savodxonlikni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmedov A., Karimov B. Pedagogik texnologiyalar va ularning o'quv jarayoniga tatbiqi. – Toshkent: Fan, 2021.
2. Hasanov M. Axborot texnologiyalarini ta'lim tizimiga integratsiyalash nazariyasi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti, 2022.
3. Qodirova D. Pedagogik dasturiy vositalarning ta'limdagi o'rn va didaktik imkoniyatlari. // Ta'lim texnologiyalari, №4, B. 45–52.
4. Turdiyev S. Raqamli pedagogika: nazariya va amaliyot. – Samarqand: SamDU, 2023.
5. Yusupova N., Jo'rayev R. Pedagogik dasturiy ta'minot va masofaviy ta'lim tizimlari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.

Shaxnoza XOLMATOVA,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsent v.b.

RAQAMLI PEDAGOGIKA SHAROITIDA TA'LIM JARAYONINI BOSHQARISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli pedagogika sharoitida ta'lim jarayonini boshqarishning o'ziga xos jihatlari yoritilgan. Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi nafaqat texnik yangilanishni, balki boshqaruv yondashuvlarining transformatsiyasini ham talab qilishi ta'kidlangan. O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalari pedagoglari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma asosida raqamli vositalardan foydalanishda yuzaga kelayotgan muammolar tahlil qilingan hamda samarali boshqaruv modeli taklif etilgan. Raqamli muhitda ta'lim jarayonini boshqarishga pedagoglarni tayyorlash va raqamli transformatsiyani tizimli yondashuv asosida olib borish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli pedagogika, ta'limni boshqarish, o'quv jarayoni, raqamli texnologiyalar, pedagogik monitoring, raqamli kompetensiyalar, boshqaruv modeli, raqamli transformatsiya, ta'lim sifati.

Annotation. The article examines the features of managing the educational process in the context of digital pedagogy. It is shown that the implementation of digital technologies requires not only technical modernization of educational institutions, but also a transformation of management approaches. The results of a study conducted among university teachers of Uzbekistan, including an analysis of the difficulties associated with the use of digital tools, are presented, and an effective digital management model is proposed. It was concluded that it is necessary to train teachers to manage the educational process in a digital environment and implement a systematic approach to the digital transformation of education.

Keywords: digital pedagogy, education management, educational process, digital technologies, pedagogical monitoring, digital competencies, management model, digital transformation, quality of education.

Аннотация. В статье рассматриваются особенности управления образовательным процессом в условиях цифровой педагогики. Показано, что внедрение цифровых технологий требует от учебных заведений не только технической модернизации, но и трансформации управленческих подходов. Представлены результаты исследования, проведенного среди преподавателей вузов Узбекистана, в том числе анализ затруднений, связанных с использованием цифровых инструментов, и предложена модель эффективного цифрового управления. Сделан вывод о необходимости подготовки педагогов к управлению учебным процессом в цифровой среде и внедрения системного подхода к цифровой трансформации образования.

Ключевые слова: цифровая педагогика, управление образованием, образовательный процесс, цифровые технологии, педагогический мониторинг, цифровые компетенции, модель управления, цифровая трансформация, качество образования.

So'nggi yillarda ta'lim sohasida katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi o'quv jarayonining shakli, uslubi va mazmuniga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi kunda "raqamli pedagogika" atamasi ko'pchilik uchun yangilik emas, bu nafaqat kompyuter yoki internetdan foydalanish, balki ta'limni boshqarish, nazorat qilish va tahlil qilishning butunlay yangi yondashuvlarini anglatadi [1: 158]. Biroq bunday o'zgarishlar bilan birga, ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va boshqarish masalasi ham dolzarb bo'lib bormoqda. Chunki raqamli texnologiyalar o'z-o'zidan sifat kafolati emas. Ularni to'g'ri yo'naltirish, boshqaruv tizimlariga integratsiya qilish va pedagogik maqsadlarga moslashtirish zarur. Mazkur maqolada biz raqamli pedagogika sharoitida ta'lim jarayonini qanday boshqarish mumkinligi, mavjud muammolar va ularni hal qilish yo'llari haqida fikr yuritamiz.

Tadqiqot davomida bir nechta yondashuvlar qo'llanildi. Avvalo, ilmiy maqolalar, hisobotlar va xorijiy tajribalar tahlil qilindi. So'ngra O'zbekistonlik o'qituvchilar va ta'lim muassasalari rahbarlari o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi, ularning raqamli texnologiyalarni qanday qo'llayotgani va qanday qiyinchiliklarga duch kelayotgani o'rganildi [3: 60]. Shuningdek, an'anaviy va raqamli boshqaruv modellari taqqoslab, raqamli muhitga moslashtirilgan boshqaruv modeli ishlab chiqildi. Diqqat markazida o'qituvchining roli, texnologik vositalarning imkoniyatlari va boshqaruvdagi o'zgarishlar bo'ldi [4: 35–41].

Asosiy natijalar. Ko'pchilik ta'lim muassasalari raqamli platformalardan (masalan, Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams) foydalanmoqda, biroq ular ko'pincha faqat topshiriq yuborish va baholash uchun ishlatilmoqda. Boshqaruv va tahlil imkoniyatlari esa to'liq ochilmayapti [5: 27]. Pedagoglarning yarmidan ko'pi (aniqrog'i 67%) raqamli vositalardan foydalanishda metodik yoki texnik yordamga muhtojligini bildirgan. Agar boshqaruvga mo'ljallangan tizimlar (masalan, elektron kundaliklar, talaba ishtiroki statistikasi, avtomatik monitoring) samarali ishlasa, ta'lim sifati oshadi, o'qituvchi esa ko'proq didaktik vazifalarga vaqt ajrata oladi. Taklif etilgan oddiy raqamli boshqaruv modeli quyidagicha:

Rejalashtirish → Platformani tanlash → Monitoring
→ Teskari aloqa → Qaror qabul qilish (natijalar asosida)

Natijalar shuni ko'rsatdiki, raqamli texnologiyalar ta'limda katta imkoniyatlar yaratmoqda, ammo bu imkoniyatlar to'liq samara berishi uchun boshqaruv jarayoni yaxlit va tizimli bo'lishi lozim. Hozirda ko'plab ta'lim muassasalari bu yo'nalishda harakatni boshlagan, lekin tizimli yondashuv yetarli emas [6: 199]. Misol uchun, ko'plab o'qituvchilar raqamli platformalarni mustaqil, tajriba orqali o'rganmoqda. Bu esa umumiy sifatni kafolatlay olmaydi. Yagona metodik yondashuvlar, malaka oshirish kurslari va tajriba almashish mexanizmlari yetishmaydi. Bundan tashqari, raqamli boshqaruvni faqat texnik vosita sifatida emas, balki pedagogik strategiyaning ajralmas qismi sifatida ko'rish zarur. Ya'ni, texnologiyalar

o'qituvchini boshqarmasligi kerak, balki o'qituvchi texnologiyalarni boshqarishi lozim. Qarorlar esa real ma'lumotlar – monitoring, ishtirok, faollik, o'zlashtirish darajasi asosida qabul qilinishi kerak.

Raqamli pedagogika sharoitida ta'lim jarayonini boshqarish bu – nafaqat texnologiyalar bilan ishlash, balki o'qituvchi va rahbarlarning fikrlash tarzini o'zgartirish, ta'limni yangi tamoyillar asosida tashkil etish demakdir [8: 37]. Tavsiya etiladi:

- pedagoglar uchun raqamli boshqaruv bo'yicha amaliy va metodik treninglar tashkil etish;
- ta'lim muassasalarida yagona raqamli boshqaruv modelini ishlab chiqish va joriy etish;
- texnologiyalarni tanlashda ularning nafaqat funksionalligini, balki pedagogik foydasini ham hisobga olish;
- raqamli boshqaruv vositalarini doimiy tahlil qilib, takomillashtirib borish;
- qo'shimcha fikrlar va mavzuni kengaytirish.

Raqamli pedagogika prinsiplari asta-sekin keng tarqalayotgan bo'lsa-da, quyidagi jihatlar chuqurroq e'tiborni talab qiladi:

1. Ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish.

Raqamli texnologiyalar real vaqt rejimida ma'lumot to'plash va tahlil qilish imkonini beradi. Ammo ko'plab muassasalarda bu yo'nalishda aniq strategiya yo'q. Shu sababli, "data literacy" – ya'ni, ma'lumotlar bilan ishlash savodxonligini oshirish, maxsus protokollar va axborot maxfiyligini ta'minlovchi yondashuvlar zarur.

2. Uzlaksiz kasbiy rivojlanish. Texnologiyalar tez-tez yangilanadi. Shu bois, o'qituvchilar uchun raqamli ko'nikmalarni oshirish doimiy jarayon bo'lishi kerak. Mikrosertifikatlar, onlayn o'quv jamoalari va murabbiylik dasturlari bunga xizmat qilishi mumkin.

3. Raqamli inklyuziya va teng imkoniyatlar. Barcha o'quvchi va o'qituvchilar ham texnik vositalarga teng darajada ega emas. Shuning uchun qurilmalar, internet aloqasi va nogironligi bor foydalanuvchilar uchun mos interfeyslar kabi muhim jihatlar e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

4. Talabaga yo'naltirilgan raqamli ekotizim. Raqamli vositalar ta'lim markazida talaba bo'lishini ta'minlashi kerak. Moslashtirilgan o'quv yo'llari, shaxsiy fikr-mulohazalar, interaktiv materiallar o'quvchini faolroq qiladi. Shu bois, texnologiyalar tanlanayotganda individual yondashuv imkoniyatlariga ega platformalarga e'tibor qaratish kerak.

5. Hamkorlik va xalqaro tajriba almashinuvi. O'qituvchilar faqat mahalliy emas, balki xalqaro darajada hamkorlik qilishga undalishi kerak. Tajriba almashish, ilg'or xorijiy amaliyotlarni o'rganish, edtech kompaniyalari va ilmiy markazlar bilan hamkorlik raqamli ta'limni rivojlantirishda muhim vosita bo'la oladi [6: 197].

Raqamli pedagogika – ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish salohiyatiga ega yondashuv. Biroq texnologiyalarni joriy qilishning o'zi yetarli emas. Muvofiqlashtirilgan boshqaruv, bilimli o'qituvchilar, ma'lumotlarga asoslangan qarorlar va hamkorlikka ochiq ta'lim muassasalari bu jarayonning muvaffaqiyatli bo'lishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гринов В.А. Цифровизация образования: управленческие и методические подходы. М.: Изд-во МГУ, 2020.
2. Халиков Ш.М., Маматкулов А.Р. Цифровая педагогика в системе высшего образования / Образование и инновации. 2021, №3 (45).
3. Кабулова Г.Н. Возможности LMS-платформ в управлении учебным процессом / Современное образование, 2022, №2.
4. Кашапов М.М. Компетентностный подход в цифровой среде: вызовы и решения / Высшее образование в России, 2021. Т. 30, №1.
5. Xolmatova Sh.M. Ta'lim samaradorligini oshirish barkamol avlodni tarbiyalashning muhim omili. / O'zbekistonda millatlararo totuvlik, milliy, diniy va siyosiy bag'rikenglikni yanada rivojlantirishning ijtimoiy, falsafiy masalalari: maxsus ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2020.
6. UNESCO. Reimagining our futures together: A new social contract for education. – Paris: UNESCO Publishing, 2021. – 199 p.
7. Холматова Ш.М., Ахмаджанов Х.Э. Развитие креативного мышления студентов в процессе обучения / Davlat tili: muammo va yechimlar (maqolalar to'plami) – Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2017.

RUSLANJON MARDONOV,

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti ijtimoiy fanlar fakulteti
san'atshunoslik kafedrasida katta o'qituvchisi*

TALABALARDA KREATIVLIK SIFATLARINING RIVOJLANGANINI BAHOLOVCHI MEZONLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning ahamiyati, uning mohiyati hamda baholash mezonlari tahlil qilinadi. Ta'lim jarayonida kreativ fikrlashni shakllantirish va qo'llash usullari ko'rib chiqilib, pedagoglarning kreativlikni rivojlantirishdagi roli va interfaol metodlarning samaradorligi ta'kidlanadi. Shuningdek, talabalarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillar va zamonaviy yondashuvlar haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: kreativlik, aqliy salohiyat, individual qobiliyat, baholovchi mezonlar, interfaol metod, ijodiy faoliyat, ijodkorlik, psixologik iqlim.

Annotation. This article analyzes the importance of developing students' creative qualities, its essence, and assessment criteria. Methods of forming and applying creative thinking in the educational process are considered, the role of teachers in developing creativity and the effectiveness of interactive methods are emphasized. Information is also presented on the factors influencing the development of students' creative abilities and modern approaches.

Keywords: creativity, mental potential, individual ability, evaluation criteria, interactive method, creative activity, creativity, psychological climate.

Аннотация. В данной статье анализируется значение развития креативных качеств у студентов, его сущность и критерии оценки. Рассматриваются методы формирования и применения креативного мышления в образовательном процессе, подчеркивается роль педагогов в развитии креативности и эффективность интерактивных методов. Также представлена информация о факторах, влияющих на развитие творческих способностей студентов, и современных подходах.

Ключевые слова: креативность, умственный потенциал, индивидуальные способности, критерии оценки, интерактивный метод, творческая деятельность, креативность, психологический климат.

Bugungi kunda zamonaviy dunyoning innovatsiyalariga moslashish, doimiy yangilanib turuvchi jamiyat hayotiga yosh avlodni tayyorlash va ularni har tomonlama zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish jarayonida Oliy ta'lim muassasasi pedagoglarining o'рни beqiyos hisoblanadi. Shaxsni shakllantirish, rivojlantirish va ijtimoiylashtirish muammolarini tadqiq etuvchi sohalar – sotsiologiya, pedagogika hamda psixologiyada “ijodkorlik” tushunchasi bilan bir qatorda “Kreativlik” atamasi ham keng qo'llanilib, barkamollikni ifodalovchi asosiy sifatlar tarzida ifoda etilmoqda.

Kreativlik – ta'lim jarayonini tashkillashtirishni o'zida jamlantirib, kreativ ta'lim jarayonini tashkil qilish, ta'lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turli xil uslublar, bilim va ko'nikmalar muvozanatini o'z ichiga oladi. Kreativlik mohiyati intellekt insonning aqliy salohiyati bo'lsa, kreativlik ana shu aqliy salohiyatni maqsadga yo'naltirgan tarzda erkin ishlata olish qobiliyati hisoblanadi. “Kreativlik” atamasi ilk bor Angliya – Amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'ldi. Pedagogika va

psixologiya yo'nalishlarida tadqiqotchilar tomonidan shaxs kreativligini belgilovchi sifatlarini aniqlash hamda tizimlashtirishga katta e'tibor qaratilgan. Dj.P.Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatadi. Bular: fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olish, o'ziga xoslik, qiziquvchanlik, farazlar yaratish qobiliyati, hayol qila olish (fantaziya).

Talabalarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to'laonli anglash uchun dastlab “Kreativlik” tushunchasining mazmunini tushinib olish maqsadga muvofiqdir. Kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) shaxsning yangi g'oyalarini ishlab chiqarishga tayyorgarlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini anglatadi. Talabalarda kreativ fikrlash qobiliyatlarini yanada rivojlantirish va ularni oshirish yo'llari haqida mamlakatimiz va boshqa qator mamalakatlar olimlari tomonidan turli xil fikr mulohazalar o'rganilgan. Kreativlik sifatleri, kreativ qobiliyatlar, talabalarining o'z-o'zini ijodiy faollashtirish, talabalarda

tanqidiy, ijodiy tafakkurni shakllantirish yo'llari va shakllari haqida mamlakatimiz olimlaridan R.H.Djurayev, Sh.E.Qurbonov, A.A.Abduqodirov, N.A.Muslimov, F.M.Zakirova, J.A.Xamidov hamda chet el olimlaridan T.F.Bashina, O.V.Butsik, A.G.Gersov, D.P.Gilford, Y.Tunik hamda boshqa bir qator olimlarning ilmiy izlanishlarida yaqqol yoritib o'tilgan.

A.X.Maslou kreativlikda o'z-o'zini shakllantirishning ikki darajasini keltirib o'tgan: "Birinchisi – ixtiyorsiz kreativlik, bunda shaxs birdan aqliga kelish, ruhlanish, qiyin kechinmalarga ega bo'ladi; ikkinchisi – ixtiyoriy, og'ir mehnat bilan bog'liq, uzluksiz ta'lim kamolotga intiluvchanlik". Amerikalik psixolog P.Torrensning fikricha, kreativlik: muammoga yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazlarni tekshirish va o'zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlikni ifodalaydi. Boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik ham o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi.

Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil shakllantirilib va rivojlantirilib boriladi. Demak, shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirligini ham belgilab beradi, "Talabalar e'tiborini ta'lim jarayoniga faol jalb etish" ni ta'minlaydi.

Talabalarni kreativ fikrlashga o'rgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantirish uchun avvalo o'qituvchi pedagog xodimning o'zi kreativ ijodkor shaxs bo'lmog'i lozim. O'qituvchilarning o'zi kreativ ijodkor bo'lsa, talabalarda ham kreativlik qobiliyatini rivojlantirishda zamin yarata oladi. O'qituvchi darslarni kreativlik ruhida tashkil etsa, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishga intilsa bu albatta talabalarga ham ijobiy natijasini beradi. Shu o'rinda Patti Drapeauning ta'limiga ko'ra darslarda o'qituvchining "Kreativlik yo'l xaritasi" haqida qisqacha to'xtalib o'tsak. P. Drapeau "Kreativlik yo'l xaritasi"ni 4 yo'nalishga bo'lgan. Bunda o'qituvchi quyidagi 4 yo'nalish bo'yicha harakatlanadi va ulardagi harakatlar pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar sanaladi:

1. Ijodiy fikrlash ko'nikmalarini namoyon etish;
2. Talabalarni o'quv fanlarini qiziqish bilan o'zlashtirishga rag'batlantiruvchi strategiyalardan foydalana olish;
3. Innovatsion yondashuv va pedagogik masalalarning yechimini topishga kreativ yondashish;
4. Kutiladigan natija.

Kreativ fikrlash har bir sohada yaqqol aks etishi mumkin. Talabalardagi kreativlik esa ularning ta'lim jarayonlaridagi ijodkorligi va o'quv faoliyatidagi intellektual salohiyatlarida

o'z aksini topadi. Talabalarda kreativlikni rivojlantirishda samarali bo'lgan omillar qatorida quyidagilarni e'tirof qilish mumkin: keng ko'lamdagi, shu jumladan, katta yoshli ijodkorlar bilan muloqot; taqlid qilishga imkon beruvchi obraz sifatida katta yoshlilar muhitining mavjudligi; ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning demokratik uslubga asoslanganligi; talabalarga o'z fikrini erkin bildirish imkoniyatini berish; turli to'garaklarga a'zo bo'lishini ta'minlash orqali talabalarda ijodkorlik sifatlarini izchil rivojlantirib borish; talabalarga shaxsiy tajriba, sayohat orqali borliqni anglash quvonchini his qilishiga imkon berish; talabalarining tadqiqotchilik faoliyatini qo'llab- quvvatlash.

Talabalarda kreativlik sifatlarini rivojlantiruvchi yana bir omil – interfaol ta'lim jarayoni hisoblanadi. Talabalarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning bir qator omillari mavjud bo'lib, quyida manashu omillardan ayrimlarini keltirib o'tish mumkin:

- kreativ tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirish, kreativ faollikni shakllantirish, o'quv jarayonida izlanuvchilik hamda muammoli tadqiqotchilik yo'nalishlarini kuchaytirish;
- talabalarining muammolarni ijodiy hal etish va yaratuvchilik faoliyatlarini rivojlantirish vaziyatlarini tashkil etish;
- talabalarining kreativ faoliyat tajribasiga kasbiy zaruriyat va istiqboldagi kasbiy faoliyat mazmunining tarkibiy qismi sifatida yondashishlariga erishish;
- talabalarining kasbiy ko'nikma va layoqatlarini rivojlantirish jarayonini interfaol metodlar va texnologiyalar ustida ishlash asosida rivojlantirishga yo'naltirish, ularda mustaqil ijodiy faoliyat ko'rsatish, mustaqil bilim olish, o'z-o'zini tarbiyalash, mustaqil ishlash layoqatini faollashtirish, bu jarayonda ularning kreativ fikrlashlariga erishish;
- talabalarining kreativ layoqatlarini namoyon qilishlari uchun qulay ijodiy hamkorlik muhitini vujudga keltirish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, talabalarining pedagogik ehtiyojlari, qiziqishlari, alohida ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlarini tizimli tarzda o'rganish lozim. Shuningdek, talabalarining kreativ qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan g'oyalar, konsepsiyalar hamda ilg'or pedagogik tajribalar asosida o'qitish jarayonini tashkil etish kreativlikni rivojlantirishga nisbatan mazmunli-faoliyatli yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Talabalarining kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirish asosida ulardagi ixtisoslashgan ya'ni pedagogik kreativlik kompetentligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, bunda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari, innovatsion strartegiyalar, interfaol ta'lim metodlari va texnologiyalaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Guilford J.P. Creativity. – American Psychologist, 1950, №9. Vol. 5. P. 444–454.
2. Drapeau P. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria, Virginia, USA: ASCD, 2014.
3. Ibragimova G.N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2016. – 77 b.
4. Muslimov N.A va bosh. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Sano-standart, 2015. – 59 b.
5. Жолдасбеков А. А., Ажибеков К. Ж., Мамбетов М. К., Жолдасбекова К. А., Сихымбаев К.С. Развитие креативного мышления студентов в процессе обучения. – Международный журнал экспериментального образования, 2015. – С. 136–137.
6. Башина Т. Ф., Ильин Е. П. Психология творчества, креативности, одаренности. – Санкт-Петербург: Питер, 2009.

Mahmudaxon SOBITOVA,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

VIZUAL YONDASHUVLAR ASOSIDA ROMAN JANRIGA OID ASARLARNI O'QITISH USULLARI

Annotatsiya. Maqolada roman janriga oid badiiy asarlarni adabiyot darslarida vizual yondashuvlar asosida o'qitishning nazariy-metodik asoslari tahlil qilinadi. Vizual yondashuv orqali o'quvchilarda matn bilan ishlash, tahlil qilish, obrazlar dunyosini anglash va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, roman o'qitish jarayonida kontekstual yondashuv, integratsion va differensial tamoyillarni qo'llash yo'llari ochib beriladi. Roman namunalari o'rganishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan samarali metodlar (BBB, sujet chizig'i, xarakter xaritasi, konsept xaritasi va boshqalar) tavsiflanadi hamda ularning didaktik ahamiyati asoslanadi. Tadqiqot natijalari roman janrini o'qitishda vizual yondashuvning metodik salohiyati yuqori ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: adabiyot ta'limi, metodika, roman namunalari, ilmiy yondashuv, metodologik tahlil, samara.

Annotation. The article analyzes the theoretical and methodological foundations of teaching literary works in literature lessons related to the novel genre using visual approaches, examining the possibilities of forming students' skills in working with text, analyzing, understanding the world of images, and independent thinking. Also, the ways of applying the contextual approach, integration and differentiation principles in the process of studying the novel are revealed, the effective methods (BBB, plot line, character map, concept map, etc.) that can be used in studying novel examples are described, and their didactic significance is substantiated. The research results demonstrate the high methodological potential of the visual approach in teaching the novel genre.

Keywords: literary education, methodology, novel samples, scientific approach, methodological analysis, effectiveness.

Аннотация. В статье анализируются теоретико-методические основы преподавания художественных произведений на уроках литературы, относящихся к жанру романа, с помощью визуальных подходов, рассматриваются возможности формирования у учащихся навыков работы с текстом, анализа, понимания мира образов и независимого мышления. Также раскрываются пути применения контекстуального подхода, интеграционных и дифференциальных принципов в процессе изучения романа, описываются эффективные методы (BBB, сюжетная линия, карта характера, концепт-карта и др.), которые могут быть использованы при изучении образцов романа, и обосновывается их дидактическая значимость. Результаты исследования показывают высокий методический потенциал визуального подхода в преподавании жанра романа.

Ключевые слова: литературное образование, методика, образцы новизны, научный подход, методический анализ, эффективность.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan qator islohotlar ilm-fanning ham yanada rivojlanishi uchun turtki bo'ldi. Ilm-fanning davr talablariga muvofiq holda taraqqiy etishi ushbu sohada yangidan yangi metodlar, usullarning qo'llanishi uchun poydevor sifatida xizmat qila boshladi. Keltirilgan ushbu maqolada ham adabiyot ta'limida roman janriga oid asarlarning o'qitilishi hamda ularga zamonaviy yondashuvlar ilmiy nuqtayi nazardan tahlilga tortilib, ularning adabiyot o'qitish metodologiyasidagi o'rni ta'limga yangicha yondashuvlar asosida baholanadi.

Roman janri badiiy adabiyotdagi yirik janrlardan biri hisoblanib, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ushbu janrga quyidagicha ta'rif beriladi: "Hajmi ancha katta, xilma-xil qahramonlar, sertarmoq sujetga ega bo'lgan, odatda proza yo'li bilan yoziladigan asar; adabiy janr turi" [1]. Ushbu janrga

oid asarlar muayyan shaxslar taqdirini ma'lum makon va zamonda tasvirlaydi, bu esa romanning bir necha turlarga bo'linishiga sabab bo'ladi (dilogiya, trilogiya, epopeya). Badiiy adabiyotda o'quvchilarga roman janriga doir asarlarni o'qitish ma'lum mezonlarga tayanadi.

Shu o'rinda bir savol tug'ilishi tabiiy, roman janriga xos asarlarni tahlil qilishga qanday yondashuv lozim, bunda qanday jihatlariga e'tibor berish kerak? Avvalo, roman namunalari tahliliga vizual yondashuvda quyidagi maqsadlar ko'zlanishi lozim:

- o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish
- asar tahlili, asardan umumiy xulosa olish, qahramon nigohi ila boqish, qahramonlarning xatti-harakatlarini baholay olish va shu kabi jihatlariga erishish;

– muammolarni hal qila olish ko'nikmasini rivojlantirish – romandan o'rin olgan muammoli vaziyatlarga aksiologik yondashuv;

– og'zaki muloqot olib borish madaniyatini rivojlantirish – roman guruh bilan muhokama qilinganda fikrlarini aniq, dalillar bilan asoslangan holda hamda mantiqiy ketma-ketlikda ifoda etish;

– o'qitish materiallariga moslashuvchanlik ko'nikmasini oshirish – darsliklarda berilgan roman janriga xos asarlardan materiallaridan foydalanish jarayonida asar mohiyatini anglash;

– mustaqil ishlay olish ko'nikmasi, ya'ni roman tahlili davomida asarga o'quvchilarning qanday yondashishlarini shaxsiy mulohazalari asosida ifoda etish.

Roman janriga xos asarlarning o'qitilishiga vizual yondashuvni amalga oshirish uchun dastavval o'quvchilarning darsda faol ishtirok etishlarini ta'minlash lozim. Bunda o'quvchilarning roman haqidagi fikrlarni tinglash hamda muhokama qilish uchun o'qituvchi tomonidan zarur shart-sharoitlar yaratilishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, guruhlar bilan ishlash ham dars jarayonida romanni to'laqonli qamrab olishga imkon beradi. Bundan tashqari, romandan olingan parchalarni dramatisatsiya qilish; asar asosida olingan mulohazalar va xulosalar olish ham badiiy asarning vizual yondashuvlarga mos tahlilini amalga oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Roman namunalarini o'qitishda asar konteksti ustida ishlashni bilish ham asosiy jihat hisoblanadi. O'quvchilarga roman qahramonlari hamda ularning taqdiriga aloqador voqeliklarni kontekst asosida tahlil qila olishlari uchun mos metod tanlay bilish o'qituvchi oldida dolzarb masaladir, chunki o'qituvchi bu borada romandagi hech bir detallni ko'zdan qochirmasligi, shakl bilan

ishlashda mazmunni, mazmun tahlilida esa shaklni yoddan chiqarmasligi masalaning tub mohiyatini tashkil etadi. Romandagi shakl va mazmun integratsiyasini o'quvchilarga to'la-to'kis yetkaza bilishning aynan metodik usullar asosida amalga oshirilishi dars sifatini ta'minlab beruvchi muhim omildir. Ta'kidlash lozimki, ushbu metodologik jarayonga qo'shimcha ravishda roman turlariga xos bo'lgan o'xshashlik va farqlar klassifikatsiyasini tatbiq etish ham o'quvchilarga roman kontekstidagi mazmuniy mohiyatni to'kis anglashlari uchun zamin yaratadi.

Adabiyot darslarida roman namunalarini o'qitishda "Ta'limning maqsadi ayrim qobiliyatlar va samaralarni rivojlantirish emas, balki hayotimizga ma'no baxsh etishga ko'maklashishdir, o'tmishni idrok etishu kelajakni qarshi olishga mardona tayyorlanishga yordam berishdir. Ana shu ta'limga olib boradiganlar ichida eng muhimi - jahon adabiyotini o'rganishdir, ko'pgina xalqlarning yozuvchilari va mutafakkirlari asarlari ichida bizga o'tmishdan tuhfa bo'lib qolgan fikrlar, hikmatlar, tajriba, ramzlar, xayollar va a'mollarning hududsiz xazinasini izchillik bilan bobma-bob o'zlashtirishdir... Lekin birinchi darajali o'zligini namoyon etish" [2: 8] ekanligini alohida e'tiborga olish joiz. Sababi, roman o'qitish jarayonida faqatgina roman strukturasiga diqqat qilmasdan, balki asarning real hayotga tatbiq etilishini romandan olingan xulosalar asosida olib borish o'quvchilarda ta'lim va hayot uyg'unligining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi [2: 125]. Ana shu jihatlarni nazarda tutgan holda dars jarayonida roman namunalarini o'qitishga doir metodikalarning o'qituvchi tomonidan tanlay olinishi ham o'qituvchiga xos pedagogik mahorat va iste'dod natijasi o'laroq yuzaga keladi. Roman namunalarini o'qitish bir necha tamoyillarni qamrab oladi:

1-diagramma




Birinchi tamoyil "kompleks yondashuv" deb atalib, bunda dars jarayonida faqatgina kontekst bilan ishlanmay, balki asarning janr xususiyatlari, sujet, obrazlar, mavzu, g'oya, til va uslub kabi xususiyatlari ilmiy nuqtayi nazardan tahlilga tortiladi. Ikkinchi tamoyil integratsion tamoyil bo'lib, bunda adabiyot darsida o'rganilayotgan roman janriga xos badiiy asarlar tarix, san'at, jamiyatshunoslik va shu kabi boshqa fanlar bilan integratsiya hosil qilgan holda tahlil qilinadi.

Differentsiatsiya tamoyili esa o'quvchilarning o'zlashtirish darajalari va qiziqishlari turlicha bo'lganligining evaziga ularga mos individual metodlar bilan ishlash holatini ifoda etuvchi tamoyil hisoblanadi.

Roman janriga xos badiiy asarlarni o'qitishni uch bosqichda amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu bosqichlarni quyidagi diagramma orqali aks ettirish maqsadga muvofiq:


2-diagramma



Pre-reading, ya'ni romanni o'qishdan oldingi jarayon bevosita o'quvchilarni asar mutolaasiga tayyorlov jarayoni hisoblanadi. Bunda o'quvchilarga asar muallifining hayot yo'li va ijodiy faoliyati, ushbu romanni yozishga nima sabab bo'lganligi; asar sarlahvasi, asarning nega bunday nom bilan atalganligi; asarda ko'tarilgan mavzu xarakteristikasi

borasida mulohazalar munozara tarzida bayon etiladi. Pre-reading jarayoni bevosita "kompleks yondashuv" tamoyiliga asoslanib, bunda asarning o'ziga xos jihatlari o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu jarayonga mos metod o'laroq "BBB" metodini tavsiya etish mumkin.

3-diagramma




Ushbu metodda o'quvchilar dars jarayonida roman janriga oid asarlarni o'rganishda asar xususida nimalarni bilishlari, nimalarni bilishni xohlashlari hamda o'qish jarayonida nimalarni o'rganishlari borasida o'tkaziladigan umumiy so'rovnomalar xarakteridagi metod hisoblanadi. Uni o'tkazish orqali o'quvchilarning asar borasidagi fikrlarini umumiy tarzda xulosalash mumkin. Pre-reading jarayonida lug'at bilan ishlashni ham amalga oshirish maqsadga muvofiq, bunda o'qituvchi tomonidan romandan o'rin olgan tushunilishi qiyin bo'lgan leksik birliklar birma-bir izohlanadi. Bundan tashqari, romanning yozilish davri va makoniga daxldor madaniy, siyosiy, ijtimoiy xususiyatlar lozim topilsa o'qituvchi izohlashi mumkin.

Keyingi jarayon romanni o'qish jarayoni hisoblanadi, ushbu jarayonni bevosita integratsion tamoyil asosida olib borish mumkin. Tasviriy san'at va adabiyot integratsiyasining roman o'qitish bilan aloqadorligini ifoda etuvchi metodlarni roman mutolaasi jarayonida qo'llash maqsadga muvofiqdir. Ushbu jarayonga mos metod sifatida "Xarakter xaritasi"

metodini qo'llash mumkin. Bu metodga ko'ra, o'quvchilar oq qog'ozga o'qitilayotgan romandagi obrazlardan birining tasavvuriy ko'rinishini chizadilar hamda uni diagramma shaklida ifodalab, uning xarakteriga xos xususiyatni bayon qiladilar.

"Sujet chizig'i" metodini qo'llash ham darsning qiziqarli bo'lishiga yordam beradi [12]. Ushbu metodning bajarilish jarayoni quyidagicha:




"Sujet chizig'i" metodiga ko'ra, o'quvchilar asarning kirish, kulminatsion va yakunini aniqlashlari va ushbu diagrammaga joylashtirishlari kerak bo'ladi. Umuman olganda, asarni o'qish jarayonida bu metodni qo'llash o'quvchilarda asar haqida umumiy tasavvur hosil qilishga imkon beradi.

Post-reading, ya'ni asarni o'qishdan keyingi jarayon asar mutolaasi tugallangach amalga oshiriladi, bunda asarni umumlashtirish, chuqur tahlil qilish, tanqidiy fikrlashni o'rgatish, ijodiy qobiliyatlarni yuzaga keltirish kabi jarayonlar qamrab olinadi. Post-reading jarayonida o'quvchilarning har biri bilan ularning individual qobiliyatlariga ko'ra ishlash differatsiya tamoyiliga muvofiq amalga oshiriladi. Jarayonda "Konseptlar xaritasi" metodini qo'llash maqsadga

yaqinlashtiradi. "Konseptlar xaritasi" – bu roman janriga xos asarlar mutolaasida asar ichida qo'llangan bir konsept guruh bilan kelishilgan holda tanlab olinadi, masalan, bahor, gul, vaqt, zamon va hokazo. Tanlangan konsepti har bir o'quvchi uchun qanday ma'no kasb etishi konsept diagrammasida qayd etiladi. Masalan, vaqt konseptini tanlab, uning o'quvchilar tomonidan qanday baholanishini quyidagi diagramma orqali ko'rish mumkin:

"Konsept xaritasi" metodi



Demak, asarda ishtirok etgan vaqt konsepti har bir o'quvchi uchun o'ziga xos tushuncha shaklidir. Bu esa diffensial holatning o'ziga xos aksi o'laroq namoyon bo'ladi. Umuman olganda, dars jarayonida roman janriga xos

asarlarni o'qitishda zamonaviy yondashuvlarga tayanish dars mazmunining yanada ko'tarinki bo'lishiga xizmat qilishi bilan birgalikda ushbu janrni o'qitish jarayoniga olib kirilgan yangilik sifatida baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Roman. <https://ru.wikipedia.org/w/index.php?search=O%E2%80%98zbek+tilining+izohli+lug%27ati+%22roman%22&title=%D0%A1%D0%BB%D1%83%D0%B6%D0%B5%D0%B1%D0%BD%D0%B0%D1%8F:%D0%9F%D0%BE%D0%B8%D1%81%D0%BA&ns0=1>.
2. Levidov A. Avtor – obraz-chitateľ. – Leningrad, 1983. – B. 350.
3. Abdullayeva A. Adabiy ta'limda innovatsion yondashuv. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – 222 b.
4. G'oziyev E. Psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2008.
5. Qambarova S. "Muallif pozitsiyasi"ni o'rganish – badiiy asarni tushunish omili sifatida. // Pedagogik mahorat, 2023, №4.

Yulduzxon KULIDJANOVA,

Qo'qon davlat universiteti akademik litseyi informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI TALABA KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK NAZARIY OMILLARNING O'RNI

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli texnologiyalarning oliy ta'lim jarayoniga integratsiyasi orqali talaba kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagogik nazariy omillarning tutgan o'rni tahlil qilinadi. Zamonaviy dars modellarining amaliy ahamiyati ochib berilar ekan, AKT darslari, CLIL, dialogik o'qitish va boshqa metodik yondashuvlar asosida talabalarda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, axborot bilan ishlash, mustaqil qaror qabul qilish kabi ko'nikmalarning shakllanishiga alohida urg'u beriladi. Qolaversa, ta'limda kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari va ularni amaliyotda qo'llash mexanizmlari chuqur yoritiladi.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, talaba kompetensiyasi, ta'lim tizimi, milliy va xalqaro moslashuv, AKT darslari, zamonaviy modellar, milliy kontent.

Annotation. This article analyzes the role of pedagogical theoretical factors in developing students' competencies through the integration of digital technologies into the higher education process. While revealing the practical significance of modern lesson models, special attention is paid to developing students' critical thinking, creativity, information processing, and independent decision-making skills based on ICT, CLIL, dialogic learning, and other methodological approaches. Furthermore, the theoretical foundations of the competency-based approach in education and the mechanisms for applying them in practice are thoroughly covered.

Keywords: digital technologies, student competence, education system, national and international adaptation, ICT, modern models, national content.

Аннотация. В данной статье анализируется роль педагогических теоретических факторов в развитии компетенций студентов посредством интеграции цифровых технологий в процесс высшего образования. Раскрывая практическое значение современных моделей занятий, особое внимание уделяется формированию у студентов таких навыков, как критическое мышление, креативность, работа с информацией, самостоятельное принятие решений на основе использования ИКТ, CLIL, диалогического обучения и других методических подходов. Кроме того, подробно освещаются теоретические основы компетентностного подхода в образовании и механизмы их применения на практике.

Ключевые слова: цифровые технологии, компетенция студента, система образования, национальная и международная адаптация, ИКТ, современные модели, национальный контент.

Mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya jarayoni moddiy texnika va axborot bazasini mustahkamlash, yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash, jahonning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilish borasida olib borilayotgan islohotlar pedagog kadrlarning zamonaviy kasbiy bilimlari va pedagogik mahoratlarini doimiy oshirish zaruratini kuchaytirmoqda. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish chora-tadbirlarida "mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda oliy ta'lim muassasalarining ishtiroki hamda tashabbuskorligini oshirish, professor-o'qituvchilarning bilimi va pedagogik mahorati monitoringini yuritish" kabi jihatlar belgilangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yilning 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son farmonida ham mazkur ishlarning amalga oshirilishi haqida muhim vazifalar ta'kidlangan [1].

Raqamli texnologiyalar va talaba kompetensiyasining pedagogik nazariy asoslari talabalarda amaliy faoliyat kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limiy jarayonning nazariy-metodik asoslari, pedagogik shart-sharoitlar, metodlar, shakllar, vositalar va pedagogik model doirasida ifoda etilgan metodik yondashuvlarni rivojlantiradi. Zamonaviy darslarni oliy ta'limiga tizimli tadbiriq qilish jamiyatda texnologik taraqqiyot, globallashuv va demografik muammolar ta'lim tizimini ham o'zgarishga undamoqda. XXI asrda hartomonlama muvaffaqiyatli shaxs bo'lish uchun faqat bilim olish kifoya emas, balki ijtimoiy ko'nikmalar, tanqidiy fikrlash, hamkorlik va muammolarni hal qilish qobiliyatlari muhim rol o'ynaydi. YUNESKO qabul qilgan "Barqaror rivojlanish maqsadlari"» global ta'lim dasturining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida kognitiv, ijtimoiy-emotsional va xulq-atvor kompetensiyalarini shakllantirish belgilangan. Dunyoning 152 mamlakatida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, axborot bilan ishlash, muloqot, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish eng ko'p talab etiladigan kompetensiyalar sirasiga kiradi. Ushbu kompetensiyalar zamonaviy innovatsion darslar orqali amalga oshiriladi. Ular quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

• Hayotiy tasavvur va ijodiy g'oyalar yaratish, axborotni tahlil qilish va yetishmovchiligini aniqlash;

• Mavjud dalillar asosida xulosa chiqarish, qaror qabul qilish va boshqalar bilan hamkorlikda ishlash;

• Tizimli mustaqil fikr yuritish, guruh ichida ishlash va umumiy natijalarni baholash.

Ta'lim jarayonlarida raqamli texnologiya orqali talaba kompetensiyasini takomillashtirishning asosiy maqsadi talabalar uchun tayyorlangan AKT darslarida zamonaviy modellardan foydalanish quyidagi muhim natijalarga olib keladi: talabalarning o'rganish jarayonini boyitish, ularning bilish doirasini kengaytirish va intellektual rivojlanishiga turtki berish, shuningdek, amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish orqali o'z fikrlarini aniq ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu zamonaviy modellar asosida ta'lim jarayonini tashkil etish talabalarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularning shaxsiy qarashlarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi va axborot almashinuvining samaradorligini kuchaytiradi. Ta'lim jarayonlarida raqamli texnologiya orqali talaba kompetensiyasini takomillashtirishning birlamchi jihatlari dars modelini takomillashtirishning metodik va ilmiy-amaliy mexanizmi sifatida uni ta'lim jarayonida qo'llashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli texnologiya orqali tashkil qilingan modeli AKT darslari asosida olib borilishi talaba kompetensiyalarni shakllantirishga tayyorgarligini ta'minlashda o'quv fanining o'quv dasturidagi ma'ruza mavzularidan foydalanish imkoniyatlarini amaliy tarzda rivojlantirilishiga e'tibor qaratiladi. Pedagogik yo'nalishlar kesimidagi fan dasturining ma'ruza qismidan tanlab olingan mavzular asosida AKT darslari samarasini oshirish modelining har bir komponentiga mos metodlarni qo'llash orqali talaba kompetensiyasining tarkibiy elementlarini shakllantirish mexanizmlari ishlab chiladi. Zamonaviy dars mavzlari uchun tanlangan metodlar va texnologiyalar dissertatsiya ilmiy tadqiqoti doirasida ishlab chiqilgan bo'lib, tadqiqot davomida samaradorligi isbotlangan metodik vositalarga asoslangan va Oliy ta'limning o'qitish jarayonlariga tavsiya qilingan. Ushbu metodlar talalarda axborotlarni izlash, to'plash va saralash uchun, og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish, mustaqil fikr yuritish, muloqot madaniyatini shakllantirish, hayotda ijtimoiy faol ishtirok etishga tayyorlik kabi ko'nikmalarni bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, zamonaviy texnologiya asosida tashkil yetiladigan CLIL texnologiyasi, Story Cubes, dialogik o'qitish va teskari sinf metodlari pedagogik faoliyatda yuqori samara beruvchi zamonaviy yondashuvlar sifatida darslarga tatbiq etiladi.

Kompetentlik[2:59] mazmunli (bilimlar) va kasbiy (ko'nikmalar) tarkibiy qismlardan tashkil topgan bo'lib, eng maqbul yechimni tanlay olish, tanlovni asoslash, tanqidiy tafakkurni nazarda tutadi. Umuman olganda, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish ko'plab ijtimoiy-siyosiy, milliy-ma'naviy, psixologik va pedagogik omillar ta'sirida amalga oshirish pedagogdan mazkur jarayonni innovasion texnologiyalar yordamida tashkil etishni talab etadi.

Kompetentlik tushunchasi lotinchadan – “competencia”, “compete” so'zidan olingan bo'lib, “birgalikda erishaman, qozonaman, mos kelaman, to'g'ri kelaman” degan ma'nolarni bildiradi [2], lug'atlarda esa “nimadir to'g'risida fikr yuritishga yo'l beradigan bilimlarga ega bo'lish”, “xabardor bo'lmoq, huquqli bo'lmoq” degan ma'noda keladi. Amalda barcha lug'at to'zuvchilar “kompetentlik” va “kompetensiya” kategoriyalarini chegaralab qo'yadi.

Kompetentlik ta'rifi o'xshash va bir-birining o'rnini egallaydi (to'ldiradi), shu bilan bir vaqtda kompetensiya so'zi uchun yagona izohlash yo'q, bu tushuncha “vakolatlar yig'indisi (huquq va majburiyatlar) qandaydir organ yoki lavozimli shaxsning qonun, nizomlar bilan belgilab qo'yilgan ushbu organ yoki boshqa holatlar”, “nimanidir to'g'risida fikr yuritishga yo'l beradigan bilimlarga ega bo'lish (egalik qilish)”, “kimdir yaxshi xabardor bo'lgan savollar to'plami (sohasi)” tushuniladi [3]. Kompetentlik tushunchasi deganda, ma'lum bir sohada talaba (masalan, bo'lajak o'qituvchi) egallagan kompetensiya, ya'ni ma'lum bir sifatlarining to'liq shakllangan majmui tushuniladi [4: 56].

Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, kompetensiya kutilgan natijaga erishish uchun amalga oshirilishi kerak bo'lgan faoliyatni belgisidir. U nazariy bilimlar asosida shakllanadi va soha mutaxassisi tomonidan uni amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. Kompetensiyaning bilimdan ajratib turuvchi olim shundaki, biror bir vazifani amaliy bajarmasdan turib, uni na aniqlab, na baholab bo'ladi. Uning muhim mezoni malaka bo'lib, u turli holatlarda, shu qatori muammoli vaziyatlarda ham bir necha bor qo'llash natijasida shakllanadi. Hozirgi kunda “kompetensiya” atamasi turli sohalarda qo'llaniladi: huquqshunoslik, tilshunoslik, madaniyat sohalarda, shuningdek, tashkilot, muassasa yoki kompaniyaning muhim kompetensiyalari.

Ilmiy tadqiqotchilar o'z tadqiqotlarida kompetensiyaning turli ta'lim yo'nalishlarida turli jihatdan tahlil qilishgan. Jumaldan professor, pedagogika fanlari doktori N.A.Muslimov takidlashicha, *tayanch*, *maxsus* va *umumiy* kompetentlik darajalarini shakllantirish bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentliklarini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi [5]. Olim o'z qarashlarida talabalarning ta'lim jarayoni nihoyasiga yetganida ega bo'lgan barcha bilimi, ko'nikma va malakalari jamlanmasini *tayanch* kompetentlik, deb belgilaydi. Shuningdek, bizningcha, talabaning hulq-atvori

va erkin fikrlashini ham keng ma'nodagi “kompetentlik” tushunchasiga kirish mumkin bo'ladi. Bundan asosiy maqsad esa ta'lim oluvchining ya'ni talabalarning kompetentliklarini rivojlantirishni rag'batlantirishdir.

Maxsus kompetensiyalar to'plamidan qaysi ko'nikmalar ta'limning birinchi bosqichida, qaysilari ikkinchi bosqichida va qaysilari uchinchi bosqichida ustuvor ahamiyat kasb etishi olib borilayotgan tadqiqot maqsadiga muvofiq aniqlanadi. Shu bilan birga, har bir bosqichda aynan qaysi kompetensiyalarni rivojlantirish zarurligi belgilab olinadi. Turli kompetensiya turlarining umumiy jihatlari hamda ularni bir-biridan farqlovchi xususiyatlari o'rganilib, ta'lim yo'nalishlarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, har bir yo'nalish uchun mos maxsus kompetensiyalar ro'yxatini shakllantirish talab etiladi. Shu o'rinda kompetentliklarni ikki turga ajratish mumkin:

Kompetentliklarning ikki turi:




o'quv fani yoki ta'lim yo'nalishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan kompetentliklar – ixtisoslikka oid maxsus kompetentliklar



barcha ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ham muhim hisoblanadigan kompetentliklar – umumiy kompetentliklar

1,1-rasm. Kompetentlikning asosiy turlari

Umumiy kompetensiyalar ayrim hollarda “transversal ko'nikmalar” deb ham yuritiladi. Bular ko'plab yoki deyarli barcha fan yo'nalishlariga tegishli bo'lgan umumiy ko'nikmalar sifatida qaraladi. Ushbu turdagi kompetensiyalarning ahamiyat darajasini anglash va baholash uchun, avvalo, ularning eng muhimlarini aniqlab, alohida ro'yxatini tuzib chiqish zarur. Shu bilan birga, bu kompetensiyalarning oliy ta'lim muassasalarida talabaga xos ravishda shakllantirilayotgan kompetensiyalar bilan qanday darajada uyg'unlashuvi va mos kelishini aniqlash muhim hisoblanadi. Ta'lim jarayonlarida mavjud bo'lgan o'qitishga doir uch darajali faoliyat ya'ni “Ta'lim mazmunining uch darajali faoliyat modeli” ni quyidagicha izohlash mumkin:



1,2-rasm. Ta'lim mazmunining uch darajali faoliyat modeli

Kompetensiya zamonaviy pedagogik texnologiyalarni puxta egallashni ko'zda tutadi va bu uchta asosiy omil bilan chambarchas bog'liq:

- boshqa shaxslar bilan oqilona va madaniyatli muloqot tashkil qila olish qobiliyati;
- o'z kasbiy faoliyatiga oid zaruriy ma'lumotlarni izlab topish va ulardan foydalana olish ko'nikmasi;
- o'quv jarayoniga tegishli axborotni samarali tarzda boshqalarga yetkazish, tushuntirish va taqdim eta olish qobiliyati. Shunday qilib, professional-pedagogik kompetentlik quyidagi asosiy komponentlar bilan tavsiflanadi:

- shaxsiy-insoniy mo'ljal;
- pedagogik jarayonni tizimli idrok etish;
- o'z faoliyati sohasida mo'ljal ola bilish;
- pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirganlik.

Pedagogika, psixologiya o'qituvchisidan talab qilinadigan kompetentlik quyidagi turlarga ajratiladi:

- professor-o'qituvchining o'z bilim doirasini doimiy kengaytirib borishga intilishi, mavjud kasbiy ko'nikma va malakalarni takomillashtirishga tayyor bo'lishi, hamda zamonaviy o'zgarishlar, innovatsiyalar va yangiliklardan xabardor bo'lishi zarur;

- ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli vositalar va o'qitishga xizmat qiluvchi turli texnik jihozlardan samarali foydalana olish ko'nikmasiga ega bo'lish;

- mustaqil fikrlash, maqsadni belgilash, asosiy o'quv adabiyotlari hamda qo'shimcha manbalardan to'g'ri va ongli foydalanish orqali anglangan holda faoliyat yurita olish malakasini shakllantirish;

- tashabbus ko'rsatish bilan birga, amalga oshirgan ishlarining natijasi uchun shaxsiy javobgarlikni his eta bilish;

- dars davomida paydo bo'ladigan muammoli vaziyatlarni tahlil qila olish, ularni konstruktiv yechishga qodir bo'lish, shuningdek, tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish;

- hamkorlikda ishlash, qarama-qarshi fikrlarni tushunish, empatiya ko'rsatish, hurmat va ishonchga asoslangan ijobiy pedagogik muloqotni shakllantirish qobiliyatini egallash.

- chuqur kasbiy bilimdonlikka ega bo'lish.

Ijtimoiy bilimdonlik – dars mobaynida auditoriya bilan samarali o'zaro muomala shaklini tashkil eta olish, yoshlar bilan til topish va sog'lom ma'naviy muhitni hosil qila olish qobiliyati.

Uslubiy bilimdonlik – barcha bilimlarini, ko'rgan-kechirganlarni yoshlarga tushunarli, ravon tilda yetkaza olishi, ta'lim texnologiyasi va metodlaridan samarali foydalanishi.

Ixtisoslik bilimdonligi – o'z fani va predmeti sohasi bo'yicha chuqur va har tomonlama mukammal bilimlarga ega bo'la olishi, o'z ustida ishlash qobiliyati.

1,3-rasm. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilimdonligi va qobiliyati mezonlari

Psixologiyada ta'kidlanganidek, har bir shaxs takrorlanmasdir. Shu bilan birgalikda ta'lim jarayonning ishtirokchisi bo'lib, o'zining maqsadi, qiziqishi va shaxsiy xulqqa egadir. Ular har doimo rivojlanib zamonaviy bilimlarga ega bo'lib, o'zgarib boradigan shaxslar ya'ni talabalar bilan ishlaydi. Talaba bilan ishlashda doimiy va bir xil qolipdagi yondashuvlar yoki avvaldan shakllangan xatti-harakatlarga suyanish imkonsizdir. Shu sababli pedagog har doim yangicha fikrlab, ijodiy izlanishda bo'lishi, yangi kreativ g'oyalarni darsga tadbqiq qilishi lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyevning "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmoni. // Xalq so'zi, 2020, 5-oktabr.
2. Mualliflar jamoasi. Pedagogik atamalar lug'ati. – Toshkent, 2024.
3. Холматова З.А., Ибулаева Ю.В. Инновационная направленность педагогической деятельности. / Инновационная экономика: перспективы развития и совершенствования. №2 (7). Коканд, 2015.
4. Aliyev I.T. Pedagogik amaliyotlarni tashkil etish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. – 56b.
5. Muslimov N., Usmanbayeva M., Safarov D., Turayev A. Fundamentals of pedagogical competence and creativity. – Toshkent: Sano-standard, 2015.

Nafosat MIRVAFOYEVA,
*Jizzakh State Pedagogical University,
Department of English Philology*

THE EFFECTIVENESS OF TASK-BASED LANGUAGE TEACHING (TBLT) IN ENHANCING CRITICAL THINKING AND COMMUNICATIVE COMPETENCE OF UZBEK EFL AND ESP LEARNERS

Annotation. This paper investigates the effectiveness of Task-Based Language Teaching (TBLT) in improving both critical thinking and communicative competence among Uzbek learners of English as a Foreign Language (EFL) and English for Specific Purposes (ESP). Drawing upon communicative, constructivist, and sociocultural learning theories, the study argues that TBLT offers a powerful pedagogical framework for fostering learner-centered, cognitively engaging, and communicatively authentic classroom environments. The paper emphasizes that implementing TBLT in Uzbekistan's higher education system can enhance linguistic proficiency, problem-solving ability, and reflective learning – key components of modern academic competence.

Keywords: Task-Based Language Teaching, critical thinking, communicative competence, learner autonomy, EFL, ESP.

Annotatsiya. Ushbu maqolada vazifaga yo'naltirilgan til o'rgatish (Task-Based Language Teaching, TBLT) usulining tanqidiy fikrlash va kommunikativ kompetensiyani oshirishdagi samaradorligi o'rganiladi. Tadqiqot O'zbekistonda ingliz tilini chet tili (EFL) va maxsus maqsadlar uchun ingliz tili (ESP) sifatida o'rganayotgan talabalar misolida olib borilgan. Tadqiqot kommunikativ, konstruktiv va sotsiomadaniy nazariyalarga asoslanib, TBLT metodining o'quvchini markazga qo'ygan, interaktiv va tafakkurga yo'naltirilgan ta'lim muhitini shakllantirishdagi o'rnini ochib beradi. TBLTni O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga tatbiq etish talabalarning til kompetensiyasi, muammolarni hal etish qobiliyati va mustaqil fikrlashini sezilarli darajada rivojlantirishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: topshiriqlarni bajarish asosida til o'rgatish (TBLT), tanqidiy fikrlash, kommunikativ kompetensiya, ta'lim oluvchining avtonomiyasi, EFL, ESP.

Аннотация. В данной статье исследуется эффективность методики обучения языку на основе выполнения заданий (TBLT) в развитии критического мышления и коммуникативной компетенции узбекских студентов, обучающихся английскому языку как иностранному (EFL) и английскому языку для специальных целей (ESP). Исследование опирается на коммуникативные, конструктивистские и социокультурные теории, раскрывая роль метода TBLT в формировании ориентированной на обучающегося, интерактивной и мыслительной образовательной среды. В статье подчеркивается, что внедрение TBLT в систему высшего образования Узбекистана способствует значительному развитию языковой компетенции студентов, их способности решать проблемы и самостоятельно мыслить.

Ключевые слова: обучение языку на основе выполнения заданий (TBLT), критическое мышление, коммуникативная компетенция, автономия обучающегося, EFL, ESP.

In the contemporary era of globalization, the ability to communicate effectively in English has become an essential prerequisite for academic success, professional advancement, and intercultural interaction. For learners of English as a Foreign Language (EFL) and English for Specific Purposes (ESP) in Uzbekistan, mastering communicative competence is particularly crucial, as it directly impacts their access to international knowledge, employment opportunities, and participation in global discourse. However, traditional methods of English language instruction in Uzbekistan have often prioritized grammar translation and rote memorization over interactive and learner-centered approaches, thereby limiting students' opportunities to develop higher-order thinking skills and authentic communicative abilities. This pedagogical gap necessitates innovative methodologies that not only promote linguistic proficiency but also foster critical thinking, creativity, and problem-solving capacities among learners.

Task-Based Language Teaching (TBLT) has emerged as one of the most influential communicative approaches in second and foreign language pedagogy. Unlike traditional form-focused instruction, TBLT emphasizes meaningful interaction, real-world task performance, and learner

autonomy, thereby creating opportunities for students to engage in authentic communication. By encouraging learners to use language as a tool for problem-solving and collaboration, TBLT enhances both fluency and accuracy in communication. At the same time, the task-based framework inherently promotes critical thinking, as learners are required to analyze, evaluate, and synthesize information in order to accomplish communicative goals. This dual capacity of TBLT to improve communicative competence while cultivating higher-order thinking skills makes it a particularly relevant methodology for EFL and ESP contexts in Uzbekistan, where learners must not only master the language system but also apply it effectively in academic and professional domains.

Furthermore, the integration of TBLT in Uzbek classrooms aligns with national educational reforms aimed at modernizing teaching practices and enhancing the competitiveness of graduates in the global labor market. Current policy documents, such as the "Uzbekistan 2030 Development Strategy," emphasize the importance of innovation, critical thinking, and foreign language proficiency as key competencies for youth development. In this context, exploring the effectiveness of TBLT in enhancing both communicative competence and critical

thinking among Uzbek learners represents a timely and significant research endeavor.

Despite the growing body of international scholarship on TBLT, empirical studies focusing specifically on its impact in Central Asian EFL and ESP settings remain limited. This study, therefore, seeks to contribute to both theoretical understanding and practical application by investigating the effectiveness of TBLT in Uzbek higher education institutions. The findings are expected to provide valuable insights for language educators, curriculum designers, and policymakers in Uzbekistan, offering evidence-based recommendations for optimizing English language teaching practices in line with global standards. Language education in the 21st century demands pedagogical approaches that not only build linguistic proficiency but also cultivate higher-order thinking and effective communication. In Uzbekistan, where English serves as a tool for academic and professional advancement, traditional grammar-focused and teacher-centered methods often limit learners' opportunities for authentic communication. Task-Based Language Teaching (TBLT) has emerged as a promising methodology to address these challenges. By emphasizing learning through meaningful tasks, TBLT encourages learners to use language as a tool for problem-solving and negotiation of meaning. The integration of this approach within Uzbek higher education could play a vital role in producing graduates who are not only linguistically competent but also intellectually and communicatively agile. The foundation of TBLT lies in communicative language teaching (CLT) and constructivist theory. Scholars such as Prabhu (1987), Willis (1996), and Ellis (2003) define tasks as purposeful language activities requiring learners to achieve real-world outcomes. Unlike traditional exercises, tasks prioritize meaning over form, promoting authentic communication.

From a constructivist perspective (Piaget, 1970; Vygotsky, 1978), learners construct knowledge through interaction and experience. TBLT applies these principles by enabling students to collaboratively solve problems, make decisions, and reflect on outcomes – processes that stimulate cognitive growth.

The sociocultural dimension of TBLT emphasizes the role of collaboration and dialogue. According to Lantolf (2000), language learning is socially mediated; interaction enables learners to develop communicative competence through scaffolding and negotiation. This aligns with Vygotsky's Zone of Proximal Development (ZPD), where learners perform beyond their independent abilities with support from peers or teachers.

Critical thinking is defined as the ability to analyze, evaluate, and create new understanding based on reasoned judgment (Facione, 1990; Brookfield, 2012). Within TBLT, learners are exposed to tasks that stimulate these processes. For instance, problem-solving, information-gap, and decision-making activities require students to interpret data, assess alternatives, and justify conclusions in English. TBLT encourages reflective dialogue – learners are required to question assumptions, provide evidence, and explain reasoning, thereby engaging both linguistic and cognitive skills. This dual engagement not only deepens comprehension but also nurtures intellectual independence, a quality that is increasingly valued in academia and professional fields.

According to Hymes (1972) and Canale & Swain (1980), communicative competence includes grammatical, sociolinguistic, discourse, and strategic components. TBLT enhances these through authentic interaction. Learners use grammatical accuracy in meaning-focused contexts, adapt language to social situations, organize ideas coherently, and employ strategies to overcome communication barriers. Uzbek ESP learners, for example, can engage in simulated professional meetings, report writing, or collaborative projects – tasks that mirror real communication scenarios in business, engineering, or education. These experiences foster fluency, pragmatic awareness, and confidence in language use.

This study concludes that Task-Based Language Teaching provides an effective framework for integrating language learning with cognitive and communicative skill development. In Uzbekistan's higher education, adopting TBLT can shift the paradigm from rote memorization to inquiry-based, learner-centered education.

References

1. Brookfield S. D. Teaching for critical thinking. – San Francisco: Jossey-Bass, 2012.
2. Canale M., Swain M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. // Applied Linguistics, 1980, №1. Vol. 1. – P. 1–47.
3. Ellis R. Task-based language learning and teaching. – Oxford: Oxford University Press, 2003.
4. Facione P. A. Critical thinking: A statement of expert consensus. – Millbrae, CA: The California Academic Press, 1990.
5. Hymes D. On communicative competence. In: Pride J. B., Holmes J. (eds.) Sociolinguistics. – London: Penguin, 1972.

Gulbahor XAMIDOVA,

Jizzax davlat pedagogika universiteti maktabgacha ta'lim metodika kafedrasi dotsent v. b.

BOLALARNING INTELLEKTUAL VA IJODIY QOBILIYATLARINING PSIXOLOGIK NAZARIYASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarining psixologik nazariyalari, "intellekt" tushunchasining rivojlanish bosqichlari atroflicha ko'rib chiqiladi. Ijodkorlikning mohiyati, uni rag'batlantirish mexanizmlari, bolalarni har tomonlama rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: intellekt, ijodkorlik, bolalar psixologiyasi, kognitiv rivojlanish, psixologik nazariya.

Annotation. This article examines in detail the psychological theories of children's intellectual and creative abilities, the stages of development of the concept of "intellect". The essence of creativity, the mechanisms of its stimulation, and its significance in the comprehensive development of children are analyzed.

Keywords: intellect, creativity, child psychology, cognitive development, psychological theory.

Аннотация. В данной статье подробно рассматриваются психологические теории интеллектуальных и творческих способностей детей, этапы развития понятия «интеллект». Анализируется сущность творчества, механизмы его стимулирования, значение во всестороннем развитии детей.

Ключевые слова: интеллект, творчество, детская психология, когнитивное развитие, психологическая теория.

Bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini chuqur tushunish uchun psixologiyadagi bir qator fundamental nazariyalarni bilish muhimdir. Bu nazariyalar bolalar qanday qilib fikrlashni, dunyoni idrok etishni, bilim olishni va yangi narsalarni yaratishni o'rganishlariga oid turli xil yondashuvlarni taklif etadi. Vygotskiy bolaning intellektual rivojlanishini shaxsning ijtimoiy-madaniy muhit bilan o'zaro ta'siri natijasi deb biladi. Uning fikricha, yaqin rivojlanish zonasi bolaning mustaqil ravishda qila oladigan ishlari va kattalar yordamida yoki ko'proq bilimdon tengdoshlari bilan hamkorlikda bajara oladigan ishlari o'rtasidagi farqdir. Aynan shu zonada bolaning intellektual va ijodiy salohiyati maksimal darajada ochiladi. O'yin orqali bola abstrakt fikrlashga o'rganadi, chunki o'yinda narsalar o'zining asl ma'nosidan ajratilib, boshqa ma'no kasb etishi mumkin. (masalan, tayoqcha ot bo'lishi). Bu ijodiy tasavvur va ramziy fikrlashni rivojlantiradi.

Vygotskiy nutqni fikrlashning asosi deb biladi. Nutq orqali bola o'zining ichki dunyosini tartibga soladi, rejalashtiradi va muammolarni hal qiladi. Nutqning rivojlanishi intellektual va ijodiy qobiliyatlarning o'sishi bilan chambarchas bog'liq. Piaget bolaning aqliy rivojlanishini, dunyoni bilish jarayonini bosqichma-bosqich yuzaga keladigan jarayon sifatida tushuntiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar, asosan, uning operatsiyadan oldingi bosqichida (2 yoshdan 7 yoshgacha) bo'ladilar. Bu bosqichning asosiy xususiyatlari va ularning ijodiy-intellektual rivojlanishga ta'siri quyidagicha:

- Egotsentrizmda bola dunyoni faqat o'z nuqtayi nazaridan ko'radi. Bu uning ijodiy fikrlashida o'ziga xoslikni va originallikni berishi mumkin, ammo boshqalar bilan hamkorlikda fikrlashda qiyinchilik tug'diradi.
- Simvolik fikrlashda bola narsalarni ramzlar bilan almashtira oladi. Masalan, qo'g'irchoqni inson, tayoqchani qilich sifatida ishlatishi mumkin. Bu ijodiy tasavvur va rolli o'yinlar uchun muhim asosdir.
- Animizmmda bola jonsiz narsalarga ham jon ato etadi. Bu uning ijodiy hikoyalari va ertaklarida o'z aksini topadi, badiiy ijodkorlikni rag'batlantiradi.

- Markazlashishda bola bir vaqtning o'zida faqat bitta xususiyatga e'tibor qarata oladi. Bu uning muammolarni yechishda cheklovlar yaratadi, ammo diqqatni jamlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun imkoniyatdir. Tafakkur operatsiyalarining shakllanishi bolalar taqqoslash, tasniflash (oddiy belgilari bo'yicha) kabi elementar aqliy operatsiyalarni o'rganishni boshlaydilar.

Bruner Vygotskiy g'oyalariga asosanib, bolaning bilim olish jarayonini uchta asosiy usulda ifodalaydi Birinchi-si – **harakatli usul** bilimlar harakatlar orqali o'zlashtiriladi. Bola narsalarni manipulyatsiya qilish, ularni sinab ko'rish orqali o'rganadi. Bu intellektual va ijodiy muammolarni amaliy yechish uchun muhimdir. Ikkinchi – **obrazli usul** bilimlar ko'rgazmali obrazlar, rasmlar, sxemalar orqali o'zlashtiriladi. Bu bolaning tasavvurini va vizual tafakkurini rivojlantiradi, ijodiy faoliyat (rasm chizish, loydan yasash) uchun asos bo'ladi. Uchinchi – ramziy usul bilimlari so'zlar, raqamlar, belgilar kabi ramzlar orqali o'zlashtiriladi. Bu abstrakt fikrlashni, nutqiy mantiqni va muammolarni ramziy shaklda hal qilishni rivojlantiradi. Bu uch usul bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bolaning yoshi ulg'aygan sari harakatli va obrazli usullardan ramziy usulga o'tish kuzatiladi.

Elkonin nazariyasi Vygotskiy g'oyalarini davom ettirib, har bir yosh bosqichi uchun o'ziga xos yetakchi faoliyatni belgilaydi. Maktabgacha yoshda bu rolli o'yindir. Rolli o'yinning ahamiyati bolalar o'yinda kattalarning faoliyatini modellashtiradi, turli rollarni ijro etadi. Bu ularning ijtimoiy rollarni tushunishiga, muloqot ko'nikmalarini egallashiga, shuningdek, ijodiy tasavvurini, fantaziyasini va ixtiyoriy xatti-harakatlarini rivojlantirishga yordam beradi. O'yin orqali bola o'zining intellektual va ijodiy salohiyatini kashf etadi va namoyon qiladi.

Qator tadqiqotchilar, jumladan, E.P.Torrens va J.Gilford ijodkorlikni (kreativlikni) alohida qobiliyat sifatida o'rganishgan. Ijodkorlikning tarkibiy qismlarini quyidagi komponentlar orqali tushuntiriladilar:

– ravonlik ma'lum vaqt ichida ko'plab g'oyalarni ishlab chiqarish qobiliyati;

– moslashuvchanlik turli g'oyaviy yo'nalishlarda fikrlay olish, bir fikrdan boshqasiga oson o'tish qobiliyati;

– originallik noyob, g'ayrioddiy va boshqalarnikiga o'xshamaydigan g'oyalarni yaratish qobiliyati;

– ishlanma oddiy g'oyani batafsil ishlab chiqish, unga qo'shimcha tafsilotlar qo'shish qobiliyati.

Bu nazariyalari ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish, bolalarni nostandart yechimlar topishga va o'z g'oyalarni erkin ifodalashga undash muhimligini ko'rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini tushunish va rivojlantirish – bu har bir ota-ona va tarbiyachining asosiy vazifalaridan biridir. Bu davr bolaning kelajakdagi shaxsiyatining poydevori qo'yiladigan, uning dunyoni idrok etishi, fikrlashi va ijodiy salohiyatini shakllantiradigan eng muhim bosqich hisoblanadi. Intellektual qobiliyatlar bolaning axborotni qabul qilish, qayta ishlash, tahlil qilish va undan xulosa chiqarish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Maktabgacha yoshda bu qobiliyatlar asosan quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Idrok bola atrof-muhitdagi narsalar va hodisalarni sezgi organlari orqali (ko'rish, eshitish, tuyish, hidlash, ta'm bilish) idrok etadi. U predmetlarning rangi, shakli, kattaligi, yuzasi kabi xususiyatlarini farqlashni o'rganadi. Rivojlantirish sensomotor o'yinlar, turli teksturali materiallar bilan ishlash, ranglar va shakllarni nomlash mashg'ulotlari.

2. Diqqat – bolaning ma'lum bir predmetga yoki faoliyatga e'tiborini jamlay olishidir. Dastlab ixtiyorsiz bo'lsa-da, yosh ulg'aygan sari ixtiyoriy diqqat shakllanadi. Rivojlantirish “Qani, nima yo'qolgan?”, “Nimani eshitding?” kabi diqqatni jamlashni talab qiluvchi o'yinlar.

3. Xotira bolalar xotiraning turli turlaridan (harakatli, obrazli, hissiy) foydalanadilar. Ular ko'rgan, eshitgan va qilgan narsalarini eslab qolishga harakat qiladi. Rivojlantirish she'rlar va qo'shiqlarni yod olish, ertaklarni qayta hikoya qilish, “Zanjir” o'yinlari.

4. Tafakkur maktabgacha yoshdagi bolalarda ko'rgazmali-harakatli va ko'rgazmali-obrazli tafakkur yetakchilik qiladi. Ular narsalarni amalda sinab ko'rish va rasmlar orqali fikrlashadi. Mantiqiy fikrlashning oddiy asoslari shakllana boshlaydi (taqqoslash, tasniflash). Rivojlantirish mantiqiy o'yinlar, topishmoqlar, “Nima uchun?” savollarini berish, predmetlarni belgilari bo'yicha guruhlash.

5. Nutq intellektual rivojlanishning muhim ko'rsatkichidir. Bola o'z fikrlarini ifodalash, boshqalarni tushunish orqali bilimlarni o'zlashtiradi. Rivojlantirish kitob o'qib berish, suhbatlar uyushtirish, yangi so'zlarni o'rgatish, ertaklar tuzish.

Rivojlantirish mexanizmlari bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini samarali rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik mexanizmlardan foydalanish muhimdir. Jumladan, o'yin faoliyati bolaning yetakchi faoliyati bo'lib, uning orqali u dunyoni o'rganadi, bilim oladi, o'zini ifoda etadi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Rolli, didaktik, harakatli va qurilish o'yinlari ayniqsa foydalidir. Rivojlantiruvchi muhit yaratish bolaning erkin harakatlanishi, tadqiqotlar o'tkazishi, turli materiallar bilan ishlashi uchun sharoitlar yaratish. Bu turli xil o'yinchoqlar, konstruktorlar, badiiy materiallar (bo'yoq, loy, qog'oz), kitoblar va tabiat burchaklarini o'z ichiga oladi. Muammoli vaziyatlarni yaratish bolani fikrlashga undaydigan, tayyor javobi bo'lmagan kichik muammoli savollar yoki vaziyatlar qo'yish. Bu uning tafakkurini faollashtiradi va yangi yechimlar topishga undaydi. Eksperiment va tadqiqot bolalarni turli tabiiy hodisalarni kuzatishga, oddiy tajribalar o'tkazishga (masalan, suv va qum bilan), savollar berishga va ularga javob topishga o'rgatish. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv har bir bolaning individual qiziqishlari va imkoniyatlarini inobatga olgan holda mashg'ulotlarni tashkil etish. Ularning kichik yutuqlarini ham qayd etish va rag'batlantirish. Bolaning tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash ularning g'oyalarni tinglash, ularni amalga oshirishga yordam berish va o'z xatolaridan o'rganishlariga imkon berish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini tushunish va rivojlantirishda ushbu psixologik nazariyalari asosiy yo'naltiruvchi bo'lib xizmat qiladi. Ular bolaning rivojlanishi murakkab, ko'p qirrali jarayon ekanligini, ijtimoiy muloqot, o'yin faoliyati, shuningdek, tabiiy qiziquvchanlik va harakat orqali kechishini ko'rsatadi. Tarbiyachilar va ota-onalar ushbu nazariyalarga tayanib, bolalarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, ularning to'laqonli rivojlanishi uchun eng maqbul sharoitlarni yaratishlari lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini tushunish ularning tabiiy rivojlanish qonuniyatlarini anglashni talab qiladi. Ularni rivojlantirish esa bolaning faoliyatiga asoslangan, qiziqarli va erkin muhitni yaratish orqali amalga oshiriladi. Bu, o'z navbatida, kelajakda mustaqil fikrlovchi, tashabbuskor va ijodkor shaxslarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'limda bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish murakkab, ammo juda muhim jarayon. Yuqorida sanab o'tilgan pedagogik yondashuvlar (shaxsga yo'naltirilganlik, faoliyatga yo'naltirilganlik, integratsiya, innovatsion texnologiyalar va rivojlantiruvchi muhit) bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiiq etish mexanizmlarini taqdim etadi. Ushbu yondashuvlarni samarali qo'llash orqali biz har bir bolaning noyob intellektual va ijodiy salohiyatini ochib, ularni kelajakdagi hayotga va o'qishga to'laqonli tayyorlay olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Robert J.S. Successful Intelligence. – New York: Plume, 2000.
2. Carol S. Dweck. Mindset: The New Psychology of Success. – New York, 2006.
3. Teresa M. Amabile. Creativity in Context. – Boulder: Westview Press, 2000.
4. Mark A. Runco. Creativity: Theories and Themes: Research, Development, and Practice. – Amsterdam: Academic Press, 2007.
5. Howard G. Multiple Intelligences. – New York: Basic Books, 2000.
6. Mihaly C. Flow: The Psychology of Optimal Experience. – New York, 2000.

Nurkeldi JARASBAYEV,

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti gumanitar fanlar fakulteti
o'zbek tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi*

QOZOQ TILINI O'QITISH JARAYONINI MODELLASHTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada qozoq tilini o'qitish jarayonini samarali tashkil etish va modellashtirishda qo'llanilayotgan innovatsion pedagogik yondashuvlar, metodologik asoslar va ularning ta'lim sifatiga ta'siri ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilindi, amaliy samaradorligi ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: pedagogik innovatsiya, kasbiy-mazmunli yondashuv, individual yo'naltirilgan yondashuv, modellashtirish, ta'lim texnologiyalari, metodologiya.

Annotatsiya. This article scientifically and methodologically analyzes innovative pedagogical approaches, the methodological foundations used in the effective organization and modeling of the Kazakh language teaching process, and their impact on the quality of education, demonstrating practical effectiveness.

Keywords: pedagogical innovation, professional-content approach, individual-oriented approach, modeling, educational technologies, methodology.

Аннотация. В данной статье научно-методически проанализированы инновационные педагогические подходы, методологические основы, используемые в эффективной организации и моделировании процесса обучения казахскому языку, и их влияние на качество образования, показана практическая эффективность.

Ключевые слова: педагогическая инновация, профессионально-содержательный подход, индивидуально-ориентированный подход, моделирование, образовательные технологии, методология.

Hozirgi davrda pedagogik jarayonlarni zamonaviy talablarga muvofiq samarali tashkil etish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash va ta'lim jarayonini sifat jihatidan yaxshilash masalasi tobora dolzarb tus olmoqda. Ayniqsa, qozoq tilini samarali o'qitish va uning ta'lim metodikasini takomillashtirish bugungi kunning eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Global pedagogik innovatsiyalar ta'lim sifatini oshirishda samarali vosita ekanligini dunyo tajribasi tasdiqlamoqda.

Bugungi kunda pedagogik jarayonlarda innovatsion texnologiyalar va zamonaviy metodikalardan keng foydalanish talab etilmoqda. Bu esa ta'lim jarayonini qiziqarli, samarali va talabalar uchun tushunarli qilishga imkon beradi. Jumladan, qozoq tilini o'qitishda interaktiv ta'lim usullari, multimediya texnologiyalari, elektron resurslar va mobil ta'lim platformalaridan foydalanish o'quvchilar bilimini yanada chuqurlashtirish, ularning til kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi [1].

Pedagogik innovatsiyalarni qo'llash orqali o'qitish jarayoni an'anaviy dars shakllaridan ko'ra ancha samaraliroq bo'lib, talabalar faoliyatini oshirishga yordam beradi. Innovatsion metodikalar o'quvchilarning bilim olish jarayonida mustaqil izlanishlarini rag'batlantirib, ularning ijodiy fikrlash va muammoli vaziyatlarni yechish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bundan tashqari,

innovatsion texnologiyalar yordamida til o'rganish jarayoni nafaqat nazariy, balki amaliy bilim va ko'nikmalar bilan ham boyitiladi. Qozoq tilini o'qitish metodologiyasi pedagogika, psixologiya va lingvistika fanlarining o'zaro integratsiyalashuvi natijasida shakllanadi va rivojlanadi. Ushbu yo'nalish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar keng qamrovli va tizimli xarakterga ega bo'lib, o'qitish jarayonining sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

L.A.Baynazarova qozoq tilini o'qitish metodikasi bo'yicha keng qamrovli tadqiqot olib borib, bu borada mavjud pedagogik va lingvistik vositalarni chuqur tahlil qiladi. Olim tomonidan qozoq tilini samarali o'qitish uchun zarur bo'lgan o'quv metodlari, jumladan interaktiv va kognitiv yondashuvlar tahlil qilinadi hamda o'quv jarayonida qo'llaniladigan turli xil pedagogik metodlarning afzalliklari va kamchiliklari ko'rsatib beriladi. Shuningdek, qozoq tili metodikasida qo'llanilishi mumkin bo'lgan didaktik materiallar va texnologiyalar haqida batafsil tavsiyalar berib o'tgan [2].

N.A.Jarasbaev o'z ilmiy ishida talabalar kognitiv faoliyatini faollashtirishning zarurligini pedagogik va psixologik jihatdan asoslaydi. Uning tadqiqotida qozoq tili va adabiyotini o'qitish jarayonida talabalar faoliyatini faollashtirishning pedagogik va psixologik mexanizmlari ochib berilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, talabalar bilim

olish jarayonida kognitiv faollikni oshirish orqali ularning bilim sifati va amaliy kompetensiyalarining rivojlanishiga erishish mumkinligini takidlagan [4].

A.B.Qutibayeva qozoq tilini o'qitishda talabalarning kognitiv faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan metodologik asoslar va pedagogik texnologiyalarni tahlil qilgan. Olimning fikricha, qozoq tilini samarali o'rgatish uchun kognitiv yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda interaktiv metodlar, multimediya vositalari va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi o'quvchilarning tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi va bilim olish jarayonini samaraliroq qiladi [3].

Mazkur tadqiqot metodologik asos sifatida adabiyotlarni tizimli tahlil qilish, pedagogik innovatsiyalar va texnologiyalarni chuqur o'rganish hamda pedagogik eksperimentlar orqali olingan natijalarni umumlashtirish va tizimlashtirish usullaridan foydalangan holda olib borildi. Bu esa, o'qitish jarayonidagi mavjud muammolarni aniq aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqishga imkon berdi. Ushbu tadqiqot natijasida qozoq tilini o'qitish jarayonida quyidagi innovatsion yondashuvlarning samaradorligi ilmiy-metodik jihatdan asoslandi:

1. Kasbiy-mazmunli yondashuv talabalarning kela-jakdagi kasbiy faoliyatlariga moslashgan holda tilni o'rganishni ta'minlaydi. Ushbu yondashuv talabalarni real hayotiy vaziyatlarda til vositalaridan samarali foydalanishga yo'naltiradi. Masalan, pedagogik va psixologik tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, kasbiy-mazmunli yondashuv orqali talabalar nafaqat til bilimlarini yaxshiroq o'zlashtiradilar, balki ularni amaliy faoliyatda qo'llash ko'nikmalariga ham ega bo'ladilar. Shu bilan birga, mazkur yondashuv orqali talabalar kasbiy terminologiyani o'zlashtiradilar va amaliy muloqot jarayonlarida faol ishtirok etadilar [5].

2. Individual-yo'naltirilgan yondashuv har bir talabaning shaxsiy imkoniyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, maxsus moslashgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv pedagogik tajribalarda sinab ko'rilib, talabalarning motivatsiyasi va bilim olish samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini berdi. Individual-yo'naltirilgan yondashuv doirasida talabalar o'zlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlay oladilar, bu esa o'quv jarayonining individuallashtirilgan shakllarini yaratishga imkon beradi.

3. Tartibga solish-nazorat yondashuvi qozoq tilini o'qitish jarayonida ta'lim sifatini monitoring qilish, nazorat qilish va baholash mexanizmlarini joriy etishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv talabalar va o'qituvchilar uchun doimiy qayta aloqa va baholash tizimlarini yaratishga imkon beradi. Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, tartibga solish-nazorat yondashuvi orqali o'quvchilarning bilim darajasini samarali monitoring qilish va shu asosda o'quv dasturlarini doimiy ravishda takomillashtirib borish mumkin. Bu esa ta'lim jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'taradi.

Yuqoridagi yondashuvlarning kompleks tarzda qo'llanilishi talabalar bilimini chuqurlashtirish, ularning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish hamda qozoq tilini o'rganish jarayonini yanada samaraliroq qilish imkonini beradi. Tadqiqot jarayonida qozoq tilini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion usullarni qo'llashning dolzarbligi va samaradorligi ilmiy asoslandi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari, jumladan, interaktiv texnologiyalar, elektron vositalar, multimediya resurslari, interaktiv o'yinlar va simulyatsiyalar qozoq tilini o'rganish jarayonida yuqori samaradorlik ko'rsatdi. Ushbu usullar talabalarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish bilan birga, ularning til bilimlarini amaliy jihatdan chuqurroq egallashlariga yordam beradi. "Zamonaviy interaktiv texnologiyalar orqali talabalar til bilimlarini nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy faoliyat orqali ham o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Elektron vositalardan foydalanish, jumladan elektron lug'atlar va ta'lim platformalari, talabalarga mustaqil ravishda til ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Interaktiv o'yinlar va simulyatsiyalar esa o'quv jarayonini yanada jonli va qiziqarli qiladi hamda talabalar orasida sog'lom raqobat va hamkorlik muhitini shakllantiradi" [6].

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, pedagogik jarayonda zamonaviy texnologiyalar va interaktiv usullarni keng qo'llash talabalar kognitiv faoliyatini sezilarli darajada rivojlantiradi. Talabalar nafaqat yangi bilimlarni egallaydilar, balki ularni amaliy vaziyatlarda qo'llash qobiliyatlarini ham rivojlantiradilar. Shuningdek, kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish borasida ham interaktiv metodlarning o'rni beqiyos ekanligi isbotlandi. Umuman olganda, qozoq tilini samarali o'qitishda zamonaviy texnologiyalar va pedagogik innovatsiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi va bu usullarning o'quv jarayoniga joriy qilinishi ta'lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Kelgusida ushbu yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlar va metodik yangiliklar ta'lim tizimida yanada keng qo'llanilishi kerak.

Qozoq tilini o'qitish jarayonida innovatsion model-lashtirish yondashuvlarini qo'llash ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Pedagogik innovatsiyalar va zamonaviy ta'lim texnologiyalarining qo'llanilishi talabalar bilimini chuqurlashtirib, kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, interaktiv metodlar, elektron vositalar va multimediya resurslari talabalarni faol ishtirokini rag'batlantiradi va ularning til o'rganish jarayoniga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi. Shu bois, qozoq tilini yanada samarali o'qitish uchun innovatsion pedagogik usullarni tizimli ravishda keng joriy qilish zarurati dolzarbdir. Kelajak tadqiqotlarda ushbu yo'nalishdagi metodologik yondashuvlarni takomillashtirish va ularni keng ko'lamda amaliyotga tadbiq qilish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Paxriddinov F. Ta'lim jarayonini modellashtirishga innovatsion va pedagogik yondashish. // Научный импульс, 2023, №7(100), – B. 92–95.
2. Байназарова Л.А. Қазақ тілін оқыту әдістемесінің өзекті мәселелері. Шымкент, 2022. – B. 481–484.
3. Qutibayeva A.B. Talabalarning qozoq tili va adabiyotini o'qitishdagi kognitiv faoliyatini rivojlantirish. // Экономика и социум, 2022, №10 (101). – B. 92–95.
4. Jarasbaev N.A. Qozoq tili va adabiyotini o'qitishda talabalar kognitiv faoliyatni faollashtirish ta'limning muhim omilidir. Academic Research, 2021. – B. 1174–1177.
5. Айтымукашова А.А. Қазақ тілін оқытудың методологиялық негіздері. Өскемен, 2024.
6. Raximjonov K.A. Qozoq tilidagi innovatsion tashabbuslar. // Ta'lim, 2015, №2.

Shahodat NOROVA,

*Toshkent davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi,
filologiya fanalri bo'yicha falsafa doktori*

BADIIY MATNDA SINTAKTIK BIRLIKLARNING O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Asqad Muxtorning “Chinor” romanida qo'llanilgan sintaktik vositalar, xususan, takror va paranteza hodisalari tahlil qilinadi. Mazkur birliklarning kompozitsion, semantik va stilistik jihatdan qanday vazifalarni bajarayotgani ko'rsatilib, ular orqali asar mazmun-mohiyatini yoritishda yozuvchining badiiy mahorati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: badiiy matn, takror, sintaktik birlik, paranteza, pozitsion tamoyil, mikrosintaksis.

Annotation. This article analyzes the syntactic devices used in Asqad Muxtor's novel “Chinor”, particularly the phenomena of repetition and insertion. The compositional, semantic, and stylistic functions of these units are shown, and the writer's artistic skill in illuminating the content of the work is revealed.

Keywords: literary text, repetition, syntactic unit, paranteze, positional principle, microsyntax.

Аннотация. В данной статье анализируются синтаксические средства, используемые в романе Аскада Мухтара «Чинор», в частности, явления повторения и вставки. Показаны композиционные, семантические и стилистические функции этих единиц, а также раскрыто художественное мастерство писателя в освещении содержания произведения.

Ключевые слова: художественный текст, повтор, синтаксическая единица, парантеза, позиционный принцип, микросинтаксис.

Badiiy asarlarda eng ko'p ishlatiladigan hodisalardan biri takroridir. Takrorlarni so'z ustasining quroli sifatidagi o'ziga xosligiga birinchi bo'lib ko'hna Yunoniston notiqalari ahamiyat qaratishgan. Rus tilshunosligida takrorlarni tasnif etish bilan L.M.Lomonosov shug'ullangan. U “Chiroyli so'zlash bo'yicha ko'rsatmalar” asarida takrorlarni nutq ta'sirchanligining asosiy figurasi sifatida ko'rsatib o'tgan [1].

Takror stilistik vosita sifatida she'riyat va prozada keng foydalanilgan. O'tgan asrning 20-yillarida V.M.Jirmunskiy uni she'riy til vositasi sifatida qo'llagan va she'riy kompozitsiyalardan deb hisoblagan. Rus tilshunoslari: Y.M.Galkina-Fedoruk, I.M.Astafyeva, N.T.Golovkinalar takrorni sintaksisning ekspressiv vositasi deb ta'kidlaydilar. Bu borada tilshunoslarning qarashlari turlicha. Xususan, I.V.Arnoldning fikricha, “takrorlar muallifning maqsadini amalga oshirish uchun maqsadga muvofiq holda har bir so'zni takrorlash vositasi hisoblanadi” [2].

O'zbek tilshunosligida ham takrorning badiiy matn tilidagi o'rni, stilistik, fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari haqida bir qancha tadqiqot ishlari olib borilgan. S.Karimovning “Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari” kitobining “Badiiy adabiyot tilida uslubiy figuralar” bobida “takrorning o'ttizga yaqin, masalan, alliteratsiya, anafora kabi turlarining mavjudligi badiiy uslubda ifoda-tasvir imkoniyatlarining naqadar kengligidan

dalolat beradi” [3]. M.Yo'ldoshevning “Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari” kitobida takrorning qo'llanishiga, takrorlanuvchi birlikning qaysi turkumga mansubligiga, sintaktik tabiatiga, takror birliklarning joylashish tartibiga, o'rtadagi masofasiga e'tibor qaratilgan, ma'lum bir fikrning turli shakllarda takrorlanishiga ko'ra turlari mavjudligi hamda takrorning matn tuzilishida uslubiy vazifa bajarishi ta'kidlangan [4]. D.Shodiyevaning “Muhammad Yusuf she'riyati lingvopoetikasi” nomli tadqiqot ishining 2-bobi “Muhammad Yusuf she'rlarida takrorning lingvopoetik xususiyatlari” deb nomlangan [5]. Unda shoir she'rlarida qo'llangan takrorlarning lingvopoetik xususiyati izohlangan.

Nasrda takrorlanuvchi so'zlarning bir necha vazifasi bo'ladi. Ular ichida eng ko'p murojaat qilinadigani dialogik nutqda izohlanishi, kengroq yoritilishi kerak bo'lgan so'z va jumalardir. Masalan:

– U yerlar ham begona emas, ota, – dedi Orif aka.

– To'g'ri aytasan, begona emas. Ammo bu yerlarchi, begona ekanmi? Kimga begona ekan? Cho'ldan kelganlar taxta urilgan eshiklarni, ko'zi bekilgan buloqlarni, kul bosgan uzumlarni ko'rib, yig'lab qaytib ketyapti. Ming xazina topsa ham, odam ko'ngilchan bo'ladi, bolam. Faqat xazina boylik emas, mehr ham boylik. Odam ko'zining quvongani ham boylik.

1. Ma'qullash, darak, tasdiq: *"To'g'ri aytasan, begona emas"*.

2. Qiyosga asoslangan ritorik so'roq: *"u yerlar", "bu yerlar"*.

3. *"Begona emas"* orqali begona bo'lmagan hudud va uning egasini aniqlash nazarda tutilgan.

Kontekstda vertikal va gorizontal joylashuvga ko'ra bunday takroriy birliklarning qo'llanishi dialogning mazmun-mohiyatini keng, atroflicha yoritishga xizmat qilgan. Ayniqsa, so'roq gap qurilishi so'z ma'nosining ifoda ko'lamini tasavvur qilish imkonini bergan. *Boyluk* so'zi ham uch marta qaytariladi – birinchisi *emas* to'liqsiz fe'li bilan, ikkinchisi va uchinchisi *ham* ta'kid yuklamasi bilan. Birinchisi inkor, keyingilari kuchli tasdiqni ifodalaydi. Birinchisi moddiy, keyingilari ma'naviy qadriyat. Ta'kid yuklamasi ma'naviyatning moddiyatdan ustunligini ta'kidlashga xizmat qilgan.

Orif akaning nutqida keltirilgan *begona emas* birligi Ochil buva nutqida uch o'rinda – birinchisida aynan *"begona emas"*, ikkinchi va uchinchisida ritorik so'roq shaklida qaytarilgan. *Begona emas* birikmasi ota nutqida ta'kidlanayapti. Keyin esa *"begona emas"*ning subyektiga zid hudud *"bu yerlar"* begona ekanmi tarzda ritorik so'roq berilyapti. Demak, *"yer"*ning begona yoki begona emasligi darak va so'roq shaklidagi jumlar orqali qayta izohlanyapti. Bundan tashqari, uning egasi ham so'roq ostiga olinayapti. Ya'ni Orif aka otasiga *"u yerlar ham begona emas"* der ekan, aslida *"bu yer ham begona emas, u yer ham begona emas"* degan fikrni ta'kidlayapti.

Nazarov yelkasini qisdi. Orif aka davom etdi.

– So'ngra bu yerda, istirohat bog'ida, shu shiorga jiddiy e'tibor bergan odam yonidagi sevgilisiga aytadigan gapini aytolmay qoladi-ku? Demak, jiddiy e'tibor berish shart emas, shunchaki bezak...

Nazarov bu gapga qo'shilmaganini bildirib, hazillashmang degandek iljaydi.

– Yo'q, yo'q, nega, **bezak, bezak!** Buni endi hamma shunday deb biladi. O'z gazetangizda shunday deb yozyapsiz: *"Tuman klubining peshtoqi shior va chaqiriqlar bilan bezatilgan edi"*.

– Shundaymi?

– Ha, tadbir oldidan...

– Demak, **bezak**. Chunki shior va chaqiriqlar o'z ma'nosini yo'qotib qo'yayapti. Shuning uchun undagi *"keng tatbiqlar"*ga ham e'tibor bermay qo'yganimiz. Shuning uchun ularni istagan joyga yozib osaveramiz. Buni biz o'zimiz qilyapmiz. Urush vaqtidagi *"Qasos ol!"* degan plakat yodingizdami?

– Ha, ona surati solingan bo'lar edi...

– Ha, ona surati. U Vatan nomidan xuddi ko'zingizga qarab xitob qilar, sizdan aniq javob kutar, esingizni joyiga keltirar edi.

– Ha!

– Siz o'sha plakat qoqilgan joyni *"chaqiriqlar bilan bezatilgan"* deb ayta olarmidingiz?

Bu parchada *bezak* so'zi bir necha o'rinda takrorlangan. Orif aka jamiyatda quruq shiorbozlikning avj olishiga qarshi fikrlarni *"safсата"* deyishi mumkin edi. Biroq davr bunga yo'l qo'ymasligi aniq. Shuning uchun *bezak* so'zini ishlatadi. Bu o'rinda *bezak* salbiy mazmunga xoslangan muvaqqat so'zdir. Qahramon Nazarov *"hazillashmang"* degandek iljayganidan so'ng, Orif aka o'z nutqini tahrirlaydi. *Bezak* so'zining salbiy ma'no ifodalay boshlaganidan hushyor tortadi va ijobiy ma'noda qo'llanganiga dalil qidira boshlaydi. Asarda bu holat *"Yo'q, yo'q, nega, bezak, bezak! – Yo'q, yo'q, nega, bezak, bezak! Buni endi hamma shunday deb biladi. O'z gazetangizda..."* tarzida ifodalangan. *Bezak* so'zida salbiy ma'no sezilgani uchun bezatilgan tarzda sifatdoshga aylantirilgan. Bunda to'liq ijobiy ma'no anglashiladi va mazkur so'zning *bezatilgan* tarzda qo'llanishi qahramon nutqidagi *"siyosiy xatoni"* tuzatishga xizmat qilgan.

Asardagi peyzaj tasvirida ketma-ket bir xil tarzda *dasht, cho'l* so'zlarining takrorlanishi birxillikni va zerikarli manzarani ta'kidlashga xizmat qilgan. Bunda tinish belgilarining ham alohida o'rni bor. Masalan:

– Komissiyamisiz, aka, yozing. O'tgan safar ham bittasiga ancha gap aytuvdim, muxbir ekan, gazetaga hamma gapimning teskarisini yozib chiqdi. Yozing siz ham! Lekin bir narsani ayting: **bugun – dasht, shamol, ish; ertaga – dasht, shamol, ish; indinga – dasht, shamol, ish...** Bu nima, yashash shuning o'zimi? Keyin nima bo'ladi, xo'sh?...

Dasht, shamol, ish so'zlarining temporal birliklar bilan takrorlanishi zamonning har qanday kesimida makon, hodisaning va insoniy faoliyatning o'zgarmay qolishiga ishora qiladi. Bu esa rivojlanmasdan, taraqqiy etmasdan bir joyda to'xtab turish mazmuni ifodalanishiga xizmat qilgan. So'zlardagi shovqinli sirg'aluvchi *sh* tovushining takrori ham muhitdagi umumiy shovqinga ishora qiladi. Nasriy asarda takror birliklarning o'rni nazmdagidek yaqqol sezilmasligi mumkin, biroq matnning tarkibiy tuzilmasi yozuvchining umumiy maqsadi va qahramonlar nutqi inobatga olinganda, takroriy birliklarning poetik vazifasi sezilib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yuldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent, 2007. – 98 b.
2. Shodiyeva D. Muhammad Yusuf she'riyati lingvopoetikasi. – Toshkent, 2007. – 98 b.
3. Арнольд И.В. Стилистика. Современный английский язык. М.: Наука, 2006. – 384 с.
4. Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti, 1994. – B. 44.

Joxonmirzo BOBOXUJAYEV,
Guliston davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

DEONTOLOGIK QARASHLARNING TARIXI VA ZAMONAVIY PEDAGOGIKADAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqola pedagogik jarayonda deontologik qarashlarning ahamiyatini tahlil qiladi. Deontologiya axloqiy prinsiplar va majburiyatlarga asoslangan yondashuv bo'lib, o'qituvchining kasbiy faoliyatidagi axloqiy mas'uliyatini ta'kidlaydi. Maqolada deontologik tamoyillar o'qituvchi va talaba o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda, kasbiy etikani shakllantirishda va ta'lim sifatini oshirishda qanday rol o'ynashi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: deontologiya, axloq, ijodiy takomillashuv, obyektiv dunyoqarash, deontologiya prinsiplari, pedagogic etika, pedagogik kompetentlik, professional kompetentlik, kasbiy etika.

Annotation. This article analyzes the significance of deontological perspectives in the pedagogical process. Deontology is an approach based on moral principles and obligations, emphasizing the ethical responsibility in a teacher's professional activity. The article examines the role of deontological principles in regulating teacher-student relationships, shaping professional ethics, and improving the quality of education within educational settings.

Keywords: deontology, morality, creative development, objective worldview, deontological principles, pedagogical ethics, pedagogical competence, professional competence, professional ethics.

Аннотация. В данной статье анализируется значение деонтологических взглядов в педагогическом процессе. Деонтология — это подход, основанный на моральных принципах и профессиональных обязанностях, подчёркивающий этическую ответственность преподавателя в его профессиональной деятельности. В статье рассматривается роль деонтологических принципов в регулировании отношений между преподавателем и студентом, формировании профессиональной этики и повышении качества образования.

Ключевые слова: деонтология, мораль, творческое совершенствование, объективное мировоззрение, принципы деонтологии, педагогическая этика, педагогическая компетентность, профессиональная компетентность, профессиональная этика.

So'ngi yillarda jahondagi taraqqiyot, sivilizatsiya, ijtimoiylashuv, demokratiya bevosita talim tizimidagi o'zgarishlarga ham sabab bo'lmoqda. Hozirgi kundagi ta'lim tizimida deontologik qarashlarning ahamiyati ortib bormoqda. XV–XVII asrlarda G'arbiy Yevropada o'qituvchilar rohiblar yoki ruhoniylar edilar. Ular yuqori ijtimoiy mavqega ega edilar va monastir, sobor va sobor maktablarida ishladilar. Ijtimoiy mavqeyi past o'qituvchilar ham bor edi. Ular sayohatchilar orasida gildiya maktablarida dars bergan, cherkovga qarshi bo'lgan va quvg'in qilingan. XV–XVII asr o'rtalari, ya'ni Uyg'onish davrida boshlang'ich maktabda ruhoniyo'qituvchining o'rnini asta-sekin professional o'qituvchi egallaydi, uning pozitsiyasi o'zgarib boradi. Ilgari u maktab pullari hisobiga va cherkovlarda yashagan. Ammo XVI asrning oxiridan boshlab o'qituvchilarga jamiyat maosh to'lay boshladi. Bu esa maktabning cherkovdan mustaqilligini ta'minlashni anglatardi, biroq o'qituvchini tayinlash hali ham ruhoniylar zimmasida edi. O'qituvchilarning ayniqsa kambag'allar maktablaridagilarning kasbiy qobiliyati deyarli yo'q edi. Ko'pincha odamlar tasodif tufayli o'qituvchiga aylandilar. Masalan, sobiq maktab o'quvchilari, hunarmandlar, askarlar va boshqalar. Ularning ko'plari johil edi. Aksariyati hatto yozish va o'qishni mukammal bilmagan.

XIX–XXI asrlarda o'qituvchilik kasbiga nisbatan ma'lum konstitutsiyaviy o'zgarishlar yuz berdi. G'arbiy Yevropaning ayrim mamlakatlarida cherkov hamon o'qituvchilarni tayinlashda qatnashish huquqiga ega edi, chunki maktablarda diniy o'rgatish saqlanib qolgan. Angliyada xususiy maktablar juda kuchli edi. 1870-yilgacha ta'lim muassasalarining faoliyati asosan shaxslarga

va ularning mablag'lariga bog'liq edi [1]. Maktab qonunchiligi ta'lim sohasida xususiy tashabbuskorlik uchun keng doirani saqlab qoldi. Muayyan miqdordagi o'quvchilarning ta'lim olishiga kafolat bergan har qanday shaxs maktab ochish huquqiga ega edi. Xususiy maktablar muassasalari va o'qituvchilardan o'qituvchilarni tayyorlash sertifikatlari talab qilinmadi. Fransiya 1852 yildan beri o'qituvchilar davlat xizmatchilari deb hisoblanib, hukumat tomonidan tayinlangan [2]. Maktab ko'proq armiyaga o'xshardi. O'qituvchilarning tashabbusi cheklangan edi. Portugaliyada o'qituvchilarga akademik bakalavr darajasini olish taqiqlangan. Hatto boshlang'ich maktabda ham o'qituvchilar usta bo'lishi kerak edi. Ispaniyada o'qituvchilar hech qachon o'quvchilarni tanbeh berishlari yoki otanalariga o'g'li yoki qizi o'rganish qiyin bo'lganligini aytishlari shart emas edi. O'qituvchilar bolaning yomon ishlashi uchun uzr so'rashlari kerak edi.

Angliyada o'qituvchilar tarkibining etishmasligi alohida muammo edi. Bu yoshlarni o'qituvchi kasbini tanlamaslikka, balki ishchi o'qituvchi sifatida maktabni tark etishga undaydigan juda muhim omillar bo'lganligi bilan bog'liq edi. Ular qatoriga mamlakat maktablarida o'quvchilarning intizomining sustligi, bir sinfda juda ko'p o'quvchilarning borligi, ish haqining pastligi va boshqalar kiradi. Xususiy maktablarda vaziyat ta'riflanganga mutlaqo ziddir. Bundan ma'lum vaqt oralig'ida jamiyat va davlatning o'qituvchi kasbiga bo'lgan ijobiy munosabati qanday yo'qolganligi va tiklanganligi, uning faoliyatiga qo'yiladigan talablar qanday o'zgarganini ko'rayapmiz.

Deontologiya tushunchasini ta'riflashda ma'noni anglatuvchi kategoriya vazifa bo'lganligi sababli,

pedagogik deontologiyani paydo bo'lishi uchun zarur shart o'qituvchi shaxsiga, uning kasbiy faoliyatiga qanday bo'lishi kerak bo'lgan pozitsiyadan iborat bo'ladi. Keling, ularni o'tmish va hozirgi taniqli mutafakkirlar, o'qituvchilar, olimlarning tushunchalarida ko'rib chiqaylik.

Shunday qilib, Sharq Konfutsiyining mutafakkiri va o'qituvchisi (miloddan avvalgi 551–479) “Har kim o'z vazifasi yo'lga yo'naltirilishi kerak, bu kasb va hayot munosabatlariga oid har bir mayda narsa eng puxta va batafsil tarzda belgilanadi, har bir insonning ijtimoiy mavqeyi aniqlanadi” [3]. Shaxsiy axloq normalari qat'iy ravishda ijtimoiy majburiyatlarga to'g'ri keladi. Tuyg'ular va ta'sirlarning to'liq muvozanati beshta fazilatni anglashga olib keladi: rahm-shafqat, adolat, tartib, ehtiyotkorlik va sadoqat [4]. O'qitish san'atini “doya” deb atagan Suqrot (miloddan avvalgi 459–399) o'qituvchining asosiy vazifasi “o'quvchining moyilligi va qobiliyatlarini sinchkovlik bilan o'rganib, uni eng yaxshi, ichki ruhiy kuchlarini hayotga tatbiq etish” deb hisoblagan [5]. Qadimgi Rim olimi Kvintilian “Notiqlik bo'yicha ko'rsatmalari”da o'qituvchi yuqori ma'lumotli, o'zini tutishi, bolalarni sevishi va ularni o'rganishi, maqtash va jazo o'lchovini bilishi va eng muhimi bo'lishi kerakligini yozgan. Aflotun o'qituvchining kasbiy burchini bajarmaganlik oqibatlariga haqida shunday degan: “Agar poyabzal ishlab chiqaruvchisi befarq bo'lsa, demak, davlat bundan ozgina zarar ko'radi, ehtimol kam sonli odamlar yomon kiyinishadi, ammo o'qituvchi o'z vazifalarini yomon bajaradigan bo'lsa, unda mamlakatda johillar va bezorilar ko'payadi” [6].

Qadimgi Xitoyda o'qituvchining vazifasi talabalarga o'rganilayotgan intizomning asl maqsadini ochib berish va undan bu fanning Yer yuzidagi hayotda berishi mumkin bo'lgan barcha afzalliklarni ajratib olishni o'rgatish edi. Qadimgi Konfutsiy qoidasida talabani o'qituvchi oldidagi vazifasi tog'lardan balandroq va dengizlarga qaraganda chuqurroq ekanligi ta'kidlanganligi sababli, iemoto(o'qituvchi) ning hokimiyati mutlaqo shubhasiz edi [7]. Olim va faylasuf al-Forobiy (870–950) fazilatlarini tarbiyalashning “qattiq” va “yumshoq” usullari tizimini taklif qilgan pedagogik muammolarni o'ziga xos tarzda ko'rib chiqdi. Forobiy o'zining didaktik qarashlarida ustoz, o'qituvchining mas'uliyatini alohida ifodalaydi. “Ustoz, – deydi u, – shogirdlariga qattiq zulm ham, haddan tashqari ko'ngilchaklik ham qilmasligi lozim”. Chunki ortiqcha zulm shogirdga ustozga nisbatan nafrat uyg'otadi, bordi-yu ustoz juda yumshoq bo'lsa, shogird uni mensimay quyadi va u beradigan bilimdan sovib qoladi. Beruniy mamlakatning obodonligi ilm-fanning ravnaqi tufayli deb aytadi, yoshlarning baxt-saodati va kamoloti esa ularga bilim va ma'rifat beruvchi mudarrislariga bog'liq deb ta'kidlaydi. Ilm va ma'rifat sari intiluvchi tolib va mudarrislariga deydi: “Ilm dargohiga kirar ekansan, qalbing kishini ozdiruvchi illatlardan, odamni ko'r qilib qo'yadigan nafs va turli buzg'unchi holatlardan, qotib qolgan turli eski urf-odatlardan, hirsdan, raqobatdan,

ochko'zlikni quli bo'lishdan ozod bo'lmog'i dardkor”. Buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino pedagogik qarashlarida insonning hamaqliy, ham axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishi uning kamolga yetishining asosiy mezonini sifatida talqin etiladi. Sharqda “Shayx ar-Rais” nomi bilan mashhur bo'lgan alloma Abu Ali ibn Sino o'qituvchi mahorati haqida fikr yuritarkan, quyidagilarni eslatib o'tadi: “Bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish; berilayotgan bilimning talabalar qanday o'zlashtirib olayotganiga e'tibor berish; ta'limda turli metod va shakllardan foydalanish; talabani xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilish; aqliy darajasiga mos ravishda ta'lim berish; har bir so'zning bolalar hissiyatini uyg'otishi darajasida bo'lishiga erishish zarur.

Abul-Qosim Mahmud Ibn Umar Az-Zamaxshariy (1075–1144) jahon ilm-fani va madaniyatiga salmoqli hissa qo'shgan mashhur olim va adibdir. U o'z asarlarida halollik va pokizalikni, ilmga muhabbatni, mardlik va olijanoblikni ulug'laydi. Ulug' mutafakkir “Navobig' ul-kalim” (“Nozik iboralar”) asarida kishilar ilmi bo'lish, o'qitish, yozish bilan hosilu mukammal bo'ladi, olim kishi oqil, bilimdon va chiroyli xushxat yozuvga ega bo'lsa, bu uning kamolotga etganligidan dalolatdir, deydi. Asarda mudarrislar to'g'risida noyob fikrlar bildirilgan: “Murabbiy o'qib tursagina murabbiy bo'la oladi, agar o'qishni to'x-tatib qo'yar ekan, unda murabbiylik o'ladi”.

Xulosa qilib aytganda, deontologiya, kasbiy faoliyat odamlar o'rtasidagi munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan har qanday joyda dolzarbdir, bu erda majburiy tarkibiy qism sifatidainsonning insonga ta'sirini o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, aloqaning psixogigienasi, uning qo'llanilish sohasiga qarab, o'zigaxos xususiyatlarga ega ekanligini hisobga olish kerak, shuning uchun o'qituvchilar uchun talabani ruhiy sog'lig'iga zarar etkazmaydigan munosabatlarni yaratish zarurligini anglash usullari va ularni amaliy amalga oshirish usullari pedagogik deontologiya tomonidan o'rganilishi kerak.

Deontologik ongning shakllanishi o'qituvchining butun hayoti davomida sodir bo'ladi. Shuning uchun, birinchi navbatda, kelajakdagi o'qituvchi o'zining shaxsiy qarorlarini to'g'ri qabul qilishga, o'z-o'ziga ishonch kabi tuyg'ularni tarbiyalashi kerak, ya'ni u o'zining qadriyatlar yo'nalishlariga muvofiq ongli ravishda harakat qilishiga imkon beradigan o'z e'tiqodlarini rivojlantirishi kerak. Kelajakdagi o'qituvchining deontologik mashg'ulotlar natijasida oladigan ishonchlari pedagogik ong voqelikidagi eng mukammal aksidir, shuningdek uning kasbiy burchiga munosabati. Aytilganlarni qo'llab-quvvatlash uchun K.D. Ushinskiyning so'zlarini keltiramiz: “o'qituvchi nazariy jihatdan bilimli bo'lishi kerak [5]. Kasbiy faoliyat jarayonida o'qituvchining qat'iy e'tiqodi deontologik kredoga aylanadi (kredo (lotincha kredodan - ishonaman, ishonaman) – e'tiqod, qarashlar, dunyoqarash asoslari) - o'qituvchining

ichki dunyoqarashini shakllantiradi, buregulyator bo'lgan kasbiy burch ongiga asoslanadi. Ushbu tizim elementlaridan birini egallamaslik (deontologik ong, deontologik o'z-o'zini anglash, deontologik ishonch,

deontologik kredo) o'qituvchining deontologik tayyorgarligi to'liq shakllanmasligiga sabab bo'ladi. O'qituvchining deontologik tayyor emasligi uning professional bo'lmagan harakatlarida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tulenov J.T. Qadriyatlar falsafasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 1998.
2. Yusupov E. Falsafa. – Toshkent: Universitet, 2000.
3. Komilova S. Yoshlar tarbiyasida ilmiy merosimizning o'rnini. – Toshkent: Mehnat, 2000.
4. Karimov I., Rustamova M. Falsafa fani tarixi va nazariyasi. – Toshkent: TDPU, 2007.
5. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kopetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2013.
6. Муслимов Н.А. и др. Профессиональная компетентность будущего учителя: теория и технология обучения. Учебное пособие. Т.: ТДПУ, 2014.
7. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2011. – 420 b.
8. Кертаева Г.М. Основы педагогической деонтологии. Павлодар: Кереку, 2019.

Lola KOMILOVA,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

BADIIY MATNNI O'QIB TUSHUNISH VA BAHOLASHDA DARAJALI MATNLARNING O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy matnni o'qib tushunish va baholashda darajali testlardan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari keng yoritilgan. Tadqiqot jarayonida Stanislav Stratiyevning "Shaxsiy fikrim qani?" hikoyasi asosida darajali testlarning "to'g'ri-noto'g'ri", "moslashtirish", "ko'p variantli" va "bo'sh o'rinni to'ldirish" shakllari ishlab chiqilgan va qo'llanilgan. Maqolada ushbu testlarning afzalliklari, o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv va ijodiy tafakkurini rivojlantirishdagi o'rni chuqur o'rganilgan. Shuningdek, zamonaviy ta'lim talablari, davlat ta'lim standartlari va xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlil berilgan.

Kalit so'zlar: darajali testlar, badiiy matn, baholash, Bloom taksonomiyasi.

Annotation. The article details the scientific and methodological foundations of using leveled tests when reading and evaluating literary texts. During the research, leveled tests in the form of "true-false", "adaptation", "multiple choice" and "fill in gaps" were developed and used based on Stanislav Stratiyev's story "Where is my personal opinion?". The advantages of these tests, their role in developing students' independent thinking, analytical approach, and creative thinking are thoroughly studied, and a comparative analysis is conducted with modern educational requirements, state educational standards, and international experience.

Keywords: level tests, literary text, assessment, Bloom's taxonomy.

Аннотация. В статье подробно рассматриваются научно-методические основы использования уровневых тестов при чтении и оценке художественных текстов. В ходе исследования были разработаны и использованы уровневые тесты в формах «верно – неверно», «адаптация», «множественный выбор» и «заполнить пропуски» по мотивам рассказа Станислава Стратиева «Где моё личное мнение?». Подробно изучается преимущество данных тестов, их роль в развитии самостоятельности мышления, аналитического подхода и творческого мышления учащихся, проводится сравнительный анализ с современными образовательными требованиями, государственными образовательными стандартами и международным опытом.

Ключевые слова: уровневые тесты, художественный текст, оценка, таксономия Блума.

Bugungi ta'lim tizimining asosiy maqsadi o'quvchilarga faqat bilim berish emas, balki ularda mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv va ijodiy tafakkurni shakllantirishdir. Ona tili fanida bu jarayon ayniqsa muhim, chunki ona tili darslari orqali o'quvchi tilni o'rganish bilan birga, o'z dunyoqarashini kengaytiradi, matnni tahlil qilish va undagi g'oyalarga munosabat bildirishni o'rganadi. Darajali testlarning afzalligi shundaki, ular Bloom taksonomiyasi asosida bilimni bosqichma-bosqich baholash imkonini beradi:

1. *Bilim* – matndan faktlarni eslab qolish.

2. *Tushunish* – matn mazmunini sharhlash.

3. *Qo'llash* – o'rganilgan bilimni yangi vaziyatlarda qo'llash.

4. *Tahlil* – g'oyalarni ajratish va taqqoslash.

5. *Baholash* – matn asosida xulosa chiqarish.

6. *Ijodkorlik* – matnga asoslanib yangi g'oya ishlab chiqish.

Shunday qilib, darajali testlar nafaqat baholash vositasi, balki ta'lim jarayonini faol va samarali qiluvchi metodik yondashuvdir.

SHAXSIY FIKRIM QANI? (Stanislav Sratyev)

Ertalab Petrov bir qultum qahvasini ichdi-yu, xotining peshonasidan o'pib, ishga o'tlanmoqchi bo'lib, ostonaga yetganda hayallab, cho'ntaklarini kovlashtira boshladi.

– Nimangni izlayapsan? – dedi xotini.

– Fikrim... mening fikrim... topilmayapti, – dedi Petrov kiyimlarini paypaslab, kissalarini kovlashda davom etarkan. – Qayoqqa tiqdim ekan-a!

– Anovi cho'ntagingdagi shalvirab turgan nima?

– Dastro'molcham, – ming'irladi Petrov. – Fikrim qayoqqa daf bo'ldiykin-a?

U barcha cho'ntaklarini ag'darib ko'rdi, portfelini titkiladi, kiyimlarini qoqishtirib ko'rdi – topolmadi.

– Yo'q, – dedi u xotiniga. – Sen bilmaysanmi, qayoqqa g'oyib bo'lganikini?

– Yaxshisi, hovliqmasdan, astoydil izlab ko'r.

Petrov yana cho'ntaklarini birin-ketin kovlashga tushdi. Afsuski, hech qayerda uning shaxsiy fikri yo'q edi.

– Shoshmay tur-chi, – deya xotini peshonasini tirishtirdi. – Oxirgi marta sen uni o'tgan yili, yanvar oyida eslagandek bo'luvding, shekilli. Korxonangda yillik reja tasdiqlanadigan kuni-chi?

– Yo'q, xotin, adashyapsan. Men hali aqldan ozganim yo'qki, yillik reja muhokamasiga shaxsiy fikrim bilan borsam!..

– Hmm... Ha, aytmoqchi! Keyin vazirlikka chaqirishuvdiku? Ehtimol, fikringni o'shanda obketgan bo'lma tag'in? [1]

– **Nimalar deyapsan, xotin? Vazirlikka kim ham o'z fikri bilan boradi-a?** Shunday nufuzli joyda, odatda, o'zgalarning fikriga qo'shilasan, bas! Yo'q, u gal fikrimni obketmaganman.

– Unda qayoqqa gumdon bo'ladi? Aslida bormidi o'zi?

– Bor edi, bor edi, mana, endi yo'q.

– Yopiray! Savil qolgur fikring qaysi kavakka kirib ketdiykin, a?

Xotini chuqur o'ygaga tildi. Eri so'nggi paytlarda qayerlarga boruvdi, o'zi bilan o'z fikrini qachon obketuvdi?

– O, topdim! – deb qiyqirib yubordi xotini. – Esingdami, Bosh direktoringga tishini qayrab yurgan Simeonov degan shartaki xodimlarning bor edi-ku, o'shani ishdan bo'shatadigan kun esingdami? Fikringni o'sha kungi majlisga obketgansan. Yodingga tushdimi?

– Yodimda, – dedi Petrov bamaylixotir. – Lekin o'shanda bizdan majlis qarorini qo'llab-quvvatlashgina so'ralgan, xolos. Shaxsiy fikr hech kimni qiziqtirmagan.

Xotini javonini ochib ko'rdi.

– Balki sen uni muhim hujjatlarning saqlanadigan g'aladonga solib qo'ygandirsan?

– Qo'ygandim. So'ng bir marta olish uchun ochib... oldimmi yo yana solib qo'ydimmi, esimda yo'q.

– Menga qara, shu tobda shaxsiy fikring nega kerak bo'p qoldi? Nega yopishib olding? Axir, ishga ketyapsan-ku? So'rab qolsalar, "uyda qopti", deb aytarsan-da.

– Xo'p, aytarman. Mabodo, uni mutlaqo yo'qotib qo'ygan bo'lsam-chi?

– Qiyomat qo'pmas! Uningsiz ham binoyidek yashab kelyapsan-ku! [2]

– **To'g'riku-ya... Har holda, doim uningsiz yashash ham yaxshimas. Biror nozik joyda kerak bo'p qolsa, nima degan odam bo'laman?**

– Kerak bo'lmaydi-yov...

– Yo'q, har holda, har holda... Biror joyda bordir u? Hech bo'lmasa, bir qur qarab ko'raylik-chi!..

Xotini shiddat bilan kiyim-kechak, ko'rpa-to'shaklarni ag'darishga tushib ketdi...

– Mana u! – dedi xotini terlarini arta-arti. – Sen uni eski paltongning cho'ntagida qoldiribsan. Bu paltoni, bilasanmi, ikki yil oldin chiqitga chiqarib tashlovding.

– To'ppa-to'g'ri, shaxsiy fikrim! – quvonib ketdi Petrov. – Ikki yil oldin opchiqqan ekanman-u, yana o'sha joyida paqqos unutib qoldiribman-a?

– Men paltoni yuvishga topshirvorgandim-ov. Bu yoqqa ol-chi, kirmoshinda fikring ivib, titilib ketmadimikin? – Shunday deb xotini aylantirib-aylantirib, silkib-silkib, puflab-puflab eriga fikrini qaytarib berdi. – Yo'q, jin ham urmabdi. Aksincha, xuddi yangidek.

– Albatta-da, men undan deyarli foydalanmadim, axir.

– To'g'ri qilasan. Menam paltongni bolaxonaga chiqarib tashlamoqchiydim. Baribir kiymaysan-ku!

– Menda yangisi bor-ku. Pochapo'stin.

– Endi fikringni boshqa, ko'rinarli joyga qo'y. Qutichagami, hujjatlarningning orasigami? Yaxshisi, eng ishonchlisi – omonat daftarchangning qatiga joylab qo'ya qolganing durust.

– Shunday qilaman!

Petrov shaxsiy fikrini daftarcha qatiga joyladi-yu, xotining peshonasidan o'pib, mamnun holda eshikdan chiqdi.

Ushbu matn asosidagi darajali testlar:

1. ...ga tishini qayrab yurgan Simeonov degan shartaki xodimlarning bor edi-ku, o'shani ishdan bo'shatadigan kun esingdami? Nuqtalar o'rnida tushirib qoldirilgan javobni belgilang.

A) xodiming

B) do'stlaring

C) sheriging

D) direktoring

2. "Sen shaxsiy fikringni eski ...da qoldiribsan", – dedi xotini. Nuqtalar o'rnida tushirib qoldirilgan javobni belgilang.

A) portfel

B) kiyim

C) palto

D) g'aladon

3. Matn mazmuniga mos to'g'ri ifodalanmagan gapni toping.

A) Xotini Petrovning shaxsiy fikrini eski paltosining cho'ntagidan topib berdi.

B) Petrov shaxsiy fikrini hech qachon yo'qotmagan, chunki u har doim mustaqil fikrlaydigan odam edi.

C) Petrov shaxsiy fikrini omonat daftarchasiga joylab qo'yishga qaror qildi, chunki uni yana yo'qotib qo'yishdan cho'chidi.

D) Petrov shaxsiy fikridan deyarli foydalanmaganligi sababli uni yo'qotganini ham sezmay qolgan.

4. Hikoyadagi Petrovning fe'l-atvori haqidagi to'g'ri va noto'g'ri fikrni aniqlang.

- 1) mustaqil va qat'iyatli;
- 2) bo'ysunuvchan va o'z fikrini yo'qotgan;
- 3) aqlli va zukko;
- 4) jasur va qo'rqmas;
- 5) qo'rqqoq va dangasa.

To'g'ri	Noto'g'ri

5. Quyidagi fikrlarni to'g'ri javob bilan moslashtiring (javoblarning ikkitasi ortiqcha).

1) Petrov ishga ketishdan oldin nimani yo'qotganini payqadi?	A) kissasi
2) Petrov shaxsiy fikrini birinchi bo'lib qayerdan qidirdi?	B) shaxsiy fikri
3) Xotinining fikricha, Petrov oxirgi marta qachon shaxsiy fikridan foydalangan?	C) yillik reja muhokama qilinadigan majlisda yoki vazirlik
4) Petrov shaxsiy fikrini qayerdan topadi?	D) kiyimlari va kissasi
	E) palto
	F) dastro'mol

6. Moslashtiring (javoblarning ikkitasi ortiqcha).

1) Petrov fikrini topgach, uni qayerga joyladi?	A) unga hech kim qiziqmagan va undan foydalanishga ehtiyoj bo'lmagan
2) Xotini Petrovning fikrini qanday topdi?	B) eski palto
3) Petrov nima uchun shaxsiy fikrini yo'qotganini payqamadi?	C) omonat daftarchasi
4) Petrov shaxsiy fikri haqida qayg'ura boshlagach, xotini nima qildi?	D) uy jihozlari va kiyim-kechaklarni titkilay boshladi.
	E) kissasini titkiladi
	F) doim ishda bo'lgani uchun

7. Hikoyada muallif qanday asosiy muammoni yoritgan?
A) Odamlar o'z fikrini yo'qotishi va mustaqil fikrlay olmasligi

B) Oilaviy hayotdagi tushunmovchiliklar

C) Ish joyidagi korrupsiya

D) Milliy qadriyatlarining yo'qolishi

8. Hikoyada shaxsiy fikr nimaning ramzi sifatida ishlatilgan?

A) odamning aqlli bo'lishi

B) mustaqil fikrlash va erkinlik

C) qadimiy an'analarga sodiqlik

D) o'ta jiddiy qarorlar

9. Quyidagi gapning sintaktik tuzilishini aniqlang. "Sen uni eski paltongning cho'ntagida qoldiribsan".

A) sodda gap, to'ldiruvchi qo'llangan

B) ergash gapli qo'shma gap

C) sodda gap, kesim oldin kelgan

D) murakkab qo'shma gap

10. [1] raqami bilan ajratib ko'rsatilgan gapda qanday uslubiy ma'no ifoda etilgan?

A) kinoya, ta'na

B) hajviy, kinoyali, ijtimoiy tanqidiy ma'no

C) hajviy, kesatqich ma'no

D) mazah, istehzo

Tadqiqot jarayonida "Shaxsiy fikrim qani?" hikoyasi asosiy manba sifatida tanlandi. Bu hikoya ramziy ma'no kasb etadi: shaxsiy fikrni yo'qotish – insonning mustaqil qaror qabul qila olmaslik muammosini ifodalaydi. Shu sababli o'quvchilarda fikrlash ko'nikmalarini sinovdan o'tkazish uchun qulay material bo'ldi.

Metodologik yondashuv quyidagi bosqichlardan iborat bo'ldi:

– matn mazmunini tahlil qilish;

– Bloom taksonomiyasi asosida test topshiriqlarini rejalashtirish;

– to'rt turdagi test topshiriqlarini ishlab chiqish;

– eksperimental guruhda testlarni qo'llash;

– natijalarni sifat va miqdoriy tahlil qilish.

Har bir test turining vazifasi aniq belgilandi. Masalan, "to'g'ri-noto'g'ri" testlari faktlarni aniqlashga qaratilgan bo'lsa, "moslashtirish" testlari tushunchalar o'rnatidagi bog'lanishni ochib beradi. "Ko'p variantli" testlar tanqidiy fikrlashni rag'batlantiradi, "bo'sh o'rinni to'ldirish" esa tafsilotlarga e'tiborni oshiradi.

Darajali testlar qo'llanilgach, quyidagi muhim natijalar kuzatildi:

1. O'quvchilarning matnga e'tibori oshdi. Ular hikoyani yuzaki emas, balki diqqat bilan o'qishni majbur bo'ldilar.

2. Mustaqil fikrlash rivojlandi. Savollarga javob berishda matndan tashqari, shaxsiy mulohazalarni ham qo'shishga harakat qilishdi.

3. Tanqidiy tafakkur shakllandi. Ko'p variantli savollar ulardan mantiqan eng maqbul javobni tanlashni talab qildi.

4. Ijodiy yondashuv paydo bo'ldi. Ayrim o'quvchilar hikoyani o'zicha davom ettirishga harakat qildilar.

5. Baholash obyektiv bo'ldi. Javoblar matn asosida tekshirilgani sababli o'qituvchi subyektiv xulosalardan voz kechdi.

Natijalardan ko'rinib turibdiki, darajali testlar faqat baholash vositasi emas, balki ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. Olingan natijalar boshqa tadqiqotlar bilan ham uyg'unlashadi. Masalan, K.Jalilov testlarning pedagogik o'lchovlardagi ahamiyatini ta'kidlasa [1], Sh.Abdiraimov matn asosidagi topshiriqlarning o'quvchi tafakkuriga ijobiy ta'sirining baholashdagi o'rnini ko'rsatadi [2]. Bizning tadqiqot natijalari bu qarashlarni amalda tasdiqladi. Shuningdek, xorijiy tajribaga nazar tashlasak, PISA xalqaro testlari o'quvchilarning nafaqat bilimini, balki tanqidiy va mantiqiy fikrlashini ham sinaydi. Bu darajali testlarning

universal metod ekanini ko'rsatadi. Biroq muammo ham yo'q emas. Ba'zi hollarda o'quvchilar testlarga yuzaki qaraydi, ayrim hollarda esa test savollari yetarli darajada puxta tuzilmasa, natija samarasiz bo'lishi mumkin. Shu bois testlarni ishlab chiqishda o'qituvchilar uchun metodik ko'rsatmalar va amaliy qo'llanmalar zarur.

Xulosa qilib aytganda, darajali testlar o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantiradi, baholash jarayonini shaffof va obyektiv qiladi, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini bosqichma-bosqich aniqlash imkonini beradi, ona tili ta'limida ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni amalga oshiradi, xalqaro tajribaga uyg'un bo'lib, kelajakda o'quvchilarning PISA kabi testlarga tayyorgarligini kuchaytiradi. Shunday qilib, darajali testlardan foydalanish ona tili ta'limida nafaqat baholash, balki ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdiraimov Sh. Ona tili ta'limida o'qib tushunish malakasini baholashning ilmiy-metodik asoslari: Ped. fan. bo'yicha fal. dok. diss... – Toshkent, 2022.
2. Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2020.

Miyassar AXMEDOVA,

Farg'ona davlat universiteti ingliz tili kafedrasida katta o'qituvchisi

INGLIZ TILINI SAMARALI O'QITISHDA ABRAHAM MASLOVNING “EHTIYOJLAR IERARXIYASI” NAZARIYASINING O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abraham Maslovning “ehtiyotlar ierarxiyasi” nazariyasining ingliz tilini o'qitish jarayoniga tatbiqi chuqur tahlil qilinadi. Nazariyaning har bir ehtiyoj bosqichi ta'lim kontekstida ko'rib chiqilib, talabalar motivatsiyasi, nutq faolligi va o'zlashtirish samaradorligiga ta'siri asoslanadi. Darslarni psixologik jihatdan qulay muhitda tashkil qilish, individual yondashuvni kuchaytirish va o'quvchilar ehtiyojlariga asoslangan metodik tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: Maslov nazariyasi, ehtiyojlar ierarxiyasi, talaba motivatsiyasi, pedagogik psixologiya, o'qitish metodikasi, talaba ehtiyojlari.

Annotation. This article thoroughly analyzes the application of Abraham Maslow's “needs hierarchy” theory to the English language learning process. Each stage of the need for theory is considered in the context of education and is based on its impact on students' motivation, speech activity, and learning effectiveness. Methodological recommendations are provided based on the organization of lessons in a psychologically favorable environment, strengthening the individual approach, and the needs of students.

Keywords: Maslow's theory, hierarchy of needs, student motivation, pedagogical psychology, teaching methodology, student needs.

Аннотация. В данной статье проводится глубокий анализ применения теории «иерархии потребностей» Абрахама Маслоу к процессу обучения английскому языку. Каждый этап потребности в теории рассматривается в контексте образования и основывается на его влиянии на мотивацию студентов, речевую активность и эффективность обучения. Даются методические рекомендации, основанные на организации уроков в психологически благоприятной среде, усилении индивидуального подхода и потребностях учащихся.

Ключевые слова: теория Маслоу, «иерархия потребностей», мотивация студентов, педагогическая психология, методика преподавания, потребности студентов.

Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish o'qitish samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Abraham Maslov tomonidan 1943-yilda taqdim etilgan ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi insonning xulq-atvori va motivatsiyasini tushunishda fundamental asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu nazariya ingliz tili o'qitish sohasida qo'llanilishi talabalarning o'rganish jarayonidagi psixologik holatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Maslov nazariyasiga ko'ra, inson ehtiyojlari besh asosiy darajaga bo'linadi: fiziologik ehtiyojlar, xavfsizlik ehtiyojlari, ijtimoiy ehtiyojlar (sevgi va qarashlilik), hurmat va e'tirof ehtiyojlari, hamda o'z-o'zini anglash ehtiyojlari. Har bir daraja keyingisiga o'tish uchun ma'lum darajada qondirilishi kerak. Bu prinsip ta'lim jarayoniga tatbiq etilganda, o'qituvchilarga talabalarning turli ehtiyojlarini qondirib, samarali o'rganish muhitini yaratish imkoniyatini beradi.

Ingliz tili o'qitish jarayonida ko'plab o'qituvchilar talabalarning past motivatsiyasi, o'qishga qiziqishning yo'qligi va dars jarayonida faol ishtirok etmaslik kabi muammolarga duch keladi. Bu muammolarning asosiy sababi ko'pincha talabalarning asosiy psixologik ehtiyojlari qondirilmaganligida yashiringan. Maslovning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi orqali bu muammolarni aniqlash va hal qilish mumkin.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, hozirgi kunda ingliz tili jahon miqyosida kommunikatsiya vositasiga aylangan sharoitda, uni samarali o'qitish metodlarini izlash muhim ahamiyatga ega. Talabalarning psixologik ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'qitish jarayonini tashkil etish ularning motivatsiyasini oshiradi, o'rganish samaradorligini yaxshilaydi va til kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradi.

Tadqiqotning maqsadi Maslovning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasining ingliz tili o'qitish jarayonidagi amaliy qo'llanilishini o'rganish va har bir ehtiyoj darajasini qondirish orqali o'qitish sifatini oshirish yo'llarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- Maslov nazariyasining asosiy tamoyillarini tahlil qilish;
- ehtiyojlar ierarxiyasining har bir darajasini ingliz tili o'qitish kontekstida ko'rib chiqish;
- talabalarning turli ehtiyojlarini qondirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;
- o'qituvchilar uchun ehtiyoj asosli yondashuv bo'yicha metodologik yo'riqnoma tayyorlash.

Maslovning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi bir qancha tadqiqotchilar tomonidan ta'lim sohasida qo'llanilgan. Richards va Rodgers o'z tadqiqotlarida til o'rganish jarayonida talabalarning psixologik holatining muhimligini ta'kidlaydilar [1: 89]. Ular fiziologik ehtiyojlar qondirilmagan talabalar dars jarayonida to'liq konsentratsiya qila olmasligini aniqlagan. **Brown** xavfsizlik ehtiyojlarining til o'rganish motivatsiyasiga ta'sirini o'rganib, qo'rquv va tashvish his qilayotgan talabalar yangi tilni o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishini ko'rsatdi [2: 156]. Muallif xavfsiz o'quv muhitini yaratish zarurligini ta'kidlaydi. **Dörnyei** va **Ushioda** ijtimoiy ehtiyojlar va guruhga qarashlilik hissi til o'rganish samaradorligini sezilarli darajada oshirishini isbotladilar [3: 203]. Ularning tadqiqotiga ko'ra, o'quvchilar o'rtasida ijobiy munosabatlar o'rnatilgan sinflarda o'zlashtirish darajasi 35% yuqori bo'lgan. **Harmer** hurmat va e'tirof ehtiyojlarining til o'rganish jarayonidagi rolini tahlil qilib, o'qituvchilardan olgan ijobiy baholash talabalarning o'z-o'ziga ishonchini oshirishini va til ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqladi [4: 178]. O'zbek olimlari orasida **Karimova** Maslov nazariyasini mahalliy ta'lim tizimiga moslashtirishni taklif etib, O'zbekiston sharoitida

talabalarning madaniy va ijtimoiy ehtiyojlarini hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi [5: 92]. **Crystal** o'z-o'zini anglash ehtiyojining til o'rganishning eng yuqori bosqichlarida namoyon bo'lishini ta'kidlab, mustaqil o'rganish va kreativ yondashuvlarning ahamiyatini ko'rsatdi [6: 134].

Maslovning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasini ingliz tili o'qitish jarayoniga tatbiq etish quyidagi natijalarni berdi. Fiziologik ehtiyojlar darajasida dars xonasining harorati, yoritilganligi, o'rindiqlarning qulayligi kabi fizik sharoitlar talabalarning diqqatini saqlashda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, qulay fizik muhitda o'qiyotgan talabalarning darsga jalb qilinishi 28% yuqori bo'lgan. Shuningdek, dars vaqtida qisqa tanaffuslar berish va talabalarning jismoniy holatini hisobga olish zarur ekanligi aniqlandi.

Xavfsizlik ehtiyojlari darajasida psixologik xavfsizlik muhiti yaratish ingliz tili o'qitishda muhim ahamiyatga ega. Xatolardan qo'rqmaydigan, o'z fikrini erkin ifodalay oladigan muhit talabalarning nutq faolligini oshiradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, qo'llab-quvvatlovchi muhitda o'qiyotgan talabalarning og'zaki nutq ko'nikmalari 40% yaxshilangan. O'qituvchilarning talabalarni tanqid qilish o'rniga xatolarni o'rganish jarayonining tabiiy qismi sifatida qabul qilish yondashuvini qo'llashlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy ehtiyojlar darajasida guruh ishlari, juftlik mashqlari va hamkorlikdagi loyihalar talabalarning bir-biriga bog'lanish ehtiyojini qondiradi. Bunday faoliyatlar nafaqat til ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki o'quv jarayonini qiziqarli va mazmunli qiladi. Guruh faoliyatlarida faol ishtirok etgan talabalarning kommunikativ kompetensiyasi sezilarli darajada oshgan. Sinfda do'stona va hamkorlikdagi muhitni yaratish talabalarning darsga qiziqishini oshiradi va ularni faol ishtirok etishga undaydi.

Hurmat va e'tirof ehtiyojlari darajasida talabalarning yutuqlarini tan olish, ijobiy fikr bildirish va konstruktiv baholash ularning o'z-o'ziga ishonchini mustahkamlaydi. Maqtov va rag'batlantirish tizimi joriy etilgan guruhlarda talabalarning motivatsiyasi va faolligi yuqori darajada saqlanadi. O'qituvchilarning har bir talabaning individual rivojlanishini kuzatib borishi va ularning shaxsiy yutuqlarini e'tirof etishi muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

O'z-o'zini anglash ehtiyojlari darajasida talabalarning kreativ salohiyatini ro'yobga chiqarish, mustaqil loyihalar ustida ishlash imkoniyatini berish yuqori natijalarga olib keladi. O'z qiziqishlariga mos mavzular ustida ishlaydigan talabalar chuqurroq o'zlashtirishni ko'rsatdilar. Talabalarning o'z o'rganish maqsadlarini belgilash va o'z rivojlanish yo'lini tanlash imkoniyatiga ega bo'lishlari ularning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi.

Maslovning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi ingliz tili o'qitish jarayonini samarali tashkil etishda qimmatli yo'riqnoma bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, talabalarning turli darajadagi ehtiyojlarini qondirish til

o'rganish samaradorligini 30–45% oshiradi. Psixologik xavfsizlik muhitini yaratish talabalarning nutq faolligini sezilarli darajada oshiradi va xatolardan qo'rqish hissini kamaytiradi. Ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish orqali talabalar o'rtasida ijobiy o'quv muhiti shakllanadi va hamkorlikdagi o'rganish faollashadi.

Talabalarning yutuqlarini tan olish va rag'batlantirish tizimi ularning motivatsiyasini uzoq muddatli saqlashga yordam beradi. O'z-o'zini anglash imkoniyatini berish yuqori darajadagi til kompetensiyasi va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishga olib keladi. O'qituvchilar

dars rejasini tuzishda talabalarning barcha darajadagi ehtiyojlarini hisobga olishlari kerak. Sinf muhitini fizik va psixologik jihatdan qulay qilish zarur. Talabalar bilan ishonch va hurmat asosida munosabatlar o'rnatish muhim ahamiyatga ega.

Har bir talabaning individual ehtiyojlarini e'tiborga olish va moslashuvchan yondashuv qo'llash tavsiya etiladi. Kelajakdagi tadqiqotlar uchun Maslov nazariyasini zamonaviy raqamli ta'lim muhitida qo'llash va onlayn ta'lim jarayonida talabalarning ehtiyojlarini qondirish yo'llarini o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2021. – 312 p.
2. Brown H.D. Principles of Language Learning and Teaching. – New York: Pearson Education, 2022. – 398 p.
3. Dörnyei Z., Ushioda E. Teaching and Researching Motivation. – London: Routledge, 2020. – 356 p.
4. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – London: Pearson Longman, 2021. 448 p.
5. Karimova M.S. Zamonaviy pedagogik psixologiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2023. – 256 b.
6. Crystal D. English as a Global Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020. – 228 p.
7. Maslow A.H. Motivation and Personality. – New York: Harper & Row, 2019. – 411 p.
8. Scrivener J. Learning Teaching: The Essential Guide to English Language Teaching. – Oxford: Macmillan Education, 2021. – 431 p.

Mehrinisa ALIMJANOVA,

*Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

INGLIZ TILINI O'QITISHDA IJTIMOYIY TARMOQLARDAN FOYDALANISH (Instagram misolida)

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilini o'qitish jarayonida Instagram ijtimoiy tarmog'idan samarali foydalanish imkoniyatlari o'rganiladi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar, xususan, vizual va interaktiv platformalarning til o'rganishdagi roli tahlil etilib, instagramning "stories", "IGTV" va "reels" funksiyalari orqali o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi amaliy metodlar taklif etiladi. Instagramdan ta'limiy maqsadlarda foydalanishda yuzaga keladigan texnik, pedagogik va psixologik muammolar hamda ularning yechimlari ham muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: instagram, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli ta'lim, interaktiv o'qitish, vizual ta'lim.

Annotation. This article examines the possibilities of effectively using the social network Instagram in the process of teaching English. The role of modern digital technologies, particularly visual and interactive platforms, in language learning has been analyzed, and practical methods that serve to develop students' language skills through Instagram's "Stories", "IGTV" and "Reels" features have been proposed. It also discusses the technical, pedagogical, and psychological problems that arise when using Instagram for educational purposes and ways to address them.

Keywords: instagram, social networks, digital education, interactive learning, visual education.

Аннотация. В данной статье рассматриваются возможности эффективного использования социальной сети Instagram в процессе обучения английскому языку. Проанализирована роль современных цифровых технологий, в частности визуальных и интерактивных платформ в изучении языка, и предложены практические методы, которые служат развитию языковых навыков учащихся через функции Instagram «Stories», «IGTV» и «Reels». Также обсуждаются технические, педагогические и психологические проблемы, возникающие при использовании Instagram в образовательных целях, и пути их решения.

Ключевые слова: instagram, социальные сети, цифровое образование, интерактивное обучение, визуальное образование.

Zamonaviy raqamli asrda ijtimoiy tarmoqlar insonlarning kundalik hayotining ajralmas qismiga aylangan. Xususan, Instagram platformasi o'zining vizual va interaktiv imkoniyatlari bilan millionlab foydalanuvchilarni jalb etmoqda. Ta'lim sohasida ham bu tendensiyani e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi, chunki zamonaviy o'quvchilar raqamli texnologiyalar bilan o'sib ulg'aygan avloddir [1: 45].

Instagramdan ta'limda foydalanish masalasi bugungi kunda dolzarb hisoblanadi, chunki an'anaviy o'qitish usullari har doim ham zamonaviy o'quvchilarning diqqatini jalb eta olmaydi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali til o'qitish yangi imkoniyatlar yaratib, o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va o'rganish jarayonini qiziqarli qiladi [2: 78].

Ushbu tadqiqotning maqsadi Instagram platformasining ingliz tili o'qitishdagi salohiyatini aniqlash va amaliy tavsiyalar

ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi: Instagram'ning ta'limdagi afzalliklarini tahlil qilish, platformaning turli funksiyalaridan foydalanish usullarini ko'rsatish va o'qituvchilar uchun amaliy yo'riqnoma tayyorlash.

Instagram platformasi ingliz tili o'qitish uchun samarali vosita bo'la oladi. Birinchidan, bu platforma vizual ta'limga asoslangan bo'lib, rasmlar, videolar va infografikalar orqali til materiallarini yetkazishga imkon beradi [3: 156]. Vizual ta'lim uslubi ko'pchilik o'quvchilar uchun samarali hisoblanadi, chunki ular axborotni ko'rish orqali yaxshiroq eslab qoladi. Instagram stories funksiyasi qisqa videolar va rasmlar orqali kundalik ingliz so'zlarini o'rgatishda foydali. O'qituvchilar har kuni yangi so'z yoki iborani taqdim etib, uning talaffuzi, ma'nosi va ishlatilishiga oid misollar berishi mumkin [4: 89]. Bu usul mikroo'qitish (microlearning) kontsepsiyasiga asoslanib, kichik qismlarda ma'lumot uzatadi.

IGTV funksiyasi orqali o'qituvchilar uzoqroq video darslarni yaratishi mumkin. Masalan, grammatika qoidalarini tushuntirish, nutq namunalarini ko'rsatish yoki madaniy ma'lumotlarni ulashish mumkin. Bu videolar o'quvchilar tomonidan istalgan vaqtda ko'rilishi va qayta-qayta tomosha qilinishi mumkinligi sababli ta'lim samaradorligini oshiradi [5: 134]. Reels funksiyasi qisqa, dinamik videolar yaratishga imkon beradi. O'qituvchilar bu orqali ingliz tilidagi qo'shiqlar, she'rlar yoki dialoglarni taqdim etishi mumkin. Musiqali va harakat bilan to'ldirilgan kontent o'quvchilarning diqqatini uzoq vaqt saqlaydi va esda qolishni osonlashtiradi [6: 67]. Instagramdagi hashtag tizimi ham ta'limda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchilar maxsus hashtaglar yaratib, o'quvchilarni ma'lum mavzular bo'yicha kontentni qidirishga yo'naltirishi mumkin. Bu esa mustaqil o'rganishni rag'batlantiradi va o'quvchilarni faol qiladi [7: 123]. Interaktiv elementlar – so'rovnomalar, savollar va javoblar, sticker'lar orqali o'quvchilar bilan bevosita muloqot qilish imkoniyati mavjud. Bu o'quvchilarning nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim, chunki ular o'z fikrlarini ingliz tilida ifoda etishga majbur bo'ladi [8: 201].

Instagram'dan ta'lim maqsadlarida foydalanishda bir qancha muammolar yuzaga kelishi mumkin. Eng asosiy muammo – o'quvchilarning diqqatini chalg'ituvchi kontentlarning ko'pligi. Platforma o'yin-kulgi va shaxsiy kontentga mo'ljallanganligi sababli, o'quvchilar ta'lim materiallaridan boshqa kontentlarga o'tib ketishlari ehtimoli yuqori [4: 92]. Bu muammoning yechimi sifatida o'qituvchilar alohida ta'lim hisobi yaratishi va o'quvchilarni faqat ta'lim vaqtida foydalanishga yo'naltirishi tavsiya etiladi.

Ikkinchi muhim muammo – internetga doimiy bog'liqlik va texnik nosozliklar. Barcha o'quvchilar doimiy internet aloqasiga ega emasligi mumkin, bu esa ta'lim jarayonida tengsizlik

yaratadi [7: 89]. Yechim sifatida o'qituvchilar kontentni offline rejimda ham ko'rish imkonini beruvchi materiallar tayyorlashi va muqobil usullarni ishlab chiqishi zarur.


Uchinchi muammo – shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi va o'quvchilarning online faoliyatini nazorat qilish qiyinchiligi. O'quvchilar noto'g'ri kontent bilan uchrashishi yoki begona shaxslar bilan aloqaga kirishishi mumkin [5: 167]. Bu masalani hal etish uchun ota-onalar va maktab ma'muriyati bilan hamkorlikda aniq qoidalar ishlab chiqish, o'quvchilarni raqamli savodxonlik bo'yicha o'qitish va doimiy monitoring amalga oshirish kerak.

To'rtinchi muammo – o'qituvchilarning raqamli ko'nikmalarining etishmasligi. Ko'pchilik o'qituvchilar Instagram'ning barcha imkoniyatlaridan to'liq foydalana olmaydi yoki platformada sifatli ta'lim kontenti yaratishda qiyinchiliklarga duch keladi [8: 143]. Bu muammoni hal qilish uchun o'qituvchilar uchun maxsus treninglar tashkil etish, mentorlik dasturlarini joriy qilish va bosqichma-bosqich o'rgatish dasturlari ishlab chiqish zarur.

Instagram platformasi ingliz tili o'qitishda katta salohiyatga ega ekan. Uning vizual va interaktiv imkoniyatlari zamonaviy o'quvchilarning ehtiyojlariga javob beradi va ta'lim jarayonini qiziqarli hamda samarali qiladi. Stories, IGTV va Reels kabi funksiyalar orqali turli xil ta'lim kontenti yaratish mumkin.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, Instagram'dan foydalanish o'quvchilarning motivatsiyasini 30–40% ga oshiradi va til o'rganish jarayonini yanada jonli qiladi. Biroq bu platformadan foydalanishda pedagogik tamoyillarga rioya qilish va maqsadli yondashuv zarur. Kelajakda ijtimoiy tarmoqlardan ta'limda foydalanish yanada kengayishi kutilmoqda. O'qituvchilar uchun tavsiya etiladi: Instagramni an'anaviy o'qitish usullari bilan birlashtirish, kontentni muntazam yangilab turish va o'quvchilar bilan doimiy interaktiv aloqani saqlash.

1-rasm. Instagramdan foydalangan holda



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akhmadjonov A.A. Zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalar. – Toshkent: O'qituvchi, 2022. – 156 b.
2. Brown H.D. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. – New York: Longman, 2021. – 234 p.
3. Crystal D. English as a Global Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020. – 212 p.
4. Dudeney G., Hockly N. How to Teach English with Technology. – London: Pearson, 2022. – 189 p.
5. Karimova M.S. Ijtimoiy tarmoqlarning ta'limdagi o'рни. – Toshkent: Fan, 2023. – 134 b.
6. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2021. – 267 p.
7. Warschauer M., Healey D. Computers and language learning // Language Teaching. – 2019. – Vol. 31. – P. 57-71.
8. Yuldasheva N.K. Zamonaviy til o'qitish metodlari. – Samarqand: SamDU, 2022. – 201 b.

Sitorabegim MUXAMEDJANOVA,

*Buxoro davlat texnika universiteti o'zbek va xorijiy tillar kafedrasida dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

TIBBIYOT TA'LIMIDA CHET TILLARIDAGI PROFESSIONAL MULOQOTGA TO'SIQ BO'LAYOTGAN LINGVISTIK VA MADANIY OMILLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada tibbiyot ta'limida xorijiy tillardagi samarali muloqotni shakllantirishga to'sqinlik qiluvchi lingvistik va madaniy omillar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida lug'at boyligining cheklangani, adabiyotlarda grammatik xatolarning ko'pligi, yetarli pragmatik ko'nikmalarning yo'qligi, shuningdek, qadriyatlar tizimi, nutqiy odob-axloq me'yorlari va "shifokor – bemor" muloqot strategiyalarida namoyon bo'ladigan madaniy tafovutlar tibbiyot talabalari duch kelayotgan asosiy kommunikativ to'siqlar ekani aniqlangan. Ular klinik amaliyotda tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkinligi isbotlangan.

Kalit so'zlar: lingvistik to'siqlar, madaniy omillar, tibbiyot ta'limi, professional muloqot, lingvopragmatika, madaniyatlararo kompetensiya, akademik mobillik, kommunikativ strategiyalar, professional diskurs, tibbiy terminologiya.

Annotation. This article analyzes the linguistic and cultural factors hindering the effective development of foreign language communication in medical education. The study revealed that the main communicative barriers faced by medical students are limited vocabulary, a large number of grammatical errors in literature, a lack of sufficient pragmatic skills, as well as cultural differences manifested in the value system, speech etiquette norms, and doctor-patient communication strategies. It has been proven that they can lead to misunderstandings in clinical practice.

Keywords: linguistic barriers, cultural factors, medical education, professional communication, linguopragmatics, intercultural competence, academic mobility, communicative strategies, professional discourse, medical terminology.

Аннотация. В данной статье анализируются лингвистические и культурные факторы, препятствующие формированию эффективного общения на иностранных языках в медицинском образовании. В ходе исследования было установлено, что основными коммуникативными барьерами, с которыми сталкиваются студенты-медики, являются ограниченный словарный запас, большое количество грамматических ошибок в литературе, отсутствие достаточных прагматических навыков, а также культурные различия, проявляющиеся в системе ценностей, нормах речевой этики и стратегиях общения врач – пациент. Доказано, что они могут привести к недопониманию в клинической практике.

Ключевые слова: лингвистические барьеры, культурные факторы, медицинское образование, профессиональная коммуникация, лингвопрагматика, межкультурная компетентность, академическая мобильность, коммуникативные стратегии, профессиональный дискурс, медицинская терминология.

Zamonaviy tibbiy ta'lim globallashuv sharoitida rivojlanib bormoqda, bunda internatsionallashuv va akademik mobillik uning modernizatsiyasining eng muhim omillaridan biriga aylanmoqda. Talabalar va o'qituvchilarning xalqaro ta'limiy va kasbiy loyihalarda ishtiroki yuqori darajadagi xorijiy tillarni bilishni talab qiladi. Bu esa ularni jahon ilmiy resurslariga kirish imkoniyati bilan ta'minlab, klinik tajriba almashinuviga ko'maklashadi [3, 4, 10]. Biroq tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, samarali professional muloqotni shakllantirish faqatgina tilni egallash bilan cheklanmaydi.

Til to'siqlari cheklangan lug'at boyligi, tibbiy terminologiyani yetarli bilmaslik, grammatik xatolar hamda og'zaki nutqni tushunishda qiyinchiliklarni o'z ichiga oladi. Madaniy to'siqlar esa nutq odobi, qadriyatlar tizimidagi farqlar va "shifokor – bemor" o'zaro munosabatlari

strategiyalaridagi tafovutlar bilan bog'liqdir [13, 7, 1]. Mazkur jihatlarni yetarli darajada hisob olmaslik nafaqat tibbiyot talabalari kasbiy o'zini-o'zi ro'yobga chiqarishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, balki ularning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini ham pasaytiradi, bu esa tadqiqotning ahamiyatini yanada kuchaytiradi [2: 6]. Klinik amaliyotda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noto'g'ri tushunishlar ayniqsa xatolarning bahosi nihoyatda yuqori bo'lgan tibbiy mutaxassisliklarda jiddiy xavf tug'diradi.

Lingvopragmatik yondashuvni joriy etish, madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish hamda ilg'or pedagogik texnologiyalardan (simulyatsion ta'lim, TBLT, korpus tadqiqotlari va VR/AR texnologiyalari) foydalanish to'siqlarni yengib o'tish yo'llari bilan chambarchas bog'liqdir [5, 8, 12].

1-jadval

Tibbiyot ta'limida lingvistik va madaniy to'siqlar

To'siq turi	Namoyon bo'lish shakllari	Ta'lim va amaliyotga ta'siri	Bartaf etish yo'llari
Lingvistik to'siqlar	lug'at boyligining yetishmasligi, tibbiy terminologiyani yaxshi bilmaslik, grammatik xatolar	professional muloqot aniqligining pasayishi, ilmiy matnlarni o'qishda qiyinchiliklar	terminologiyani maqsadli o'rganish, korpus resurslaridan foydalanish, TBLT, til simulyatsiyalari

Fonetik-auditiv	eshitish orqali tushunishda qiyinchiliklar, talaffuzdagi xatolar, kuchli aksent	og'zaki muloqotda tushunmovchiliklar, ayniqsa stressli klinik vaziyatlarda	eshitish ko'nikmalarini rivojlantirish, autentik materiallar bilan ishlash, shadowing, multimediyadan foydalanish
Madaniy to'siqlar	qadriyatlar tizimidagi farqlar, nutqiy odob-axloq me'yorlari, "shifokor–bemor" muloqot uslublari	bemor va hamkasblar bilan tushunmovchilik, ishonchning pasayishi, hamkorlik samaradorligining kamayishi.	madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish, odob-axloq formulalarini o'rgatish, kross-madaniy treninglar
Pragmatik to'siqlar	nutqiy aktlardan foydalanishdagi cheklanganlik (protseduralarni tushuntirish, anamnez yig'ish, xushmuomalalik)	Muloqotdagi xatolar, shifokorning yetarli darajada malakali emasdek ko'rinishi.	lingvopragmatik yondashuv, klinik dialoglarni modellash, VR va simulyatorlardan foydalanish

Tadqiqot natijalari mahalliy va xorijiy mualliflarning xulosalarini qo'llab-quvvatlaydi, ya'ni pragmatik va madaniyatlararo kompetensiyani yetishmasligi tibbiyot sohasida muloqot muammolari bilan ko'pincha chambarchas bog'liqdir. Masalan, Bardovi-Harlig va Hartford [1] protseduralarni tushuntirish yoki bemorga hammadlik bildirishda nutqiy vositalarni noto'g'ri tanlash kabi xatolar muloqot uzilishlariga olib kelishini ta'kidlaydi. Shunga o'xshash natijalar Taguchi [13] tadqiqotida ham qayd etilgan bo'lib, unda tibbiyot talabalari pragmatik ko'nikmalarini yetarli darajada rivojlantirmaganliklari alohida ta'kidlanadi. Safronova esa madaniyatlararo kompetensiyani maqsadli rivojlantirishni bo'lajak shifokorlarning kasbiy sotsializatsiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida ko'radi va bu masalaga ilmiy diskursida alohida e'tibor qaratadi [11]. Larina fikricha, odob va xushmuomalalikni ifodalashdagi

madaniy tafovutlar global klinik amaliyotda tez-tez noto'g'ri tushunishlarga sabab bo'ladi [7].

Shunday qilib, to'siqlarni subyektiv (til tayyorgarligining yetarli emasligi, akademik mobillik tajribasining cheklanganligi, pragmatik xabardorlik darajasining pastligi) va obyektiv (tibbiy terminologiyani murakkabligi, madaniy me'yorlardagi tafovutlar hamda professional diskursning o'ziga xosligi) turlarga ajratish mumkin. Ularni yengib o'tish uchun quyidagilarni o'z ichiga olgan kompleks strategiya zarur:

- lingvopragmatik metodikalarni ishlab chiqish;
- simulyatsion texnologiyalar va VR/AR platformalaridan foydalanish;
- akademik mobillikni kengaytirish;
- madaniyatlararo treninglar va tibbiy terminologiyaga oid maqsadli kurslarni tashkil etish [5, 8, 4].

2-jadval

Tibbiyot talabalari professional muloqotidagi obyektiv va subyektiv to'siqlar

To'siq turi	Namoyon bo'lish shakllari	Oqibatlar	Bartarf etish yo'llari
Obyektiv	Tibbiy terminologiyani murakkabligi, madaniy me'yorlardagi farqlar, professional diskursning o'ziga xosligi.	Bemor va hamkasblar bilan muloqotda tushunmovchilik, kommunikatsiya sifatining pasayishi.	Tibbiy terminologiyani maqsadli o'rganish, korpus resurslarini qo'llash, kross-madaniy ta'lim.
Subyektiv	Yetarli til tayyorgarligining yo'qligi, akademik mobillik tajribasining cheklanganligi, pragmatik ko'nikmalarning sustligi.	Nutqiy aktlarni tanlashdagi xatolar, tilni rasmiy qo'llash, kommunikativ uzilishlar.	Lingvopragmatik yondashuv, simulyatsion texnologiyalar, VR/AR-treninglar, talabalar mobilligini kengaytirish

Shunday qilib, tibbiyot talabalari professional muloqotidagi obyektiv va subyektiv to'siqlar nafaqat ta'lim jarayonida, balki klinik amaliyotda ham samarali aloqa o'rnatishga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun lingvopragmatik yondashuv, madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish hamda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish zarur.

Shu asosda kelajakdagi shifokorlarning global ilmiy va professional hamjamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasi ta'minlanadi.

Tadqiqot maqsadlariga erishish uchun ham empirik, ham nazariy usullarni o'z ichiga olgan kompleks yondashuv qo'llanildi. Ushbu yondashuv madaniyatlararo o'zaro ta'sirlar kontekstida tibbiyot talabalarining professional

muloqot xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga imkon beradi [3: 4].

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish. Birinchi navbatda, madaniyatlararo va professional muloqot muammolariga bag'ishlangan ilmiy nashrlarning tizimli tahlili amalga oshirildi. Ushbu tahlil doirasida xorijiy tadqiqotchilarning ishlari ko'rib chiqildi:

- Byram (1997) – madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya modelini yaratgan;
- Taguchi (2011) – talabalar chet tillarini o'rganish jarayonida pragmatik rivojlanish muammolarini tadqiq qilgan;
- tezda o'rgana olmagan bilimlarni qayta-qayta video, matn, taqdimot, iboralarning izohli lug'ati ko'rinishida o'rganish;
- mustaqil ta'lim mavzularini erkin tanlash;
- fanning modullari bo'yicha nazariy ma'lumotlarni o'rganib borish;
- amaliy va laboratoriya topshiriqlarni o'z vaqtida topshirish;

- mutaxassislik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid videodarslarga murojaat qilish, ulardan foydalanish;

- test savollariga javob berib o'zini o'zi baholash;
- mutaxassislikka oid davlat interaktiv xizmatlarni o'rganib, o'z xulosalariga ega bo'lish kabi imkoniyatlarni beradi.

Fan o'qituvchisi uchun yaratiladigan imkoniyatlar:

- fan mavzularini o'qitish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalarni olish;
- mavzulardagi nazariy ma'lumotlarni ko'zdan kechirish va kerakli vaqtda undan foydalanish;
- talabalarning o'zlashtirish darajalarini test orqali aniqlash;
- fanni o'qitishda taqdimot slaydlaridan foydalanish;
- talabalarga amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari topshiriqlari va mustaqil ta'lim mavzularini taqdim qilish.

Yaratilgan elektron axborot-ta'lim resursidan foydalanish metodikasi quyidagilardan iborat:

"Ma'ruza mashg'ulotlari" bo'limi yordamida talabalar tarmoq texnologiyalari faniga oid ma'ruza mashg'ulotlari bilan tanishib chiqadilar.

“Amaliy mashg'ulotlar” bo'limida tarmoq texnologiyalari faniga oid amaliy mashg'ulotlari joylashtirilgan.

“Laboratoriya mashg'ulotlari” bo'limida tarmoq texnologiyalari faniga oid laboratoriya mashg'ulotlari o'rin olgan.

“Mustaqil ta'lim topshiriqlari” tugmasidan talabalar mustaqil ta'lim topshiriqlarini ko'rishlari va ularni namunaviy topshiriq baholariga moslab tayyorlashadi.

“Video yo'riqnomalar” tugmasida fanning o'quv dasturida berilgan mavzular bo'yicha video darslar takomillashtirilgan ko'rinishda joylashtirilgan.

“Test savollari” tugmasidan talabalar fanga oid test topshiriqlarini ishga tushirishlari, o'z bilimlarini sinab ko'rish va o'zini o'zi baholaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, zamonaviy Web-texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan elektron ta'lim resursi talaba (foydalanuvchi)ning bilim, ko'nikmalarini baholashda obyektiv yondashish imkoniyatlarini beradi. Bundan tashqari, ushbu tizim hozirgi davrning dolzarb talabalaridan biri bo'lgan, talabaning mustaqil ishlashi uchun yetarli darajada ko'nikmalar hosil qilishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Elektron resurslarni yaratish texnologiyasi. https://www.researchgate.net/publication/349102060_elektron_resurslarni_tarqatish_tehnologiyasi.
2. Begimqulov U.SH. Oliy pedagogik ta'lim tizimiga zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-metodik asoslari: Ped. fan. dok. diss... – Toshkent: TDP, 2007. – 250 b.
3. Zakirova F., Muxamedxanov U., Sharipov Sh., Isyanov R.G., Esonboboyev F., Dottoyev S. Elektron o'quv-metodik majmualar va ta'lim resurslarini yaratish metodikasi. – Toshkent: O'OMTV, 2010. – 57 b.

G'iyosjon SHAMSIDDINOV,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti matematika va ta'limda axborot texnologiyasi kafedrasida o'qituvchisi

TA'LIM JARAYONIDA SIMULYATSION DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARINI OSHIRISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim jarayonida simulyatsion dasturiy vositalardan foydalanishning ahamiyati, o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi roli hamda raqamli ta'lim texnologiyalari bilan integratsiyasi tahlil qilinadi. Simulyatsion muhitlar yordamida o'quv jarayonini interfaol tashkil etish, murakkab jarayonlarni xavfsiz sharoitda modellashtirish, nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirish imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, turli fanlarda qo'llaniladigan PhET, MATLAB Simulink, Algodo, Tinkercad, NetSim, GeoGebra kabi platformalarning didaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: simulyatsiya, modellashtirish, raqamli ta'lim, interfaol o'qitish, virtual laboratoriya, PhET, MATLAB Simulink, GeoGebra, Tinkercad, o'quv texnologiyalari.

Annotation. This article analyzes the importance of using simulation software tools in the educational process, their role in the development of students' practical skills, and their integration with digital educational technologies. With the help of simulation environments, the possibilities of interactive organization of the educational process, modeling complex processes in safe conditions, and combining theoretical knowledge with practical exercises are highlighted. The didactic capabilities of such platforms as PhET, MATLAB Simulink, Algodo, Tinkercad, NetSim, GeoGebra, used in various disciplines, are also analyzed.

Keywords: simulation, modeling, digital education, interactive learning, virtual laboratory, PhET, MATLAB Simulink, GeoGebra, Tinkercad, educational technologies.

Аннотация. В данной статье анализируется важность использования симуляционных программных средств в образовательном процессе, их роль в развитии практических навыков учащихся и интеграция с цифровыми образовательными технологиями. С помощью симуляционных сред освещаются возможности интерактивной организации учебного процесса, моделирования сложных процессов в безопасных условиях, сочетания теоретических знаний с практическими занятиями. Также анализируются дидактические возможности таких платформ, как PhET, MATLAB Simulink, Algodo, Tinkercad, NetSim, GeoGebra, используемых в различных науках.

Ключевые слова: симуляция, моделирование, цифровое образование, интерактивное обучение, виртуальная лаборатория, PhET, MATLAB Simulink, GeoGebra, Tinkercad, образовательные технологии.

XXI asrda ta'lim tizimi raqamli transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. An'anaviy o'qitish uslublari bilan bir qatorda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), sun'iy intellekt, virtual va kengaytirilgan reallik, hamda simulyatsion dasturiy vositalar ta'lim sifatini oshirishda muhim omilga aylanmoqda.

Simulyatsion dasturlar (yoki modellashtiruvchi vositalar) bu – real hayotdagi jarayon va hodisalarni kompyuter

muhiti orqali virtual tarzda yaratish, tahlil qilish va boshqarish imkonini beruvchi raqamli platformalardir. Ular yordamida o'quvchi yoki talaba xavfsiz sharoitda amaliy tajriba o'tkazishi, jarayonning natijalarini tahlil qilishi va o'z fikrini sinovdan o'tkazishi mumkin. Bugungi kunda ko'plab ilg'or ta'lim muassasalari o'quv jarayonida PhET Interactive Simulations, MATLAB Simulink, Algodo, Tinkercad, GeoGebra kabi dasturlardan faol foydalanmoqda. Ularning


barchasi turli fanlar – fizika, matematika, informatika, elektronika va hatto biologiya yo'nalishlarida samarali natija beradi. Simulyatsion dasturlar ta'lim jarayoniga kiritilishi bo'yicha xalqaro va mahalliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu vositalar o'quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtiradi. Masalan, Clark va Mayer (2016) "E-Learning and the Science of Instruction" asarida ta'kidlaganidek, o'quvchilarga murakkab jarayonlarni tushuntirishda interfaol simulyatsiyalar an'anaviy ma'ruzaga qaraganda 40% ko'proq samaradorlik beradi [1].

PhET loyihasi (Kolorado universiteti, AQSh) tomonidan ishlab chiqilgan simulyatsiyalar orqali millionlab talabalar fizika, kimyo va biologiya jarayonlarini interfaol tarzda o'rganmoqda. O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida ham bu platforma so'nggi yillarda laboratoriya mashg'ulotlarini zamonaviylashtirishda keng qo'llanilmoqda [4]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PQ-60-sonli qarorida ham raqamli ta'limni rivojlantirish, virtual va simulyatsion texnologiyalarni o'quv jarayoniga keng joriy etish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Mahalliy mualliflardan A.Abduqodirov (2021) o'z tadqiqotida modellashtirish texnologiyalari o'quvchilarda tajriba o'tkazish va natijani tahlil qilish ko'nikmalarini kuchaytirishini ta'kidlaydi [2]. Xolmurodov Sh (2023) esa informatika fanida simulyatsion muhitlardan foydalanish o'quvchilarning algoritmik fikrlashini shakllantirishda samarali ekanini ko'rsatadi [3].

Simulyatsiya (lotincha simulatio – "taqlid qilish", "o'xshatish") bu – real jarayon, hodisa yoki tizimning xatti-

harakatlarini virtual muhitda modellashtirish, ya'ni uni kompyuter orqali qayta yaratish va boshqarish jarayonidir. Simulyatsion dasturiy vositalar bu – o'quvchi yoki foydalanuvchiga real sharoitdagi murakkab jarayonlarni xavfsiz, interfaol va ko'rgazmali tarzda o'rganish imkonini beruvchi dasturiy muhitdir. Ular yordamida foydalanuvchi virtual eksperimentlar o'tkazadi, parametrlarni o'zgartiradi, natijalarni tahlil qiladi va xulosalar chiqaradi. Masalan, fizika darsida elektr zanjiri tuzish yoki kimyo darsida reaksiya tezligini o'rganish uchun laboratoriya asboblari o'rniga simulyatsion dasturdan foydalanish mumkin. Natijada o'quvchi xatolardan qo'rqmasdan tajriba o'tkazadi, natijani real vaqt rejimida kuzatadi va bilimni amaliy tajriba orqali mustahkamlaydi. Simulyatsion dasturlarni maqsadiga va ta'lim yo'nalishiga qarab bir necha guruhlariga ajratish mumkin.


Ilmiy-texnik yo'nalishdagi simulyatsiyalar. Bu turdagi dasturlar fizik, muhandislik, mexanik yoki elektr tizimlarini modellashtirishda qo'llaniladi. Ular murakkab formulalar, tenglamalar va jarayonlarni matematik modellar asosida hisoblaydi. Bunday turdagi simulyatsion dasturlarga MATLAB Simulink – elektr zanjirlar, mexanik tizimlar, nazorat avtomatikasi modellarini yaratish uchun, COMSOL Multiphysics – issiqlik almashinuvi, oqimlar va elektromagnit jarayonlarni modellashtiradi, PhET Interactive Simulations – fizika va kimyodagi asosiy qonunlarni interfaol tarzda o'rganish uchun mo'ljallangan [4].



1-rasm. phet.colorado.edu simulyatsion platformasida vodorod atomining modellari

Pedagogik yoki o'quv simulyatsiyalari. Bu dasturlar o'quv jarayonini, didaktik jarayonlarni yoki o'qitish metodlarini modellashtiradi. Odatda maktab va kollej bosqichida qo'llaniladi. Algodoo – mexanika va fizika

hodisalarini vizual tarzda tushuntirish uchun (masalan, to'pning harakati, ishqalanish, energiya almashinuvi), NetSim – kompyuter tarmoqlari va internet protokollarini o'rganishda ishlatiladi.




2-rasm. NetSim simulyatsion dasturida lokal kompyuter tarmoqlarini loyihalash.

Virtual laboratoriyalar. Ushbu vositalar real laboratoriya tajribalarini virtual tarzda amalga oshirish imkonini beradi. O'quvchi laboratoriya jihozlariga ehtiyoj sezmasdan, xavfsiz muhitda amaliy tajribani o'tkazadi. Virtual Labs India biologiya, tibbiyot, kimyo va elektrotexnika fanlarida laboratoriya mashg'ulotlarini simulyatsiya qiladi.

Kompyuter tarmoqlari va informatika yo'nalishidagi simulyatsiyalar. Bu turdagi vositalar algoritmik

jarayonlar, dastur ish faoliyati yoki tarmoq strukturasi faoliyatini o'rganish uchun ishlatiladi. Cisco Packet Tracer – tarmoq uskunalari (router, switch va hokazolar) sozlash va test qilish uchun, NetSim – kompyuter tarmoqlarining ishlashini modellashtiradi, Greenfoot yoki Scratch – dasturlash mantig'ini o'rgatishda simulyatsion muhit sifatida qo'llaniladi.



3-rasm. Scratch maktab o'quvchilariga dasturlash va algoritmik bilimlarini shakllantirishga yordam beradigan simulyator dasturi.

Tibbiyot va biologiya yo'nalishidagi simulyatsiyalar. Bu vositalar inson tanasi, organlar, hujayra jarayonlari yoki jarrohlik amaliyotlarini o'rganishda ishlatiladi. Bu

dasturlar o'quv jarayonini, didaktik jarayonlarni yoki o'qitish metodlarini modellashtiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, simulyatsion vositalardan foydalangan

o'quvchilar nazariy bilimlarni 30–50% tezroq o'zlashtiradi. Ularning amaliy tajriba o'tkazish ko'nikmalari 1,5 barobarga ortadi. Shuningdek, o'quvchilarda mustaqil izlanish, sabab-oqibatni tushunish va muammoli vaziyatni hal qilish malakalari shakllanadi. Ta'lim tizimida simulyatsion dasturiy vositalardan foydalanish jarayonni yanada samarali, interaktiv va innovatsion uslublarda tashkil etish imkonini beradi. Mazkur vositalarni o'quv jarayoniga joriy etish orqali o'quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki ularni amaliy faoliyatga tatbiq etish, analitik va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga zamin yaratiladi.

Simulyatsion dasturiy vositalarni ta'lim jarayoniga joriy etish o'quvchilarda amaliy ko'nikmalar va tajriba o'tkazish madaniyati shakllanadi. Nazariy bilimlar chuqur o'zlashtiriladi, fanlararo bog'liqlik mustahkamlanadi. O'qituvchi faoliyatida raqamli pedagogika elementlari keng qo'llaniladi. O'quvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqishi oshadi, ta'lim jarayoni qiziqarli va interfaol tus oladi. Ta'lim sifati oshib, o'quvchi natijalarini baholashning yangi shakllari vujudga keladi. Uzoq muddatda raqamli laboratoriyalar an'anaviy jihozlar o'rnini qisman bosadi. Shuningdek, simulyatsion vositalar baholash tizimini takomillashtirishga ham xizmat qiladi. Ularning ko'pchiligi avtomatik qayd va monitoring tizimiga ega bo'lib, o'quvchining faoliyatini

real vaqt rejimida tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa o'qituvchiga aniq va obyektiv baholash imkonini yaratadi, talabalarining yutuq va kamchiliklarini tizimli ravishda ko'rib chiqish imkonini beradi. Bundan tashqari, simulyatsion texnologiyalarni qo'llash masofaviy ta'lim jarayonini tashkil etishda ham katta ahamiyat kasb etadi. Ular veb-brauzer yoki bulutli tizimlar orqali ishlashi tufayli, talabalar laboratoriya jihozlarisiz ham mustaqil tajribalar o'tkazishi mumkin. Bu imkoniyat pandemiya yoki resurslar cheklangan sharoitlarda ta'lim sifatini saqlab qolishga yordam beradi. Ta'limda simulyatsion dasturiy vositalardan foydalanish nafaqat zamonaviy texnologik tendensiya, balki o'qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan zaruriy bosqichdir. Bunday dasturlar o'quvchilarda mustaqil o'rganish, eksperiment qilish, natijalarni tahlil qilish va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

O'zbekiston ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish siyosati doirasida simulyatsion dasturlarning keng tatbiq etilishi, ayniqsa, texnik va tabiiy fanlarda, zamonaviy kompetensiyalarga ega kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion ta'lim sharoitida simulyatsion dasturiy vositalar bu – o'quv jarayonini modellashtirish, talabaning faol o'rganishini qo'llab-quvvatlovchi, ta'limni individuallashtirish imkoniyatini oshiruvchi yordamchi didaktik vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Clark R., Mayer R. E-Learning and the Science of Instruction. – Hoboken: Wiley, 2016.
2. Abduqodirov A. Modellashtirish texnologiyalarining ta'limdagi o'рни. // Ta'lim texnologiyalari, 2021.
3. Xolmurodov Sh. Informatika fanini o'qitishda simulyatsion vositalarning ahamiyati. // Oliy ta'limda innovatsiyalar, 2023.
4. Colorado University. PhET Interactive Simulations Project. <https://phet.colorado.edu>.

Marxabaxon MANSUROVA,

*Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab Andijon filiali o'qituvchisi,
Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi*

ADABIYOT DARSLARINI TASHKIL ETISHDA BADIY TAHLILNING O'RNINI VA ASOSIY TAMOYILLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada badiylik va badiiy asar tushunchalari mohiyati, badiylik mezonlari, adabiyot darslarini tashkil etishda badiy tahlilning o'рни va uning asosiy tamoyillari, tahlildan ko'zlangan maqsad, o'quvchilarda tahlil qila olish ko'nikmasini rivojlantirishda e'tibor qaratish lozim bo'lgan jihatlar haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: badiylik, badiiy asar, badiylik mezonlari, badiiy asarga yondashuvlar, talqin nazariyasi, badiiy tahlil, analiz, badiiy tahlil turlari, ilmiy-filologik tahlil, o'quv-didaktik tahlil, estetik did, pedagogik maqsadga yo'naltirilganlik, muallifga ergashib yoki matn doirasida amalga oshiriladigan o'quv tahlili, badiiy obrazlar asosidagi didaktik tahlil, muammoli o'quv tahlili, tahlil tamoyillari

Annotation. This article discusses the essence of the concepts of artistic quality and literary work, the criteria of artistic merit, the role of artistic analysis and its main principles in organizing literature lessons. It also addresses the objectives of analysis and the key aspects to focus on when developing students' skills in conducting literary analysis.

Keywords. Artistic quality, artistic work, criteria of artistic quality, approaches to artistic work, theory of interpretation, artistic analysis, analysis, types of artistic analysis, scientific-philological analysis, educational-didactic analysis, aesthetic taste, orientation towards pedagogical goals, educational analysis conducted by following the author or within the text framework, didactic analysis based on artistic images, problematic educational analysis, principles of analysis.

Аннотация. В данной статье рассматривается сущность понятий художественности и художественного произведения, критерии художественности, роль художественного анализа и его основные принципы в организации уроков литературы.

Также обсуждаются цели анализа и важные аспекты, на которые следует обратить внимание при развитии у учащихся навыков анализа.

Ключевые слова. Художественность, художественное произведение, критерии художественности, подходы к художественному произведению, теория интерпретации, художественный анализ, анализ, виды художественного анализа, научно-филологический анализ, учебно-дидактический анализ, эстетический вкус, ориентация на педагогическую цель, учебный анализ, выполняемый с опорой на автора или в рамках текста, дидактический анализ на основе художественных образов, проблемный учебный анализ, принципы анализа.

O'zbekiston Qahramoni, ustoz munaqqid Ozod Sharofiddinov: "Adabiyot o'qituvchisining vazifasi – kitobxon tayyorlashdan iborat", – deganlarida adabiy ta'limning bosh maqsadi masalasiga to'xtalib o'tgan. Bugungi kun o'qituvchisi o'quvchi qalbida badiiy asarga muhabbat uyg'ota olish bilan bir qatorda unda badiiy matnni tushuna olish uchun estetik didni ham yuksaltirishga harakat qilmog'i lozim. Oddiy o'quvchidan yuksak didli, estetik tafakkurga ega kitobxonni shakllantirishda o'quvchi qalbida badiiy so'zni his etish, undan zavq va lazzat ola bilish, uning jozibasini his etish, asardagi badiiyatni ko'ra olish, o'qigan badiiy asarini talqin va tahlil eta olish, undan hayotiy xulosalar chiqara bilish, asar asosidagi sezimlarini og'zaki va yozma tarzda erkin bayon qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchi estetik didini rivojlantirishda adabiyot darslaridagi badiiy tahlilning o'zni beqiyos. Bo'lajak adabiyot o'qituvchilari va adabiyotshunos olimlarni tayyorlashda ham badiiy tahlilni chuqur o'rganish, o'quvchilarga o'rgata olish ko'nikmasiga ega bo'lish muhim malaka talablaridan biriga aylanmog'i darkor.

Badiiy adabiyot tushunchasi olamni obrazli ko'rish va timsollar asosida aks ettirish mahsuli bo'lmish badiiy asarlarni o'z ichiga oladi. Bunday asarlar inson qalbining tovlanishlarini, tuyg'ularining jilvalarini his ettirish, uning quvonch-u iztiroblarini o'quvchi qalbida aks etishiga asoslanadi. Har bir millatning madaniy darajasini belgilashda uning adabiyoti muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki milliy adabiyot milliy ruhni o'zida namoyon qiladi. Milliy ruhni to'laqonli aks ettirish va uni saqlab qolishda boshqa biror vosita badiiy adabiyotga teng kela olmaydi. Milliy ruhni saqlab qolgan xalqni esa hech qanday buzg'unchi g'oya yo'ldan ozdira olmaydi. "Adabiyoti bo'lmagan, adabiyotining taraqqiysiga intilmagan va adiblar yetishtirmagan millat oxiri bir kun hissiyotdan, o'ndan, fikrdan mahrum qolib, sekin-sekin inqirozga yuz tutadi", – deb yozganda Cho'lpon naqadar haq edi.

Badiiy asar badiiy jihatdan mukammal ham bo'lmog'i lozim. Badiiylikni belgilovchi mezonlardan eng birinchisi badiiy asarda yangi fikr aytilishi kerak. Badiiy adabiyot hayotning in'ikosi, lekin aynan nusxasi emas. Adabiyot hayotni o'zida aks ettirishi kerak, biroq undan quruq nusxa ko'chirgan, "hayotdagiga o'xshatib yozilgan" bo'lmasligi kerak. Umuman olganda badiiy asarda originallik bo'lishi kerak. "Yozuvchi kichik hikoya yozadimi, kattaroq qissa-romanmi, albatta, yangi gap aytishi kerak. Ijod ahliga faqat bitta talab qo'yilishi mumkin: nimani yozsang yoz, ammo toza va haqqoniy yoz!" [1: 133].

Badiiylik mezonlaridan yana biri badiiy asarda umuminsoniy muammolar aks etishi kerak. Adabiyot – ko'ngil ishi, lekin uning bahosini oshiruvchi eng kuchli vosita unda butun insoniyatga daxldor masalalar o'z ifodasini topgan bo'lishidir. Asr oshgan asarlarga razm solinsa, unda muhabbat va nafrat, adolat va adolatsizlik, imon va nafs, haqiqat va yolg'on, mardlik va qo'rqqoqlik, sadoqat va xiyonat kabi tuyg'ular yoritilganligini ko'rish mumkin.

Badiiy mukammal asarlarning yana bir xislati ularda milliy til bor bo'y-basti bilan namoyon bo'ladi. Badiiy asar tili milliy tilning umrboqiyiligi, go'zalligini ko'rsatishga xizmat qiluvchi vositadir.

Badiiy asar tushunchasi istalgan yozma matnni o'z ichiga olmaydi. Asar badiiyati yuqori bo'lgandagina kitobxon qalbidan joy ola oladi, kitobxon ko'ngil mulkidan joy ola bilish bugungi – "sariq" adabiyot avj olgan zamonda g'oyat muhimdir. Yengil-yelpi, badiiy salmog'i kam asarlarni chin ma'noda yetuk asarlardan farqlash uchun kitobxonda badiiy tahlil ko'nikmasi shakllangan bo'lishi kerak. Kitobxon o'quvchida ana shu badiiy didni shakllantirish uchun adabiyot o'qituvchisining o'zi badiiy tahlilni puxta o'zlashtirmog'i, o'quvchilarga ham buni yuqtira bilmog'i talab etiladi.

Badiiy tahlilning mohiyatini anglash uchun tahlil tushunchasi ma'nosini ko'rib o'tish zarur. "Adabiyotshunoslik lug'ati"da tahlil va analiz tushunchalari o'zaro ma'nodosh deb keltirilgan: "Tahlil atamasi ilmda keng qo'llanuvchi analiz terminining sinonimi sifatida ishlatiladi. Har ikki atama ham butunni anglash uchun uni qismlarga ajratishni, qismning butun tarkibidagi mohiyatini, uning boshqa qismlar bilan aloqasi va butunlikning yuzaga chiqishidagi o'rnini o'rganishni ko'zda tutadi" [2: 54].

Badiiy tahlil tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, adabiy asarni o'qish va mutolaadan keyingi jarayonda asarni keng qamrovli tushunish, estetik his etishga yo'naltirilgan faoliyat badiiy tahlildir. Bunda asarni barcha qirralari taftish etiladi – muallif hayoti va ijodidan to' asarda ko'tarilgan ijtimoiy muammolargacha. Shoir yoki yozuvchi hayotida mazkur asarning o'zni, boshqa asarlari bilan o'xshashlik va farqlari, muallif yashagan davr mafkurasi va uning asardagi aksi, bosh g'oyaning ifodalanishi, obrazlar tahlili, asar nomlanishi, qahramonlar taqdiri, munosabatlardagi sabab va maqsad bog'lanishlari – bularning barchasi badiiy tahlil elementlari bo'lishi mumkin. Maktab adabiy ta'limida mana shu jihatlarining barchasi kontekstual yondashuv asosida o'qitilsa, har bir asarga turli rakursdan nazar sola bilinsa, asardagi nozik ma'noni his qilish, yozuvchi asarda ochiq aytmag'an,

ishora qilgan haqiqatlarga yetib borish mumkin. Amerikalik yozuvchi Ernest Hemingway: “Badiiy asarning yozilmagan qismi yozilgan qismidan ko‘ra muhimroq”, – deganida asarning yuzaki tahlilini emas, muallif ochiq ko‘rsatmagan, ishoralar qoldirgan jihatlarini qidirib topishni nazarda tutgan bo‘lsa ajab emas. Adabiy ta’limda badiiy tahlil eng muhim bosqich hisoblanadi. Adabiyot o‘qituvchisini tayyorlashda ham badiiy tahlilga alohida urg‘u berish maqsadga muvofiq. “Qachonki bo‘lajak filolog badiiy asarlarni tahlil etish yo‘l-yo‘rig‘ini fan darajasida o‘rganmas va har qanday janrdagi estetik asarni tahlil qila olish malakasiga ega bo‘lmas ekan, adabiy ta’limdan kuzatilgan asl maqsadga to‘liq erishilishi mumkin emas” [3: 11].

Tahlil atamasi matnni qismlarga ajratgan holda butun-qism munosabatida o‘rganishni nazarda tutadi. Badiiy tahlil badiiy matnni dastavval komponentlarga ajratgan holda tadqiq qilib, keyin shu komponentlarni

birlashtirgan holda butun asar haqida xulosalar berishga asoslanadi. Badiiy asarni tahlil qilish jarayoni tahlil qiluvchidan kuchli bilim, tajribani talab qiladi. Badiiy tahlildagi eng muhim jihat asarning badiiyligi, ta’sirchanligi, jozibasi va o‘ziga xosligini ko‘rsatib beruvchi tomonlariga o‘quvchi e’tiborini qaratishdir. Shu ma’noda tahlil ilmiy-estetik foliyatning bir ko‘rinishi hisoblanadi.

Adabiyot darslarida badiiy tahlilning mana shu jihatlariga e’tibor qaratgan holda, o‘quvchilarda yuksak badiiy didni rivojlantira olgan o‘qituvchi haqiqiy ustoz nomiga loyiqdir. Zero, adabiyot darslari o‘quvchida kitobxonlik ko‘nikmasini shakllantirishda ilk bosqich bo‘lib xizmat qiladi. Adabiyotni sevgan, kitobxonlik madaniyati rivojlangan, badiiy asarni tushunib, his eta olgan inson chinakam ma’naviyatli insondir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ona tili. 7-sinf uchun darslik. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, 2022.
2. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akadernashr, 2010.
3. Yo‘ldosh Q., Yo‘ldosh M.. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016.

Dinara ABDURAXMONOVA,

Jizzax davlat pedagogika universiteti boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi kafedrasida o‘qituvchisi

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING O‘QUVCHILARDA YOZMA NUTQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHGA METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilar yozma nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish jarayonida qo‘llanilishi lozim bo‘lgan yondashuvlar yoritilgan. Xususan, shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy, integrativ va innovatsion yondashuvlarning nazariy asoslari hamda ularning samarali ta’lim jarayonini tashkil etishdagi ahamiyati ilmiy-metodik nuqtayi nazardan tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: yozma nutq, kompetensiya, metodik tayyorgarlik, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, integratsiya, innovatsiya.

Annotation. The article examines the approaches that should be used in the process of improving the methodological training of future primary school teachers in the development of students’ written and oral speech. In particular, the theoretical foundations of personality-oriented, competency-based, activity-based, integrative, and innovative approaches and their significance in organizing the effective educational process are analyzed from a scientific and methodological point of view.

Keywords: written communication, competency, methodological training, student-centered approach, integration, innovation.

Аннотация. В статье рассматриваются подходы, которые следует использовать в процессе совершенствования методической подготовки будущих учителей начальной школы в развитии письменной и устной речи учащихся. В частности, с научно-методической точки зрения анализируются теоретические основы личностно-ориентированного, компетентностного, деятельностного, интегративного и инновационного подходов и их значение в организации эффективного образовательного процесса.

Ключевые слова: письменная речь, компетентность, методическая подготовка, личностно-ориентированный подход, интеграция, инновации.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida o‘quvchilarning yozma nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Yozma nutq o‘quvchilarning muloqot madaniyatini, tafakkurini, ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Shu sababli, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini

takomillashtirish masalasi ilmiy izlanishlarni talab etmoqda. Ushbu jarayonni samarali tashkil etishda turli pedagogik yondashuvlarni uyg‘un qo‘llash davr talabidir.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilar yozma nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish jarayonini samarali

tashkil etish tanlangan yondashuvlar, tamoyillar va shart-sharoitlar bilan o'zaro bog'liq. Yondashuv – o'qitish va o'rganishga qarashning bir usuli. Har qanday mavzuni o'rganish yondashuvi asosida mavzuning nima ekanligini va uni qanday o'rganish mumkinligi to'g'risida nazariy qarash mavjud. Yondashuv talabalarni o'rganishga yordam beradigan sinf mashg'ulotlari yoki metodlaridan foydalanadigan usullarni, biror narsani o'rgatish usulini keltirib chiqaradi. Yondashuvning umumiy xususiyatlari:

- maqsadga yo'naltirilganlik – muayyan natijaga erishishga xizmat qiladi;
- metodologik xarakterga egalik – ilmiy izlanish yoki amaliy faoliyatni yo'naltiradi. Moslashuvchanlik turli sharoit va vazifalarga qarab turlicha qo'llanishi mumkin.
- tizimlilik – obyektini yaxlit holda o'rganishga yordam beradi [4].

Integrativ yondashuv haqida olim R.A.Mavlonova shunday yozadi: "Integratsiya" – "butun" degan ma'noni bildiradi, demak, bu tafakkur o'sish jarayonining turli qism va integratsiya atama va uslubiy nuqtai nazardan hodisa sifatida nima ekanligini ko'rib chiqaylik" [1]. Integratsiya jarayoni (lotincha *integration*-bog'lanish, tiklash) tizimning ilgari bir-biridan ajralib turuvchi qismlari va elementlarining o'zaro bog'liqligi va bir-birini to'ldiruvchilariga ko'ra yagona yaxlitlikka yig'ilishidir. Pedagogik jarayonda integratsiyalashgan holda tadqiqotchilar rivojlanish jarayonining ilgari bir-biridan ajralib turuvchi qismlarning integratsiyalashuvi bilan bog'liq jihatlari tushuniladi.

Integrativ yondashuv yozma nutqiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonini ko'p qirrali va tizimli asosda tashkil etadi. Mazkur yondashuvga ko'ra yozma nutq faoliyatini rivojlantirish jarayoni faqatgina ona tili-o'qish savodxonligi va uni o'qitish metodikasi fani darslari bilan cheklanib qolmay, adabiyot, xorijiy tillar, texnologiya va ijtimoiy fanlar bilan uzviy bog'liq holda olib borilishi lozim. Mana shunday integratsiya tilshunoslik, psixolingvistika, kognitiv pedagogika va kommunikativ metodologiyaning o'zaro uyg'unlashuviga asoslanib, bo'lajak o'qituvchilarning nutqiy faolligi va yozma ifoda qobiliyatining chuqur rivojlantiradi [5]. Adabiyot va ijtimoiy fanlar bilan integratsiya qilish samarali natijalar beradi, chunki ushbu fanlar bo'lajak o'qituvchilarning tanqidiy fikrlash, matnni kontekstual tahlil qilish va lingvistik sematikani tushunish qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini amalga oshiradi.

Yozma nutqiy faoliyatni rivojlantirish jarayonida texnologiyalar va interaktiv ta'lim usullarining qo'llanilishi ham alohida ahamiyatga ega. Zamonaviy o'quv jarayonida multimedia resurslari, raqamli platformalar va sun'iy intellekt tizimlari yordamida yozma nutqiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonini yanada samarali tashkil etilishi mumkin. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quvchilar yozma nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida ona tili va tabiiy fanlar integratsiyasiga asoslanib, turli xil topshiriqlar beriladi. Masalan: "*Tabiat bolasi*", "*Ajoyib mavjudot*", "*Suvsiz hayot bo'lmas*", "*Tabiat*

mo'jizalari", "*Men tabiat bo'lagi*" mavzusida matnlar tuzing. "*Tog' va cho'l*", "*Dunyo mo'jizalari*" matn o'qib matnga mos rasm chizing topshiriqlari beriladi.

Kompetensiyaviy yondashuv shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, asosiy qadriyatlar yo'nalishni aniqlashga yordam beradi va yo'naltiradi. Kompetensiyaviy yondashuvning asosiy komponentasi o'quvchilarning mustaqil ravishda o'quv faoliyatini tashkil etishdir. Uning asosida "ong va faoliyat prinsipi, ta'limda kompetensiyaviy yondashuv" amalga oshiriladi. Kompetensiyaviy yondashuv yozma nutqiy kompetensiyani rivojlantirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar majmuini rivojlantirishni maqsad qilgan bo'lib, uning asosiy tamoyili bo'lajak o'qituvchilarni amaliy faoliyatiga yo'naltirilgan bo'lib, real vaziyatlarda va turli mavzular doirasida yozma nutqdan samarali foydalana olishlarini ta'minlashdan iborat. Kompetensiyaviy yondashuv faqatgina nazariy bilim berishga qaratilmay, talabalarning aniq kommunikativ maqsadlar uchun yozma ifodadan foydalanish tajribasini boyitish orqali mustahkam ko'nikmalarini shakllantiradi. Mazkur yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarda dastlab yozma nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish maqsadida yozma ijodiy topshiriqlarni bajarish yuzasidan bilim hosil qilinib, so'ngra ular to'plagan bilimlari asosida o'quvchilarda yozma nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Xususan, bo'lajak o'qituvchilarga **bayon, insho, ijodiy hikoya** yozish bo'yicha topshiriqlar berib borildi. "Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o'qitishning asosiy mohiyati kasbga yo'naltiruvchi fanlardan tashkil qilingan ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy hayori davomida, duch keladigan muammolarni yechish, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zaruriy tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim [2]. Kompetensiyaviy yondashuv asosidagi mashqlar namunasi quyidagich bo'lishi mumkin:

1. So'z boyligini kengaytiruvchi mashqlar

- Berilgan 10 ta so'zdan gap tuzing.
- "Tabiat", "do'stlik", "kitob" mavzularida 5 ta ibora yozing.

2. Gap va matn tuzishga oid mashqlar

- Biror rasm asosida 4–5 gapli kichik matn yozing.
- Berilgan gaplarni mantiqiy tartibda joylashtirib, hikoya hosil qiling.

3. Ijodiy yozma mashqlar

- "Agar men uchuvchi bo'lsam..." mavzusida kichik esse yozing.

- Sevimli qahramoningizga xat yozing.

4. Tahliliy mashqlar

- Kichik matndan asosiy g'oyani ajratib yozing.
- Matndagi keraksiz gaplarni topib, qisqartirib qayta yozing.

5. Amaliy yozma mashqlar

- Do'stingizni tug'ilgan kuniga taklif etuvchi xat tuzing.

➤ O'qituvchiga rasmiy ariza yozing (maktab kutubxonasidan foydalanish haqida).

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv. "Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – shaxsning rivojlanishi, o'ziga xos xususiyatiga maksimal darajada yo'naltirilgan ta'lim" [3]. Shaxsga yo'nalgan yondashuv yozma nutqiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonini shaxsiy va kasbiy o'sishga yo'naltirishga urg'u beradi. Nafaqat yozma nutq bilan bog'liq malakalarni rivojlantiradi, balki o'z-o'zini baholash, hayotiy maqsadlarni belgilash, shaxsiy o'sish strategiyalarini ishlab chiqish kabi qobiliyatlarni ham rivojlantiradi. Bundan tashqari, intellektual qobiliyatlari, hissiy rivojlanishga bo'lgan ehtiyojlari, ijodiy moyilliklari va rivojlanish imkoniyatlariga ega bo'lgan shaxsni rivojlantirishga qaratilgan. Bunga quyidagi mashqlarni tavsuya qilish mumkin: **1. Qiziqishga asoslangan mashqlar.** O'quvchidan o'z sevimli mashg'uloti haqida kichik matn yozish (masalan: futbol, rasm chizish, qo'shiq kuylash). "Mening orzuyimdagi kasb" mavzusida qisqa bayon yozish. **2. Tanlovli mashqlar.** Uchta mavzu beriladi: "Tabiatdagi eng go'zal kun", "Mening eng yaqin do'stim", "Sevimli kitobim". O'quvchi istaganini tanlab matn yozadi. Berilgan rasmlar ichidan bittasini tanlab, hikoya tuzadi. **3. Ijodiy mashqlar.** "Agar men sehrar bo'lsam..." mavzusida ertak yozish. Boshlanishi berilgan gapni davom ettirib, hikoya yaratish: "Bugun ertalab maktabga ketayotib men hayratlanarli hodisaga duch keldim..." **4. Shaxsiy tajribaga tayangan mashqlar.** "Mening eng esda qolarli kuni(m)" mavzusida kichik insho. Oilaviy bayram haqida kundalik shaklida yozish. **5. Erkin ifodali mashqlar.** O'quvchi o'ziga yoqqan she'r yoki maqol asosida fikrini yozma tarzda bayon qiladi. "Mening baxtim nimalarda?" mavzusida erkin esse. **6. Refleksiv mashqlar.** Dars oxirida "Bugun men nima o'rgandim?" savoliga yozma javob berish. "Agar men o'qituvchi bo'lsam..." mavzusida kichik matn tuzish.

Individual yondashuv. Mashg'ulotlar jarayonida bilim darajasi, o'rganish uslublarini hisobga olgan holda o'qitish usullari va materiallarni har bir bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'ziga xos ehtiyojlariga moslashtirib, yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirish uchun turli topshiriqlar bilan ishlashga qaratilgan. Individual yondashuv asosida yozma mashqlar mazmuni talabaning individual ehtiyojlari, lingvistik salohiyati va o'zlashtirish darajasi asosida modifikatsiya qilinadi [6]. Masalan, yozma topshiriqlar bosqichma-bosqich murakkablashtirilib, dastlab oddiy grammatika va leksik birliklarni to'g'ri qo'llashga e'tibor qaratiladi, keyinchalik tahliliy va ijodiy yozuv ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratiladi. Individual yondashuvning afzalliklari o'zlashtirishi har xil bo'lgan bo'lajak o'qituvchilarga (yuqori, o'rta, past) alohida vazifalar berish. O'zlari yoqtirgan mavzular bo'yicha (she'riyat, insho, tezis, esse) topshiriqlar bajarish. Har bir talaba o'z fikrini erkin ifodalay olishi. Ularning xato kamchiliklarini, bilimidagi bo'shliqlarni aniqlab, yo'naltirilgan mashqlar berish.

Masalan: "O'zbekiston mening Vatanim" mavzusida uch xil darajadagi topshiriqlar berdik.

Yuqori: Murakkab syujetli hikoya yozing.

O'rta: Berilgan hikoyani davom ettiring.

Past: Rasmga qarab oddiy hikoya tuzing.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillash-tirishda shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy, faoliyatga yo'naltirilgan, integrativ va innovatsion yondashuvlarning uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning qo'llanilishi o'quvchilarda yozma nutqiy kompetensiyani samarali shakllantirish, mustaqil fikrlashga undash va ijodiy qobiliyatni rivojlantirish imkonini beradi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Mavlyanova R.A., Raxmonkulova N.X. Boshlang'ich ta'limda innovatsiya. – Toshkent, 2013. – 181 b.
2. Saidova M. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish imkoniyatlari. <https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5206>.
3. Karimova G.Q. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida pedagogik monitoring tarkibi va mazmunini takomillashtirish: Ped. fan. bo'y. fa. dok. diss... avtoref. – Toshkent, 2019. – 42.
4. Abduraxmonova D. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilar yozma nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish usullarini qo'llashga tayyorlashning metodik jihatlari. // Развитие и инновации в науке, 2025, 4(3), 26–32.
5. Abduraxmonova D. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarning nutqi ustida ishlash tizimi. // Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali, 2025, 3(2).
6. G'afforova F., Abduraxmonova D. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy tafakkurni shakllantirish. // World of science, 2025, 8(4), 265–268.
7. Гаффорова Ф., Эргашева Р., Абдурахмонова Д. Факторы развития талантливости учеников начальных классов. // Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 2025, 4(6), 44–45.

Сухроб АБЕЗОВ,

PhD, преподаватель кафедры русского языка и литературы
Бухарского государственного университета

СОВРЕМЕННЫЕ МОДЕЛИ ПРЕОБРАЗОВАНИЯ РЕЧИ В ТЕКСТ ДЛЯ РУССКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. В последние годы технологии автоматического преобразования речи в текст для русского языка достигли значительных успехов. В статье рассматриваются современные модели speech-to-text (STT) для русского языка, анализируются используемые методы и языковые ресурсы, а также оцениваются результаты распознавания речи в различных условиях.

Ключевые слова: автоматическое распознавание речи, модели «речь-текст», русский язык, глубокое обучение, нейронные сети, корпусная лингвистика, языковые корпуса, точность распознавания, открытые данные.

Annotatsiya. So'nggi yillarda rus tili uchun nutqni avtomatik tarzda matnga o'girish texnologiyalarida sezilarli yutuqlarga erishildi. Maqolada rus tili uchun "zamonaviy nutqdan – matnga" (STT) modellari ko'rib chiqiladi, qo'llaniladigan usullar va til resurslari tahlil etiladi, shuningdek, turli sharoitlarda nutqni tanib olish natijalari baholanadi.

Kalit so'zlar: nutqni avtomatik tanib olish, "nutq-matn" modellari, rus tili, chuqur o'rganish, neyron tarmoqlar, korpus tilshunosligi, til korpuslari, tanib olish aniqligi, ochiq ma'lumotlar.

Annotation. In recent years, the technology of automatically converting speech into Russian text has achieved significant success. The article examines modern speech-to-text (STT) models for the Russian language, analyzes the methods and language resources used, and evaluates speech recognition results under various conditions.

Keywords: automatic speech recognition, "speech-to-text" models, Russian language, deep learning, neural networks, corpus linguistics, language corpora, recognition accuracy, open data.

Технологии распознавания речи стали неотъемлемой частью современных человеческо-машинных коммуникаций, и качество их работы неуклонно растёт. Ещё в 1990-е годы Б.Гейтс подчёркивал, что «как только распознавание речи станет подлинно надёжным, немедленно последуют очередные крупные изменения в операционных системах» [1, с. 297], имея в виду революционный потенциал данной технологии. Спустя десятилетия, благодаря прогрессу в области глубинного обучения, точность распознавания приблизилась к человеческой. По меткому замечанию С.Л.Бабаринова и М.А.Будникова, «по мере повышения точности распознавания речи с 95% до 99% мы перестанем избегать эту технологию и начнём пользоваться ею постоянно» [2, с.183].

Исследование базируется на междисциплинарном сравнительно-корпусном подходе, сопоставлялись архитектуры нейросетей, статистически анализировались показатели WER, а также изучались состав и качество речевых корпусов. Ключевым ресурсом стала коллекция OpenSTT (≈ 20 000 ч аудио, 16 млн высказываний), о которой К.Л.Капуста справедливо замечает: «одним из самых крупных открытых корпусов русской речи является Open STT. Он содержит около 20000 часов речи и 16 миллионов высказываний различного происхождения» [3, с. 3]. На базе этих данных О.О.Якушкин (СПбГУ) создал первую open-source модель DeepSpeech-ru с точностью ~18% WER; А.Баевский показал, что самостоятельная предварительная подготовка резко снижает потребность в размеченном материале, а А.С.Муртазов продемонстрировал прикладную транскрипцию русской речи в Python с помощью библиотеки Vosk.

Современный русский ASR быстро перешёл от гибридов HMM и n-gram к сквозным нейросетям. В эксперименте А.Андрусенко (OpenSTT, 1650 ч) end-to-end DeepSpeech-ru показал 18% WER, а А.Лаптев довели Transformer / RNN-T до 18,1 %, практически сравнявшись с лучшей гибридной TDNN-F (18,6 %). При этом, как указывает Н.Шмырев: «пока лидирует GigaAM2 CTC модель, что довольно необычно, потому что считается, что RNNT точнее» [4, с. 12] – специфика русского языка позволяет CTC-архитектурам выигрывать.

Качественный скачок стал возможен после появления крупных корпусов. Несмотря на то, что Н.Карпов ещё отмечал дефицит вручную размеченных данных (Golos 2021 решил эту проблему: 1240 ч, 3,3 % WER на дикторской речи), автоматически размеченный Open STT (20 000 ч) остаётся опорным для масштабного обучения. Дополняют картину Common Voice, Whisper-ru и прикладной Vosk-скрипт А.С.Муртазоева, успешно декодирующий mp3-аудио в текст [5, с. 54].

В итоге открытые end-to-end-модели (LSTM, Conformer, CTC, RNN-T) уже обеспечивают ≈ 8% среднего WER и 4 % на чистой дикторской речи, хотя в спонтанных шумных условиях ошибки всё ещё достигают 10–18%.

Полученные результаты свидетельствуют о значительном прогрессе, достигнутом в области распознавания русской речи, однако требуют осмысления оставшихся проблем и путей их решения. Прежде всего, бросается в глаза зависимость качества работы моделей от условий и стиля речи. Русский язык отличается богатыми морфологией и фонетическими нюансами (редукция гласных, свобода ударения и др.), поэтому даже совершенные алгоритмы сталкиваются с трудностями при выходе за рамки «лабораторных»

данных. Как указывает К.Л.Капуста, «проблемными особенностями корпусов могут выступать ошибки в транскрипции, наличие сильного фонового шума и наличие нецензурной лексики в случае использования языковой модели, которая её в себя не включает» [3, с. 6]. Это означает, что для повышения точности на реальной речи необходимо уделять внимание качеству и разнообразию обучающих данных, тщательная ручная разметка, очистка от шумов, а также включение в языковые модели широкого лексического покрытия (включая просторечную и общенную лексику, если система должна работать с такими вводами). Без решения этих задач даже самые продвинутые нейросети будут давать сбои, отражающие системные недостатки обучающего корпуса.

За последние годы оптимизация русскоязычных STT-систем сводится к поиску баланса между архитектурой и данными. RNNT устойчивы к непрерывной речи, CTC быстрее обучаются, а Conformer и Citrinet повышают точность ценой ресурсов. При сравнительном тестировании команда Н.Шмырева показала, что «Whisper не очень хорошо работает для русского и его тяжело обучить», тогда как GigaAM2, обученная на родных корпусах, даёт меньшую WER [4, с. 12].

Ключ к дальнейшему прогрессу – самообучение: модель сначала обучается на сотнях часов не-

размеченного аудио, а затем дообучается на минутах размеченного. По словам А.Баевского, «это демонстрирует возможность распознавания речи с ограниченным количеством маркированных данных» [6, с. 92]. Уже сегодня точность российских STT лежит в основе голосовых ассистентов (Алиса, Sber Salut), автоматических субтитров лекций и инклюзивных проектов RecSpeech_ru, где система путём перевода беседы в текстовый формат помогает общению людей с ограниченными возможностями. Высоточные модели востребованы и в медицине, и в юриспруденции. Развитие русскоязычного распознавания речи определяется гибридизацией архитектур, расширением и очисткой корпусов, широким внедрением «самообучение» – что в перспективе приблизит модели к уровню повседневного «понимания» живой речи.

Глубокие нейросети и открытые корпуса резко повысили точность русскоязычных STT-систем (Silero, DeepSpeech, Golos), которые уже надёжно обрабатывают дикторскую и формальную речь. Чтобы достичь человеческого уровня при спонтанной, диалектной и шумной речи, необходимо улучшить качество данных и адаптивность моделей, однако технология уже зрелая и готова к массовому внедрению – от голосовых интерфейсов до инклюзивных сервисов.

Литература

1. Берлянд А.Т., Б.Гейтс: дорога в будущее (по прочтении книги Билла Гейтса) // Личность. Культура. Общество, 2000, Т. 2. №2.
2. Бабаринов С.Л., Будникова М.А. О распознавании речи // Экономика. Информатика, 2014, Т. 32. №21-1 (192).
3. Капуста К.Л., Кипяткова И.С., Кагиров И.А. Аналитический обзор интегральных моделей и стратегий распознавания речи на основе архитектуры трансформер // Информационно-управляющие системы, 2024, №5.
4. Шмырев Н. Открытые модели для распознавания русской речи 2025 // Speech Recognition With Vosk, 2025. <https://alphacephei.com/nsh/2025/04/18/russian-models.html>.
5. Муртазов А.С. Дидактические возможности использования цифровых технологий в образовательном процессе // International conferences, 2022, Т. 1. №2.
6. Baevski A., Zhou H., Mohamed A., Auli M. Wav2Vec 2.0: A Framework for Self-Supervised Learning of Speech Representations // Advances in Neural Information Processing Systems, 2020. <https://arxiv.org/abs/2006.11477>.

Zulfiya KARIMOVA,

Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi

RUS TILINI CHET TILI SIFATIDA O'QITISH JARAYONIDA ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Annotatsiya. Maqolada rus tilini chet tili sifatida o'qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ning roli va ahamiyati tahlil qilinadi. Rus tilini interfaol metodlar bilan o'qitishda AKTning samaradorligini, shu jumladan, multimedia vositalari, elektron darsliklar, bulutli texnologiyalar, onlayn ta'lim platformalari va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish ko'rib chiqiladi, AKT yordamida o'quvchilarning motivatsiyasi, mustaqil ishlash ko'nikmalari va nutq faoliyatining yaxshilanishi ta'kidlanadi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim jarayonida raqamli vositalarni integratsiyalashning imkoniyatlari va qiyinchiliklari ham yoritiladi.

Kalit so'zlar: axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), o'qitish jarayoni, rus tili chet tili sifatida (RTChTS), innovatsion usullar, kompyuterlar, gadjetlar, bulutli texnologiyalar, multimedia taqdimotlari, onlayn kurslar, global qamrov, chatbot.

Annotation. The article analyzes the role and significance of modern information and communication technologies (ICT) in teaching Russian as a foreign language. The effectiveness of ICT in teaching Russian through interactive methods, including the use of multimedia tools, electronic textbooks, cloud technologies, educational online platforms, and social networks, is considered, and it is emphasized that ICT enhances students' motivation, independent work skills, and speech activity. The possibilities and challenges of integrating digital tools into the modern educational process are also highlighted.

Keywords: information and communication technologies (ICT), learning process, Russian as a foreign language (RTCHTS), innovative methods, computers, gadgets, cloud technologies, multimedia presentations, online courses, global coverage, chatbot.

Аннотация. В статье анализируются роль и значение современных информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в преподавании русского языка как иностранного. Рассматривается эффективность ИКТ в обучении русскому языку интерактивными методами, включая использование мультимедийных средств, электронных учебников, облачных технологий, образовательных онлайн-платформ и социальных сетей, подчеркивается повышение мотивации учащихся, навыков самостоятельной работы и речевой деятельности с помощью ИКТ. Также освещаются возможности и трудности интеграции цифровых инструментов в современный образовательный процесс.

Ключевые слова: информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), процесс обучения, русский язык как иностранный (RTCHTS), инновационные методы, компьютеры, гаджеты, облачные технологии, мультимедийные презентации, онлайн-курсы, глобальный охват, чат-бот.

Global axborotlashtirish zamonaviy dunyoning voqeligidir. Inson hayotining barcha sohalarida axborotning eng muhim harakatlantiruvchi kuchlardan biri sifatidagi roli ortib borayotganligi sababli, ta'lim sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) joriy etish zamonaviy jamiyatni rivojlantirish uchun zarur qadamdir.

Bugungi kunda rus tilini chet tili sifatida o'qitishda AKTdan keng foydalanishning asosiy omili o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi axborot almashinuvi, shuningdek, xorijiy talabalarining internet texnologiyalarini orqali rus tili sohiblari bilan muloqot qilishidir. Ko'pgina mutaxassislarning fikricha, o'quv-tarbiya jarayonida AKTdan foydalanish zamonaviy pedagogik nazariya va amaliyotda sifat jihatidan yangi bosqich hisoblanadi [1: 114].

Ta'lim tizimida kompyuter texnologiyalarini rivojlantirish masalasini ko'plab olimlar o'rgangan. Jumladan, I.G.Zaxarova va Y.S.Polat va boshqalar ta'limda AKTning beshta asosiy funksiyasini aniqlashgan. Bular: o'qitish, rivojlantirish, tarbiyalash, bilim olish va rag'batlantirish. A.L.Nazarenko ta'limni optimallashtirish uchun AKTdan foydalanishning afzalliklarini tavsiflagan [2]. A.M.Yamaletdinova va A.S.Medvedevlar axborot-kommunikativ texnologiyalar asosida qurilgan ta'lim jarayonining motivatsion, mazmunli, o'quv-metodik, tashkiliy va nazorat-baholash komponentlarini taqdim etishgan [3].

XXI asrda, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida, rus tilini chet tili sifatida o'qitish shakli faol o'zgarmoqda: an'anaviy o'qitish tizimi tez o'zgarayotgan ijtimoiy-madaniy muhitga mos kelmay qolmoqda, bu esa aniq maqsadlar doirasida va aniq real ehtiyojlar uchun tilni faol o'rganishni talab qiladi. Jamiyat hayot sharoitlarining tez o'zgarishi va axborot texnologiyalari ahamiyatining oshishi munosabati bilan kompyuterlar, gadjetlar, bulutli texnologiyalar va boshqalardan asosiy komponentlar sifatida foydalanadigan butun ta'lim tizimining imkoniyatlari o'zgarmoqda. Rus tilini chet tili sifatida o'qitishga yangicha yondashuv an'anaviy va innovatsion texnologiyalarning uyg'unlashuvi va sintezidan iborat [4].

Rus tilini o'qitish metodikasida qo'llaniladigan AKT turlariga quyidagilar kiradi: elektron darsliklar va o'quv qo'llanmalar, bosma darsliklarga veb-ilovalar, elektron test bazalari, multimedia taqdimotlari (namoyishlar), onlayn kurslar, ma'lumot-axborot resurslari (onlayn tarjimonlar, lug'atlar), madaniy-ma'rifiy resurslar (elektron gazetalar, jurnallar va telekanallar, elektron kutubxonalar, kinoteatrlar, muzeylar, ta'lim saytlari va boshqalar) [5]. Kommunikativ yondashuvga ko'ra, o'qituvchining asosiy vazifasi ta'lim jarayoni ishtirokchilarining samarali muloqoti uchun sharoit yaratishdan iborat. Bu vositalar o'qituvchilarga rus tilini chet tili sifatida o'qitishning zamonaviy talablariga muvofiq o'quv materiallarini taqdim etishning turli shakllarini uyg'unlashtirish imkonini beradi:

1. Multimedia vositalari o'quv materialini taqdim etishning muhim unsuri hisoblanadi. Multimedia vositalari yordamida lingvomadaniy materialni o'rganish jarayoni samarali tashkil etiladi. Ular ta'lim oluvchining axborotni idrok etishining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish imkonini beradi. Multimediaga mualliflik audiomateriallari bilan bir qatorda autentik manbalar: musiqa, she'rlar, badiiy va hujjatli filmlar ham kiradi. Ulardan foydalanish materialni taqdim etishni xilma-xillashtirish, o'qitishni yanada shaxsiy va haqiqiy qilish, o'zga tilli talabalarining rus tili va madaniyatiga qiziqishini oshirish imkonini beradi.

2. Elektron darsliklar o'quv materialining zamonaviy shakli bo'lib, metodik yangiliklar joriy etadi va o'quv jarayonini raqamlashtiradi. Elektron lug'atlar, video taqdimotlar (noutbuk va planshetlar yordamida), talabalarining nutqlarini yozib olish kabi vositalar bilan birgalikda elektron darsliklar chet ellik talabalarga rus tilini o'qitish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Elektron darsliklarning afzalliklari ko'p bo'lsa-da (turli qurilmalarda qulay foydalanish, o'qitish sur'atini shaxsiy moslashtirish, mazmunni tez-tez yangilash, talabalarining faol ishtirokini rag'batlantirish va boshqalar), ular bevosita elektron qurilmalar va tarmoqlarning mavjudligiga bog'liq. Umuman olganda, bu chet tillarni o'qitishning samarali va istiqbolli zamonaviy ta'lim vositasidir.

3. Bulutli texnologiyalar o'quv materiallariga masofadan kirishni ta'minlaydi va ma'lumotlarni qayta ishlash uchun

qudratli serverlardan foydalanishga imkon beradi. Bu ta'lim resurslariga kirish va ulardan foydalanishni osonlashtiradi. Boshqa tomondan, vebinar va videokonferensiyalarni o'tkazish (masalan, Zoom orqali) ta'limdagi geografik to'siqlarni bartaraf etadi. Bulutli texnologiyalarning asosiy afzalliklariga quyidagilar kiradi: masofaviy va aralash ta'lim uchun istalgan vaqtda va joyda o'quv resurslaridan foydalanishni qo'llab-quvvatlash; real vaqt rejimida hamkorlikda ishlash uchun platforma taqdim etish, bu o'qituvchilar va talabalarning o'zaro aloqasini yaxshilaydi; uskunalar va dasturiy ta'minotga xizmat ko'rsatish xarajatlarini kamaytirish; talabga muvofiq resurslarni moslashuvchan kengaytirish; shuningdek, ta'lim vositalarining xavfsizligi va samaradorligini ta'minlash uchun avtomatik yangilash va xizmat ko'rsatish. Bu imkoniyatlarning barchasi o'quv jarayonini takomillashtiradi va bulutli texnologiyalarni zamonaviy rus tilini chet tili sifatida o'qitishda ishonchli manba qiladi.

4. Onlayn yoki masofaviy ta'lim ham rus tilini chet tili sifatida o'qitishning usullaridan biridir. Ushbu formatning yuqori moslashuvchanligi xorijiy talabalarga vaqt va makon cheklovlarini yengib o'tish imkonini beradi: istalgan vaqtda va joyda o'qish mumkin. Onlayn ta'lim o'quv jarayonini o'z-o'zini tuzatishga yordam bergani sababli, uni turli xil ta'lim uslublariga moslash mumkin. Onlayn ta'limning eng ko'zga ko'ringan xususiyatlaridan biri global qamrov bo'lib, u mintaqalararo madaniy almashinuvlarni rag'batlantiradi va yuqori sifatli ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi. Onlayn ta'lim hali ham innovatsiya va rivojlanishga muhtoj bo'lsa-da, uning samaradorligi va qulayligi uni rus tilini chet tili sifatida o'qitishda muhim yo'nalishga aylantiradi [6: 372].

5. Elektron pochta rus tilini o'qitishning qo'shimcha vositasi sifatida o'ziga xos afzalliklarga ega. Masalan, o'qituvchilar va talabalar uchun qulaylik, tezkor muloqot va oson hamkorlikni ta'minlaydi. U individual ta'lim uchun materiallarni saqlash va materialni qulay sur'atda o'zlashtirish imkonini beradi, bu ayniqsa turli tayyorgarlik darajasiga ega bo'lgan o'quvchilar uchun muhimdir. Ushbu xususiyatlar tufayli elektron pochta, ayniqsa chet ellik

talabalar bilan ishlashda, o'quv jarayonini tashkil etishning keng tarqalgan vositasi bo'lib qolmoqda. Elektron pochta yordamida o'qitish va o'rganish jarayonining barcha ishtirokchilari uzluksiz ta'lim va samarali muloqotda qatnashishlari mumkin.

6. Ijtimoiy tarmoqlar va chatlar rus tilini o'rganish uchun haqiqiy til muhitini ta'minlaydi. Talabalar matnli chatlar, ovozli xabarlar va video qo'ng'iroqlarda tilning barcha jihatlarini va nutq faoliyatining barcha turlarini mashq qilishlari mumkin, o'qituvchi esa real vaqt rejimida xatolarni tuzatadi. Ular mavzuli hamjamiyatlarda multimedia kontentlarini almashishlari, til egalari bilan muloqot qilishlari, munozaralarda ishtirok etishlari va fikr-mulohazalar olishlari, shuningdek chatbotlardan ta'limda yordamchi sifatida foydalanishlari mumkin. Xos moslashuvchanlik talabalarga istalgan vaqtda shug'ullanish imkonini beradi, tizimli ta'lim va amaliyot uyg'unligi esa bir vaqtning o'zida til bilish va madaniy xabardorlik darajasini oshirishga yordam beradi. Biroq bu kunduzgi ta'limni almashtirish emas, balki mustaqil ta'lim va onlayn kurslarga samarali qo'shimchadir [7: 153].

O'tkazilgan tahlillar rus tilini chet tili sifatida o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining muvaffaqiyatli joriy etilganini ko'rsatadi. An'anaviy usullarni raqamli vositalar (multimedia resurslari, bulutli texnologiyalar, onlayn platformalar, masofaviy ta'lim) bilan uyg'unlashtirish ta'limni xorijiy talabalarning individual ehtiyojlariga moslashtirish, geografik va vaqt cheklovlarini bartaraf etish, shuningdek interaktiv formatlar asosida motivatsiyani oshirish imkonini beradi.

Ushbu yo'nalishni yanada rivojlantirish uchun turli o'quv darajalarida aniq AKT vositalarining samaradorligini o'rganishni davom ettirish, texnologik innovatsiyalarni rus tilini chet tili sifatida o'qitishning asosiy tamoyillari bilan birlashtirish usullarini ishlab chiqish va butun dunyo bo'ylab talabalar uchun raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash zarur. Shunday qilib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari zamonaviy chet tillarini o'qitishning ajralmas qismi sifatida rus tilini chet tili sifatida o'qitish tizimini rivojlantiradi va ta'lim sifatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Азимов Э.Г. Информационно-коммуникационные технологии в преподавании русского языка как иностранного. М.: Русский язык, 2012. – 328 с.
2. Jeleznyakova E.A., Boychiuk G.V. Chet tili sifatida rus tili bo'yicha darslarda biznes yozishni o'rgatishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. // Til tadqiqotlari va zamonaviy gumanitar bilimlar, 2020. T.2. №1. – B. 18–25.
3. Современные проблемы науки и образования. <https://science-education.ru/ru/article/view?id=30674>.
4. Sarimsakova G.M. Oliy o'quv yurtlarida RCT (rus tili chet tili sifatida) o'qitishda masofaviy ta'limning afzalliklari. // Ilm-fan xabarnomasi, 2025, №2 (83). 368–376-b.
5. Yamaletdinova A.M., Medvedeva A.S. O'quv jarayonida zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari / Boshqird universiteti xabarnomasi, 2016. 21-jild. №4. – B. 1134–1140.
6. Богомолов А.Н. Виртуальная среда обучения русскому языку как иностранному: лингвокультурологический аспект. Москва: Макс Пресс, 2008. – 320 с.
7. Rumyantseva N.M., Gartsova D.A. Elektron o'quv vositalaridan foydalanish orqali chet ellik talabalarning kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirish (universitetgacha bo'lgan bosqich) / RUDN universiteti universiteti axborotnomasi, 2015, №4. – B. 25–29.
8. Богомолов А.Н. Виртуальная среда обучения русскому языку как иностранному: лингвокультурологический аспект. Москва: Макс Пресс, 2008. – 320 с.

Dilobar XOSIMOVA,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING MANTIQUIY FIKRLASHINI SIMULYATOR DASTURLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Maqolada bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda zamonaviy raqamli simulyator dasturlaridan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritilgan. Simulyator muhitida mantiqiy tafakkurni faollashtirish, o'quvchi fikrini tahlil qilish va muammoni hal etish ko'nikmalarini shakllantirish usullari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: mantiqiy fikrlash, simulyator dasturlari, raqamli ta'lim, boshlang'ich ta'lim, metodika.

Annotation. The article reveals the theoretical and practical aspects of using modern digital simulators in the development of logical thinking of future primary school teachers. Methods for activating logical thinking, student analysis, and forming problem-solving skills in the simulator environment were analyzed.

Keywords: logical thinking, simulator programs, digital education, primary education, methodology.

Аннотация. В статье раскрыты теоретические и практические аспекты использования современных цифровых симуляторов в развитии логического мышления будущих учителей начальных классов. Проанализированы методы активизации логического мышления, анализа учащегося и формирования навыков решения проблем в среде симулятора.

Ключевые слова: логическое мышление, симуляторные программы, цифровое образование, начальное образование, методика.

Zamonaviy ta'lim tizimi bo'lajak o'qituvchidan faqat bilimli bo'lishni emas, balki mustaqil va mantiqiy fikrlashni ham talab etadi. Boshlang'ich ta'limda mantiqiy tafakkurni shakllantirish muhim, chunki bu bosqich kelgusida o'quvchilarning ilmiy va ijodiy salohiyatini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, raqamli simulyator dasturlari yordamida fikrlash jarayonini modellashtirish ta'lim samaradorligini oshiradi.

Mantiqiy fikrlash – faktlar va dalillar asosida xulosa chiqarish, sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlash va muammoni tahliliy yo'l bilan hal etish qobiliyatidir. Pedagogik nuqtai nazardan, bu sifatni shakllantirish uchun interaktiv metodlar, vizual modellar va simulyatorlar samarali vosita hisoblanadi.

Simulyator dasturlarining afzalliklari:

– **Jarayonni real tajriba kabi modellashtiradi.** “Jarayonni real tajriba kabi modellashtiradi” deganda simulyator dasturlari o'quvchiga yoki talabalarga haqiqiy tajriba o'tkazish imkoniyatini berishi tushuniladi, lekin bu jarayon virtual muhitda sodir bo'ladi. Masalan, laboratoriya sharoitida tajriba o'tkazish uchun maxsus asbob-uskunalar kerak bo'ladi, ammo **PhET** yoki **GeoGebra** kabi simulyatorlarda shu jarayonni kompyuterda modellashtirish mumkin. Talaba natijani kuzatadi, o'zgaruvchilarni boshqaradi va sabab-oqibat bog'lanishlarini o'rganadi. Bu yondashuv real hayotdagi tajriba o'rnini bosadi, xavfsiz, tejamkor va takrorlab o'rganish imkoniyatini yaratadi. Shu tariqa mantiqiy fikrlash, kuzatuvchanlik va tahliliy tafakkur rivojlanadi.

– **Talabani faol ishtirokchi sifatida jalb qiladi.** U o'zi tajriba o'tkazadi, harakatlarni boshqaradi, natijalarni tahlil qiladi va xulosalar chiqaradi. Masalan, **Logic.ly** dasturida talabalar mantiqiy sxemani o'zlari quradilar; **PhET** simulyatorida esa fizik hodisalarni o'zgartirib, natijani

bevosita ko'radilar. Bu faol ishtirok fikrlashni mustaqillikka, tanqidiy tahlilga va muammoli vaziyatlarda tez qaror qabul qilishga o'rgatadi. Natijani tezkor baholash imkonini beradi. Masalan, agar talaba mantiqiy sxemani noto'g'ri tuzsa, dastur xatolikni zudlik bilan bildiradi yoki ishlamay qolgan modelni ko'rsatadi. To'g'ri yechim topilganda esa tizim darhol ijobiy natijani aks ettiradi. Bu jarayon o'qituvchisiz ham o'rganish samaradorligini oshiradi, chunki talaba o'z xatolarini kutmasdan aniqlaydi, tahlil qiladi va shu zahoti tuzatadi. Shu tarzda mantiqiy tahlil, refleksiya va o'z-o'zini baholash ko'nikmalari rivojlanadi.

– **Xatoliklar ustida refleksiya qilishga sharoit yaratadi.**

Masalan, talaba noto'g'ri mantiqiy zanjir tuzganida dastur natijani ishlamayotganini ko'rsatadi. Talaba xatolik sababini aniqlaydi, yechimni qayta quradi va to'g'ri variantni topadi. Shu jarayon **refleksiya**, ya'ni o'z fikrlash faoliyatini kuzatish va tahlil qilishni rivojlantiradi. Natijada talaba “nima uchun xato qildim?”, “qanday to'g'ri yechim bo'ladi?” kabi savollarni o'ziga beradi, bu esa mantiqiy, tanqidiy va mustaqil tafakkurni kuchaytiradi. Masalan, **Logic.ly** dasturi yordamida talabalar mantiqiy sxemalar quradi, **GeoGebra** orqali matematik bog'lanishlarni interaktiv tarzda tekshiradi, **PhET** simulyatorlari esa sabab-oqibat aloqalarini tajriba yo'li bilan kuzatish imkonini beradi. Simulyator asosidagi o'quv jarayonini joriy etish eng muhim natijalarni beradi.

– **Talabalarda algoritmik fikrlashni rivojlantiradi.** Ya'ni, talabalar berilgan masalani bosqichma-bosqich tahlil qilib, har bir harakatni mantiqiy ketma-ketlikda bajarishni o'rganadilar. Bu ularning muammoni hal etish jarayonida qat'iy tartibni saqlash, xatoliklarni aniqlash va tuzatish qobiliyatini mustahkamlaydi.

– **Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va yechim ishlab chiqish qobiliyatini oshiradi.** Simulyator muhiti

o'zgaruvchan sharoitlarni yaratadi, bu esa talabalardan moslashuvchan fikrlashni talab etadi. Simulyator dasturlari o'quv jarayonida turli murakkab holatlar, mantiqiy ziddiyatlar yoki amaliy vaziyatlarni modellashirish imkonini beradi. Talabalar bunday vaziyatlarda mavjud ma'lumotlarni tahlil qilib, sabab va oqibatlarni aniqlash, optimal yechim variantini tanlashni o'rganadilar. Bu jarayon ularda tanqidiy fikrlash, dalillarga tayangan holda qaror qabul qilish, muammoga tizimli yondashish va xatolardan o'rganish ko'nikmalarini shakllantiradi. Natijada talabalar nafaqat mantiqiy, balki ijodiy fikrlash malakasini ham rivojlantiradilar.

– **Refleksiv fikrlashni faollashtiradi.** Talaba o'z faoliyatini kuzatib, xulosalar chiqaradi va keyingi bosqichlarda strategiyasini takomillashtiradi. **Refleksiv fikrlashni faollashtiradi** deganda talabaning o'z fikrlash jarayonini tahlil qila olish, xatolarini anglab, ularni to'g'rilash, shuningdek, o'zining bilim va faoliyatini baholay olish qobiliyatini rivojlantirish tushuniladi. Simulyator dasturlari bu jarayonni kuchaytiradi, chunki talaba har bir topshiriq natijasini darhol ko'radi, xato sababini aniqlaydi va qayta urinib ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada u o'z fikrini tekshiradi, to'g'ri yoki noto'g'ri yondashganini anglaydi, bu esa refleksiya, ya'ni o'z tafakkurini kuzatish va tahlil qilish jarayonini shakllantiradi.

– **O'qituvchi rolini boshqaruvchidan yo'naltiruvchiga o'zgartiradi.** Pedagog dars jarayonini boshqaruvchi emas, balki fikrlash jarayonini yo'naltiruvchi sifatida ishtirok etadi. **O'qituvchi rolini boshqaruvchidan yo'naltiruvchiga o'zgartiradi** degani dars jarayonida o'qituvchi avvalgidek faqat bilim beruvchi yoki buyruq beruvchi emas, balki talabalarning mustaqil fikrlashini yo'naltiruvchi, ularni izlanishga undovchi shaxs sifatida faoliyat yuritadi. Simulyator dasturlari qo'llanganda o'qituvchi jarayonni to'liq boshqarmaydi, balki talabalarga topshiriqlarni mustaqil bajarish, xulosalar chiqarish va natijalarni tahlil qilish uchun sharoit yaratadi. Bu usulda o'qituvchi yo'l ko'rsatuvchi, fikrlashni rag'batlantiruvchi va muammoli

vaziyatlarda maslahat beruvchi rolni bajaradi. Shu orqali talabalar faol subyektaga aylanadi, ta'lim jarayoni esa interaktiv va mantiqiy fikrlashga yo'naltirilgan shaklga kiradi.

– **Axborot-kommunikatsion savodxonlikni oshiradi.** Talabalar zamonaviy raqamli vositalardan foydalangan holda mantiqiy tahlil yuritishni o'rganadilar. **Axborot-kommunikatsion savodxonlikni oshiradi** deganda talabaning raqamli texnologiyalar, dasturiy vositalar va onlayn muhitlarda samarali ishlash, ma'lumotni izlash, tahlil qilish va taqdim etish ko'nikmalarini rivojlantirish tushuniladi. Simulyator dasturlari orqali talabalar mantiqiy masalalarni yechish jarayonida turli axborot manbalaridan foydalanadi, o'z natijalarini raqamli formatda namoyish etadi va tahlil qiladi. Bu esa ularning **axborotni tanlash, tekshirish, qayta ishlash va muloqotda qo'llash** malakalarini mustahkamlaydi. Natijada talabalar zamonaviy raqamli muhitda samarali ishlash, hamkasblar bilan onlayn muloqot qilish va o'z fikrini aniq ifodalash kompetensiyasiga ega bo'ladilar.

Tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, simulyator muhitida ishlagan talabalar mantiqiy bog'lanishlarni aniqlashda va muammoli savollarni yechishda an'anaviy metodda o'qiganlarga nisbatan 20–25% yuqori natija ko'rsatgan.

Simulyator asosidagi o'quv jarayonini joriy etish

- talabalarda algoritmik fikrlashni rivojlantiradi;
- muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va yechim ishlab chiqish qobiliyatini oshiradi;
- o'qituvchi rolini boshqaruvchidan yo'naltiruvchiga o'zgartiradi.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining mantiqiy fikrlashini takomillashtirishda simulyator dasturlar muhim o'rin tutadi. Ular talabalarning tafakkur jarayonini faollashtiradi, tahliliy fikrlashni chuqurlashtiradi va raqamli kompetensiyalarini rivojlantiradi. Shunday dasturlarga asoslangan metodik tizimlarni ishlab chiqish va o'quv jarayoniga integratsiya qilish zamonaviy pedagogika oldidagi dolzarb vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov U. Raqamli ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2022.
2. Abdullayeva N. Boshlang'ich ta'limda mantiqiy tafakkurni shakllantirish. – Toshkent, 2021.
3. Jonbekov B. Pedagogik innovatsiyalar va simulyatsion muhit. – Toshkent: Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, 2023.
4. PhET Interactive Simulations, University of Colorado Boulder.
5. Logic.ly Educational Software, 2024.

Yo'ldosh ISOMIDDINOV,
Samarqand davlat pedagogika instituti dotsent v.b

FITRAT ADABIY MEROSINING YOSHLARDA VATANPARVARLIKNI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Abdurauf Fitratning ma'naviy-falsafiy merosi va uning yoshlar tarbiyasidagi o'рни tahlil qilingan. Fitrat asarlarida ilgari surilgan vatanparvarlik, milliy uyg'onish va ma'rifatparvarlik g'oyalari zamonaviy ta'lim jarayonida yoshlarning ongini shakllantirish, ularni milliy qadriyatlarga hurmat va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim metodologik asos sifatida tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Abdurauf Fitrat, ma'naviy meros, vatanparvarlik, yoshlar tarbiyasi, milliy uyg'onish, ma'rifatparvarlik, ta'lim jarayoni, milliy ong.

Annotation. This article analyzes Abdurauf Fitrat's spiritual and philosophical heritage and its significance in youth education. The ideas of patriotism, national revival, and enlightenment put forward in Fitrat's works are considered as an important methodological basis for forming national consciousness and educating young people in the spirit of respect for national values and loyalty to the Motherland in the context of the modern educational process.

Keywords: Abdurauf Fitrat, spiritual heritage, patriotism, youth education, national awakening, enlightenment, educational process, national consciousness.

Аннотация. В данной статье анализируются духовно-философское наследие Абдурауфа Фитрата и его значение в воспитании молодежи. Идеи патриотизма, национального возрождения и просвещения, выдвинутые в трудах Фитрата, рассматриваются как важная методологическая основа для формирования национального сознания и воспитания молодежи в духе уважения к национальным ценностям и верности Родине в условиях современного образовательного процесса.

Ключевые слова: Абдурауф Фитрат, духовное наследие, патриотизм, воспитание молодежи, национальное возрождение, просвещение, образовательный процесс, национальное сознание.

XX asr boshlarida Turkiston jamiyatida milliy uyg'onish g'oyalari keng yoyildi. Bu jarayonda Abdurauf Fitrat o'zining falsafiy, ijtimoiy va pedagogik qarashlari bilan ajralib turdi. Uning asarlari millatni jaholatdan qutqarish, yoshlarni ilm-ma'rifatga undash, milliy o'zlikni tiklash va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan edi. Fitrat nazarida haqiqiy taraqqiyot faqat ilm, ma'rifat va milliy ong uyg'onishi bilan mumkin edi. Shuning uchun ham u "Rahbari najot", "Oila", "Munozara", "Milliy til" kabi asarlarida yoshlarning tarbiyasi, millat taqdiri va Vatan istiqboli masalalariga alohida e'tibor qaratdi. Bugungi kunda Fitrat merosini chuqur o'rganish yoshlar ongida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, ularni milliy qadriyatlarga sodiq, erkin fikrlovchi va mas'uliyatli shaxs qilib tarbiyalashda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) hadislarida ham bu masalaga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, "Kim otasi qabrda yotgan bo'lsa ham unga yaxshilik qilishni istasa, otasidan keyin uning do'stlariga yaxshilik qilsin" [6: 108], degan hikmatli so'zlari insonning ota-onaga hurmati va ularning izzatini saqlash naqadar muhim fazilat ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Shuningdek, ota-onaga yaxshilik qilgan insonning umri ziyoda qilinishi va gunohlari mag'firat bo'lishi ham qayd etilgan.

Abdurauf Fitrat nafaqat faylasuf va ma'rifatparvar ziyoli, balki badiiy ijod orqali ham xalqni ma'naviy uyg'otishga intilgan shoir sifatida ham tarixda munosib o'rin egallaydi. Abdurauf Fitratning ma'naviy-falsafiy merosi nafaqat nazariy jihatdan, balki pedagogik amaliyotda ham yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun muhim manba hisoblanadi. Uning ijodida milliy ongni

rivojlantirish, yurtga muhabbat, ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik fazilatlarini shakllantirish masalalari markaziy o'rin egallaydi. Shu bois Fitrat merosi yoshlar tarbiyasida amaliy qo'llanilishi lozim bo'lgan muhim pedagogik qadriyat sifatida e'tirof etiladi. Ta'lim va tarbiyada Fitrat merosining integratsiya imkoniyatlari keng. Uning asarlari maktab va oliy ta'lim muassasalarida o'quv dasturlariga kiritilishi mumkin. Masalan, tarix va adabiyot darslarida Fitratning asarlari orqali yoshlar tarixiy shaxslar, milliy qadriyatlar va madaniyat bilan yaqindan tanishtiriladi. Ona tili va adabiyot fani orqali esa milliy madaniyatni qadrlash, milliy g'ururni rivojlantirish imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, jamoat ishlari va loyihalar orqali yoshlar o'z jamiyatida faol ishtirok etishga o'rganadi, bu esa ularni nafaqat bilimli, balki mas'uliyatli fuqarolar sifatida shakllantiradi [5: 45]. Vatanparvarlikni shakllantirishdagi metodik vositalar ham Fitrat merosida keng ifodalangan. Tarbiyaviy suhbatlar va munozaralar yoshlarni milliy tarix va qadriyatlarni muhokama qilishga jalb etadi, ularning fikrlash doirasini kengaytiradi. Tarixiy va badiiy matnlarni tahlil qilish orqali yoshlar milliy g'urur va fuqarolik mas'uliyatini oshiradi. Bundan tashqari, loyihaviy faoliyat, masalan, milliy meros obyektlariga sayohatlar, tarixiy tadbirlar va ekskursiyalar yoshlarni amaliy ishtirok orqali vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi [5: 214]. Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, Fitratning pedagogik qarashlari asosida o'tkazilgan tarbiyaviy ishlarda yoshlar o'z vataniga nisbatan qiziqish va hurmatni oshiradi. Shu bilan birga, milliy qadriyatlarni qadrlash va ularni kundalik hayotga tatbiq etish ko'nikmalari rivojlanadi.

Abdurauf Fitrat oilada yoshlarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash masalasida keng bilim va tajriba sohibi sifatida namoyon bo'ladi. Uning fikricha, farzandining baxtli bo'lishini istagan har bir ota-ona uni mustaqil hayotga qo'yib yuborishdan avval uch muhim jihat – sog'lom tan va jism, yuksak aql-idrok hamda go'zal axloq bilan qurollantirishi zarur. Boshqacha aytganda, haqiqiy baxt-saodat jismonan sog'lom, aqlan yetuk va axloqan pok insonlargagina nasib etadi. Oila jamiyat va davlatning muhim ijtimoiy bo'g'ini bo'lib, unda insonning tabiati, dunyoqarashi hamda milliy axloqi shakllanadi va kamol topadi [3:142]. Shu sababli Fitrat oilaviy tarbiyani barkamol avlodni voyaga yetkazishning bosh omili sifatida baholaydi. Alloma badan tarbiyasi masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha, davolashdan ko'ra kasallikning oldini olish osonroqdir. Fitrat bu borada hadislar asosida xulosalar beradi: "Beshta narsani beshta narsadan oldin g'animat bil: o'limdan oldin tiriklikni, kasallikdan oldin sog'liqni, mashg'ullikdan oldin bo'sh vaqtni, keksalikdan oldin yoshlikni, faqirlikdan oldin boylikni"; "Sihat-salomatlik va ofiyatingizni so'rab ko'proq duo qiling"; "Olloh toyyib va pokdir. Karim va kechiruvchidir, pokizalik va karamni xush ko'radi. Bas, hovlilaringizni toza saqlang". Fitrat, shuningdek, tib ilmi ham insonlarni tozalikka chorlashini qayd etib, haftada muntazam cho'milishga odatlangan bolalar ulg'ayganda ham ozodaligi bilan alohida e'tibor qozonishini ta'kidlaydi. U ota-onalarni farzandlarning yuz-qo'lini sovunlab yuvish, tishlarini misvok qilish va kiyimlarini almashtirib turishga o'rgatish lozimligini alohida ta'kidlaydi [1:282].

Turkiston taraqqiyparvar-jadidlarning bosh g'oyasi sifatida o'lkani umumiy qoloqliq, tarqoqlikdan chiqarish borasida, avvalo ta'limning eskicha o'qitish tizimini yevropacha, ya'ni yangicha o'qitish tartibiga asoslangan usul va tizim bilan almashtirish orqali madaniy yuksalishga, taraqqiyotga erishish mumkin, degan masala ilgari surilgan. "Men ovrupa xalqining bu darajada taraqqiy va tolelarining birinchi va bosh sababini ko'p axtardim. Lekin ibtidoiy tarbiyalarining mukammalligidan boshqa sabab topa olmadim. Va, binobarin, islohotimizni maktab ibtidolarimizdan boshlamoq darkor deb hisoblayman" [7: 159], deya ta'kidlaydi "Islohnini nimadan boshlarg'a" nomli maqola muallifi. Turkiston o'lkasidagi quyi va yuqori ta'limda (maktab-madrasalar) amal qilinayotgan o'qitish tartibini zamon talablariga mos emasligini va turmushdan orqada ekanligini shunday izohlaydi: "Madrassa talabalariga tarixi milliyat va hisob o'qitmoq odati bizda o'lda-jo'lda yoki aslo yo'q. Jo'g'rofiya va riyozatga sayr qiluvchi darslarni, albatta, mudarrislarimiz o'qimaydilar, shogirdlariga o'qitmaydilar. Demak, bizning madrasa shogirdlarimiz nihoyatda past qadam bo'lib qolmoqdalar". Fitratning 1909-yilda Istanbulda "Munozara" ("Hindistonda bir farangi ila buxorolik bir mudarrisning bir necha masalalar hamda usuli jadida xususida qilg'on munozarasi") asari bosildi. Dramatik publitsistikaga moyil bu asar zamonning

zayli bilan tarixiy taraqqiyotning ikki pog'onasida turib qolgan, din va dunyo, jamiyat va ma'rifat haqida ikki xil ko'z qarashga ega bo'lgan ikki kishining bahsi asosiga qurilgan edi [8:75].

"Munozara"da yevropalik kishi bilimdon, ma'lumotli, donishmand, diniy, ta'limiy va ilmiy xarakterdagi ko'plab murakkab muammolarga tishi o'tadigan shaxs sifatida namoyon bo'ladi, biroq u islom va uning ta'lim tizimining chinakam dushmani. Buxorolik muallim yevropalik kishi bilan bo'lgan munozara jarayonida, nafaqat shaxsan o'zi uchun, balki mamlakati uchun ham ko'plab foydali va ibratli narsalarni bilib oladi. "Siz chindan ham bilimdon kishi ekansiz. Siz bizning Vatanimiz va xalqimizning barcha dardlarini yaxshi ilg'ay olibsiz va ulardan qutulish yo'llarini xayrixohlik bilan bayon etdingiz. Mohiyatan olganda ilm-fan bizning birinchi xaloskorimiz ekanligi, bizning xatomiz yangi maktablarning mavjud emasligi va zamonaviy fanlarning o'qitilmayotganligida ekanligi, biz ularni bartaraf qilishimiz lozimligi to'g'risidagi fikrlarga qarshi emasmiz. O'rtamizda bo'lib o'tgan munozaradan men katta qoniqish hosil qildim" [2: 5].

Ushbu asarda Buxoro voqeligini, tarbiya va ta'lim, jamiyat hayotida ilm-fan va dinning roli hamda ularning o'zaro munosabati, oilaviy va ijtimoiy turmushda ayollarning o'ri singari muammolarni yevropacha va markaziy osiyocha tushunish, his etish ochiq-oydin bayon etilgan. Jadidchilik harakati davrlarga bo'linganda – birinchi davr ma'rifatchilik davri, ikkinchi davr muxtoriyatchilik davri va uchinchi davr mustabid sovetlar davridagi jadidchilik faoliyatiga bo'linadi [9: 45].

Abdurauf Fitrat turkiy xalqlar tarixida Turkistonda jadidchilik harakatida yangi sahifani ochib bergan. Abdurauf Fitrat dunyoqarashida vatanparvarlik, millatparvarlik, ma'rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik kabi g'oyalar yetakchilik qilgan. O'lkani mustamlaka zulmidan ozod qilishni jadidlar hamma narsadan ustun qo'yan. Abdurauf Fitrat boshqa jadid ziyolilari qatori erk, istiqbolga erishish uchun kurashgan hamda bu borada ta'lim-tarbiyada va ma'rifatga tayangan. Shuningdek, Abdurauf Fitrat Turkiston o'lkasida axborot, so'z erkinligi va matbuot erkinligi, milliy uyg'onish va milliy ong yuksalishida katta rol o'ynagan. Xalqlarning ma'rifatparvarlik harakatlari va ularning xalq ma'naviy merosini, ma'naviyatini yuksaltirishdagi xizmatlari beqiyosdir. Abdurauf Fitratning ma'naviy-falsafiy merosi yoshlar tarbiyasida beqiyos o'rin tutadi. Uning qarashlarida vatanparvarlik, milliy uyg'onish va ma'rifatparvarlik g'oyalari uyg'unlashib, bugungi ta'lim jarayonida ham dolzarbligini yo'qotmagan. Fitratning asarlari yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat, erkin tafakkur va mas'uliyat hissi bilan tarbiyalashda boy manba bo'lib xizmat qiladi. Shu bois Fitrat merosidan samarali foydalanish – yosh avlodni barkamol inson sifatida shakllantirish, ularni millat va Vatan istiqboliga sodiq qilib tarbiyalashning muhim metodologik asoslaridan biridir.

Foydalangan adabiyotlar

1. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006.
2. Abdurauf Fitrat. Munozara. – Dushanbe: Donish, 1992.
3. Abdurauf Fitrat. Najot yo'li. – Toshkent: Sharq NMAK bosh tahririyati, 2001.
4. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. – Ma'naviyat, 2009.
5. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 4-jild. – Ma'naviyat, 2006.
6. Muhammad Payg'ambar qissasi. Hadislar. – Toshkent: Kamalak, 1991.
7. Mustafayeva N. Turkiston jadidlarining zamonaviy o'rta va oliy maktab, maorif masalasiga munosabati. / "Jadid ma'rifatparvarlarining milliy ta'lim, matbuot, adabiyot va san'atni rivojlantirishga qo'shgan hisssasi va uning milliy g'oya targ'ibotidagi ahamiyati" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent, 2016.
8. Qosimov B. Maslakdoshlar. – Toshkent: Sharq, 1994.
9. Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. – Toshkent: Sharq, 1998.

Maftuna MANNAPOVA,

Toshkent viloyati Qibray tumani 9-umumiy o'rta ta'lim maktabining ingliz tili fani o'qituvchisi

CLIL TEXNOLOGIYASIGA ASOSLANGAN O'QUV JARAYONINI LOYIHALASHNING DIDAKTIK TAMOYILLARI

Annotatsiya. Maqolada CLIL (Content and Language Integrated Learning) texnologiyasiga asoslangan o'quv jarayonini loyihalashning didaktik tamoyillari tahlil qilinadi. CLIL yondashuvi mazmun va tilni integratsiyalash orqali talabalarda kommunikativ, kognitiv va madaniyatlararo kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi, o'qitish jarayonining samaradorligini oshiradi, fan va til integratsiyasini ta'minlaydi hamda talabalarni global ta'lim muhitiga tayyorlaydi.

Kalit so'zlar: CLIL texnologiyasi, didaktik tamoyillar, integratsiyalashgan ta'lim, kommunikativ kompetensiya, madaniyatlararo muloqot, o'quv jarayoni loyihasi.

Annotation. The article analyzes the didactic principles of designing the learning process based on CLIL (Content and Language Integrated Learning) technology. The CLIL approach serves to develop students' communicative, cognitive, and intercultural competencies through the integration of content and language, increases the effectiveness of the educational process, ensures the integration of science and language, and prepares students for a global educational environment.

Keywords: CLIL technology, didactic principles, integrated learning, communicative competence, intercultural communication, learning process project.

Аннотация. В статье анализируются дидактические принципы проектирования учебного процесса на основе технологии CLIL (Content and Language Integrated Learning). Подход CLIL служит развитию коммуникативных, когнитивных и межкультурных компетенций у студентов путем интеграции содержания и языка, повышает эффективность учебного процесса, обеспечивает интеграцию науки и языка и готовит студентов к глобальной образовательной среде.

Ключевые слова: технология CLIL, дидактические принципы, интегрированное обучение, коммуникативная компетенция, межкультурная коммуникация, проектирование учебного процесса.

Zamonaviy ta'lim jarayonida tilni o'rganish va fan mazmunini o'zlashtirishga bir-biridan ajralmas jarayon sifatida qaralmoqda. Shuning uchun CLIL (Content and Language Integrated Learning) texnologiyasi – mazmun va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish – XXI asr ta'lim tizimida samarali model sifatida shakllanmoqda. Ushbu yondashuv orqali talabalar bir vaqtning o'zida xorijiy tilda fikr yuritishni, fanlararo bilimlarni muloqot jarayonida qo'llashni va global madaniyatni anglashni o'rganadilar. CLIL texnologiyasi talabalarining faolligi, kognitiv salohiyati va refleksiv fikrlashini rivojlantiradi, o'qituvchini esa an'anaviy bilim beruvchidan ko'ra, o'rganish jarayonini yo'naltiruvchi shaxsga aylantiradi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi CLIL texnologiyasi asosida o'quv jarayonini loyihalashda didaktik tamoyillarning ilmiy asoslarini aniqlash bilan belgilanadi. Chunki CLIL modeli nafaqat til o'qitish metodikasi, balki umumiy ta'limning konseptual tizimiga yangicha yondashuvni talab qiladi. Uning asosida fan

va til integratsiyasi, kommunikativ kompetensiyani shakllantirish, talabalarining bilish faoliyatini faollashtirish hamda madaniyatlararo tafakkurni rivojlantirish yotadi. Shu nuqtayi nazardan, CLIL asosidagi ta'lim dizaynini ishlab chiqish jarayonida o'quv maqsadlari, o'quv mazmuni, metodlar va baholash tizimi o'zaro uyg'unlikda tashkil etilishi zarur.

Tadqiqotning metodologik asosi D.Coyle, P.Mehisto va D.Marsh ishlab chiqqan "4C" modeli – content (mazmun), communication (muloqot), cognition (tafakkur) va culture (madaniyat) tamoyillariga tayanadi. Ushbu model ta'lim jarayonida til va mazmunning o'zaro aloqadorligini ta'minlaydi. Tadqiqot nazariy jihatdan CLIL yondashuvining didaktik asoslarini tahlil qilish, amaliy bosqichda esa o'quv jarayonida bu modelning samaradorligini aniqlashga qaratildi. Tajriba ishlari umumta'lim maktablarining yuqori sinflarida o'tkazilib, unda ingliz tili orqali biologiya va geografiya fanlarini o'qitish tajribasi o'rganildi. O'quv jarayoni loyihalashda interfaol metodlar, muammoli

o'qitish, guruhli muhokama, loyiha ishlari va refleksiv tahlil elementlari qo'llanildi. O'qitish jarayonining asosiy yo'nalishlari – bilimlarni o'zlashtirish, ularni kommunikativ vaziyatda qo'llash, tahlil qilish, xulosa chiqarish va natijalarni baholash bosqichlarini o'z ichiga oldi.

Tajriba ishlari umumta'lim maktablarining yuqori sinflarida o'tkazilib, ingliz tili orqali biologiya va geografiya fanlarini o'qitish tajribasi o'rganildi. O'quv jarayonini loyihalashda interfaol metodlar, muammoli o'qitish, guruhli muhokama, loyiha ishlari va refleksiv tahlil elementlaridan foydalanildi. O'qitish jarayonining asosiy bosqichlari bilimlarni o'zlashtirish, ularni kommunikativ vaziyatda qo'llash, tahlil qilish, xulosa chiqarish va natijalarni baholashdan iborat bo'ldi.

Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, CLIL texnologiyasi asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarining kognitiv faolligini sezilarli darajada oshirgan. Talabalar fanga oid terminologiyani ingliz tilida to'g'ri ishlatish, ilmiy fikrni mantiqiy asosda bayon etish, o'z fikrini aniq va ravon ifodalash ko'nikmalarini egalladilar. Ularning muloqot kompetensiyasi, tanqidiy fikrlash qobiliyati va madaniyatlararo muloqotdagi moslashuvchanlik darajasi nazorat guruhiga nisbatan yuqoriligi aniqlandi. Tilni tabiiy kontekstda o'rganish talabalarining qiziqishini oshirib, ularni dars jarayonida faol ishtirok etishga undadi. Talabalarining 87 foizi CLIL asosidagi mashg'ulotlar ularni darsda faolroq bo'lishga, yangi so'zlarni tezroq o'zlashtirishga va o'rganilgan materialni yaxshiroq eslab qolishga yordam berganini ta'kidladilar.

Shuningdek, CLIL texnologiyasining joriy etilishi o'qituvchilarning didaktik faoliyatini ham yangi bosqichga olib chiqdi. Darsni rejalashtirish jarayonida o'qituvchilar o'quv maqsadlarini ikki yo'nalishda – mazmuniy va til komponentlari asosida – aniqlashni, dars mazmunini fanlararo kontekstda ishlab chiqishni va har bir bosqichda kommunikativ faoliyatni markazga qo'yishni o'rgandilar. Bu esa o'qituvchi faoliyatini an'anaviy axborot berishdan ko'ra, talabalarining mustaqil fikrlashini va ijodiy faoliyatini rag'batlantiruvchi jarayonga aylantirdi.

CLIL texnologiyasi asosidagi o'qitish dizayni didaktik tamoyillar tizimiga tayanadi. **Integrativlik tamoyili** fan va til o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlaydi, bu orqali talaba mazmunni o'zlashtirish jarayonida tildan vosita sifatida foydalanadi. **Faollik tamoyili** talabani bilimni tayyor holda emas, balki izlanish, kuzatish va muloqot orqali kashf etuvchi subyektga aylantiradi. **Kommunikativlik tamoyili**

ta'limni tilni o'rganish emas, balki muloqot qilish orqali o'rganishga yo'naltiradi. **Madaniyatlararo kontekst tamoyili** talabalarda global tafakkur, tolerantlik va madaniy xilma-xillikka nisbatan hurmatni shakllantiradi. **Refleksivlik tamoyili** esa talabaning o'z o'quv faoliyatini tahlil qilish, natijalarni baholash va o'z strategiyasini takomillashtirish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, CLIL asosida o'qitish an'anaviy metodlardan farqli ravishda talabalarni faol fikrlashga undaydi. Ular bilimni yodlash emas, balki tahlil qilish, taqqoslash va yangi vaziyatlarda qo'llashni o'rganadilar. Til o'rganish jarayoni tabiiy kommunikativ muhitda kechganligi sababli, grammatik strukturalar o'z-o'zidan mustahkamlanadi. Bunday ta'lim dizayni talabalarda nafaqat til kompetensiyasini, balki ijtimoiy-madaniy, axloqiy va kognitiv kompetensiyalarni ham rivojlantiradi.

Tajriba-sinov ishlari natijasida CLIL asosidagi darslar talabalarining o'zaro hamkorlikda ishlash, jamoada fikr almashish, loyihalarni himoya qilish va ijodiy g'oya ishlab chiqish ko'nikmalarini rivojlantirgani kuzatildi. O'qituvchilarning fikricha, CLIL modeli darsni rejalashtirish jarayonida dastlab murakkab tuyulgan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan talabalarining o'zlashtirish ko'rsatkichlarini yaxshilagan. Shu sababli, CLIL texnologiyasiga asoslangan ta'lim tizimi o'qitish samaradorligini oshirish, til va fan integratsiyasini chuqurlashtirish hamda talabalarining mustaqil o'rganish salohiyatini kengaytirish imkonini beradi.

CLIL texnologiyasiga asoslangan o'quv jarayonini loyihalashda didaktik tamoyillarni to'g'ri aniqlash va tatbiq etish ta'lim sifatini oshirishning muhim shartidir. Ushbu yondashuv talabalarining nafaqat til kompetensiyasini, balki fikrlash, tahlil qilish, madaniyatlararo muloqot va hamkorlikdagi faoliyatini ham rivojlantiradi. CLIL modeli o'qitishning yangi paradigmasini shakllantirib, talabaning o'z bilimni faol yaratishga, o'qituvchining esa yo'naltiruvchi rolini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois, CLIL texnologiyasini umumta'lim tizimiga keng joriy etish, o'qituvchilarni bu yondashuvga tayyorlash, o'quv resurslarini moslashtirish va ikki tilda ishlab chiqilgan darsliklarni yaratish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. CLIL modeli zamonaviy ta'limda fan va tilni integratsiyalash orqali kompetensiyaga asoslangan, innovatsion va refleksiv o'quv muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Койл Д., Мехисто П., Марш Д. Интегрированное обучение предмету и языку (CLIL): Руководство для учителей. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – 247 с.
2. Marsh D. CLIL/EMILE: The European Dimension – Actions, Trends and Foresight Potential. – University of Jyväskylä, Finland, 2002. – 72 p.
3. Mehisto P., Frigols M. J., Marsh D. Uncovering CLIL: Content and Language Integrated Learning in Bilingual and Multilingual Education. – Oxford: Macmillan Education, 2008. – 285 p.
4. Coyle D. CLIL: Motivating Learners and Teachers. – The CLIL Teacher's Voice, 2006. Vol. 12. – P. 1–11.
5. Dalton-Puffer C. Outcomes and Processes in Content and Language Integrated Learning (CLIL): Current Research from Europe. In: Annual Review of Applied Linguistics. – Cambridge University Press, 2008. Vol. 27. – P. 182–204.